

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" o'quv qo'llanmasi 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yaratilgan. Qo'llanma talabalarni kitobxonlik, mutolaa madaniyati va ifodali o'qish san'atiga doir nazariy va amaliy jarayonlardan xabardor etish, sohaga oid bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirishga mo'ljallangan. Qo'llanmadan olyi o'quv yurtlarining filologiya mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrler, adabiyot o'qituvchilari hamda tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

OQILA TURAKULOVA - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.



www.lap-publishing.com



FOR AUTHORISE ONLY



OQILA TURAKULOVA

MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O'QISH

O'quv qo'llanma

OQILA TURAKULOVA

MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O'QISH

FOR AUTHOR USE ONLY

OQILA TURAKULLOVA

**MUTOLAA MADANIYATI VA
IFODALI O'QISH**

O'quv qo'llanma

FOR AUTHOR USE ONLY

Türkçe Özel Seri

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

LAP LAMBERT Academic Publishing

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L Publishing group
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-5-51141-1

Copyright © OQILA TURAKULOVA

Copyright © 2022 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L
Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

OQILA TURAKULLOVA

**MUTOLAA MADANIYATI
VA IFODALI O'QISH**

O'quv qo'llanma

60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili bakalavr
ta'lif yo'naliishi talabalari uchun

Toshkent – 2022

O.A. Turakulova. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. O‘quv qo‘llanma.

Mas’ul muharrir: S. Muhamedova,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: G.Asilova,
pedagogika fanlari doktori, professor

N.Jo‘rayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” o‘quv qo‘llanmasi 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan. Qo‘llanma talabalarni kitobxonlik, mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish san‘atiga doir nazariy va amaliy jarayonlardan xabardor etish, sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakasini takomillashtirishga mo‘ljallangan. Qo‘llanmadan oliv o‘quv yurtlarining filologiya mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, magistrlar, adabiyot o‘qituvchilari hamda tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Данный учебник разработан на основе предмета «Культура чтения и выразительное чтение» для студентов бакалавриата 60111600 – Узбекский язык в группах иностранных языков. Пособие направлено на информирование учащихся о теоретических и практических процессах, связанных с чтением, культурой чтения и искусством выразительного чтения, а также на совершенствование их знаний, навыков и компетенций в данной области, исходя из требований сегодняшнего дня. Пособие может быть использовано студентами вузов филологического профиля, магистрантами, преподавателями литературы, а также научными работниками, проводящими исследования в данной области.

This textbook is developed on the basis of the subject «Culture of reading and expressive reading» for undergraduate students 60111600 - Uzbek language in groups of foreign languages. The manual aims to inform students about the theoretical and practical processes related to reading, the culture of reading and the art of expressive reading, as well as to improve their knowledge, skills and competencies in this area, based on the requirements of today. The manual can be

used by students of philological universities, undergraduates, teachers of literature, as well as scientists conducting research in this area.

O‘quv qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil ___ - dagi ___ sonli ilmiy kengashida nashrga tavsiya qilingan.

FOR AUTHOR USE ONLY

S O‘Z B O S H I

“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fani talabalarga kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirishga, badiiy adabiyotga aksilogik munosabatni qaror toptirishda, badiiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishda, ifodali o‘qishga o‘rgatishda, millat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma’naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunishda, yangi janrlar, obrazlar va uslub poetikasiga xos o‘zgarishlarni belgilashda, o‘g‘zaki va yozma nutq me’yorlari borasida muayyan ko‘nikma hosil qilishda yordam beradi. Shuningdek, badiiy asar mohiyatini teran anglash, tahlil qilish, yozuvchi va shoirlarning g‘oyaviy-badiiy niyatini ilg‘ash, mumtoz asarlar matni ustida ishlash va ularni sharhlash uchun zarur bilimlarni o‘rgatadi.

Mazkur fanni o‘qitish orqali o‘zbek adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti, badiiy matn tahlili aspektida tushunadigan, og‘zaki va yozma nutqi ravon, aruz vaznidagi she’rlarni, badiiy matnni ifodali o‘qiy oladigan, nutq madaniyati ko‘nikmalarini egallagan malakali pedagog kadrlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

*“Kitoblarni o‘qish kifoya qilmaydi, ularni
dilqat bilan o‘qish, eslab qolish, asosiy
narsalarni yozib borish kerak.”*

Yan Amos Komenskiy

“MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O‘QISH”. FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI. IFODALI O‘QISH SAN’ATINING MATNNI TAHLIL QILISHDAGI O‘RNI.

Reja:

1. Mutolaa madaniyati fanining qadim ildizlari, manbalari va adabiyot materiallari.
2. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. Ifodali o‘qish san’atining matn tahlilidagi o‘rni.
3. Ifodali o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Mutolaa madaniyati, badiiy adabiyot, badiiy matn, ifodali o‘qish, matn tahlili, ifodali o‘qish — axloqiy-estetik tuyg‘ularni shakllantirish. Ilmi tajvid — o‘rta asrlarda adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatuvchi fan bo‘lgan. Ilmi kalom — jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi fan.

1. Mutolaa madaniyati fanining qadim ildizlari, manbalari va adabiyot materiallari

O‘rta Osyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar uzoq asrlar davomida dunyo fani va madaniyati taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sib kelgan. Sohaga oid ma’lumotlar madaniyatimiz tarixiga doir manbalarda o‘z aksini topgan.

Insoniyat tarixida dirlarning vujudga kelishida ham kitob asosiy vosita bo‘lganini ko‘rish mumkin. Xususan, Muso alayhissalom “Tavrot”, Iso alayhissalom “Injil” (“Bibliya”) hamda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “Qur’on” orqali kishilarga din asoslarini targ‘ib etgan. So‘nggi uch payg‘ambarga Alloh tomonidan muayyan kitoblarning nozil qilinishi moddiy ashyoning ma’naviy-ruhiy va intellektual imkoniyatlarini to‘la namoyon qiladi. Zero, og‘zaki bayon etilgan fikrlarni avloddan avlodga yetkazishda asl maqsad, g‘oya, qarashga ziyon yetishi mumkin: ba’zan shaklan, ba’zan mazmunan o‘zgaradi. Yozma manbalar

orqali esa har qanday fikr, g'oya, qarash o'zining asl qiyofasini, shaklini va mazmunini saqlab qoladi. Xatti-harakat, ijtimoiy axloqning tub negizi, kishilar uchun ma'naviy-axloqiy yo'riqnomalar bo'lgan diniy manbalar – "Injil", "Tavrot", "Qur'on"dagi g'oyalarning aslidek saqlanishi, o'zgartirilmasligi yagona tartib-qoidalar sifatida barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli ularning kitob holda mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalar, ayniqsa, qo'lyozma va bosma kitoblarining ko'payishi kutubxonalarining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida kutubxonalar juda qadim zamonlardan beri bor. Jumladan, O'rta Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda tashkil etila boshlagan. O'sha davrlarda ham yoshlarga ta'limgarbiya berish uchun shaxsiy kutubxonalarining ahamiyati katta edi. Markaziy Osiyoda ham kutubxonalar rivojlangan bo'lib, ular asosan xon saroylari va madrasalar tasarrufida bo'lgan. Hukmdorlar kutubxonalarining kitob fondini boyitish, xattotlar bilan ta'minlash uchun g'amxo'rlik qilgan. El orasida Aleksandriya (Iskandariya), Buxoro amirligi hamda Bog'doddagi kutubxonalar mashhur bo'lgan. Biroq XX asrga qadar kutubxona pedagogikasi rivojlanmagan.

Tarixiy manbalarda X asrning buyuk olimlaridan biri andalusiyalik Ibn Rushd umri davomida faqat ikki kun, ya'ni birinchisi uylangan va ikkinchisi otasi vafot etgan kechada kitob o'qimaganligi, tobe'in Urva ibn Zubayr roziyallohu anhu esa hayotida bir marta – qorason boshlangan oyog'i narkozsiz kesib tashlanganda hushdan ketib, kitob (Qur'on) o'qiy olmaganligi keltiriladi¹.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Abu Abdullo al-Xorazmiyning "Mafatix al-ulum", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq", Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyining "Qisasi Rabg'uziy", Xondamirning "Makorim ul-axloq", shuningdek, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' mutafakkirlar asarlarda uchraydi. Jumladan, O'rxun-Enisoy yodgorliklari turkiy qavmlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiylari va yetuk madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Uning ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos qimmatli manba ekani dunyoning yirik mutaxassislari tomonidan allaqachon e'tirof etilgan. Turkiy tilga oid yozma yodgorliklarning eng qadimgisi "Alp Er To'nga" dostonidagi ayrim parchalar xalqimiz tarixidan so'zlaydi. Ushbu doston xususida birinchilardan bo'lib tadqiqot olib borgan olim, professor Abdurauf Fitrat Alp Er To'ngaga bag'ishlangan 400 satrli marsiya, Alpning tang'uklar bilan olib borgan jangiga oid 32 satrli she'r, qish va yoz manzaralariga bag'ishlangan 86

¹Китоб ўқимаган халқ жоҳилликка маҳкум // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.

satrli sher’iy misralarni adabiy manbalarning eng qadimgi namunalari deb baholagan.²

Kitobni ulug’lash, bolalar o’rtasida ilm-ma’rifatni targ’ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko’rsatgan. Masalan, namanganlik ma’rifatparvar Ishoqxon Ibrat o‘z uyida “Kutubxonai Ishoqiya” degan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o’zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillaridagi adabiyotlar o‘rin olgan. Ishoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o‘qitgan o‘quvchilarga, balki qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yo‘nalishiga ko‘ra bir necha bo‘limlarga ajratilgan. Xususan, maktab o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘limdan Saidrasul Saidazovning “Ustodi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, Rustambek Yusufbek hoji o‘g‘lining “Rahbari hisob” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalari o‘rin olgan. Ishoqxon Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyitib borilgan. Ma’rifatparvar bobomiz tomonidan kutubxona faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, kitobxonlar tomonidan kitoblarning olinishi va topshirilishi qayd etiladigan daftarlarning yuritilishi, shuningdek, o‘quvchilarning kitob mutolaa qilishlari, o‘qishlari shaxsan nazorat qilib borilgan.³

Turkiy uluslar qatori biz — o‘zbeklarning turli davrlarda har xil yozuvlarda muhrlanib qolgan boy yozma yodgorliklarimiz bor. Bebaho tarixiy, diniy, ilmiy, adabiy asarlar yozib qoldirgan ajodolarimiz bilan faxrlansak arziyi. Azaldan xalqimizda adabiy-badiiy did yuksak bo‘lgan: ular turkiy, forsiy, arabiyl tildagi asarlar birday o‘qiyvergan, hadixonlik, yassaviyxonlik, sa’diyxonlik, bedilxonlik, navoiyxonlik keng urf bo‘lgan, so‘z san’atiga shaydolik tufayli bo‘lsa kerak, odamlar hatto bozorda oldi-sotdini ham she’reiy tilda vazn va qofiyaga solib ado etishgan.

2. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. Ifodali o‘qish san’atining matn tahvilidagi o‘rni

Mutolaa madaniyati tushunchasi keng ma’no ega bo‘lib, kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalanishni bilishdan boshlab ijodiy o‘qish, kitob muallifiga oshno bo‘lish, asarni chuqur tahlil qilishgacha bo‘lgan yo‘ldan iborat. Biror asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma’lum tayyorgarlik va saviya talab etiladi, albatta.

Mutolaa madaniyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Eng avvalo, insonda kitob o‘qish madaniyati shakllanganishi zarur. Alisher Navoiy nomidagi

² Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunalari. – Toshkent-Samarqand, 1927

³ Ибрат. Ажзий. Сўфизода. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 38 б.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan 2007 yilda nashr etilgan “Bebaho xazina” nomli metodik-bibliografik qo‘llanma orqali kitob o‘qish madaniyati haqida tushunchaga ega bo‘lish mumkin. Mazkur qo‘llanmada kitob o‘qish madaniyati taxminan quyidagilarni o‘z ichiga olishi ko‘rsatib o‘tilgan:

1. Kitob tanlash.
2. Kitobni qanday o‘qishni bilish.
3. Kitob o‘qiganda nimaga e’tibor berish va nimani eslab qolish.
4. Muhim ma’lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalar orqali topish.
5. Ega bo‘lgan bilim yo xabarni qanday yetkazib berish.
6. Qayta o‘qish orqali kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish.
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlashni bilish.
8. Kitobni tez va sekin o‘qishni farqlay olish.
9. Kitobni o‘qib, uning fusunkor olamiga kira bilish.
10. Kitobni mustaqil o‘qiy bilish.

“Mutolaa” arabcha so‘z bo‘lib “o‘qish”, “o‘rganish” degan ma’nolarni anglatadi. Bugun mutolaa kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchaga ega. Olim A.Umarov mutolaani qo‘yidagicha ta’riflaydi: “Ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiyligi ma’lumot olishga yunaltilirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizinflarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalardir⁴. Shuningdek, olim mutolaa darajasining bosqichlarini ham ko‘rsatib bergen:

- birinchi darajada o‘quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeanning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi;
- ikkinchi darajada o‘quvchi matnning mazmunini va syujetni anglab, voqealar rivojini bashorat qila boshlaydi.
- uchinchi darajada o‘quvchi matnga va hikoya qilinayotgan voqeaga mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi hamda asar epizodlarini tahlil qiladi.
- to‘rtinchi darajada o‘quvchi matning mazmunini to‘la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Voqe qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, o‘z munosabatini shakllantiradi.

Nemis yozuvchisi va mutafakkiri Yoxan Wolfgang Gyote mutolaa haqida shunday fikr bildirgan edi:

- a) niroyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt, sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi);

⁴ Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараккиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц.ф.д...диссертация автореферати. – Т., 2005. – 56 б. – Б.33.

b) beqiyos sharaflı (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqr anglagan, bilimi kengayib, dunyoqarashi o'sgan, ma'naviy yuksalgan);

v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasil shug'ullanmagan bo'lardi).⁵

Badiiy adabiyotning tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, ifodali o'qish ham shu qadar uzoq zamonalarda paydo bo'lgan. Mazmunli va ifodali nutq hamma davrlarda kishilarni o'ziga jalb etib, ijtimoiy hayotda alohida o'rinn egallagan. Ifodali o'qish, avvalo, xalq san'atidir. Chunki badiiy adabiyot dastavval xalq og'zaki ijodi shaklida bo'lgan. Xalq yaratgan asarlarining keng tarqalishida og'zaki ijrochilik san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shiq, ertak, doston, qissa kabi og'zaki adabiyot namunalarini yaratgan xalq namoyandasini (ertakchi, qissaxon, baxshi) bir paytning o'zida ham ijodkor, ham ijrochi bo'lishgan. Asrlar davomida yaratilgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo'shiq va dostonlar ifodali nutq san'ati tufayli hozirgi davrga qadar etib kelgan. Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san'atkorlik mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, ularning og'zaki ijrochiligi ham shu qadar mahoratni talab qilgan. Qadim tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, inson qalbidagi g'am-anduh, shodlik va quvonch tuyg'ularining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan barcha adabiyot namunalarini xalq san'atkorlari (qo'shiqchi, roviy, qissaxon, baxshi) tomonidan jo'n, badiiy tasvir vositalarisiz, xilma-xil ovoz tovlanishlarisiz bir tarzda ijob etganida, ehtimol, bu asarlar uzoq saqlanib qolmagan bo'lur edi.

Ifodali o'qish san'ati og'zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham birday muhim o'rinn tutadi. Zero, badiiy adabiyotning estetik ta'siri ifodali o'qishda yorqinroq namoyon bo'ladi. Ifodali o'qish, ayniqsa, asarning g'oyaviy mazmunini teran tushunishda, badiiy xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarini ifodali o'qish inson ongi va hissiyotiga ta'sir etib, axloqiy-estetik tuyg'ularini shakllantirishga, ma'naviy olamini boyitishga hizmat qiladi. To'g'ri, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal yaratilgan har qanday asar og'zaki ifodali nutqisiz o'qilganda ham o'zining ta'sir kuchini yo'qotmaydi. Lekin ifodali o'qishdagi maftunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya badiiy asarning emotsiyonal ta'sirini oshiradi, eshituvchiga zavq-shavq beradi. So'z san'ati bilan shug'ullanuvchilar, ayniqsa, inson ta'lim-tarbiyasiga mas'ul muallimlar notiqlik san'atini, ifodali nutq mahoratini puxta egallagan bo'lishlari zarur. Holbuki, o'qituvchining butun siyomasi — xatti-harakatlardan tortib, gapirish uslubigacha yosh va tajribasiz, taqlidchan o'quvchi uchun jonli namuna hisoblanadi. Shunday ekan,

⁵ Йоханн Петер Эккерман. Г'ёте билан гурунглар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2012. – №12. – Б.68-93.

“O‘z fikrini ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda etmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”⁶.

“...Kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmalar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur”⁷ – deb yozadi Kaykovus. Chindan har bir kishining kim ekaniga, uning bilim darajasiga so‘ziga qarab baho berish mumkin. Donishmandlar aytganiday, inson so‘zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi. Shu bois, yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida muallimning ravon va ifodali nutqi, go‘zal axloqi ibrat bo‘ladi. Ajdodlarimiz so‘z san’atining, ayniqsa, og‘aki ijrochilikning inson ruhiga ko‘rsatadigan ta’siriga qadim zamonlardan boshlab katta e’tibor qaratgan. XI asrdayoq adabiy talaffuz normalarini o‘rgatuvchi “**ilmi tajvid**”, jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi “**ilmi kalom**”, ilmiy va adabiy bahsni o‘rgatuvchi “**ilmi munozara**” kabi fanlar o‘qitilan. Mazkur bilimlarni egallagan kishi ifodali o‘qish asoslarini egallagan so‘z ustasi bo‘lib yetishgan. O‘tmishda badiiy so‘z ijrochiligining dostonxonlik, qissaxonlik, g‘azalxonlik kabi turlari keng tarqalgan. She’rxonliklarda so‘z san’atining yuksak namunalari og‘zaki ijro — ifodali o‘qish orqali chuqur tahlil qilingan. Ifodali gapirish yoki ifodali o‘qish shunchaki o‘z-o‘zidan shakllanib qoladigan jarayon emas. Avvalo, insonning o‘zida tug‘ma iqtidor, qobiliyat bo‘lishi lozim. Afsuski, hamma ham ifodali nutq so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lavermaydi. Shunga qaramay har kim o‘z nutqi ustida muntazam ishlashi, mashq qilishi natijasida qobiliyatini shakllantirishi mumkin. Mashhur notiq Demosfenning hayot yo‘li va faoliyati bunga bir misol. Hatto ba‘zi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qiynaladigan, ko‘pchilik oldida o‘zini erkin tutmaydigan Demosfen mehnat va mashaqqatlar ortidan buyuk notiq bo‘lib yetishgan. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov “O‘qituvchi nutqi madaniyati” kitobida yozganiday, “tilda ifodalilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko‘p va xilmoxil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha sathlarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiatи va ularni unumli ishga solish usullaridan yetarli xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta‘minlashga qiyalmaydi”⁸.

Ifodali nutq vositalarini puxta o‘zlashtirish, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali ifodali o‘qishda ma’lum natijalarga erishish mumkin. Xo‘s, ifodali nutqni o‘rganish uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Ifodali o‘qish o‘zi nima? Sodda qilib aytganda, “**ifodali o‘qish adabiy asarni**

⁶ A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. -Toshkent: 1997.9-bet.

⁷ Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: O‘qituvchi, 1986. 45-bet.

⁸ Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, 164-bet.

tushunarli va ta'sirchan o'qish demakdir. Bu san'at yod olingen matnni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishda fikrlarni silliq, aniq, go'zal shaklda talqin etish uchun emotsiyal vositalardan foydalaniladi. Ifodali o'qishning badiiy emotsiyal bo'lishi uchun o'quvchi —ijrochi asar mazmuni, g'oyaviy, badiiy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim⁹.

3. Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari

Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg'u va kayfiyatlar hosil qiladi, aniqrog'i, voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi. Adabiyot hayotni in'ikosi o'laroq insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ko'zgu vazifasini ham bajaradi. Ko'zgu orqali har bir kishi o'zining yaxshi va yomon tomonlarini, qusur va kamchiliklarini ko'rib ruhan tozarishga intiladi. Ruhan tozarish faylasuf Aristotel talqiniga ko'ra, san'atning o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadidir. San'at, xususan, adabiyot insonni ziddiyatlar asosida qurilgan hayotning nima ekanini anglashga o'rgatadi, yovuzlikka nafrat, ezgulikka muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi va, shu tariqa, odam ma'naviy olamini go'zallashtiradi. Bu vazifalarni ado etishda ifodali o'qish san'ati badiiy adabiyotning eng yaqin ko'makchisi hisoblanadi. Zero, badiiy asardagi nafosat va go'zallikni chuqur his qilish va axloqiy-estetik tuyg'ularni shakllantirish ifodali o'qish fanining asosiy vazifasidir. Adabiyotning barcha turi va janrlaridagi badiiy asarlar ifodali o'qish fanining o'rganish ob'yekti bo'lib xizmat qiladi. Ifodali o'qish deganda, faqat lirik emas, balki nasriy va dramatik asarlarni o'qish ham nazarda tutiladi. Badiiy asarlarni ifodali o'qish ijrochidan alohida iqtidor va mahoratni talab qiladi. Adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda ilgari surilgan g'oyalar, muallif dunyoqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qish kishining his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon. Badiiy adabiyot insonning ehtiros va tuyg'ular olamiga ta'sir qilib, uni yig'latadi, kuldiradi, o'yantiradi va oxir-oqibat kamolotga yetaklaydi. Shuning uchun ham badiiy adabiyot bilan og'zaki ijro - ifodali o'qish san'ati asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan.

Ifodali o'qish asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunish va badiiy xususiyatlarini ochishda ahamiyati katta. Barcha janrdagi asarlar bir xil o'qilmaganidek, hamma birday ifodali o'qish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, oliv o'quv yurtlarining ko'pchilik talabalari uzoq vaqt o'zi yashagan hududning shevasi ta'sirida bo'ladi. Sheva ta'sirida «ifodali» o'qilgan asar mazmuniga esa putur etadi, badiiy-estetik ta'sirchanligi susayadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini shevalar ta'siridan qutqarish, ularni ifodali o'qishga o'rgatish tarbiyaviy

⁹ S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. 58-bet.

jihatdan muhim. Bu asar mazmunini puxta o‘zlashtirishga, uning badiiy mohiyatini ochishga yordam beradi. Ifodali o‘qishning asosiy vazifalari tinglovchiga asarning g‘oyaviy mazmuni, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazishdir. Aniqrog‘i, ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli va ta’sirchan o‘qish demakdir.

Ifodali o‘qish insonda tuyg‘u va kayfiyatlar hosil qiladi. Veqelikning histuyg‘uli qiyofasini yaratadi. Ifodali o‘qishda asar voqealarini **“jonlanadi”**, qahramonlar **“tilga kiradi”**. O‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham muallif, ham qiyofa (obraz) yaratuvchi, ham ijrochi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ifodali o‘quvchi ma’lum darajada aktyorlik san’atidan ham xabardor bo‘lishi lozim. Ifodali nutq san’atini o‘rganishning muhim vositalardan yana biri badiiy asarlarni ko‘proq mutolaa qilishdir. Asarning mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter xususiyati, maqsad va intilishlari chuqur o‘rganilganda og‘zaki talqinda asar ruhiga mos ohang va intonatsiya paydo bo‘ladi. Badiiy asarlarni mutolaa qilish o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish barobarida adabiy tilni puxta o‘zlashtirishga, ifodali o‘qish san’atini egallahsga yordam beradi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Mutolaa madaniyati fanining qadim ildizlari haqida.
2. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qishning farqli jihatlari qanday?
3. Mutolaa madaniyati bilan ifodali o‘qishning o‘zaro mushtarak yashash qonuniyatini tushuntiring
4. Markaziy Osiyoda qanday kutubxonalar bo‘lgan?
5. Ifodali o‘qish san’atini o‘rganishdan asosiy maqsad nima?
6. Ifodali o‘qish tinlovchi oldiga qanday asosiy vazifalarni qo‘yadi?
7. Ifodali o‘qish san’atining paydo bo‘lishida roviy, qissaxon, baxshilar qanday rol o‘ynagan?
8. Kaykovusning “...kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur” degan fikrini qanday izohlaysiz?
9. XI asrlarda adabiy talaffuz normalarini o‘rgatuvchi “ ilmi tajvid” jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi “ilmi kalom”, ilmiy va adabiy bahsni o‘rgatuvchi “ilmi munozara” kabi fanlar haqida fikr bildiring.
10. Badiiy asar mutolaasiga qanday talablar qo‘yiladi?

ADABIYOTLAR:

1. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qaror.//Xalq so‘zi, 2017 yil 13 sentabr.
- 2.Ибрат. Ажзий. Сўфизода. – Т.: Шарқ, 1999. – 38 б.
3. Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta’minalash va komil inson shaxsiini shakllantirishda mutolaaning roli. Sots.f.d.... dissertatsiya avtoreferati. – Т., 2005. – 56 b. – B.33.
4. Z.Masharipova. Ifodali o‘qish praktikumi. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 yil.
5. Turakulova O.A. Adabiy ta’lim jarayonida akademik litsey o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. – Toshkent.: diss, 2020.
6. Jumayeva S. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. O‘quv qo‘llanma-Qarshi.: 2021.
7. Kitob o‘qimagan xalq johilikka mahkum // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.

QADIMGI YUNON VA RIM MIFOLOGIYASI. ULARNING IJTIMOIY-BADIY TAFAKKUR TARIXIDA TUTGAN O‘RNI.

Reja:

- 1.Qadimgi Yunon va Rim mifologiyasi
- 2.Yunonistonda notiqlik san’ati taraqqiyoti va uning sabablari
3. Notiqlik san’ati va Aristotel ijodi
4. Mark Tulliy Sitseron — mashhur notiq va nazariyotchi olim
5. Demosfen — beqiyos notiq, otashin vatanparvar

Tayanch so‘z va iboralar: notiqlik san’ati tarixi, Yunon notiqligi, Rim notiqligi, Protagor, Prodik, Gippiy va Gorgiy, Demosfen, Suqrot, Katon

1.Qadimgi Yunon va Rim mifologiyasi

Rim mifologiyasining rivojlanish bosqichlari haqida bir qancha fikrlar mayjud. Ayrim tarixchilar ruhoniyarning «Indigitaments» kitoblarini asos qilib olishadi. Ular bizga shaxsiy bo‘lmagan zararli yoki foydali kuchlar — alohida

narsalarga, tirik mayjudotlarga, harakatlarga xos bo‘lgan numina (numina) haqida hikoya qiladi. Dastlab, xudolar ramzlar shaklida taqdim etilgan: Mars - nayza, Vesta - olov. Tarix fanida «Antik dunyo iborasi, odatda, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim, shuningdek, ellistik davlatlar tarixiga nisbatan ishlataladi. Antik sivilizatsiya o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga miloddan avvalgi I ming yillikda — yangi era I ming yilligning boshlarida erishgan edi. Sivilizatsiyaning ilk o‘choqlari va dastlabki shahar-davlatlar O‘rta yer dengizi bo‘g‘ozida miloddan avvalgi III-II ming yilliklardo yoq Sharq dunyosining ta’siri ostida tashkil topgan. Qadimgi Yunonistonda davlatning tashkil topishi qabilalarning ko‘chib o‘tishi va aralashuvi munosabati bilan to‘lqinsimon, uzilib-uzilib sodir bo‘lgan. Masalan, Yunonistonga miloddan avvalgi XII asrda shimoldan doriy qabilalarining bostirib kirishi davlat tashkil topishidagi butun bir tabiiy jarayonni orqaga uloqtirib tashlagan. Doriylar istilosidan so‘ngra «qorong‘i asrlar» (miloddan avvalgi XII asr - VIII asrning bиринчи ярми), keyin arxaik davr ellinlarni yana qabilaviy davlatchilikka va shahar-davlatchiligidagi qaytargan.

Yunonistonda davlatning kelib chiqishida ichki va tashqi omillar o‘zaro qo‘silib ketganini ko‘rish mumkin. Antik dunyoda davlatchilik tashkil topishi ko‘p jihatdan tabiiy-geografik omillarga bog‘liq bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra, Qadimgi Rim miloddan avvalgi 754-yilda bir necha qishloqlardan iborat edi. Milloddan avvalgi III asr o‘rtalarida Rim butun Apennin yarim orolini o‘ziga bo‘ysundirgan. U keyinchalik Yevropaning g‘arbiy va janubiy-sharqiy qismi, Kichik Osiyo, Shimoliy Afrika sohillari, Suriya va Falastinni o‘z ichiga olgan davlatga aylangan.

Qadimgi Rim madaniyati dunyo madaniyatining ajralmas qismi. Jahan madaniyatini esa Qadimgi Rim madaniyatisiz tasavvur etish qiyin. Antik davr Rim madaniyatining vujudga kelishi va shakllanishi, yuksak darajaga ko‘tarilishiga o‘zidan oldin rivojlangan ikki tarixiy-madaniy jarayonlarning roli o‘ta muhim bo‘lgan.

Qadimgi Rimda bolalar oilada tarbiya topgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib ibridoym muktablar yuzaga kela boshlagan. Bolalar muktabga 7 yoshdan qabul qilinib, 4-5 yil o‘qitilgan. Uyda va muktabda lotin, yunon tillari, yozish, o‘qish, hisob o‘rgatilgan. Bolalar dastlab xonardonlarda o‘qituvchi yollab o‘qitilgan, keyinchalik muktablarda ta’lim berishning yangi tizimi shakllangan. Imperator Mark Avreliy davrida Afinada Oliy muktablar tashkil etilgan. Bu muktablar keyinchalik Rimning g‘arbiy viloyatlarida ham vujudga kelgan. Respublika davrida ta’lim shaxsiy tarzda olib borilgan, davlat aralashmagan, ammo imperiya davrida nazorat ostiga olingan. O‘qituvchilar davlat xizmatchilari bo‘lib, maosh oladigan bo‘lgan. 362-yildan boshlab o‘qituvchilarni imperator tasdiqlagan. Rim shahar-davlat (polis) dan yirik O‘rta dengiz davlatiga aylangach, murakkab

taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Afina, Iskandariya, Pergam va boshqa yunon ilmiy va madaniy markazlari ham shu davlat tarkibiga kirib, yunon ellinizm davri madaniyatlarini ta'sirida boyigan.

Qadimgi Rim madaniyatida din va mifologiya alohida o'rin tutadi. Bu yerda ko'plab xudolarga e'tiqod qilish an'ana bo'lган. Kishilar turli narsalarning masalan, buloq, o'rmon, daraxt, joylarning va ekinlarning ilohiy homisi — ma'budasi mavjud, deb ishonganlar. Qadimgi Rim madaniyatining rivojlanishi teatr san'ati taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Teatr san'atining paydo bo'lishi esa ommaviy bayramlar, xususan, hosil bayrami bilan bog'liqdir. Miloddan avvalgi 300-yillarda xalq hajviy tomoshalari bo'lган atellanalar ko'pincha 4 personajdan iborat bo'lган. Bunday tomoshalar avval niqob kiyib olgan yoshlar, keyinchalik professional artistlar tomonidan ijro etilgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda quyi tabaqalarga mansub Rim fuqarolarining hayoti aks ettirilgan tomoshalar ko'rsatila boshlandi. Eng dastlabki tosh teatr binosi miloddan avvalgi 55-52-yillarda qurildi. Artistlar ozod qilingan kishilar va qullardan iborat bo'lib, ular truppalarga uyushganlar, erkaklar ayol rollarini ham ijro etgan.

Xulosa qilib aytish lozimki, Qadimgi Rim madaniyati antik davr madaniyatining bir qismi hisoblanib, keyingi davr Yevropa xalqlari madaniy hayotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Rim davlatining kuchayishi va ko'plab hududlarni istilo qilishi, eng avvalo, lotin tili va Italiya xalqlari urfdotlarining keng tarqalishiga olib kelgan. Ikkinchidan, Rim imperiyasi tarkibiga kirgan ko'plab shaharlarda Rim me'morchiligi asosida mahobatli ibodatxonalar, teatrlar, saroylar, amfiteatrlar, sirklar qurila boshlandi. Uchinchidan, lotin tilining keng ko'lamda yoyilishi natijasida italyan, fransuz, rumiy va zamonaviy tillar yanada boyib borgan. Umuman, qadimgi Rim madaniyati jahon sivilizatsiyasining muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi va jahon madaniyatiga ta'siri hozirga qadar salmoqlidir.

2. Yunonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti va uning sabablari

Antik davrlarda yunonlar chuqur fikrlash va chiroqli gapirish ilmini hikmat va donishmandlik deb atagan. Notiqlik san'atining buyuk namoyandasasi Sitseronning ma'lumotlariga qaraganda, Suqroti hakim zamonlarigacha falsafa va notiqlik yagona ilm sifatida mavjud bo'lган. Suqrot o'z mulohazalari bilan nutqning yagona ilmini ikkiga ajratib qo'yganidan so'nra fikr ayri, nutq ayri o'qitila boshlangan. Natijada mukammal, go'zal nutq so'zlashga o'rgatuvchi maxsus ritorika ilmi vujudga kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ritorikaning asl vatani Sitsiliya oroli bo'lib, u yerda demokratik tartiblar o'rnatilgach, eramizdan oldingi V asring o'rtalarida notiqlik faoliyatining rivoji uchun keng yo'l ochiladi. Mashhur

ritor Gorgiy (taxminan 483-376 yillar) 427- yilda o‘z shahri Leontina uchun harbiy yordam so‘rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida gapirgan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Oradan ko‘p o‘tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko‘chib kelib, shu yerda ritorika maktabini ochadi va o‘z shogirdlariga chirolyi so‘zlash san’atini o‘rgata boshladi. Gorgiyning fikricha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, maftun etish va o‘ziga rom qilishdan iboratdir. Gorgiy, asosan, mifologik mavzularda tantanali nutq so‘zlagan, uning nomi ostida bizga qadar “Yelena” va “Palimed” sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan.

Notiqlik san’atiga ehtiyoj Afinada, ayniqsa, juda kuchli edi. Chunki Yunonistonda demokratiya tuzumi qaror topgach, respublikaning har bir ozod kishisi xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlarida erkin nutq so‘zlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Afina davlatidagi sud tartiblari ham notiqlik san’atining keng rivoj topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tartiblarga ko‘ra, sudga ishi tushgan har bir kishi shaxsan sud majlisiga kelib, da‘volarini bayon etishi yoki o‘zini himoya qilishi lozim edi. Lekin hamma ham voqeа tafsilotlarini mantiqan asoslab, chirolyi gapirish iqtidoriga ega bo‘lavermaydi. Natijada hozirgi advokatlarga o‘xshash, qadimgi yunon tilida “logograflar” deb ataluvchi maxsus kasb egalari paydo bo‘ldi. Bilmidon, so‘zga chechan notiqlarning ko‘pchiligi “logografiq” bilan ham shug‘ullanib sudlashuvchilarga maxsus nutq matnlarini yozib bergenlar. Logograflar haqida fikr yuritilganda manbalarda Lisiy nomi qayta-qayta tilga olinadi.

Asli sitsiliyalik bo‘lgan mashhur so‘z ustasi Lisiy Afinada yashagan (459 – 380 yillar). O‘z faoliyatini logograflik kasbiga bag‘ishlagan bu zot, asosan, sud nutqlarini ijod etgan. U har bir nutqni yozishga kirisharkan, avvalo, bu nutqni buyurtma bergen kishining tabiatiga, ijtimoiy mavqeiga qanchalik monand kelish-kelmasligiga katta e’tibor bergen. Masalan, qishloqdan kelgan oddiy bir dehqon yoki o‘rtamiyona shahar odami hech qachon kitobiy iboralar ishlatib, murakkab qonunning kerakli boblaridan dalil keltirib, hashamatli nutq so‘zlamaydi. Agar shunday yo‘l tutsa, uning gaplarining soxtaligi bilinib qoladi. Lisiy san’atkorligining asosiy siri shundaki, u nutq matnimi yozishda o‘z oldiga faqat bir maqsadni qo‘yadi; so‘zlayotgan kishi haqida sud hay’ati dildida yaxshi taassurot qoldirish, har bir gap yurakdan chiqayotgan, samimiyl gaplar ekaniga ishontirishdir. Lisiy yozgan nutqlarning hech birida so‘zlovchining tabiatiga mos kelmaydigan dabdabali, serhasham iboralar uchramadi. Lisiy nutq uslubining aniq va ravshanligi, tilining sodda va ravonligi, har bir odamni o‘z tilida gapirtira olish mahorati yunon tarixida o‘tgani logograflarning eng mashhurlari qatoriga qo‘shdi. Shu tariqa notiqlik san’ati rivojlanib, uning siyosiy notiqlik, sud notiqligi, epidektik notiqlik kabi turlari paydo bo‘ldi. Epidektik notiqlar ulug‘ zotlarni va

mashhur voqealarni madh etib, tantanali yig‘inlarda nutq so‘zlagan. Notiqlik san’atining rivojlanishi, adabiy tilning, badiiy adabiyotning ravnaqida katta rol o‘ynadi, shuningdek, “Ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Yunoniston va Rimdagi notiqlik san’ati taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan mashhur so‘z ustalarining har biri o‘z nutq uslubi bilan alohida ajralib turgan. Notiqlar qancha bo‘lsa, uning turlari ham shuncha xilma-xil bolgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qadimgi davrda mashhur bo‘lgan notiqlarning aksariyati buyuk donishmandlar Platon va Aristotel mакtabida ta’lim olgan faylasuflar ham edi.

3. Notiqlik san’ati va Aristotel ijodi

Qadimgi yunon san’ati va falsafasining yuksak cho‘qqisini Aristotel (miloddan avvalgi 384 - 322 yillar) ijodi tashkil etadi. Uning “Poetika”, “Ritorika” kabi asarlaridagi adabiyot va san’at bilan bog‘liq qimmatli fikr-mulohazalari hanuzgacha ilm olamida dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Aristotel go‘zallik falsafasini o‘z tadqiqotlari markaziga qo‘yadi. U go‘zallikni tartib, mutanosiblik va aniqlikda ko‘radi. Uning talqiniga ko‘ra, go‘zal san’at asarlari inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig‘ etadi. Natijada inson, bir tomonidan taqdir ko‘rguliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan baxtsizlik girdobiga tushganlarga hamdardlik hissini tuyadi. Ya’ni san’at insonni olijanob qilish xususiyatiga ega.

Qadimgi dunyo ilm-fani, falsafiy qarashlarining buyuk donishmandi Aristotel miloddan avvalgi 384-yilda Makedoniyaning Stagira shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy tabibi bo‘lgan. Aristotel 17 yoshidan 37 yoshigacha faylasuf Platon akademiyasida tahsil oladi. 342-yilda podshoh Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib, Aleksandrqa murabbiylit qila boshlaydi. Aleksandr Makedonskiy hukmronlik taxtiga o‘tirgach, o‘z ustozи va do‘stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday so‘zlar bitilgan edi: “Aleksandr ushbu yodgorlikni Nikomaxning o‘g‘li, buyuk donishmand va avliyo Aristotel xotirasiga o‘rnatdi”. Aristotel Aleksandr taxtga chiqqach, yana Afinaga qaytib u yerda “Litsey” nomi bilan shuhrat qozongan falsafa mакtabini ochadi va katta kutubxona tashkil etadi. Shu davrda Yunonistonda chiroyli so‘zlashga qiziqish kuchayib ketgan, natijada qator notiqlik maktablari ochilgan edi. Keyinchalik mazmundor va ta’sirchan so‘zlash haqida maxsus qo‘llanmalar maydonga keladi. Shunday asarlardan biri Aristotelning “Ritorika” nomli kitobidir. Buyuk olim uni miloddan avvalgi 330 yillarda yozgan. Aristotelning ushbu asarigacha ham Anaksimen, Lampsak kabi faylasuflar “Ritorika” nomli qo‘llanmalar yaratgan edi. Aristotelning “Ritorika”si notiqlik san’atining nazariy asoslarini yanada boyitdi. “Ritorika” uch kitobdan tashkil topgan bo‘lib, asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroyli so‘zlash,

ishontirish usullari haqidagi fikr-mulohazalardan iborat. Uchinchi kitobda esa jumlalardagi izchillik va nutq mantiqiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli "qorishmalar", ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffiiz qilinishi, jumlalarning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Aristotel har bir jumla asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi lozimligini, tinglovchi tushunadigan darajada sodda va ravon bo'lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so'zlashi fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, Aristotel notiqning auditoriyani o'ziga jalg etishi uchun turli hazil-mutoyiba bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantirishi zarurligi, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, har xil sifatlash, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa nutqning ta'sirchanligi yanada oshishini uqtirib o'tadi. Aristotel notiqlik san'atini egallash uchun quyida keltirilgan vazifalarni mukammal bajarishni tavsiya etadi:

Nutq matnini kashf qilish;

Og'zaki ijro qilinadigan nutq matnini har tomondan chuqur o'rganib chiqish;

Nutq matnini mantiqan va mazmunan to'g'ri rejalahtirish;

Matnni to'liq eslab qolish;

Matnni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish;

Nutqda so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish;

Notiqlik san'atining buyuk namoyandası Mark Tullyi Sitseron ham ushbu qoidalarga alohida e'tibor beradi va o'z asarlarida Aristotel qarashlarini yanada rivojlantiradi: "Notiqning barcha kuch va qobiliyati ushbu vazifalarning bajarishga xizmat qiladi; birinchidan, o'z nutqi uchun mazmun topishi zarur; ikkinchidan, topilgan ma'lumotlarni tartib bilan joylashtirish; uchinchidan, bularning hammasini so'z bilan o'rashi va bezashi kerak; to'rtinchidan, nutqni xotirada mustahkamlab qo'yish; beshinchidan, uni munosib ravishda va xush keladigan qilib so'zlashdir", — deydi Sitseron o'zining "Notiqlik haqida" deb nomlangan asarida. Asar muallifi notiqlar odamlar diliga qo'rquv, g'azab, qayg'u sola bilishi va aksincha, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg'ota olishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning turlituman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatiga xos umumiylar xususiyatlarni bilmasa va har bir kishimi goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa hech qachon o'z maqsadiga erisha olmaydi. Nutqni ritorik ishlab chiqishda notiq amal qilishi lozim bo'lgan ushbu qoidalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

4. Mark Tulliy Sitseron — mashhur notiq va nazariyotchi olim

Mashhur notiq va nazariyotchi olim Mark Tulliy Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 yillar) jahon madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan biri. U miloddan avvalgi 106 yilda Rimdan uzoq bo‘lman Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Sitseronning onasi Gelviya xonim bo‘lg‘usi mashhur notiqning yoshligida vafot etgan edi. Otasi Mark Tulliy suvoriyalar toifasidan bo‘lib, ko‘p vaqtini adapbiyotga va bolalar tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Mark Tulliy yetti yoshga to‘lganda otasi farzandlariga yaxshi ta’lim-tarbiya berish maqsadida Rimga ko‘chib o‘tadi. Bolalik chog‘larida Sitseron ukasi Kvint bilan birgalikda mashhur notiq Krass rahbarligida yunon o‘qituvchilaridan falsafa va notiqlik bo‘yicha, shoir Arxiydan esa she’riyat san’atidan saboq oladi. Yigitlik paytlarida notiqlik san’ati bilan jiddiy shug‘ullanadi, o‘z zamonasining mashhur notiqlari nutqlarini katta qiziqish bilan tinglaydi. O‘sha davrning mashhur aktyorlaridan Rostsiy uning ovozi, xatti-harakatlarining silliqlanishi ustida ishlaydi, deklamatsiya san’atini o‘rgatadi. Mashhur tragik aktyor Klodiy Ezop esa unga talaffuzni, ehtirosli nutq so‘zlashni o‘rgatadi. Sitseron taxminan o‘n olti yoshga kirganida mashhur huquqshunos Kvint Mutsiy Ssevoladan saboq oladi. Ma’lumotlarga qaraganda, o‘sha paytlarda Sitseron bir oz muddat harbiy yurishlarda ham qatnashgan.

Sitseron 25 yoshida birlinchi marta sudda xalq oldida nutq so‘zlaydi. U avval grajdaniqlik, so‘ngra jinoiy ish jarayoni bo‘yicha gapiradi. Biroq uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli notiqlar qarshi chiqadi. Shundan keyin u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish uchun Afinaga jo ‘nab ketadi. So‘ng Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. Ikki yil davomida Sitseron yana o‘qishni davom ettiradi: mashhur olimlar, notiqlar bilan uchrashadi va suhbatlarda qatnashadi. Mana shunday izlanishlar davomida u nutq so‘zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat Osiyo va Attika usullari omuxtasidan iborat bo‘lgan o‘ziga xos bir uslub kashf etadi. Sitseron o‘z zamonasining aksariyat so‘z ustalari kabi o‘z faoliyatining dastlabki davrlarida nutqda uslubning chiroyliligi, ibora va ifodalarning jozibador bo‘lishiga alohida e’tibor beradi. Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san’atining sirlarini o‘rganib yurgan vaqtida Rim hukmdori Sulla vafot etadi. Rimdagisi siyosiy vaziyat o‘zgaradi. Sitseron 29 yoshida Rimga qaytib keladi. Bu yerda unga endi “yunon”, “olim” degan laqablar beriladi. Sitseron 30 yoshidan boshlab davlat ishlarida faol ishtirot eta boshlaydi. Kvistorlikdan keyin Sitseron ko‘proq advokatlik bilan shug‘ullanadi. 70-yillarda Sitseron edillik lavozimiga erishadi. O‘sha paytlarda

mashhur Verres ishi bo'yicha Sitseron ayblovchi sifatida ishtirok etib, uni yutib chiqadi. Sud mahkamasining ikkinchi sessiyasi uchun Sitseron tomonidan tayyorlangan beshta nutq matni shu kungacha saqlangan bo'lib, notiqlik san'atining oliv namunasi sifatida qimmatga ega. 67-yilda Sitseron bir ovozdan pretorlikka saylanadi. Shu tariqa Sitseron tengsiz notiq va donishmand, faylasuf, siyosiy arbob sifatida birma-bir shuhrat pillapoyalaridan ko'tarilib boradi. 63-yili konsullikka saylanadi. Bu Rim Respublikasining oliv martabali lavozimi edi. Sitseron juda mashhur, yuksak iqtidorli va shijoatli shaxslar — Katon, Brut, Antoniy, Krass, Pompey va Sezarlar bilan bir paytda siyosat maydoniga kirib, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatadi. Sitseronning konsullik davri kuchli siyosiy kurashlarda o'tadi. Hatto siyosiy raqiblari tomonidan ayblanib bir necha muddatga Rimdan badarg'a qilinadi. Oradan bir yarim yil vaqt o'tib, do'stlarining yordami bilan Italiyaga qaytib keladi. O'z davrining fozil va ma'rifatparvar kishilaridan biri bo'lgan Sitseron zamondoshlarining ongini o'stirish, ilm-fan, falsafa va madaniyatdan bahramand qilish masalasiga katta e'tibor beradi. U bu ishni o'zining burchi deb biladi. Sitseron nutq nazariysi ustida tinimsiz ijod qildi. Mashaqqatlari mehnati natijasida uch kitobdan iborat "Notiqlik haqida" nomli asar yaratdi. Mazkur asar ukasi zubit hamda shoir Kvint Tulliy Sitseronga bag'ishlagan.

Kitobning birinchisi Platon uslubida yozilgan bo'lib, gaplar qisqa-qisqa va suhbatdoshlardan biri boshqa kishining muammosini to'g'ri hal etishga yo'naltiradi.

Ikkinchisi — Aristotel uslubi bitilgan. Suhbat eshtirokchilari navbat bilan o'z fikrini bildiradi, nutqlar o'zaro'uzviy bog'lanadi. Sitseron dialoglari Aristotel uslubida yozilgan va suhbatdoshlar keng ko'lamli uzun nutqlar so'zlaydi. Asarda qayd etilishicha, notiq sud ishining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, mamlakat ishini ham chuqur tushunadigan, xalq qayg'usiga hamdardlik qiladigan davlat arbobi bo'lmog'i lozim. "Notiqlik haqida" asarida agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatiga xos umumiyy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa hech qachon o'z maqsadiga erishmaydi.

Sitseronning "Brut" asari Rim notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan. Dialog tarzida yozilgan asarda Sitseron, Brut va Attik qatnashadi. Kitobda muallif ikki yuzdan ortiq notiqlarni sanab o'tgan. Ularning saqlanib qolgan nutqlari Sitseron uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. "Brut" asarini yozib bo'lib, Sitseron uni Mark Yuniy Brutga yuboradi. Brut kitobni o'qib Sitseronga maktub yozadi va unga suxandonlik san'ati bo'yicha bir necha masalalarni o'rtaga tashlaydi. Maktubga javoban Sitseron "Notiq" asarini yozishga kirishadi. Muallif asarda mukammal notiq haqida fikr-mulohazalar bildiradi.

“Notiq” asarida ta’kidlanishicha, har qanday notiqning asosiy maqsadi — tinglovchining zavqini uyg‘otib, o‘ziga moyil etishdan iborat. Notiq sharoitga qarab, mavjud uslublarning hammasidan o‘z o‘rnida foydalanishi zarur. Sitseron bu fikrni davom ettirib, kimki jo‘n narsalar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida zavq-shavq bilan gapisra, o‘sha odam so‘z san’atining chin ustasi, deb ta’kidlaydi. She’riyat tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinuvi, bir so‘zning oxiri va ikkinchi so‘zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, grammatic qoidalarga katta e’tibor berish kabi notiqlik san’atining muhim qoidalari ham Sitseron asarlarda o‘z ifodasini topgan.

Tinglovchilarни zeriktirmaslik uchun nutq davomida ko‘tarinki uslubni bir pardas pasaytirib, sud ishiga aloqador bo‘lgan kishilarning goh salbiy, goh ijobjiy tavsifini berish, ilgari o‘tgan mashhur zotlar haqida biror latifani eslatib ketish, o‘rnii kelganda ba’zi hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni eslash, biror hikmatli so‘z, maqol yoki qochiriq gaplarni qistirib o‘tish — Sitseronning eng sevgan usullaridan bo‘lgan. U faqat mazmunga, jumlalarning to‘g‘riligiga e’tibor berish bilan kifoyalananmay har bir nutqida tilning ohangdor bo‘lishiga ham katta ahamiyat bergen. Sitseron “Notiq” asarini yozib tugallagach, mashhur so‘z ustasi Demosfenning Ktesifontini himoya qilib va Esxilning Ktesifontni qoralab so‘zlagan “Gulchambar haqida” nomli mashhur nutqlarini tarjima qilib, “Notiqlarning eng yaxshilari” sarlavhali so‘zboshi yozadi. Mazkur tarjima saqlanib qolmagan, lekin so‘zboshi bizgacha yetib kelgan.

Sitseronning ko‘p falsafiy asarlari tarjima qilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Yuliy Sezar vafot etgach, uning nabirasi Oktavian davlatni boshqaradi. U davlat mavqeini mustahkamlash maqsadida Sitseronning senat oldidagi obro‘-e’tiboridan foydalanmoqchi bo‘ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning siyosiy dushmanlari yangi hukmdorni o‘z tomoniga og‘dirib, buyuk notiqni qatl etishni talab qiladi. Oqibatda so‘z san’atining mohir ustasi jazoga hukm etiladi.

5. Demosfen - beqiyos notiq, otashin vatanparvar

DEMOSFEN (384-322 yillar) Buyuk so‘z ustasi Sitseron “Notiq” asarida bilim darajasi, mahorati turli xil bo‘lgan qadimgi dunyo notiqlari haqida so‘z yuritar ekan, Demosfenning suxandonlik san’atiga yuqori baho beradi: “Notiqlар орасида ham, har holda yunon notiqlari орасида ham, bir notiq borki, u hamma notiqlardan hayratomuz darajada yuqori turadi; shunday bo‘lsa-da, Demosfen atrofida ham boshqa buyuk va shuhratli notiqlar bor edi; ular Demosfengacha ham

yo‘qolib ketmadi. Shuning uchun suxandonlikni o‘rganmoqchi bo‘lganlar umidsizlanmasinlar: mukammallikka erishish mumkin emas, deb hafsalalari pir bo‘lmasin, yuksak narsalarda mukammallikka faqat yaqinlashadiganlar ham zebo va go‘zaldir”¹⁰. Demosfenning bunday shon-shuhratga erishuvi oson kechmagan, albatta. Tinimsiz izlanish, mashaqqatlari mehnatlar, mustahkam e’tiqod va burchga sadoqat tuyg‘usi uning nomini Yunoniston tarixiga abadiy muhrladi. Demosfen miloddan avvalgi 384-yili Afina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Bo‘lajak notiq yetti-sakkiz yoshida otasidan ayrilib, bolalik davridanoq hayot mashaqqatlari bilan kurashishga o‘rganadi.

Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qolgan edi. Bolalar yosh bo‘lgani bois ularning tarbiyasi va meros vaqtincha tog‘asiga topshiriladi. Tog‘a esa barcha boylikni qo‘lga kiritib olgach, bolalar tarbiyasi bilan qiziqmay qo‘yadi. Demosfen voyaga yetgach, merosni sud orqali qaytarib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga ravon so‘zlash, da‘voning to‘g‘riligiga kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sabab Demosfen notiqlik san’atini o‘rganish uchun o‘z davrida meros ishlari bo‘yicha mashhur bo‘lgan advokat Isey maktabida ta‘lim oladi. U to‘rt yil mobaynida qunt bilan o‘qib, ko‘p yozuvchilarining asarlarini bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, Fukidid va Platon kabi mashhur tarixchi va faylasuflarning asarlarini puxta o‘rganadi. Demosfen o‘qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va bu sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surumkasiga bo‘lgan kurash bo‘lajak notiq xarakterining toblanishiga, bir so‘zli ya matonatli bo‘lishida katta ro‘l o‘ynaydi. U o‘qish va o‘rganish bilan bir qatorda boshqalarga nutq matnlarini yozib, logograflik ham qiladi.

Demosfen butun hayotini siyosiy notiqlikka bag‘ishlashni, xalq majlislarida vatanining ravnaqi yo‘lida nutq so‘zlashni orzu qiladi. Biroq yosh notiqning xalq oldidagi dastlabki nutqlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Demosfen nutqining ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past bo‘lib, bir oz duduqlanar, uning ustiga “r” tovushini yaxshi talaffuz etolmas, gapirganda yelkasini qimirlatib turadigan odati ham bo‘lib, ko‘pchilik o‘rtasida o‘zini noqulay sezardi. Natijada uning chiqishlari kulgi va masxara bo‘lar, oqibatda nutqini oxirigacha yetkazmay minbardan tushib ketishga majbur bo‘ldi. Ammo Demosfen umidsizlikka tushmay kamchiliklari ustida ishlaydi. Demosfen o‘zining jismoniy nuqsonlaridan qutulish maqsadida qanday choralar qo‘llagani haqida manbalarda turli ma’lumotlar bor. Jumladan, Demosfen og‘ziga mayda-mayda tosh solib, dengiz bo‘yida to‘lqinlar

¹⁰ Sitseron.Notiqlik san’ati haqida ikki risola. (Urfon Otajon tarjimasi). - T.: Yangi asr avlod. 2007, 329- bet.

guldirosini bosib yuboradigan darajada baland ovozda gapirgan. Yoki tog' cho'qqisiga chiqib shamol bilan bahslashib duduqligini yo'qotishga, ovozini ravon va jarangdor qilishga erishgan. Shu tariqa Demosfen o'zining siyosiy mavzulardagi nutqlari bilan keng shuhrat qozonadi. Shunga qaramay, u hech qachon tayyorgarliklarsiz nutq so'zlamas, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, har bir so'zni puxta o'ylar, jumllalarni aniq va chiroyi tuzishga harakat qilar ekan. Ulug' notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo'lganki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi. «...men hammadan yuqoriga Demosfenni qo'ydim va faqat uning kuchi men boshqa notiqlarda ko'rgan suxandonlikka emas, balki men orzu qilgan suxandonlikka mos keladi. Hech kim na salmoqda, na latofatda, na me'yorda undan o'tib ketgan»¹¹ Sitseron «Notiq» asarida Demosfen nomini qayta-qayta tilga oladi va uning notiqlik faoliyatini nihoyatda qadrlaydi.

IV asrning o'rtalarida Makedoniya podshohi Filipp Yunoniston yerlarini bosib olish harakatini boshlaganda Demosfen otashin vatanparvar sifatida faoliyatini istiloni fosh qilishga qaratadi. Afina demokratik tuzumining tarafdori, o'z vatanining sodiq farzandi bo'lgan Demosfen bosqinchilarga qarshi so'zlagan nutqlarida vatandoshlariga murojaat qilib, yurt ozodligi, el baxti yo'lida birlashib, dushmanga qarshi kurashishga da'vat etadi. Afina davlati Makedoniya tasarrufiga o'tgach, Demosfen dushmanlari unga qarshi bosh ko'taradi. Bir necha yil ilgari xalq partiyasi Demosfennenning vatanparvarligini yuksak baholab, uni "Oltin gulchambar" bilan taqdirlashga tavsiya etgan edi. Makedoniya tarafdorlari esa bu qarorga qarshi chiqadi. Hatto o'z davrining mashhur notiqlaridan bo'lgan Esxil majlis qarori ustidan sudga shikoyat qilib ariza beradi va Demosfennenning bunday oliv mukofotga loyiq emasligini uqtiradi. Qayta bo'lgan sud ikki taniqli shaxsning yakkama-yakka olishuviga aylanib ketadi. Demosfenni qoralab so'zga chiqqan Esxil kurakda turmaydigan tuhmat toshlarini yog'diradi. "Gulchambar"ni himoya qilish maqsadida so'z olgan Demosfen esa vatanining gullab-yashnashi yo'lida timmay kurashgani, shu bilan birga, Esxilning sotqinlikdan iborat faoliyatini nutqida obrazli tarzda bayon etadi. G'animlarining qarshiligiga qaramay, sud juda to'g'ri va haqqoniy qaror chiqaradi. Sud hukmiga ko'ra, Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilinadi. Demosfennenning "Gulchambar" haqidagi nutqi faqat Esxil ustidan qozonilgan g'alaba emas, balki Afina va butun Yunonistondagi vatanparvarlarning tantanasi edi. Suddagi muvaffaqiyatidan so'ng, Demosfennenning davlat oldidagi obro'si yanada oshib ketadi. Biroq Makedoniya bilan Afina o'rtasida boshlanib ketgan urushda afinaliklar mag'lub bo'lib, barcha

¹¹ Ziyoda Masharipova. Ifodali o'qish praktikumi. A lisher Navoiy nom idagi O zbekiston Milliy kutubxonasi n ashriyoti -2011 y.B.36

vatanparvarlar o‘z yurtlaridan badarg‘a qilinadi. Demosfen esa sirtdan o‘limga hukm etiladi. Fojiali voqealar girdobida qolgan notiq Kalavri oroliga ketib, Poseydon ibodatxonasida yashirinishga majbur bo‘ladi. O‘sha davrdagi an‘analarga ko‘ra, ibodatxonaga qo‘chib kirgan odamni kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, qamash yoki o‘ldirish mumkin emas edi. Chunki u Xudoning panohi va himoyasida hisoblanardi. Dushmanlari Demosfenning yashiringan joyidan xabar topib, uni tiriklayin qo‘lga tushirmoqchi bo‘ladi. Lekin Demosfen ularga mag‘lub bo‘lishdan o‘limni afzal biladi va zahar ichib o‘z joniga qasd qiladi.¹²

Demosfenning nodir san’atkorligi antik dunyoda o‘tgan va yangi davrlarda yashagan notiqlar tomonidan juda yuksak baholanadi. Uning ezgulik yo‘lidagi mashaqqatlarga to‘la, dolg‘ali hayoti, so‘z ustasi sifatida erishgan yutuqlari avlodlarga ibrat namunasi bo‘lib qoladi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ritorika ilmining shakllanishida nimalar sabab bo‘ldi?
2. Gorgiyning fikricha, notiqning eng muhim vazifasi nimadan iborat?
3. Nima uchun Afinada notiqlik san‘atiga ehtiyoj katta bo‘lgan?
4. Lisiyning logograflik faoliyati haqida ma’lumot bering?
5. Notiqlik san‘atining qanday turlari bo‘lgan?
6. Aristotelning “go‘zallik falsafasi”ni tushuntirib bering?
7. Aristotel va Aleksandr Makedonskiy munosabatlari haqida nima deya olasiz?
8. “Ritorika” asarining asosiy mazmuni nimadan iborat?
9. Notiqlik san‘atini egallah uchun zarur bo‘lgan asosiy qoidalarni tushuntiring.
10. Demosfenning notiqlik faoliyatiga Sitseron qanday baho beradi?
11. Demosfen qanday sharoitda o‘sib ulg‘aydi?
12. Demosfen meros masalasida muvaffaqiyat qozonish uchun nimalarni o‘rgandi?
13. Demosfen notiqlik san‘atini mukammal egallah uchun qanday kurashdi?
14. Otashin vatanparvar Demosfenning nutqlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
15. Sizningcha, bugungi kunda Demosfen hayoti va notiqlik faoliyatini o‘rganishning qanday ahamiyati bor?

¹² Ziyoda Masharipova. Ifodali o‘qish praktikumi. A lisher Navoiy nom idagi O zbekiston Milliy kutubxonasi n ashriyoti -2011 y.B.37

ADABIYOTLAR:

1. Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). - T.: Yangi asr avlod, 2007.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III tom. - Toshkent: Fan, 1982.
3. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. - Toshkent: 1975.
4. Qobiljon Oripov, Mahmuda Obidova. Ifodali o'qish. - Toshkent: O'qituvchi, 1994.
5. Ziyoda Masharipova. Ifodali o'qish praktikumi. Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti - 2011 y.

ILK YOZMA ADABIY YODGORLIKLER. ANTIK DAVR IJODKORLARI: HERODOTNING “TARIX”, HOMERNING “ILIADA”, “ODISSEY” DOSTONLARI, ARASTU VA AFLOTUNNING ADABIY QARASHLARI. USHBU MUALLIFLARNING DUNYO BADIYI TAFAKKURIGA QO'SHGAN HISSASI. PLATON, SUQROT ASARLARIDA NOTIQLIK MASALASI TALQINI.

Reja:

1. Ilk yozma adabiy yodgorliklar
2. Antik davr ijodkorlari: Herodotning “Tarix” asari
3. Homerning “Iliada”, “Odissey” dostonlari
4. Arastu va Aflatunning adabiy qarashlari
5. Platon va Suqrot asarlarida notiqlik masalasi

Tayanch so‘z va iboralar: adabiy yodgorliklar, antik davr, Herodot, Homer, Arastu, Aflatun, notiqlik, Ploton, Suqrot.

1. Ilk yozma adabiy yodgorliklar

Boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi yunonlarda ham adabiyot dastlab og‘zaki rivojlandi. Yunon xalq badiiy ijodiyoti (folklori) janr nuqtai nazaridan juda boy va rang-barang bo‘lib, ular orasida mif (asotir)lar alohida o‘rin tutadi. Chunki ularni syujet va obrazlarning butun bir xazinasi edi. Mif (asotir)larning majmui va ularni o‘rganuvchi fanga nisbatan mifologiya atamasi qo‘llaniladi. Mifologiya urug‘-jamoa tuzumi sharoitida barcha xalqlarning eng asosiy ijtimoiy ong shakli hisoblanadi.

Qadimgi yunonlarning miflarida tabiat va jamiyat haqidagi xayoliy tasavvurlar obrazli ifodasini topgan. Insonlar o‘zлari ustidan Olimp tog‘ida yashaydigan ma’budlar hukmronlik qiladi, deb bilgan va ularni o‘zлari yashab turgan ijtimoiy-tarixiy sharoitga muvofiqlashtirib, urug‘-jamoa tuzumi tamoyillari asosida tasavvur etgan. Masalan, Zevsning bosh ma’bud sifatidagi roli, unga qon-qarindoshlik ipi bilan bog‘langan boshqa ma’budlar Hera, Poseydon, Aid, Demetra, Afina, Afrodita, Eros, Hefest, Ares, Apollon, Artemida, Hermes, Dionis, Satir va hokazolar tabiat va jamiyat hayotining biror bir sohasini bevosita boshqaradi deb bilgan.

Mifologiya butun yunon xalqi tafakkurining mahsuli sifatida taraqqiy etib, rivojlanib va o‘zgarib boradi. Yunon miflari o‘z mavzusiga ko‘ra turkumlarga birikkan bo‘lib, ular orasida “Troya turkumi”, “Fiva turkumi”, “Argonavtlar turkumi” va boshqalarni sanash mumkin. Miflardan tashqari ertak, masal, maqol va topishmoq janrlari ham keng rivojlangan. Masalan, xalq orasida keng tarqalgan va ezop nomi bilan yuritilgan 426 ta masal bizgacha etib kelgan. Ular orasida bizga yaxshi tanish bo‘lgan ko‘plab syujetlarni uchratamiz. Yunon xalq qo‘shiqlari va ularning turli-tuman shakllari ham yozma adabiyotning yuzaga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

2.Antik davr ijodkorlari: Herodotning “Tarix” asari

Herodot antik davrning birinchi haqiqiy tarixchisi. Shuning bilan birga barcha davrlarning tarixchisi ham. Herodot dastlab Galikarnasdan edi. Bu joy Kichik Osiyo sohilidagi yunon shaharlardan biri, hozir Turkiyada joylashgan. Herodot miloddan avvalgi 484 yilda tug‘ilgan. e., miloddan avvalgi 425 yilgacha yashagan. Yoshligida Helikarnass zolim Ligdamidaning raqiblari tomonida gapirgan Herodot o‘z ona shahridan qochishga majbur bo‘ldi. O‘n yilga yaqin turli mamlakatlar bo‘ylab sayohat qildi. Samos oroliga, Finikiya, Liviya, Misr, Yahudiya, Suriya, Bobil, Ossuriya, Ekbatanaga tashrif buyurdi. Ko‘plab yunon davlatlari va Makedoniyaga tashrif buyurdi. Uzoq vaqt davomida olim Afinada yashadi. Hellas shahar-davlati uning ikkinchi uyiga aylandi. Bu yerda u Qadimgi Yunonistonning Perikl, Anaksagor, Sokrat, Aspaziya kabi eng bilimdon kishilari bilan tanishdi va ular bilan do‘splashdi. Afinada, shubhasiz, yangi do‘sstar ta’sirida Herodot o‘zining «Tarix» nomli asarini yozdi. Yunonchadan «tarixchi» tarjima qilinsa – o‘tmish, o‘rganilgan narsalar haqida hikoya ma’nolarini beradi. Herodot asarida 493-449 yillardagi yunon-fors urushini tasvirlagan.

Herodot asarining asosiy mavzusi 480-479 yillarda Fors shohi Kserksning Yunonistonga yurishidir. Termopiladagi fojiali jang, u yerda 300 nafar spartalik va qirol Leonidas butun fors qo‘shimini to‘rt kun davomida ushlab turishdi, Salamis bo‘g‘ozidagi dengiz jangi, g‘alabani jasur qo‘mondon Femistokl yunon flotiga olib

keldi va Plateyadagi hal qiluvchi jangda yunonlar g‘alaba qozondi. Ammo Herodotning ishi ossuriyaliklar va misrliklarning o‘z hukmdorlarining harbiy jasoratlari haqidagi annalistik maqtovlaridan farq qiladi. Muallif qirol Leonidasning matonat va jasoratiga, Femistoklning harbiy iste’dodi va uzoqni ko‘ra bilishiga hurmat bilan qaraydi, yunon jangchilarining jasoratini ulug‘laydi. Lekin forslarning yunon davlatlari hududiga bostirib kirishi sabablarini tushuntirishga, forslar va yunonlarning mag‘lubiyatlari va g‘alabalarining kelib chiqishini tushuntirishga harakat qiladi. Herodot davlat tuzilishida yunon qarshiligining ko‘p sonli fors armiyasidan ustunligini ko‘radi. Uning fikricha, yunonlar “erkin va faqat qonunga bo‘ysunadilar”. Ularning assosiy kuchi shu. Iskandariya olimlari Herodotning asarini to‘qqiz kitobga bo‘lishdi. Ularning har biri yunon muzalaridan biri, san’at homiylari, jumladan, tarix muzeyi Klio nomi bilan atalgan. Herodot ijodi antik mualliflar tomonidan yuksak baholangan, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim va boshqa elliin dunyosi mamlakatlari tarixchilariga ibrat bo‘lib xizmat qilgan va avlodlarga ibrat bo‘lgan.

Atoqli Rim davlat arbobi va notiq Sitseron Herodotni «tarix otasi» deb atagan. Va bu haqiqat, chunki uning ishida tarix birinchi marta insoniyat jamiyatini zamon va makonda rivojlanayotgan, xalqlar taqdirlarini o‘zgartiruvchi jarayon sifatida ko‘rsatiladi. U birinchi marta ma’lum bir tarixiy natijaga olib keladigan sabablarni tahlil qilishga harakat qildi.

Tarix insoniyat mayjudligining butun davri davomida yer yuzida sodir bo‘lgan voqealar xronologiyasi sifatida odamlarning zamonaviy avlodni uchun bebaho tajriba bo‘lib xizmat qilishi kerak.

2. Homerning “Iliada”, “Odissey” dostonlari

Yunon yozma adabiyotining bizga ma’lum bo‘lgan ilk asarlari — Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari o‘z manbasiga ko‘ra qahramonlik haqidagi xalq qo‘sishqlari bilan ko‘p bog‘langandir. “Iliada” ham, “Odisseya” ham Troya urushi voqealariga bag‘ishlangan. Bu urush miloddan avvalgi XIII–XII asrlarda ro‘y bergen edi. Aedlar talqinida tarixiy faktlar umumlashtiruvchi va mubolag‘ali xarakter kasb etadi. Ularga mifologik elementlar ham qo‘shilgan. Shu tariqa harbiy – qahramonlik eposi “Iliada” va sehrli maishiy epos “Odisseya” maydonga kelgan.

Qadimgi yunonlar bu asarlarning muallifi Homer ekaniga hech qanday shubha bildirmagan. Biroq uning yashagan davri va yashagan joyi haqida bir-biriga zid ma’lumotlar mavjud. Ularda Homer yashagan davr miloddan avvalgi XII asrdan tortib to VI asrgacha deb ko‘rsatiladi. Homer yashagan shahar nomi uchun esa 7 ta shahar — Smirna, Xios, Kolofon, Salamin, Rodos, Argos va Afina da’vo qiladi.

XVIII asrning oxirlariga qadar “Iliada” va “Odisseya”ning birdan-bir muallifi sifatida Homer so’zsiz qayd etib kelindi. Homer yunoncha “so‘qir” ma’nosini bildirib, uni so‘qir mo‘ysafid sifatida tasavvur etishgan va haykallardan birida uni ana shunday tasvirlashgan.

Homer eposlarida tasvirlangan jamiyat uru g‘-jamoa tuzumi bo‘lib, unda odamlar qabilalarga birikib yashaydi. Qabila tepasida podshohlar – qabila oqsoqollari turib, ular harbiy sarkarda, kohin, hakam bo‘lib ham hisoblanadi. Biroq ularning hokimiyati chegaralangan va bu “Iliada”ning biringchi qo‘shig‘idan ham anglashihib turadi. Unda Xriseidani o‘z otasiga qaytarish masalasi xalq majlisida hal etiladi. Bu va boshqa bir qator belgilardan kelib chiqib, jamiyat o‘z taraqqiyotida queldorf tuzumiga o‘tib borayotganligini sezib olish mumkin.

“Iliada” yunoncha “Ilion nomma” yoki “Ilion jangnomasi” ma’nolarini bildiradi. Ilion (yoki Troya) Kichik Osiyoda, Dardanel bo‘g‘ozining janubiy qirg‘og‘ida joylashgan shaharning nomidir. U millodan avvalgi 3-ming yillikda mislsiz yuksalib, millodan avvalgi 2-ming yillikda turli falokatlar ta’sirida vayronaga aylanadi. “Iliada”da mana shu tarixiy – mifologik materialni mavzu sifatida tanlagan Homer 10 yillik urushning so‘nggi 10-yilidan 51 kunni tasvir etadi. Oq she’r shaklida, gekzametr vaznida yozilgan “Iliada” asari 15 000 misradan iborat. Bu ulkan eposni III asrda Aleksandriya adabiyotshunoslari 24 kitob – qo‘sinqqa bo‘lgan. Bunda yunon alifbosidagi harflar soni asos qilib olinadi. Homerning o‘zi “Iliada” dostonida uning bosh obrazi – Fessaliya podshohi Axill (yoki Axilles)ning g‘azabini kuylashni maqsad qilib olgani haqida so‘zlaydi. Uning g‘azabiga sabab bo‘lgan konfliktning ikkinchi tomonida umumyunon qo‘shinining yo‘lboshchisi Agamemnon turadi va uning Axillga tegishli bo‘lgan asira Bresiadani tortib olishi ana shunday oqibatga olib keladi. Sha’ni yerga urilgan Axill g‘azab alangasida jangda qatnashishdan qat’ian bosh tortadi va bir orolga bosh olib ketadi. U eng yaqin do‘sti Patrokl o‘limidan so‘nggina yana qo‘shin safiga qaytadi. U Patrokl qasosi uchun Troya lashkarboshi Hektor bilan yakkama – yakka olishuvga kirishadi va o‘z do‘stining qotili bo‘lgan Hektorni mag‘lub etadi. Homer “Iliada” dostoni orqali Yunoniston va yunon xalqining harbiy shon-shavkatini madh etdi, uning jangovor qahramonliklarini tarannum qildi.

“Iliada” mashhur tarjimon Qodir Mirmuhamedov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi va alohida kitob holida nashr qilindi.

“Odisseya” dostoni Troya urushining yana bir qahramoni, Itaka podshohi Odisseyning o‘z vataniga qaytish paytida boshdan kechirgan sarguzashtlari tasviriga bag‘ishlanadi. Uning ashaddiy g‘animiga aylangan dengiz ma’budi Poseydonning urinishlari bilan Odisseyning bu safari 10 yilga cho‘zilib ketadi. O‘z vataniga qaytib kelgan Odissey Itakada ham bir necha raqiblarini mag‘lub etib, mamlakat boshqaruvini o‘z qo‘liga oladi. Har ikkala asar tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, bu asarlar

yaratilgan paytda badiiy tafakkur ma'lum darajada rivoj topgan. Bu Homerning badiiy kompozitsiya yaratish mahoratida ham ko'rindi. U "Odisseya"da jahon adabiy tajribasida birinchi bo'lib transpozitsiya usulini qo'llaydi, ya'ni ilgari bo'lib o'tgan voqeа-hodisalarни Odisseyning hikoyasi tarzida bayon etadi.

"Odisseya" dostonidan parchalar ham o'zbek tiliga Qodir Mirmuhamedov tomonidan tarjima qilindi va «Jahon adabiyoti» jurnalida chop etildi. O'sha davrlarda juda katta shon-shuhuratga sazovor bo'lgan va V-IV asrlarning fojianavis shoirlari uchun bitmas-tuganmas syujet manbai vazifasini o'tagan Homer asarlaridan keyingi epik dostonlardan birortasi ham bizgacha etib kelmagan. Biz ularning mazmuni haqida Proklning "Xrestomatiya", Apollodorning "Kutubxona" asarlari orqaligina bilib olamiz, xolos. Bu epik dostonlarda Troya va Fiva kabi katta turkumlar mufassal qalamga olingan bo'lib, ular orasidan "Kipriya", "Efiopiada", "Ilionning halokati", "Qaytish", "Telegoniya" va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. An'anaga ko'ra, uning nomi bilan ikki asarni — "Mehnat va kunlar" hamda "Teogoniya" ("Ma'bdularning yaralishi") asarlarini bog'laydilar. Bu asarlar Yunoniston adabiyotida VII-VI asrlarda yetakchilik qilgan ikki yo'naliш — didaktik va genealogik yo'naliшni boshlab berdi. Homer o'z dostonlarini jamiyatning zodagon tabaqasini hisobga olib yaratgan.

4.Arastu va Aflatunning adabiy qarashlari

Aflatun yoki Platon (yun.: *Πλάτων*) (miloddan avvalgi 428 / miloddan avvalgi 427 – miloddan avvalgi 348 / miloddan avvalgi 347) qadimgi yunon faylasufi bo'lgan. Ustozi Suqrot va shogirdi Arastu bilan birqalikda Aflatun G'arb madaniyatini shakllantirdi. Shuningdek, matematik, yozuvchi hamda Afinadagi ilk akademiya asoschisi bo'lgan. Platon (Platon) Afinalik, Aflatun (haqiqiy ismi Aristokl; miloddan avvalgi taxminan 427.27.5 – Afina – 347) – yunon faylasufi, platonizm asoschisi. Suqrotning shogirdi. Suqrot unga «Ploton» (keng yelkali, keng ko'krakli degan ma'nomi beradi) deb nom qo'ygan. Platon mashhur faylasuflar bilan yoshligidan muloqotda bo'lib, ta'lim oldi. Heraklit, Parmenid, Demokrit va boshqa faylasuflarning asarlarini o'rgandi. Miloddan avvalgi 380 yillarda Afina yaqinidagi Akademiya nomli bir bog'ni sotib oladi (bu nom shu yerlik afsonaviy qahramon Akadem sharafiga berilgan) va u yerda o'zining Ploton akademiyasi deb atalgan falsafiy maktabini tashkil etadi. Akademiya Afinada deyarli 1000 yil faoliyat ko'rsatadi. Unda Aristotel ham o'qigan. Akademiyada faqat falsafadan emas, geometriya, astronomiya, geografiya, zoologiya va botanikadan ham ta'lim berilgan. Biroq siyosiy ta'lim markaziy o'rinda edi. Ta'lim ma'ruzalar, munozaralar va suhbatlarga asoslangan. Har kuni gimnastika mashg'ulotlari ham o'tkazilgan.

5. Platon, Suqrot asarlarida notiqlik masalasi

Notiqlik san'atining tarixi juda uzoq bo'lib, eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Yunonistonda aristokratiya, demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlarida va yig'ilishlarda respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylanib borgan.

Suqrot. Suqrot haqiqatan donishmand va o'zining mutaqil fikriga ega bo'lgan inson edi. Lekin uning o'zi, chinakam donishmandlik — o'zini sariq chaqaga ham arzimasligini anglashdadir, deb uqtiradi. Uning shogirdi Aflatun ustozি Suqrot ta'limotini va g'oyalarini muloqot shaklida bayon qilib bergen. Aflatunning ta'kidlashicha, Suqrot butun vaqtini Afina bozorlarida, o'z so'zini tinglashga rozi bo'lgan odam bilan gaplashib o'tkazgan. Ayniqsa, biror masalada qat'iy mustaqil fikriga ega bo'lgan kishilar bilan suhbatlashishni yoqtirgan. Suqrot bunday odamlarni yo'l yo'lakay savol berib, ularni gaplashishga ko'ndirar, so'ng esa ularning johil yoki oqil ekanini aniqlagan.

Suqrotning asosiy g'oyasi "o'z o'zingni anglab yet" qoidasi bo'lgan. Eramizdan avvalgi 399-yilda dushmanlar uni Afina yoshlarini buzishda va diniy majburiyatlarni mensimaslikda ayblab sudga chaqiradi. U o'ziga o'lim jazosi berilganini bilgan holda o'zini haqiqatni topishga bag'ishlab, avvalgidek yashayverish darkorligini bayon etadi. Suqrot o'zining so'nggi kunini ham do'stlari bilan jonning abadiyligi va oxiratning borligi haqidagi masalani muhokama qilib hibsda o'tkazadi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'lli bilan haqiqatni o'zlarini topishiga va bilishiga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqat izlashga o'rgatar edi. Suhbatni bu metodi "Suqrot metodi" deb yuritilgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya'ni "**evristik**" suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi.

Platon eramizdan ilgari (424—347 yillarda) yashagan. G'arb filosofiyasining asoschisi. U Afinada tug'ilgan, dastlabki ta'limni Suqrotdan olgan. Platon 30 yoshidan boshlab sayohatga chiqqan va O'rta yer dengizi atrofidagi juda ko'plab shaharlarda faylasuflar bilan uchrashgan. Miloddan avvalgi 388-yilda Afinaga qaytganidan so'ng, o'qituvchi bo'lishga qaror qilgan. Qadimgi Yunonistonning mashhur – idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asosichisi edi. U "g'oyalar dunyosi"ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini

ikkilamchi deb hisobladi. Uning fikricha g‘oyalar abadiy va o‘zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g‘oyalar olamining soyasidir.

Platonning fikricha, davlatning maqsadi oliy ezzulik g‘oyasiga yaqinlashishdir: bu g‘oya, asosan, tarbiya yo‘li bilan ro‘yobga chiqadi. —Tarbiya, — deydi Platon, — davlat tomonidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruhlarning — faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko‘zlamog‘i lozim. Platon o‘zining pedagogikada Sparta va Afina tizimining ba’zi bir belgilarini birlashtirishga intildi. U Akademiya deb atalgan mакtabga asos soldi. Platon “Ta’limot haqidagi g‘oya” ni yaratdi. Bizgacha bu asarning arab tiliidagi tarjimasi yetib kelgan.

Platonning bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlangan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o‘yinlar o‘ynash bilan shug‘ullanishlari muhim, deb hisoblagan. Uning fikricha, o‘yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerak. Bundan tashqari, u bolalarga yoshlik chog‘idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdir edi. Bolalarga 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga o‘qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o‘rgatiladi deb aytadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Antik davr ijodkorlaridan Herodotning qanday asarlarini bilasiz?
2. Rim notiqligi va ravnaqи haqida nimalar bilasiz?
3. Homerning “Iliada”, “Odissey” dostonlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Sitseron nega Herodotni «tarix otasi» deb atagan?
5. Ilk yozma adabiy yodgorliklarga qaysilar kiradi?
6. Platonning notiqlik haqida qanday fikrlari bor?
7. Suqrotning notiqligi haqida ma’lumot bering?

ADABIYOTLAR:

- 1.Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
- 2.Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
- 3.Esxil. Zanjirband Prometey. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti,1976.
- 4.Sofokl. Shoh Edip. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.1979.
- 5.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi nashriyoti. 1980.
- 6.Tronskiy I.M. Istorija antichnoy literaturi. – M: Visschaya shkola, 1988.
- 7.To‘xliyev B. Ifodali o‘qish. – Toshkent: Bayoz, 2008.

- 8.Fitrat A. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: O‘qituvchi. 1995.
9. G‘afurov I. Hayo — xaloskor. -T.: Sharq. 2006.
- 10.<https://m-eng.ru/uz/cesspool/krym-istoriya-poluostrova-kak-razvivalsya-krym-ikakova-istoriya-ego.html>
- 11.<https://hozir.org/k-d-ushinskiy-aqliy-axloqiy-tarbiya-va-uning-vositalari-haqida.html?page=4>

XX ASR BOSHLARIDAGI YEVROPA ADABIYOTI. MODERNIZM. F-STENDALNING “QIZIL VA QORA” ASARI. EVROPADA TEATR SAN’ATINING RIVOJLANISHI VA DRAMATURGIYA JANRINING ADABIY JARAYONGA TA’SIRI. V.SHEKSPIR IJODI.

Reja:

1. XX asr boshlaridagi Yevropa adabiyoti
2. Modernizm va Kafka ijodi.
3. Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari, yo‘nalishlari
- 4.F.Stendalning “Qizil va qora” asari
5. Evropada teatr san’atining rivojlanishi va dramaturgiya janrining adabiy jarayonga ta’siri.
6. V.Shekspir ijodi.

Tayanch so‘z va iboralar modernizm, dekadans, XX asrning yetakchi oqimi, modernizm ildizlari, modernizm yo‘nalishlari, ekspressionizm, Stendal, “Qizil va qora, Kafka, teatr san’ati, Shekspir.

1. XX asr boshlaridagi Yevropa adabiyoti

XX asr boshlarida bir qancha G‘arbiy Ovrupa mamlakatlari va Amerika Qo‘shma Shtatlari yangi iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Monopolistik birlashmalar paydo bo‘ldi. Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSh davlatlari Afrika, Osiyo va Tinch okeani havzasida bosqinchilik urushi siyosatini olib bordi. Moliyaviy kapital salmog‘i ortib bordi. Yetakchi kapitalistik davlatlar o‘rtasidagi raqobat va ziddiyatlar oxir-oqibat birinchi jahon urushiga olib keldi. Shu bilan birga, bu davr sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi, ishchilar harakatining jonlanishi, kasaba uyushmalarni tashkil etishga bo‘lgan harakatlar bilan xarakterlanadi. XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlar ham murakkab sharoitda

rivojlandi. Ko‘plab G‘arb mamlakatlari adabiyotida XIX asr oxiri XX asr boshlarida tanqidiy realizm asosiy yo‘nalishlardan biri edi. Ushbu yo‘nalish taraqqiyoti mamlakatlarning o‘ziga xos rivojlanish yo‘li, milliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda tanqidiy realizm XIX asr adabiyotidagi klassik realizm an‘analarini davom ettirgan bo‘lsa, bir qator mamlakatlar, jumladan, AQSh va Lotin Amerikasi adabiyotida romantizm negizida shakllandı. Realist yozuvchilar ijodida ijtimoiy tengsizlik, mayjud tuzumni tanqid qilish va ziyyolilarning jamiyatdagi o‘rni masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Ular o‘ziga xos tasvir usullaridan unumli foydalandilar. Masalan, Haynrix Mann ijodida hajv kuchli bo‘lsa, Marten dyu Gar, Tomas Mann asarlarida chuqur psixologik tasvir, Bernard Shou va Anatol Fransda kinoya, piching bo‘rtib turadi. Tanqidiy realistlar ijtimoiy-psixologik roman, ijtimoiy-psixologik drama, ilmiy-fantastik, ijtimoiy-utopik, tarixiy roman, drama janrlarida barakali ijod qildilar.

Fransiyada paydo bo‘lgan naturalizm (“natura” lot. – tabiat) XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi adabiy jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Naturalizm negizida Ogyust Kont, Ippolit Ten, Gerbert Spenserning pozitivizm (pozitivizm falsafasida: hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar aniq fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan sub’ektiv idealistik oqim) falsafasi va estetikasi yotadi.

Neoromantizm vakillari jamiyat qonun-qoidalarini, uning rivojlanish yo‘llarini rad etdilar. Bu yo‘nalish, asosan, Angliya va Germaniyada tarqaldi. Angliyada Stivenson, Konrad, Xaggard, Konon Doyl, Chesterton va Germaniyadan Gofmanstal, Gaupman, Gazecklever singari adiblar ushbu yo‘nalishning yirik namoyondalari sanaladi. Neoromantiklar zamonaviy jamiyat qadriyatlarini rad etar ekan, o‘z o‘quvchilarini uzoq o‘tmishga yoki sivilizatsiya ta’siridan yiroq ekzotik o‘lkalarga (Afrika, Osiyo, Janubiy Amerika) olib boradilar. Ularning favqulotda kuchli, romantik qahramonlarini yorqin bo‘yoqlarga boy, g‘aroyib sayohatlar bilan to‘la dunyoda faoliyat ko‘rsatadi.¹³

XX asr adabiyoti taraqqiyotiga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatgan yo‘nalishlar sirasiga dekadentlik adabiyoti ham kiradi. Dekadentlik XIX asrning 80-yillarda Fransiyada jamiyatdagi ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda paydo bo‘ldi. Shaxsiyatparastlik, umidsizlik, sirli voqealar, oxiratga murojaat etish, bu adabiyotning asosiy belgilari sanaladi.

Impressionizm (fr. Impression – taassurot) – san’atda rassomning, san’atkorning o‘z sub’ektiv mushohadasi, his-tuyg‘u va taassurotlarini aks ettirishga qaratilgan oqim bo‘lib, 1860-1870-yillarda bir guruh rassomlar: K.Mone, E.Mane,

¹³ Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov, Jahon adabiyoti. O‘quv qo’llanma. T.: 2017 B-216-218

E.Dega, K.Pisarro, O.Renuar, A.Sisleylar ijodida namoyon bo‘ldi. Adabiyotdagi impressionizm bu — musiqiylik, ishoralar, yarim pardalar, qalqib turgan kayfiyatlar, imo-ishoralar, noaniq sharpalar poetikasidir.

Simvolizm adabiy yo‘nalish sifatida XIX asrning 70–80-yillarda Fransiyada shakllandi. Keyinchalik Belgiya, Germaniya, Avstriya, Rossiya singari mamlakatlarda ham simvolizm maktablari paydo bo‘ldi. Simvolizm atamasining paydo bo‘lishi narsa-hodisalarni konkret nomlanishiga qaratilgan shartli ravishdagi ishorani anglatuvchi simvol (ramz) so‘zi bilan belgilanadi.

Modernizm. XX asr boshlarida simvolizm o‘rnida futurizm, ekspressionizm, dadaizm, abstraksionizm, syurrealizm singari oqimlar faoliyat ko‘rsatdi. Ular modernistik yoki avangard oqimlar deb atala boshlandi. Yangi asrning 20 - yillarigacha — avangard adabiy maktab va oqimlarining shakllanish davri bo‘ldi. Bular qatoriga futurizm, syurrealizm va boshqa oqimlar kiradi. Adabiyotshunoslikda modernizm atamasi turlicha talqin etiladi. Ba’zi adabiyotshunoslar modernizm va dekadansga bir xil hodisa, deb ta’rif beradilar. Boshqa tadqiqotchilarning qarashlariga ko‘ra, modernizm dekadansga nisbatan ancha keyingi adabiy hodisadir. Modernizmnning dekadans bilan umumiy tomonlari bo‘lishiga qaramay, dekadansdan keyin paydo bo‘lgan va undan ko‘p jihatdan farq qiluvchi yo‘nalishdir. Yana bir ta’rifga ko‘ra, yangi davrdagi barcha avangard oqimlarni modernizm deb atash mumkin. Shunday qilib, modernizm dekadansdan keyin paydo bo‘lgan, biroq o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan jarayon. Modernistlar ko‘p tomonlari bilan dekадentlarga hamfikr ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Idealistik falsafaga tayanish, shaxsiyatparastlikni ulug‘lash va boshqa jihatlar ularni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, modernchilar o‘zlarini dekadent deb atamaydilar.¹⁴

2. Modernizm va Kafka ijodi (1883–1924). F.Kafka XX asr jahon adabiyoti rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Vafot etganiga 90 yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramay, uning asarları yuzasidan olib borilayotgan bahslar hali hanuz tugagani yo‘q. Ba’zilar uning asarlarini so‘zsiz qabul qilsalar, boshqalar ana shunday qat’iyat bilan rad qiladilar. Ba’zilar uni otashin insonparvar deb e’lon qilgan bo‘lsalar, ayrimlar buning aksi ekanini isbot qilmoqchi bo‘ladilar. Uning ijodini ekspressionizm, syurrealizm, naturalizm estetikasi bilan bog‘lashga harakat qiladilar. Millati – yahudiy, yashash joyi Praga, tili va madaniyati nemischa bo‘lgan Kafkaning tarjimai holi voqealarga boy emas. O‘rtahol yahudiy oilasida tug‘ilgan Frans nemis gimnaziyasini tamomlagach, 1901–1905-yillarda san‘at tarixi va germanistika bo‘yicha ma’ruzalar tingladi. 1906–1907-yillarda Praga advokatlik idorasida ish o‘rgandi. Huquqshunoslik bo‘yicha doktorlik darajasiga ega bo‘lishiga qaramay katta mansablarga erisha olmadı. 1917-

¹⁴ Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov, Jahon adabiyoti. O’quv qo’llamma. T.: 2017 B-232

yili sil bilan kasallangach, tanaffuslar bilan 1922-yilgacha ishladi. 1923-yili Berlinga keldi va o‘zining qolgan umrini adabiyotga bag‘ishlashga qaror qildi. Yozuvchi 1924-yilning 3-iyunida Praga yaqinidagi Kirling sihatgohida vafot etdi. F.Kafka 1915-yoldayoq adabiyot sohasidagi mukofotga sazovor bo‘lganligiga qaramay mashhurlik o‘limidan keyin nasib etdi. Kafka o‘z asarlarini chop ettirishga qiyinchilik bilan rozilik bergan. Shu sababli tirkligida uning faqat quyidagi asarlari nashrdan chiqqan: 1905-yili “Bir kurash bayoni” novellasidan ikkita parcha, 1908-yili asarlaridan sakkizta parcha, 1913-yilda birinchi hikoyalar to‘plami va “Amerika” romanining birinchi bobti, 1916-yilda “Hukm” va “Evrilish” novellalari, 1917-yili “Qishloq vrachi” to‘plami va “Axloq tuzatish koloniyasida” novellasi. Kafkaning tugallanmagan 3 romani “Jarayon”(1925), “Qasr”(1926), “Amerika”(1927) o‘limidan so‘ng chop etildi. Hozirgi paytga yozuvchining adabiy merosi 10 jildni tashkil etadi. Yozuvchi “Amerika” romani ustida 1911-1916-yillarda ishladi. Asarda ota-onasi tomonidan o‘n olti yoshida Amerikaga jo‘natib yuborilgan Karl Rossman haqida hikoya qilinadi. O‘ta kamtar, sodda, ishonuvchan, oqko‘ngil, hammaga doimo yordam berishga tayyor Karl hayotda ko‘p qiyinchiliklarga uchraydi. Kemada suzib ketayotganidayoq u loqaydlik va adolatsizlikka duch keladi. Amerikaga kelgach, yigitcha birmuncha muddat taqdirning siyloviga sazovor bo‘lganday bo‘ladi. Ikki oyga yaqin qandaydir badavlat amakisining uyida yashaydi, lekin amakisi hech qanday sababsiz Karlni ko‘chaga haydar yuboradi. Ko‘chada u ikki daydi – Delyamarsh va Robinson bilan tanishadi, ular bilan birgalikda mamlakatni kezib chiqadi. “Oksidental” mehmonxonasingning katta oshpazi Karlni ishga joylashtirishga yordam beradi, unga har tomonlama homiylik qiladi. Mast bo‘lib kelgan Robinsonga achinib, unga yordam qo‘lini cho‘zgan qaharamon 2-3 daqiqaga postini tashlab ketadi. Buning uchun Karl qattiq so‘roq qilinadi. Hatto yigitchaga har doim iltifot ko‘rsatib kelgan oshpaz ayol ham uni jinoyatchi deb hisoblaydi. Bu qanchalik kulguli, mantiqsiz bo‘lsada, u ishdan haydaladi.

3. Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari, yo‘nalishlari

Modernizm juda rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa bo‘lib, u inson (ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, falsafiy, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi jiddiy o‘zgarishlar negizida maydonga kelgan. O‘zgarishlarning salmog‘i g‘oyat og‘ir tosh bosadi. U badiiy tafakkur shaklidagi o‘zigacha mavjud bo‘lgan an‘anaviy qarashlarni inkor qiladi. Modernizm haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug‘atda shunday deyiladi: “MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san’at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy

nomi sifatida tushuniladi. Modernizm o‘tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo‘nalishlar (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.) o‘ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. Modernizm doirasidagi maktab va oqimlar nechog‘li turfa bo‘lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an’analarni ham dunyoqarashidan ham uzilib, F.Nitsshe, Z.Freyd, A.Bergson, U.Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi. Shunga mos tarzda modernizm yo‘nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an’analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da‘vosini olg‘a suradi. Modernizmga xos umumiylardan biri shuki, u ob‘ektiv voqelikning tasviri o‘rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya’ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi (ekspressionizm) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda sub‘ektivlikning oldingi o‘ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intiutiv bilishning yuqori qo‘yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayricha e’tibor berilishi (ong oqimi), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o‘z o‘y-hislarini hech qanday (ma’naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovgarsiz ifodalash huquqining e’tirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g‘oyaviy, mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. Bu hol modernizmdagi badiiy obraz strukturasi, asarning sub‘ektiv va ob‘ektiv tashkillanishi, bayon tarzi, syujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o‘ziga xosliklarni yuzaga keltiradi”.¹⁵

Manbalar aytadiki, modern istilohining paydo bo‘lganiga 1000 (ming) yildan ko‘proq vaqt bo‘lgan. Modern so‘zi “...ilk bor milodiy V asrda qo‘llangan bo‘lib, rasmiy maqom egallab borayotgan zamonaviy masihiylikni o‘tmishdagi majusiy Rimdan ajratish uchun qo‘llana boshlagan. Zotan, masihiylik oqimi Rim uchun tamomila yangilik edi, chunki Yahudiya uzoq yillar garchi Rim imperiyasi tarkibida bo‘lsa ham, masihiylikka ashaddiy qarshilik qilib keldi. Ammo masihiylik majusiylikka nisbatan ilgor, o‘z davridagi progressiv oqim bo‘lgani uchun barcha qarshiliklar behuda bo‘lib qoldi”¹⁶.

Modernizmnning asosiy darakchilari deya Dostoevskiy (“Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar”), Uitmen (“Maysalar yaproqlari”), Bodler (“Yovuzlik chechaklari”), Rembo (“Dil yorishishi”) va Stringberg (so‘ngi pesalari) kabi

¹⁵ Adabiyotshunoslik lug‘ati. - T.: Akademnashr, 2010.

¹⁶ Juhon adabiyoti: modernizm va postmodernizm.O‘quv qo‘llanma, T.: 2020

yozuvchi, shoir va dramaturglar esga olinadi. Ijodkorlarga kuchli ta'sir qilgan faylasuf va ruhshunoslardan Fridrix Nitsshe, Anri Bergson, Zigmund Freyd, Uilyam Jeyms va boshqalar nomini sanash mumkin. Sho'ro davrida modernizmga ta'qiq qo'yildi. Bu ishning o'ziga yarasha arzigulik sabablari bo'lsa-da (chunonchi, modernizm mutlaq individualizmni yoqlaydi, axloqiy chegara tanimaydi, har qanday an'anani inkor qiladi, Ovrupa madaniyatini boshqa madaniyatlardan ustun qo'yadi va h.), oqimning dunyo tan olgan, jahon adabiyotida alohida mavqyega ega bo'lган vakillari bor ediki, ularning asarlarini man qilish insonni yaxshi bilmaslik, uning badiiy tafakkur tadrijini mensimaslik bilan teng edi. Zero, modernizmni bilishga intilish insonni bilishga, uning botinidagi puchmoqlarga bo'yashga, ichkaridagi ziddiyatlardan boxabar bo'lishga intilishdir. "Modernizm nima?" degan savolga dunyo va o'zbek olimlari ko'pdan beri javob berib kelishadi, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo'q. Ko'rinish turganidek, qarashlar har xil, ziddiyatli. Bahsu munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Modernizm XIX asr so'ngi choragida dastlab kayfiyat dunyoqarashda, so'ng tasviriy san'atda, keyinchalik adabiyotda Ovrupada paydo bo'lган san'at yo'naliishi hisoblanadi. Modernizmning yana bir nomi "dekadans" bo'lib, buhron, inqiroz ma'nolarini anglatadi. Bu narsa burjua tuzumining ich-ichidan buhronga yuz tutishi bilan bog'liq. Ya'ni avval burjua jamiyatida inqiroz yuz berdi, so'ngra san'atu adabiyotda modernistik oqim tug'ildi. Modernizmning aniq paydo bo'lish vaqtini har xil ko'rsatishadi. Ayniqsa, uning ijodkor badiiy-tafakkuriga ta'siri jahon urushlaridan keyin keskin kuchayib borgan. Chunki inson nomi va sha'niga munosib kelajak qurish orzusi bilan yashayotgan odamzod jahon urushlari vaqtida million-million begunoh turdoshining yostig'i quriganini o'z ko'zları bilan ko'radi. Natijada u bu dunyonи tadbirlar bilan tuzatib bo'lmaydi deb, butun e'tiborni botinga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo'la oladi, degan qarash modernizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Ilgari adabiyot tashqarini erinmay ta'riflab chiqardi, bugun esa u qiziq bo'lmay qoldi, inson uchun uning ko'ngli qiziq. Realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarataman, deydi. Chunki mavjud reallikni tuzatib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi. Modernizmdan so'ng maydonga postmodenizm tushdi. Uning davri ham, sifat darajasi ham farqlanadi.

Modernizm bu – XX asrga kelib, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'naviy sohadagi taraqqiyoti tufayli onglarda sodir bo'lган ulkan o'zgarish – tafakkur tarzdagи yangi bosqich. U ma'lum muddat davning umumiy, universal kayfiyati darajasiga chiqdi. U realizmga qarshi emas, balki realizm zaminida (materialida) barpo etilgan zamонавиyliking yangi qasri bo'lib dunyoga keldi, yashadi. Modernizm haqida so'z borganda, uning o'zak muammolarini qamrab olgan quyidagi masalalar mazmun-mohityatini tushunib

olish lozim bo‘ladi. Modernizm va mifologiya munosabatlari, modernizm yo‘nalishlari hisoblangan ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm kabi oqimlar, elitar(xos) san’at, “san’at san’at uchun” tamoyili, Joys, Kafka, Prust, Bekket kabi g‘arb yozuvchi va dramaturglarining ijodi, Sartr ekzistensializmi, Kamyu absurd falsafasi, modernizm va XX asr Sharq adabiyoti kabi masalalar mohiyatini anglash modernizm haqidagi tushunchalarimizni ancha tiniqlashtiradi.¹⁷

Modernizmning Joys, Kafka, Kamyu, Bekket, Prust, Vulf, Folkner, Eliot kabi yirik namoyandalari bor bo‘lib, ijodkor sifatida ularning har biri alohida-alohida qiyofaga ega.

4. F. Stendalning “Qizil va qora” asari

“Qizil va qora”—fransuz yozuvchisi Stendal qalamiga mansub roman. “Qizil va qora” romanining nomi juda ko‘p bahs-munozaralarga va hayratga sabab bo‘ldi. Uni tushunish chuqur mulohaza talab qilar edi. XIX asrning ikkinchi va uchinchi o‘n yilliklarida yozuvchilar asarlarga g‘ayrioddiy, sirli no‘mlarni qo‘yishni odat qilib oldilar. Ammo Stendaldan farqli o‘laroq, ular har doim u yoki bu shaklda o‘z yechimini taklif qilgan matn bilan izohlangan. “Qizil va qora” asarining sarlavhasida o‘ziga xos topishmoq yashiringan.

Qizil—bu shijoatli yoshlik, oliv maqsadga erishish istagi, jo‘shqin qon ramzi. Qora—shu maqsadga yetish uchun oson yo‘l, hiyla-nayrang bilan erishiladigan cho‘qqi. Asar syujeti Stendal Grenobl gazetasida o‘qigan maqoladan olingan. Bu o‘sha davrga xos bo‘lgan odatiy holat. Fransiyaning Verer deb nomlangan kichik shaharchasining meri janob de Renal o‘z uyiga Juliyan Sorel ismli yigitni ishga oladi. Shuhratparast Juliyan teologiyani o‘rganadi, lotin tilini mukammal biladi va Injil sahifalarini yoddan o‘qydi, bolaligidan shon-sharaf va tanilishni orzu qiladi, shuningdek, Napoleonga qoyil qoladi. Uning fikriga ko‘ra, ruhoniylilik kasbi yuqori martabalarga erishish uchun eng ishonchli yo‘l edi. Uning xush muomalasi va aqli janob de Renalning fe’l-atvoridan keskin farq qiladi, uning xotini asta-sekin Juliyyenga xayrixohlik bilan qaray boshlaydi va natijada u Juliyenni sevib qoladi. Lekin madam de Renal taqvodor ayol bo‘lib, u doimo vijdon azobidan qiyaladi. Kunlarning birida aldangan erga xotini xiyonat qilayotgani to‘g‘risida ogohlantirish bilan noma’lum xat keladi. Juliyan Madam de Renal bilan oldindan til biriktirib, xuddi shunga o‘xshash xatni go‘yoki ayolga ham kelganga o‘xshatib yozishadi. Ammo shahar bo‘ylab

¹⁷Hamdamov U, Qosimov A. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm.O‘quv qo‘llamma. «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

mish-mishlar tarqaladi va Juliyan ketishga majbur bo‘ladi. U Bezansondagi diniy seminariya rektori abbat Pirarni o‘z bilimi bilan qoyil qoldiradi va shu seminariyaga joylashadi. Uning do‘sti, boy va obro‘li Markiz de La Mol abbatni Parijga ko‘chib o‘tishga taklif qiladi va unga poytaxtdan uzoq bo‘lmagan joydan yer beradi. Markiz o‘ziga kotib qidirayotganini aytganda Pirar Julienni “ham kuchga, ham aqlga ega“ inson sifatida taklif qiladi. U Parijda kelganidan juda xursand edi. O‘z navbatida, Markiz Juliennenning mehnatkashligi va qobiliyatli ekanini sezadi va unga eng murakkab ishlarni ishonib topshiradi.

Shuningdek, u dunyoviy jamiyatni ochiqchasiga sog‘inadigan Markizning qizi Matilda bilan uchrashadi. Matilda erka va xudbin, ammo ahmoq emas va juda chiroyli qiz edi. Qizning mag‘rurligi Juliennenning befarqligidan xafa bo‘ladi va qiz to‘satdan unga oshiq bo‘lib qoladi. Juliyan o‘zaro ehtirosni his qilmaydi, ammo oqsuyak zodagon xonimchaning e’tibori uni xushnud etadi. Birgalikda o‘tkazgan bir kechadan so‘ng Matilda dahshatga tushadi va Juliyan bilan aloqani uzadi. Juleunning do‘sti, knyaz Korazov, boshqa ayollarga jilmayish orqali Matildaning rashkini keltirish kerakligini maslahat beradi va reja kutilmaganda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Matilda Jülyenga yana oshiq bo‘lib, keyin u farzand kutayotgani va unga turmushga chiqishni istayotgani haqida xabar beradi. Biroq Juleunning yorqin rejalarini madam de Renalning to‘satdan kelgan xati bilan parchalanib ketadi. Ayol yozadi: qashshoqlik va ochko‘zlik, ikkiyuzlamachilikka qodir bo‘lgan bu odamni kuchsiz va baxtsiz ayolni yo‘ldan ozdirishga undadi va shu tariqa o‘zi uchun o‘ziga xos sharoit yaratib, odamlarga qo‘sildi... U hech qanday din qonunlarini tan olmaydi. Rostini aysam, uning muvaffaqiyatga erishish usullaridan biri — u kelgan uylardagi eng katta ta’sirga ega bo‘lgan ayollarmi yo‘ldan ozdirish deb o‘ylashga majburman. Markiz de La Mol Julienni ko‘rishni istamaydi. Juliyan madam de Renalni oldiga yo‘l oladi, yo‘lda qurol sotib oladi va cherkovda sobiq sevgilisini otadi. Madam de Renal jarohatlardan o‘lmaydi, ammo Julienni hibsga olishadi. Matilda pul va oilasining ta’siri yordamida Julienni har qanday yo‘l bilan qutqarishga qaror qiladi, buning uchun u eng obro‘li abbat Frilerdan yordam so‘raydi. Abbat esa yepiskoplilik rutbasi evaziga hakamlar hay’ati tomonidan Juliennenning oqlanishiga erishmoqchi bo‘ladi, bundan tashqari, Renal xonimning o‘zi ham hakamlar hay’atidan muvaffaqiyatsiz bo‘lgan o‘z qotilini oqlashni so‘raydi. Bu katta ommaviy rezonans keltirib chiqargan jarayon ayblanuvchiga to‘liq hamdardlik bildiradigan ko‘plab tomoshabinlarni jalb qiladi. Sudda hamma narsa Juliennenning foydasiga hal bo‘layotgan edi, lekin uning burjuja jamiyatini tanqid qilgan nutqidan keyin sud hay’ati bir ovozdan uni o‘lim jazosiga hukm qiladi.

Qamoqda u yana madam de Renal bilan yarashadi va qotillik qilishga uringanligi uchun tavba qiladi. U har doim faqat uni sevganligini

tushunadi. Madam de Renal qamoqxonada uning oldiga keladi va o'sha xatni boshqa odam yozib bergenligini, u esa faqat uni ko'chirib yozganligini aytadi. Bu xat orqali uni Matildadan ajratish fikri esa faqatgina kuchli rashk tufayli paydo bo'lganini aytadi. Juliyan o'lim jazosiga hukm qilingandan so'ng, u hayotda hamma narsaga erishganligini va o'lim bu yo'lni tugatishini aytib, sudga qayta murojaat qilishdan bosh tortadi. Madam de Renal Juliyan qatl etilganidan uch kun o'tgach vafot etadi. Matilda Juliennenning dafn marosimini uyuşdırırdı.

Stendalning hayoti davomida e'tibordan mahrum bo'lgan "Qizil va qora" romani keyingi avlodlar ongida qayta uyg'ondi deyish mumkin. Ushbu kitob o'sha davr jamiyatni yuziga tutilgan oyna bo'lib, unda Fransiya aholisi aks etishni xohlamagan. Aytish mumkinki, Juliyan asta-sekin martaba pog'onasiga ko'tarilib borgani sari o'zini o'zi o'ldira boshlaydi. U jamiyatni, uning kelib chiqishini shubha ostiga qo'yadi va har qanday holatda ham ko'plab cho'qqilarni zabit etishga qaror qiladi xuddi Napoleon Bonapart bir vaqtlar dunyoni zabit etishga intilgani kabi. Hamma narsada eng zo'r bo'lishga va buyuklikka intilish uni yo'q qildi. Ammo u urinib ko'rди. Bu yomonmi? "*Har doim boshqalar kutgan narsaga mutlaqo zid ish tuting*" — seminariyada eshitgan shu gaplar unga yo'lko'rsatuvchi nur bo'lib qoldi. Burjua jamiyatiga tez kirib borar ekan, hamma uni hurmat qila boshlaydi, garchi shunchaki qishloqi bola bo'lsa ham, uning shunday qat'iy, tengsiz odamlar orasida o'zini tuta olishini kim kutgan edi? Oddiy ishchilar o'z qo'llari bilan, zodagonlar esa aql bilan ishlaydi. U bu stereotipni buzdi.

Asarning eng nafratlanarli qismi bu sevgi. Qahramonlar fransuz romanlarining eng yaxshi an'analariga ko'ra yoritilgan, ular sevgilisi uchun jonini berishga tayyor bo'lgan fidoyi, samimiylar qizlardir. So'ngi sahifalarga qadar ular bizning qahramonimizni, u qanchalik azob chekmasin, tark etmaydilar. Juliennenning qiyofasining shakllanishida ular asosiy rol o'ynadilar.

Juliyendagi jamiyatning bosimi tabiat tomonidan unga berilgan barcha ezgu tamoyillarni yo'q qildi. Bu 16 yoshli o'quvchi tabiatdan ilhomlanib, ozod bo'lishni orzu qilgan (bu uning romantik qahramon sifatidagi xususiyatlarini namoyish etadi), katta mavqega ega odamlar yashaydigan dunyoning haqiqiy tasvirini ko'rmaguncha ruhan Xudoga intilgan. Aqliy notinchlik unga hech qachon taskin bermaydi, chunki bu qahramon doimo bor va rivojlanishda, doimiy harakatda, u suv singari oqadi va uni na yaxshi, na yomon odamga ajratib bo'lmaydi. Uning de Renal xonimning bolalariga bo'lgan samimiylar sevgisini, Abbat Pirarga, Shelanga bo'lgan hurmatini eslang. Va bundan farqli o'laroq, tarozining ikkinchi pallasiga uni hamma yomon ko'rishi sabab bo'lgan xislatlarni qo'ying.

Ushbu tarozilar doimo o'zgarib turadi va hech qachon muvozanatda bo'lmaydi. Hamma uni bir tomonlama qoralashi mumkin. Uzoq yo'l bosib, u hamma ishlaridan tavba qiladi, bu unga o'xshash odamlar uchun ideal maqsaddir.

Inson ruhiyati avvalambor o‘zining oldida poklanadi bu — chinakam cho‘qqiga erishishga intilishdir.¹⁸

Romanda doimiy fitna va sevgi ishlari bilan tavsiflash mumkin bo‘lgan odatiy fransuzlar o‘rtasidagi munosabatlar tasvirlangan. Ushbu asar syujeti Onore de Balzakning “Sag‘rin teri” asarini eslatadi. Ayollar va yolg‘onchi erkaklar tomonidan qilinadigan hiyla-nayranglar, albatta, qahramonlarning xarakterini ochib beradi. Bu asar o‘z zamonining juda yuqori sifatlari satirasidir.

Stendal jamiyatning chiriganligini, butun tizimning qanchalik buzuqligini mahorat bilan ko‘rsatgan, nafaqat adolat, balki lavozimlarga tayinlanish va oila institutida, lekin, eng yomoni, bularning hammasi asrlardan keyin ham o‘zgarmaydi. Bundan tashqari, muallif sizga Juliyenning ichki zarbalari orqali toza qalbingiz bo‘lsa ham, uni baribir yo‘q qilishingiz mumkinligini ko‘rsatadi. Bizning qahramonimiz avliyo emas, bundan tashqari, u katta gunohkordir, o‘sha davrdagi barcha yomonliklar unda mayjud. Stendal asarni “Qizil va qora“ deb bejiz nomlamagan. Mening nazarimda, qizil – ichki g‘alayon, jo‘shqin qon, yoshlik, adolatni qaror toptirishga intilish, orzularini amalga oshirish, biron narsaga erishish istagidir.

5.Evropada teatr san’atining rivojlaniishi va dramaturgiya janrining adabiy jarayonga ta’siri

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini antik teatrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ma’lumki, antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog‘liq ulug‘vor g‘oyalar sifatida dunyoga kelgan edi. Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurtni jo‘shqin sevish, qadrlash e’tiqodlarini tarannum etdilar. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komediya janrlariga oid benihoya go‘zal, badiiy yuksak adabiy namunalar yetib keldi. XV asrdan boshlangan Uyg‘onish davrida Italiya zaminida antik badiiy ijod an‘analari qayta o‘zlashdirilib, yangi davr teatriga asos solindi. Uyg‘onish pallasining ilk tragediyalari, komediyalari, drama san’atiga oid nazariy risolalar shu zaminda dunyoga keldi. Biroz keyin Ispaniya teatri va nihoyat, Angliya zaminida Shekspir ijodi misolida Ovro‘po teatri o‘zining yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tariladi. XVII asr fransuz klassitsizm teatri ham Uyg‘onish davri teatri rivojining davomi bo‘lib, Ovro‘po badiiy ijodiyotida yangi san’at hodisasiga aylandi. Ayni shu davrda fransuz oliy komediyasining asoschisi Molyer ijod qilgan edi. XVIII asrda

¹⁸ Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov. jahon adabiyoti. «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

teatr xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanadi: Angliyada Sheridan, Fransiyada Volter, Didro, Bomarshe, Italiyada K. Goldoni, K. Gotssi, Germaniyada Lessing, Gyote, Shiller ma'rifatparvarlik dramaturgiysi va estetik tamoyillarining namunaviy asarlarini yaratib, teatr san'atini umumxalq minbariga aylantirish g'oyasini amalda ro'yobga chiqarishga intildilar.

XX asrda adabiyot va san'at turli falsafiy maktab, siyosiy g'oyalar ta'sirida misli ko'rilmagan yangi va xilma-xil ifoda usullari va shakllari bilan boyidi. Birinchi jahon urushi mahsuli sifatida Germaniyada tug'ilgan ekspressionizm, B. Brext tomonidan «epik teatr» sistemasining yaratilishi, Fransiyada taraqqiy topgan tafakkur dramasi, Angliyada «alamzada yoshlar» adabiy harakati, italyan neorealizm san'ati, AQSHda Yu. O'nil, T. Uilyams ijodlari misolida psixologik drama yo'nalishining taraqqiy topishi — bular har bir mamlakat doirasida o'zicha, lekin umumovro'po miqyosida bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik kasb etgan ko'p qirrali teatr san'atining ayrim yo'nalishlari, xolos. XX asrda AQSH teatrining Ovro'po teatri taraqqiyoti darajasiga ko'tarilganligi ham alohida diqqatga loyiq holdir. Shu davrda J. Gilgud, L. Olive, Piter Bruk (Angliya); J. Filip, Jan Vilar (Fransiya), J. Streler (Italiya), Elia Kazan (AQSH) kabi yirik aktyor va rejissorlar turlicha yo'nalish va uslublarda ijod qildilar. Dramaturgiya va sahna san'ati shu darajada rang-barang-ki, ulardagi badiiy oqimlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ayni zamonda har bir mamlakat teatr san'ati tarixi alohida ko'zdan kechirilganda, ular dramaturgiysi va teatrning mustaqil va o'ziga xosligi nisbiy ekani ham ko'zda tutilishi lozim. Butun olam teatr spektaklining harakat maydoniga, bu olamda yashovchisi odamlar taqdirining bir-biriga bog'liqligini anglash tamoyillari ijodiyotning bosh mafkuraviy mezoniga aylanib boradi. G'arbiy Ovro'po va AQSh dramaturglari, sahna ijodkorlari davr ijtimoiy qarama-qarshiliklарini aynan shu nuqtayi nazardan tahlil etib kelmoqdalar.

Qadimgi yunon teatri. Ovro'po zaminidagi eng qadimi teatr madaniyatini yunonlar va rimliklar yaratgan. Yunon teatri eramizdan avvalgi V asrda gullab-yashnagan. Rim teatri esa yunon teatridan keyin paydo bo'ldi va uning gullah davri eramizdan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi va II asrga to'g'ri keldi. San'at bobida bizga antik (qadimgi) davrdan ulkan meros qolgan. Antik olam me'morchiligi, haykaltaroshligi, adabiyoti va san'ati keyingi zamonlarda muttasil o'rganish va ergashish manbai bo'lib keldi. Uyg'onish davrida, masalan, ilk komediya va tragediyalarni yaratishda antik davr mualliflarining asarlari namuna bo'lib xizmat qildi. Keyingi davrlarda ham G'arbiy ovro'polik dramaturglar (Shekspir, Kornel, Shiller, Gyote) antik davr teatr merosi boyliklariga faol murojaat qilib kelganlar. XX asrda ijod qilgan ko'pgina dramaturglar ham (Gauptman, O'nil, Sartr, Anuy va boshqalar) antik sujet va obrazlardan barakali foydalanganlar.

Yunon tragediyasining kelib chiqishi tragediya va komediya so‘zлari orqali ham oydinlashadi. Tragediya so‘zi ikki yunon so‘zidan tarkib topgan: tragos — «echki» va ode — «qo‘shiq», ya’ni «echki qo‘shic‘i» demakdir. Bu tushuncha yana bir bor Dionisning yo‘ldosh va hamrohlari — satirlar echki tuyoqli maxluqlar taxlitida tasavvur etilganini ko‘rsatadi. Komediya so‘zi komos va ode so‘zlaridan kelib chiqqan. “Komos — bu Dionis sha’niga atalgan qishloq bayramlarida masxaraboz va qiziqchilar ning shirakayf bo‘lib, bir-biridan kulib, qo‘shiqlar aytib namoyish qilib yurishlarini anglatgan. Demak, komediya so‘zi “komos qo‘shic‘I” degan ma’noni anglatadi. Yunon tragediyasi, odatga ko‘ra, har bir yunonga yaxshi tanish bo‘lgan mifologiya sujetlariga asoslangan. Shu bois tomoshabinni voqeanning o‘zi emas, balki muallifning ma’lum rivoyatni qanday talqin etgani, qanday ijtimoiy va axloqiy muammolarni olg‘a surgani qiziqtirgan. Dramaturg rivoyat bahonasida zamonaliviy siyosiy hayot masalalarini olg‘a surishi va o‘zining axloqiy, falsafiy va diniy qarashlarini yaratishi lozim edi.

Qadimgi Yunonistonda teatr tomoshalarini tashkil etish bilan bog‘liq jamiki ishlarga davlatning o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. Dramalar Dionis sha’niga atalmish: Kichik yoki Qishloq Dionisiyi (dekabr — yanvar); Leney (yanvar — fevral); Ulug‘ yoki Shahar Dionisiyi (mart — aprel) degan uch bayramda namoyish etilgan. Drama tomoshalari dramaturlarning o‘zaro musobaqasi tarzida o‘tkazilgan.

Qadim zamondan bizgacha ko‘hna yunon san’ati klassik davri yutuqlarini umumlashtiruvchi bitta-yu bitta asar yetib kelgan. Bu Aristotel (Arastu) ning yunonlarning qadimi davridan (Homerdan boshlab) eramizdan avvalgi IV asr o‘rtalarigacha bo‘lgan san’ati haqidagi mo‘jaz «Poetika» risolasidir. Aristotel (eramizdan avvalgi 384—322 yillar) antik olamning yirik mutafakkirlaridan, faylasuf — qomuschi, Aleksandr Makedonskiyning ustozи bo‘lgan. U umrining ko‘p qismini Afinada o‘tkazgan. Aristotel tabiiy fanlar, falsafa, tarix, huquq, axloq, tibbiyot va boshqa sohalar bo‘yicha risolalar yaratgan. Adabiyot va teatr tarixi bobida uning «Poetika» asari eng ahamiyatlisidir. «Poetika» to‘laligicha saqlanmagan. Uning san’atning estetik ahamiyati, estetik idrok etishning mohiyati, ba’zi san’at turlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqidа so‘z boruvchi birinchi qismi bizgacha yetib kelgan. Aristotelning fikricha, san’atning tub mohiyati hayotiy borliqni haqqoniy aks ettirishdan iborat. Aynan shu sababdan ham san’at bilish va estetik zavq berish qimmatiga ega. San’at vogelikni gavdalantiribgina qolmay, uni badiiy tarzda tushuntirib ham beradi. Aristotelning fikricha, san’atda kishilar hayotidan olingen turli voqealar emas, shuningdek, yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealar ham aks ettiriladi. Zotan, shoир tarixchidan farqli ravishda voqealar sharhchisi emas, balki vogelikni badiiy umumlashtiruvchi mutafakkirdir. Risolada Aristotel jiddiy poeziyaning asosiy janri deb hisoblagan tragediya haqidagi ta’lim yetakchi o‘rin tutadi. Aristotelning fikricha, “tragediya muayyan hajmli, turli

qismlari til yordamida turlicha sayqallangan bayonot vositasida emas, balki xatti-harakat orqali gavdalantiriladigan achinish va qo‘rquv bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqeа tasviridir”. Aristotel tragediya olti tarkibiy qismdan iborat bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Bular — fabula (voqeа), sajiyalar (xarakterlar), fikrlar, so‘z ifodasi, musiqa qismi, sahnnaviy shart-sharoit. O‘z ahamiyati jihatidan bu qismlar bir xil qimmatga ega emas. Aristotel fabulaning tarkibiy birligi masalasini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Fabula tugal, yaxlit va ma’lum hajmga ega bo‘lishi kerak.

Uyg‘onish davri va XVII asr klassitsizm teatri. Uyg‘onish davrida teatr san’ati xayot ko‘zgusi hisoblanib, ko‘p qirrali inson xarakteri, real voqelik ziddiyatlarini aks ettirishga alohida ahamiyat berdi. Bu davr teatr namoyandalari antik drama tajribalaridan foydalanib xalq tomosha san’ati an’analarini rivojlantirdilar, kundalik hayot zavq-shavqini idrok qilishga da’vat etilgan dunyoviy sahna asarlarini yaratishga harakat qildilar (L. Ariosto, A. Politsiano, N. Makivelli va boshqalar). Ispaniyada Uyg‘onish davridagi teatr rivoji M. Servantes va Lope de Vega, Angliyada U. Shekspir ijodi bilan bog‘liqidir. Uyg‘onish davrida teatr san’ati professional omillari kuchaydi, dramaturgiya va aktyorlik san’ati nazariyasi qaror topdi, ilk teatr binolari qurildi.¹⁹

Bu davrga kelib, dunyoviy shukuhbaxsh teatr san’atining keng taraqqiy etishi uchun o‘rtा asrcha mutaassibona qarashlarga to‘siq bo‘la oluvchi yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi talab etilardi. Shunday ijtimoiy munosabatlar Ovro‘po mamlakatlarida XIV— XVI asrlarda ro‘y berdi. Tarixga Uyg‘onish (Renessans — fr. Renatssance) davri sifatida kirgan bu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot davri Ovro‘po teatr san’ati tarixida yangi rivojlanish davrini belgilab berdi. Erkin, hur inson aynan Uyg‘onish davrida jamiyatning oliy tilagiga aylanadi.

Renessans davri teatri XV—XVI asrlar bo‘sag‘asida Italiyada shakllanadi, so‘ng Ispaniyada yangi taraqqiyot bosqichiga kirib Angliyada Shekspir zamonda kamolot cho‘qqisiga ko‘tariladi.

XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida Londonda uch xil teatr: saroy, shaxsiy va ommabop teatrlar faoliyat ko‘rsatgan. Dramaturgiya va sahna san’ati taraqqiyotini aynan ommabop teatrlar belgilab bergen. Bu teatrlar tashkiliy jihatdan ikki turga bo‘lingan edi: biri aktyorlarning o‘zлari tomonidan boshqariladigan hissadorlik (paychilik) va yana biri kapitalistik tijorat asosiga qurilgan teatrlar edi. Tijoriy teatrlar tizimida bino, libos, sahnnaviy jihozlardan tortib barcha moddiy ashyolar teatr egasi — tadbirkorning xususiy mulki hisoblangan. Bu xil teatrlarda tadbirkor foya ko‘rishni ko‘zlab, arzon-garovga kerakli pyesa topgan, truppa

¹⁹ Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. O‘quv qo‘llanma.«Fan va texnologiya* nashriyoti, 2008-y.

yollagan. Filipp Genslo shunday teatr egalaridan bo‘lib, bir necha teatrga egalik qilgan. Londonda barcha teatrlar shahar hokimiyati tasarrufidagi hududlardan tashqarida, Temza daryosi qirg‘oqlarida joylashgan edi. “Shahar buzrukvorlar” teatrni “andishasizlik makoni” deb e’lon qiladilar. 1576-yilning 6-dekabrida Londonda teatr tomoshalarini ko‘rsatishni man etish haqida buyruq chiqariladi. Aktyorlar, asosan, huquqsiz kambag‘al kishilardan iborat edi, ular qirollikning rasmiy hujjatlarida uysiz daydilar qatoriga kiritilgan bo‘lib, biror aslzoda homiyligiga olinmagan taqdirda shafqatsiz ravishda jazolanar edi.

Fransuz teatri. XIX va XX asrlar oralig‘i tarixidan shiddatli g‘oyaviy-badiiy izlanishlar teatri sifatida o‘rin oldi. 1870-1880-yillari Ovro‘po san‘atida yetakchi yo‘nalishga aylangan naturalizm uslubi aynan Fransiyada o‘zining tugal takomilini topadi. E.Zolyaning teatrni demokratlashtirish, dramaturgiyani sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish haqidagi estetik qarashlari butun Ovro‘po miqyosida xayrixohlik bilan qabul qilinadi. Zolya teatrni tubdan qayta qurish dasturini ishlab chiqarkan, rejissura masalasini alohida masala tarzida ko‘zdan kechirmagan. Holbuki, u ko‘zda tutgan teatr bu — dramaturg teatrigina emas, avvalo, rejissor teatridir. «Tereza Raken» (1873) Zolyaning eng yirik pyesasi hisoblanadi. Unda muallif hayotni aniq va haqqoniy tasvir etishning “umumiyl naturalistik usuli”ni belgilashga harakat qildi.

“Inson hayotini fayzli qiluvchi jamiki aql-zakovat ne’matlari orasida bizni tubsiz hayratga soluvchi ne’mat — teatrdir”. Bular XX asrning atoqli so‘z ustasi, dramaturg va teatr nazariyachisi Romen Rollan qalamiga mansub so‘zlardir. Ko‘p jiddlik “Jan Kristof” va “Maftunkor qalb” romanlarining muallifi Rollanning yozuvchilik, publisistlik, san‘at tadqiqotchiligi sohalarida kechgan ko‘p qirrali faoliyatida dramaturgiya sezilarli o‘ringa ega. Uning qalamiga mansub o‘n ikki pyesaning birinchisi — “Valine’mat Lyudovik” 1897-yili yozilgan bo‘lsa, “Robesper” degan so‘nggisi 1938-yili yaratilgan.

1887-yili Parijda fransuz sahnasining birinchi rejissori Andre Antuan tomonidan “Erkin teatr” deb ataluvchi yangi ijodiy jamaoa tashkil etiladi. Aynan shu teatrga Emil Zolyaning fransuz sahna san‘atini isloh qilish haqidagi ezgu niyatlarini ro‘yboga chiqarish nasib etdi. Bu teatr yangi repertuar yaratish yo‘lida biron-bir badiiy yo‘nalishga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki barcha maktab va yo‘riqlarga suyangan holda ish olib bordi. Antuanning ulkan xizmati shunda ko‘rindiki, u Gyugo davridan so‘ng fransuz teatrining katta adabiyot bilan uzilib qolgan aloqasini qayta tikladi. U o‘zining “Erkin teatr”ida L. Tolstoyning “Zulmat uyasi” (1888), Turgenevning “Oshga o‘rtoq” (1890), Ibsenning “Arvochlolar” (1890), “Yovvoyi o‘rdak” (1891), Gauptmanning “To‘quvchilar” (1893) kabi pyesalarini sahnaga qo‘yadi.

Fransiya teatri 30-yillarda yuksalish davrini boshdan kechirdi. Jamiyatda tanglik vaziyat chuqurlashib, xalqaro munosabatlar keskin tus olgan sharoitda fransuz badiiy ziyyolilari boshqa mamlakatlaming madaniyat arboblari bilan yelkama-yelka turib, qora kuchlar va fashizmga qarshi kurash olib bordilar. Tafakkur dramaturgiysi keng avj ola boshlaydi. Urush yillari Fransiyada ekzistensializm falsafiy oqimiga bir qadar bog‘liq tarzda muammoli tafakkur teatri an’analari yashashda davom etadi. Jan Pol Sartr fransuz ekzistensializmining sorboniga aylanadi. Ekzistensializm ruhidagi asarlarda insonning ulug‘vorligi, uning o‘zligini yo‘qotmay, yorug‘ dunyo azoblariga mardonavor peshvoz chiqishi, ya’ni ruhiy kuchning ustuvorligi g‘oyasi ifoda etildi. Sartrning shu yo‘nalishda yozilgan “Pashshalar” (1943) pyesasi urush davri sharoitida Qarshilik harakati g‘oyasiga hamohang tarzda jaranglaydi. Jan Anuyning “Antigona” (1943) asari ham ekzistensializm usuli ta’siri ostida yozilgan.

Italiya teatri. Milliy ozodlik harakati avj olgan XVIII asrning oxirlari qahramonona-romantik ruhdagi san’atni talab etardi. Buning uchun romantik aktyor zarur edi. Shunday yangi toifali aktyorni tarbiyalab yetishtirish vazifasini atoqli italyan teatr arbobi Gustavo Modena (1803—1861 yillar) o‘z zimmasiga oldi. Ulug‘vor g‘oyalar bilan sug‘orilgan chin insoniy san’at uchun kurashdi.

Ingliz teatri. XIX asr oxiri va XX asr bo‘sag‘asida ingliz dramasini va teatrda realizm hamda simvolizmdan iborat ikki badiiy yo‘nalish yetakchi o‘rin tutdi. Birinchisi, ya’ni realizm B. Shou va J. Golsuorsi dramaturgiysi hamda “Mustaqil teatr”, shuningdek, Ellen Terri, Genri Irving kabi atoqli ijodkorlar faoliyatida namoyon bo‘ldi. Simvolizm tamoyillari esa Oskar Uayldning bir qator asarlarida hamda aktyor, rejissyor Gordon Kreg spektakllarida ko‘zga tashlandi.

Nemis teatri. Nemis san’ati XIX asrning so‘nggi choragida Ovro‘poda keng tarqalgan naturalizrn, simvolizm, impressionizm yo‘nalishlarida rivojlandi. Ayniqsa, dramaturgiya keng ravnaq topdi. Gerxardt Gauptrman dramaturgiysi XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o‘z ahamiyatiga ko‘ra jahon miqyosda yirik vogelikka aylandi. Dramaturgiya ravnaqi milliy teatrning gullab-yashnashi uchun zamin tug‘dirdi. Aynan Germaniyada yangi — rejissorlik teatri o‘zining ilk natijalarini ko‘rsata boshladi. “Meyningen teatri”, Maks Reynhardtning rejissorlik faoliyati shunday hodisalardan edi. Nemis teatri 1917-1945-yillar Germaniya tarixidan eng musibatli davrlardan biri sifatida o‘rin olgan. Germaniya shu davrda Ovro‘pada ikki bor jahon urushini boshladi va o‘zi shu urushlarning qurboni bo‘ldi. 10-40-yillar XX asr nemis teatri taraqqiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda Gerxard Gauptrman o‘z faoliyatini davom ettirdi. U “Doroteya Angerman” (1926 yil), «Hayot shomi» (1932 yil), yunon rivoyati asosida Atridlar haqidagi tetralogiya (1941-1944 yillar) kabi asarlarini yaratdi.

Adabiyot va san'at XX asrda turli falsafiy maktab, siyosiy g'oyalar ta 'sirida misli ko'rilmagan yangi va xilma-xil ifoda usullari bilan boyidi. 1910-yillarda Germaniyada tug'ilgan ekspressionizm yo'naliishi XX asr san'atiga xos voqelik bo'lib, u birinchi jahon urushi davrida sarosimaga tushgan ziyolilar kayfiyatining badiiy in'ikosiga aylandi. Bu oqim 1920-yillarning o'ttalarigacha nemis teatri va dramasida o'zini namoyon etib, nihoya topadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida teatr san'ati. Amerika Qo'shma Shtatlarida teatr san'ati XX asrning dastlabki o'n yilliklarida tashkil topdi. Amerika dramaturgiysi Ovro'po dramaturgiyasidan orqada qolgan edi. Yangi asr boshida Mark Tvenning qudratli realistik ijodi ta'siri ostida Amerika adabiyotida T. Drayzer, E. Sinklar, S. Lyunsdek izchil naturalist adiblar maydonga chiqai. Dramaturgiya va teatr sohasida 1920-yillardan keskin o'zgarish yuz bera boshladi. Ba'zi Amerika teatr tanqidchilari O'Nilning "Ufq ortida" pyesasi qo'yilgan 1920-yilni zamонавиy AQSh teatrining boshlang'ich sanasi deb hisoblaydi.

6. V.Shekspir ijodi

V.Shekspir dramalari jahon san'ati yutuqlarining eng nodir namunalarini tashkil etadi. Davrning real voqeliklarini teran aks ettiruvchi bu asarlar kundalik tur mushning ruhsiz izohi bo'lib qolmadir. Ular yuksak asarlar darajasiga ko'tarildi. Bu hol dramaturgga jamiyatdagi shiddatli to'qnashuv va ziddiyatlarni ochib tashlash, davrning mashaqqatli muammolarini olg'a surish imkonini berdi. Uyg'onish davri haqidagi haqiqat qanchalik achchiq va o'kinchli bo'lmasin, Shekspir bu haqiqatni butun borligicha to'la-to'kis bayon qilib berdi. Ulug' mutafakkir va daho so'z ustasi Shekspir nomining jahon teatri tarixida abadiy boqiyligi u yaratgan san'atning insonparvarligi, xalqchilligi, mazmunan g'oyat teran va haqqoniyligi bilan belgilanadi.

Vilyam Shekspir 1564-yil 23-aprelda Angliyaning qoq yuragida joylashgan Stretford shahrida tavallud topgan. Uning otasi Jon Shekspir o'ziga to'q savdogar va teri oshlovchi hunarmand edi. Onasi Meri kambag'allashib qolgan dvoryan oilasidan chiqqan. Vilyam yetti yoshida mahalliy maktabga boradi. Bu yerda o'quvchilar notiqlik san'ati, mantiq ilmi, lotin, yunon tillari, antik adabiyot, mifalogiya asoslaridan voqif bo'ladi. 1580-yillarning oxirida Shekspir Stretfordni tark etib, sayyor truppa safida birmuncha vaqt viloyatlarda safarda bo'lgan, so'ng Londonga kelib ishga kirgan. Shekspirning ijodiy faoliyati 1594-yildan «Lord Kamerger truppasi» — bilan bog'liq. U atoqli aktyor Richard Berbedj rahbarlik qiluvchi shu teatrda 1612-yilgacha ishlaydi. Uning so'nggi to'rt yillik umri Stretfordda o'tadi. U 1616-yiIning 23-aprelida, o'zi tug'ilgan kuni shu shaharda dunyodan ko'z yumadi. Shekspir o'ttiz yettita pyesa yozgan.

Shekspirning “Richard III” (1592 yil), “Genrix IV” (1600 yil), “Genrix V” (1599 yil) tarixiy dramalari xronika janrining yuksak namunalari sanaladi. Shuningdek, Shekspir bu davrda o‘zining “Tit Andronik” (1594 yil), “Romeo va Julietta” (1595 yil), “Yuliy Sezar” (1599yil) fojialarini, “Qiyiq qizning quyilishi” (1594 yil), “Yoz oqshomidagi tush” (15994-1595 yillar), “Venetsiyalik savdogar” (1595 yil), “Vindzorlik nozaninlar” (1597 yil), “Yo‘q narsadan bir talay g‘avg‘o” (1598-1599 yillar), “Bu sizga yoqadimi?” (1599-1600 yillar), “O‘n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar” (1690 yil) nomli komediylarini ham yaratgan. Adib ijodining ikkinchi davriga uning 1601-1608-yillarda yaratgan mashhur sahna asrlari kiradi. Ular “Hamlet” (1600-1601 yillar), “Otello” (1604 yil), “Qirol Lir” (1605-1606 yillar), “Makbet” (1606 yil), “Antoniya va Kleopatra” (1607 yil), “Koriolan” (1608yil), “Afinalik Timon” (1608 yil) fojialaridir.²⁰

Ijodining dastlabki o‘n yilligi (1590-1600 yillar) davomida ikki tragediya (“Romeo va Julyetta”, “Yuliy Sezar”)dan istisno faqat komediya va tarixiy solnomalar yaratdi. Bu asarlarda Shekspirning hayotga bo‘lgan ishonchi ufurib turadi, shundan bo‘lsa kerak, bu bosqichni — hayotbaxsh ijod davri deydlar. “Hamlet”, “Otello”, “Qirol Lir” kabi asarlar yaratilgan 1600-1608-yillar fojeaviy ijod davri, “Qish ertagi”, “Bo‘ron” kabi pyesalar dunyoga kelgan 1608-1612-yillar romantik ijod davri deb izohlanadi. Tarixiy solnomma deganda Angliyaning keyingi uch yuz yillik tarixidan olib yozilgan dramalar ko‘zda tutiladi. Bular “Genrix VI” ning uch qismi va “Richard III” va “Richard II”, “Genrix IV”ning ikki qismi va “Genrix V”dan iborat ikki tetralogiyanan iborat asarlar majmui bo‘lib, ularda davlatning yaxlitligi, uning xalqqa g‘amxo‘rligi, odil va dono hukmdor tomonidan boshqarilishi muammolari ilgari surilgan. Hukmdorning shaxsi masalasi hamisha Shekspirning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Shekspirning “Yanglishlar komediyasi”, “Qiyiq qizning quyilishi”, “Veronalik ikki yigit”, “Yoz tunidagi tush”, “O‘n ikkinchi kecha” kabi komediyalari 1590-yillarning mahsuli bo‘lib, ular Uyg‘onish faslining nurli dunyoqarashi va erkin insonning tabiiy mehr-saxovatiga ishonch tuyg‘usi bilan limmo-lim. Ulardagi kulgi odadagi fosh etuvchi komediyalarga xos qahrli, achchiq kulgiga o‘xshamaydi. Bu kulgi inkor etishga emas, balki shaffof hayot quvonchlari-yu sog‘lom va baxtli kishilar quvonchlarni ifoda etishga qaratilgan. “Qiyiq qizning quyilishi” ham bundan mustasno emas. Luchensio, Gremio va Gortenziadan iborat uch og‘ayni zodagon Baptistaning Bianka degan qizini sevib qolishgan. Lekin Bianka opasi Katarina turmushga chiqmaguncha erga chiqolmaydi. Katarina shu darajada o‘jar, qo‘rski, biron yigitni yoniga yo‘latmaydi. Shunday vaziyatda Katarinaga munosib

²⁰ Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov. Jahon adabiyoti. «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017

xushtor topiladi, u qizdan ham o‘jar, chapdast Petruhcho edi. O‘jarlikda bir-biridan qolishmaydigan bu ikki yosh “tanishuv, olishuvlar” orqali bir-birini topadi va baxtli nikohga erishadi, Bianka esa Luchensioga turmushga chiqadi. Erkak qiyofasiga kirib, ajoyib-g‘aroyib sarguzashtlar ila murod maqsadiga yetuvchi yigit-qizlar timsollari Shekspir asarlarida ko‘plab uchraydi. Bunga birgina misol: kema halokatga yo‘liqadi; akasi Sebostyanni yo‘qtotgan Viola yigitchasiga kiyinib, o‘ziga Sezario ismini olib, graf Orsino xizmatiga kiradi. Orsino grafinya Oliviyanı sevsada, lekin qizda unga nisbatan moyillik yo‘q. Ishga Sezario (Viola) kirishadi: Oliviya, qarangki, Orsino nomidan kelgan sovchini munosib yigit deb bilib, unga sevgi izhor qiladi: tabiiyki Viola inkor etadi. Ko‘p o‘tmay, ayni Violaga o‘xshash yigit kirib keladi, u Violaga ikki tomchi suvdek o‘xshash bo‘lgan akasi Sebostyan edi. Sebostyan Oliviyanı taklifini darhol qabul qiladi, ular qovushadilar. Shu bahona ikkinchi juftlikning ham baxti kuladi. Orsino o‘z xizmatchisining latofatli qiz ekanini bilib qolgach, unga uylanadi.

“Yozgi tundagi tush” asarini Shekspir komediyalari orasida eng shoirona komediya deyish mumkin. Asar voqeasi graf Tezeyning to‘yida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan tomoshaning mashqi tarzida tasnif etilgan. Germiyaning otasi uni Demetriyga turmushga bermoqchi, qizi esa Lizandrni sevadi. Ikki yosh otalar tazyiqidan qoqhib, o‘rmon quchog‘idan panoh topadilar. Oxiri Lizandr va Gertniya Yelena va Demetriy bir-birilarining visoliga erishadilar. Shekspir ijodining ikkinchi bosqichida inson tabiatining go‘zalligi va komilligini madh etuvchi komediyalar, odil saltanat tarzini tasdiq etuvchi solnomalar o‘rnini dard-alam, qahr-g‘azabga to‘la tragediyalar egallaydi, ularda gumanistlar ezgu niyatlarining sarob bo‘lib chiqishi, qabihona xudbinlik tantanasi, “zamonlar rishtalarining uzilishi” o‘z ifodasini topdi. Shekspir ijodining birinchi bosqichida yaratilgan “Romeo va Julyetta” tragediyasida feodal adovat o‘rtta asr bid‘ati Uyg‘onish davrining serzavq yoshlari olamiga qarama-qarshi qo‘yildi. Romeo va Julyettalarning oilalari — Mantekki va Kapulettilar shunday murosasiz raqiblarki, dushmanlik hissi keksalardan yoshlarga ham ko‘chgan edi: Kapulettining jiyani Tibalt Romeoning do‘sti Merkutsioni olishuvda qilich bilan halok etadi, so‘ng Romeo Tibaltni o‘ldiradi. Romeo Veronadan badarg‘a qilinadi. Julyetta cherkovda rohib Lavrentiy homiyligida Romeo bilan nikohlangan bo‘lsa-da, lekin vaziyatdan foydalanib, ota-onasi uni Bekning qarindoshlaridan Parisga turmushga berib yuborishlari mumkin edi. Ruhoniyning maslahatiga ko‘ra, Julyetta 42 soat uxlatuvchi dori ichadi, toki o‘lik deb sag‘anaga ko‘milgach, uyg‘onish soatida Romeo yetib kelishi kerak. Julyettaning o‘limidan xabar topgan Romeo sag‘anaga o‘zi yetib keladi, Julyettani o‘lik deb bilib, zahar ichadi. Julyetta uyg‘onadi, Romeoning o‘lik jasadini ko‘rgach, uning yonidan pichog‘imi olib, o‘zini o‘zi nobud qiladi. Oshiq ma’shuqlarning jonsiz jasadlari ustida Mantekki va Kapulyettining yarashuvi Uyg‘onish davri g‘oyasining

shaksiz g‘alaba qilishidan dalolat beradi. Veronalik ikki oshiq-ma’shuq haqidagi qayg‘uli qissa bu — ayni zamonda jahon adabiyotida g‘olib sevgi haqidagi doston hamdir.

Jamolidan mash’allar ham bo‘ldilar xira!
Tun qo‘ynida olmos yanglig‘ barq urar husni.
Go‘yo zanji qulog‘ida porloq zirakday;
Bu dunyoga nisbatan u kop qimmatbaho!
Go‘yo oppoq kabutardir zog‘lar ichida.
Uning xusni bo‘laklarning husnin uchirar.
Ilgari xam sevarmidim?
Toning, ko‘zlarim!
Shu kungacha go‘zallikni bilmas ekanman.

Dengizlarday bepoyondir menda saxovat,
Dengizlarday menda chuqur sevgi-muhabbat.
Qancha behad tortiq qilsam muhabbatimni,
Shuncha cheksiz — bepoyon bil saxovatimni.
(*Maqsud Shayxzoda tarjimasi.*)

“Hamlet” — anglash, aql-zakovatning uyg‘onishi haqidagi tragediyadir. Unda Uyg‘onish davrining insonparvarlik g‘oyalari “izdan chiqqan zamon”ning dahshatlari sinovlari orqali namoyon bo‘ladi. Otasi o‘lgach, onasining to‘satdan amakisi Klavdiya erga tegib olishi, otasining arvohi orqali Klavdiy tomonidan otasining o‘ldirilganligi voqeasining ochilib ketishi Hamletni dahshatga solib qo‘yadi. Arvoh Hamletdan Klavdiydan qasos olishni talab etadi. Ammo Hamlet tabiatan yovuz, qotil emas, u dushmanlarining razilona harakatlariga javob tariqasidagina intiqom yo‘liga kiradi. Hamlet sobiq do‘srtlari Gildernstern va Rozenkrants uni o‘limga olib ketayotganliklarini payqagandan keyingina o‘limga ularning o‘zlarini ro‘baro‘ qiladi. U i qirolning o‘zi zahar surdirgan qilich bilan yaralanganidan keyin Klavdiynni o‘ldiradi. Hamlet uchun qasos olish emas, balki hukm surmish razolat sirlarini anglash muhimdir. Klavdiy Hamletning shamshiridan emas, murosasiz fikridan cho‘chiydi. Negaki qirol uning to‘g‘ri va haqqoniy so‘zi oldida ojiz.

Endi “Otello” tragediyasida tasvirlangan bir voqeaga e’tiboringizni qaratamiz. Senat Otelloni Kibris oroliga qo‘shin qo‘mondoni qilib jo‘natar ekan, Dezdemona ham u bilan birga jo‘naydi. Fojjaming ildizi shu ikki qalbning o‘tli muhabbati bilan bog‘liq edi. O‘zini Otello o‘rnida ko‘rishni istagan Yago aslzoda qizning Otelloga bu qadar ko‘ngil qo‘yanini aqliga sig‘dirolmas va nimaiki bo‘lmasin, bu sevgini barbob etishi kerak edi. Otelloning muovini Kassioni bir janjal uyuشتirib, ishdan

bo'shättiradi. O'zini Kassioga yaqin tutgan bo'lib, uni Dezdemona huzuriga ishga tiklashda yordam so'rabboraverishini tayinlaydi. Otelloda esa shu vajni ko'rsatib, rashk hissini uyg'otaveradi. Otello aslida rashkchi odam emas, ishonuvchan, lekin Dezdemona ham, Yagoga ham bir xil darajada ishonadi, oqibatda Yagoning makr-hiylesi qurbanib bo'ladi. Otelloning ishonuvchanligi — sahroyi kishining to'mtoqligi, go'llligi emas. Bu qalbning saxiyligidan, insonning qadr-qimmatini yuqori qo'yishidan tug'ilgan ishonuvchanlikdir. Dezdemona Otello uchun ma'shuqagina emas. U Dezdemona misolida barkamollik timsolini ko'radi. Bu sohibjamol ayolning borligining o'zi Otelloda odamlarga nisbatan ishonch uyg'otib turadi. Yago shunchaki qabih kimsa bo'lmay, u qabohat faylasufi. U o'zini yovuzlik qilishga haqli deb hisoblaydi: inson erkin-ku, axir! Shu yo'sinda davrning ulug'g'oyasi ahloqsizlikni oqlovchi kuchga aylanib boradi. Yagoning nazarida inson ta'magir mavjudot, hayvoniy hirsga moyil jonzot, uningcha, kimki ko'proq manfaatdor bo'lsa, shuncha kuchlidir. "Karmoningni pulga to'ldir", "Faqat o'zim uchun kurashaman". Yago hayot ma'nosini shunday tushunadi. Yago o'z tubanligini oqlash yo'lida kishilikni oyoq osti qilaди. Otelloni ko'rishga uning ko'zi yo'q; zero qalbi e兹gulikka to'la sahiy habashning serma'no hayoti uning qarashlariga zid bo'lib chiqadi. U Otelloning olijanobligi va kishilarga ishonishini kuzatgan sayin o'z tushunchasini to'g'ri deb bilib, qabihona harakatlarini kuchaytirib boraveradi. Yagoning maqsadi Otelloda rashk olovini yoqish, nosog'lom hislarni uyg'otish bilan bu habashning tabiatini ham razolatdan holi emas, va, demakki, insonga nisbatan nafratlanish va hudbinlik yashashning asosi, deb oqlashdan iboratdir. Otello Yagoning hujumlariga qarshi ko'p sabot bilan qarshilik ko'rsatib boradi. Dezdemona nisbatan ishonchning yo'qolishi — hayot ma'nosining barbob bo'lishi bilan barobar "Sevmay qo'ysamchi, tartibsizlik, chuvolchiqlik qaytib keladi", deydi Otello. Dezdemona, soxta xiyonatkorlikda ayplash va Otelloni bunga ishontirish uchun Yago jamiki makru xiyłani ishga soladi. Lekin Otelloni o'z makriga ilintirgani bilan ham Yago o'z niyatiga erisholmaydi. U Otelloning qalbida razolatga yo'l ocholmaydi, aksincha, razolatga qarshi qahr-g'azab uyg'otadi, qabohatga qarshi zarba berishga chorlaydi. Otello Dezdemona o'ldirish bilan adolatni tiklamoqchi bo'ladi.

Tirik qolsa yana boshqalarini aldaydi,

Shuning uchun u mutlaqo o'lishi kerak! deydi u.

Yig'layapman. Biroq bu yosh yo'qlik yig'isi,

Ishqim uchun osmon menga bermoqda jazo. (G'afur G'ulom tarjimasi.)

Otello "odil" hakamlik hukmini ado etish oldida shunday rashki so'niq, parishon holatda ko'rinadi. Mavr gunohkorni yo'q qilmoqchi bo'lib, o'zi jinoyatchi bo'lib qolganini anglagach, o'zini o'zi o'ldiradi. U endi Dezdemona gunohkor

emasligini biladi. O'limi oldida yana Otelloning qalbida ishonch tuyg'ulari barq uradi; bu avvalgidek chalg'ishlarga moyil, havoyi ishonch bo'lmay, balki chiniqqan, sog'lom, mustahkam ishonch tuyg'ularidir.

Shekspirning qadimgi solnomalarda qayd etilgan Britaniya qiroli Lir haqidagi qissa asosiga qurilgan "Qirol Lir" tragediyasi umumbashariyat taqdiri bilan bog'liq ulkan badiiy umumlashma tarzida dunyoga kelgan. Asar qartayib qolgan Lirning yer-suv, davlatini qizlariga o'zaro bo'lishidan boshlanadi. O'z otasiga riyokorlik bilan uni ziyod darajada sevishini aytgan Gonerilya va Regana qirol mulkiga to'la ega bo'lganlari holda otasini faqat farzand sifatida sevishini aytgan Kordeliya ota g'azabiga uchrab, quvg'in ostiga olinadi. Hokimiyatni qizlari ixtiyoriga berib ham avvalgidek hukm surmoqchi bo'lgan Lir avval to'ng'ich qizi, so'ng o'rtanchasi tomonidan tazyiq va quvg'inga uchraydi. Mulozimlari bilan ochyupun sahro kezib, azobda qolgan Lirga Kordeliya yordamga keladi, lekin opalarining hukmi bilan qamoqqa olinadi va o'sha yerda o'zini o'zi osib nobud qiladi. Lir ham azoblar iskanjasida dunyodan o'tadi.

"Qirol Lir" tragediyasi mohiyatini tabiatda, kishilik jamiyatini va inson taqdirida bosh ko'targan bo'ron va yovuz kuchlar xurujib belgilaydi. Bir tomonda — mulkdorlar, ezuvchilar; boshqa tomonda — yo'qsillar, eziluvchilar; bir tomonda — Lirning shafqatsiz qizlari Regana, Gonerilya va sotqin Edmund, boshqa tomonda — Lirning qahriga uchrasa-da, unga sodiq qolgan Kent, ko'zi o'yib olingen darbardar Gloster; akasining quvg'iniga uchragan Edgar, Lirning baxtsizligida ham unga sodiq qolgan dono masharabobi. Hammayoq alg'ov-dalg'ov, odamlar orasida insoniylik rishtalari uzilib bitgan. Lirning qalbida ham bo'ron ko'tariladi. Uning ko'z o'ngida butun haqiqat achchiq va fojiona qirralari bilan namoyon bo'ladi.

Shekspir asarlari XX asrning 30-40-yillardan boshlab, taniqli o'zbek adiblari tomonidan ona tilimizga tarjima qilina boshlangan. Ayniqsa, uning asarlari G'.G'ulom, M.Shayxzoda, Uyg'un, B.Boyqobilov, J.Kamol tomonidan mahorat bilan o'zbek tiliga o'girilgan. Demak, Uyg'onish davrida Ovrupo madaniyati, ilm-fani, san'ati beciyos darajada rivojlandi va yuksaldi. Antik merosni o'zlashtirgan Uyg'onish davri vakillari poetik prinsiplari shakllana boshlagan milliy adabiyotlar nuqtai nazaridan idrok qildilar. Adabiyot va jamiyat munosabatlari, so'z san'atining ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifalari yangicha talqin qilinib, nasroniy cherkovining adabiyotga ta'siri susaya bordi. Aynan shu davrda "Adabiy til" tushunchasi paydo bo'ldi va uning umumxalq tili bilan munosabati masalasiga oydinlik kiritildi, badiiy ijodning individual tabiatini, san'atkorning ijodiy erkinligi e'tirof etildi, poeziya mayjudligining asosi sifatida inson — ijod markaziga qo'yildi. Natijada jahon adabiyoti tarixida muhim bosqich sanalgan Uyg'onish adabiyoti keyingi davrlar adabiyotiga ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Badiiy ijodda modernizm tushunchasi haqida ma'lumot bering.
2. Modernizm yo'nalishlarining o'ziga xosliklari qanday?
3. Modernizm qanday taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan?
4. Modernizm nima? Uning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering?
5. Modernizm va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti haqida so'zlang?
6. Stendalning "Qizil va qora" romanida romantizm va realizm an'analarining uyg'unligi?
7. Amerika Qo'shma Shtatlari teatr san'atining o'ziga xos jihatlari nimada?
8. Uyg'onish davri va XVII asr klassitsizm teatrining rivojlanishi haqida gapiring?
9. Shekspir ijodining asosiy davrlari haqida ma'lumot bering?
10. Evropada teatr san'atining rivojlanishi va dramaturgiya janrining adabiy jarayonga ta'siri?

ADABIYOTLAR:

1. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1982.
2. Ulug'bek Hamdamov, Abdug'opir Qosimov, Juhon adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: 2017 B-215-222
3. Tursunboyev S. Juhon teatri tarixi. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.
4. Adabiyotshunoslik lug'ati. - T.: Akademnashr, 2010.
5. Nemis adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Farg'ona: 2004.
6. Xolbekov M. Onore de Balzak va "Insoniyat komediysi " // Juhon adabiyoti 2009. №1
7. Stendal. Qizil va qora. 1830-yil xronikasi. – T.: Adab va san'at ashriyoti, 1979.

**MUTOLAA VA VOIZLIKNING SHARQ MADANIY
TAFAKKURIDA TUTGAN O'RNI. O'RTA OSIYODA NOTIQLIK
SAN'ATI. XOJA MUAYYAD MEHNAGIY, MAVLONO RIYOZIY,
HUSAYN VOIZ KOSHIFIY VA VOIZLIK**

Reja:

1. Ifodali o'qish va notiqlik san'ati taraqqiyotida "Avesto"ning o'rni
2. O'rtta Osiyoda voizlik va uning turlari
3. Ifodali o'qish va suxandonlik haqida O'rtta Osiyo mutafakkirlarining fikr-qarashlari
4. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy
5. Husayn Voiz Koshifiy va voizlik san'ati

Tayanch so'z va iboralar: Voizlik, ifodali o'qish, suxandonlik, notiqlik, so'z san'atkori, notiq, nutq — va'z, notiq — voiz, kohinlar — "Avesto" targ'ibotchilar. Qadimgi notiqlar. Voizlar — axloqiy-ta'limi, ijtimoiy-siyosiy mavzularda nutq so'zlovchi ma'rifat targ'ibotchilar. Voizlik turlari: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik

1. Ifodali o'qish va notiqlik san'ati taraqqiyotida "Avesto"ning o'rni

Ajdodlarimiz qadim zamonlardan so'z san'atining, xususan, og'zaki ijrochilikning inson ruhiyatiga ta'siriga katta e'tibor bilan qaragan. Shu ma'noda, ifodali o'qish san'atining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rtta Osiyoda ifodali o'qish san'atining taraqqiy etishida "Avesto", "Bundaxishn", "Dinkard" kabi diniy xarakterdagi asarlarning ahamiyati katta bo'lgan. Inson axloqini poklashga qaratilgan ushbu asarlar ko'proq og'zaki ijrochilik vositasida xalq orasiga kirib borganligi m a'lum. Jumladan, "Avesto"ning asosiy mohiyatini tashkil etgan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" ta'lomi xalq o'rtasida targ'ib qilinib, odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otishda kohinlarning xizmati becqiyyos. Kohinlar faqat din targ'ibotchilar emas, balki ifodali so'z sehti bilan mo'jizalar ko'rsatuvchi san'atkori ijrochilar sifatida ham shuhrat qozongan. Ular "Avesto"dagi ibodat qo'shiqlarini, Ahura Mazda so'zlarini, afsona va rivoyatlarni yorqin nutq, ifodali so'z va jozibador ovoz bilan ijo etib xalq ommasini o'z g'oyalariga ishontirgan.

Badiiy so'z san'ati, shu jumladan, ifodali o'qish san'ati xalqning umumtaraqqiyotiga bog'liq holda rivojlanib bordi. Jamiyat taraqqiyoti o'rtaga qo'ygan talablar hamda mayjud shart-sharoit tufayli IX-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Mana shu davrlarda Qur'oni Karim targ'ibi bilan bog'liq holda voizlik san'ati rivojlandi. Voizlikning taraqqiy etishi esa ifodali o'qish san'ati tarixida muhim o'rinn tutadi.

Ma'lumki, Qur'oni Karim o'z zamonasining nafis adabiy usuli saj'da vahiy qilingan bo'lib, u so'z san'atining oliv namunasi hisoblanadi. Qur'oni Karimni o'qish voizdan juda katta ilmiy salohiyatni, ayni paytda, yoqimli ovoz sohibi bo'lishni talab qilardi. Shu boisdan Qur'on suralarini maftunkor qiroat, jozibali ohangda o'qishga o'rgatuvchi "Ilmi balog'a" san'atiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy "Geodeziya" asarining kirish qismida shunday deydi: "Arab nutqida balog'aning mavjudligi Qur'on targ'ibotida muhim ahamiyat kasb etadi. Balog'a arab nutqining ziynatidir."²¹

2.O'rta Osiyoda voizlik va uning turlari

Voizlik (notiqlik) san'ati O'rta asrlarda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lib, umum davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Sharqda xos notiqlarni voizlar deb ataganlar. Voizlik – jamoat oldida nutq so'zlash, notiqlik san'ati, ilmiy-siyosiy ma'ruza, bahs, munozara, targ'ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo'lgan san'at hisoblanadi.

Qadimda Sharq mamlakatlarda hukmdor shaxsan o'zi jamoat oldiga chiqib, o'z siyosati, xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq so'zlagan. Xalq ommasi oldida nutq so'zlovchi kishi voiz, uning nutqi esa va'z deb yuritilgan. Voizlik nihoyatda sharafli va, ayni paytda, mas'uliyatli kasb bo'lgan. Omma oldiga chiqib bir necha soatlab nutq so'zlovchi kishi tinglovchilarning tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishi, ishontirishi, so'z sehri bilan ularni to'lqinlantirishi uchun bilim va iqtidorga, fasohat va mahoratga ega bo'lishi lozim edi. Shu bois minbarga chiqib so'zlovchi kishilarning hammasi ham voiz degan sharafli nomga ega bo'lavermagan.

El oldiga chiqish Juma va Hayit namozlari, Navro'z kunlari, mamlakatlar o'rtasidagi urushlar, yig'inlarda odat tusiga kirgan. IX asrda kelib bu muhim vazifa xushovoz, ta'sirchan gapiradigan, ishontira olish qobiliyatiga ega maxsus kishilar – voizlarga topshirilgan. Ularning va'z matnlari odatda chiroyli va badiiy yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyati nasriy she'r va hatto she'riy shakllarda yozilgan. Voizlar kitobxonlik hamda mutolaa madaniyati masalalariga jiddiy e'tibor berish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid sohalarni ham puxta egallashga erishgan. Shu tariqa voizlik san'ati vujudga kelgan. Voizlik san'atining dabirlik, xatiblik, muzakkirlik kabi turlari mayjud bo'lib, ba'zi voizlar dabirlik — davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yozishmalarni o'qish va yozib berish bilan, ba'zi voizlar xatiblik — juma kunlari Qur'oni Karim suralarini

²¹ Beruniy A. Tanlangan asarlar. III to'm. - T.: Fan, 1982. 64-bet.

asosida xalqni odob-axloqqa chaqirish bilan, ba'zilari esa muzakkirlik — tarixiy voqe-a-hodisalarни gapirib berish bilan shug'ullangan.

Voizlik san'atining rivojlanishida dabirlik (davlat ahamiyatidagi yozishmalarni insho etish va o'qib berish), xatiblik (diniy, siyosiy mayldagi notiqlik), muzakkirlik (diniy-axloqiy masalalarni sharhlab berish) kabi tarmoqlari shakllangan. Voizlik san'ati nutq matnlari, tinglovchilarning bilimi, ijtimoiy mavqeい va boshqa xususiyatlarga ko'ra turli maqom (qism)larga bo'lingan: sultoniyot (yuqori tabaqa uchun), xutubu jihodiya (jangovar nutqlar), g'aribona maqom (oddiy xalq uchun) va boshqalar. Ijtimoiy va badiiy jihatdan muhimligi tufayli bu soha asrlar davomida rivojlanib bordi. Jumladan, voizlik san'atini o'rgatuvchi maxsus soha – kalom ilmi va balog'a ilmi yuzaga keldi. Bu san'at turi o'tmishtda katta ijtimoiy qudrat kasb etgan. Keyinchalik notiqlik va suxandonlik san'ati rivojida ham muhim rol o'yagan.

Markaziy Osiyo xalqlari IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko'tarilgan. Manbalarda arabiyl qiroat talabi, mavjud qoidalar bilan o'qiluvchi "Qur'on" tilovati, kitobxonlik hamda mutolaa madaniyati, so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinali foydalanish borasida ko'p ibratli fikrlar aytilgan. Bu tushunchalar juda qadimdan olim-ulamolarning diqqatini tortgan. Musulmon Sharqi, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan.

O'rta asrlar fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar yashagan davr musulmon Sharqi tarixida Uyg'onish davri deb ataladi. Adabiyot-san'at, fan va umuman madaniyatimizning targ'ibotchilar bo'lgan bu kabi yetuk allomalar ayni vaqtida voizlik san'atini ham keng miqyosda rivojlantirishga hissa qo'shdilar. Bu davrda fan va madaniyat targ'ibotchilar – ko'plab voizlar yetishib chiqdi.

So'z ijrochiligi san'atiga asoslangan voizlik va suxandonlik, uning inson hayotida tutgan o'mi haqida Kaykovusning "Qobusnomá", Nizomiy Aruziy Samarqandiyining "Nodir hikoyatlar", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Dah majlis", "Sahifai shohi", Faxriddin Ali Safiynning "Latoif ut-tavoif" kabi asarlarida qimmatli fikr-mulohazalar bayon etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy voizlar haqida shunday fikrlarni yozadi: "Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa, yengil tortib holi qaytsin. Voiz olim va halol ish ko'rvuchi bo'lsa,

uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursayu, o‘zi qilmasa, uning so‘zлari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi”²²

Ushbu fikrlar zamiriga juda katta ibrat va hikmat ma’nolari singdirilgan. Demak, xalqqa pand-nasihat ayтиб, ularни to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi voiz nafaqat ilmi va chirolyi so‘zлari bilan, balkи o‘zining yuksak axloq-odobi, halol hayot tarzi bilan ham boshqalarga namuna bo‘lishi lozim. Buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodи yetishib chiqqan, jahонни ilm-ma’rifat nuri bilan yoritgan uyg‘onish davri deb yuritiladigan zamonlarda O‘rta Osiyoda so‘z san’ati, shuningdek, notiqlik san’ati ham taraqqiy etdi. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Abulqosim Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar ilm-fanning turli sohalariga oid kashfiyotlar bilan bir qatorda, notiqlik san’ati asoslarini ham yaratdilar. Abu Nasr Forobiy ko‘plab asarlarida so‘z san’atiga doir qimmatli fikr-mulohazalar bildirish bilan cheklanmasdan suxandonlik nazariyasi, notiqlik san’ati ilmiga doir maxsus “Kitob al-xitobat” risolasini ham yozgan. Jumladan, Forobiy chuqur mantiqiy asosga ega bo‘lgan yorqin nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiq fanlarining ahamiyati haqidа shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish, ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning **eng birinchisi** jismlarga (substansiya - marsalar) va aktsidentsiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinci ilm grammaticadir; u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aktsidentsiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekani haqida hukm chiqaramiz”²³

Farobiyning ushbu fikrlari o‘zida juda katta ma’nolarni singdiradi. Nutqni to‘g‘ri tuzish, og‘zaki ijro etish, qanday qilib ta’lim berish, ta’lim olish, fikrni ifodalni bayoni, so‘rash madaniyati, javob berish masalalariga oid qimmatli qarashlardir. To‘g‘ri nutq tuzish va uni og‘zaki ijro etishni o‘rganish uchun juda chuqur va har tomonlama bilim olish muhim ekanimi ko‘rsatadi.

“ ... XuIIas, yaxshi nutq uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan

²² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983, 32-bet.

²³ Abu Nasr Forobiy. Risolalar. -Toshkent: 1975, 54-bet

birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay iloji yo'q", — deb yozadi Beruniy.

3.Ifodali o'qish va suhandonlik haqida O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikr-qarashlari

Badiiy adabiyotning yuzaga kelish tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, ifodali o'qish tarixi ham shu qadar uzoq zamонlarga borib taqladи. Mazmundor va ifodali nutq hamma davrlarda ham kishilarni o'ziga jalb etib ijtimoiy hayotda alohida o'rin egallab kelgan. Ifodali o'qish, avvalo, xalq san'atidir. Chunki badiiy adabiyot dastavval xalq og'zaki ijodi shaklida paydo bo'lgan. Xalq yaratgan asarlarning keng tarqalishida esa og'zaki ijrochilik san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shiq, ertak, doston, qissa kabi og'zaki adabiyot namunalarini yaratgan xalq namoyandasи (ertakchi, qissaxon, baxshi) bir paytning o'zida ham ijodkor, ham ijrochi edi. Binobarin, asrlar davomida yaratilgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo'shiq va dostonlar, og'zaki ijrochilik, ifodali nutq san'ati tufayligina bizgacha yetib keldi. Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san'atkorlik mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, ularning og'zaki ijrochiligi ham shu qadar mahorat va san'atkorlikni talab qilgan. Qadim tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, inson qalbidagi g'am-anduh, shodlik va quvonch tuyg'ularining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan jamiki adabiyot namunalarini xalq san'atkorları (qo'shiqchi, roviy, qissaxon, baxshi) shunchaki jo'n, badiiy tasvir vositalarisiz, xilma-xil ovoz tovlanishlarisiz, shukuhsiz bir tarzda ijo etganlarida edi, ehtimol bu asarlar uzoq saqlanib qolmagan bo'lur edi.

“...Kishining martabasini so'zi bila bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur”²⁴ — deydi Unsurul-maoliy Kaykovus. Zotan har bir kishining kim ekanini, bilim darajasini so'zlariga qarab bilib olish mumkin. Donishmandlar nazdida, inson so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi.

Forobiy, Beruniy kabi allomalarning nutq tuzish masalasiga bu qadar e'tibor bilan qarashlari X asrlardayoq chirolyi gapirish, ifodali o'qish san'atining taraqqiy etganidan dalolat. Ibn Sinoning “She'r san'ati”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya” va boshqa asarlari tarkibida keltirilgan mukammal nutq tuzish haqidagi qimmatli fikrlari bugun ham ahamiyatlidir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk”, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, “Notiqlik asoslari” kabi asarlari so'z san'ati ilmiga bag'ishlangan bebaho ma'naviy xazina hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib,

²⁴ Kaykovus, “Qobusnoma”. Toshkent. “Meros 1992 y

Alisher Navoiy kabi allomalar o‘z asarlarining butun-butun boblarini so‘zning ilohiy ne’mat ekaniga, uning mo‘jizali qudratini ko‘rsatishga bag‘ishlagan.

Jumladan:

Zakovat ko‘rki so‘zdur, bu tilning ko‘rki so‘zdur,
Kishining ko‘rki yuzdur, bu yuzning ko‘rki ko‘zdur.
(Yusuf Xos Hojib)

Ma’dani inson gavhari so‘zdurur, Gulshani odam samari so‘zdurur.
(Alisher Navoiy)

Ajdodlarlarimiz so‘z san’atining, ayniqsa, og‘zaki 1082-1083-yillarda Kaykovus tomonidan yaratilgan qadimiy Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan “Qobusnama”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratli fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo‘lib, uning 6-7-boblari so‘z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapirish keraqligini, kishi kamtar bo‘lishi, o‘zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonachilik qilish, ko‘p gapirish donoliik belgisi emas deb uqtiradi:

“Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham o‘zingni bilganlardan pastroq tutgin, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmaysan. Ko‘p bil-u, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlar-ki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi”.²⁵

Hozir nutq odobi deb yuritilayotgan nuqtayi nazarlar qadimda yashab o‘tgan ajdodlarimizning tafakkuri mevasi sanaladi. O‘tmish yozma obidalarining ba‘zilarida nutq va notiqlikning talablari ancha keng aks ettiligilarni ko‘ramiz. Bu jihatdan Kaykovusning «Qobusnama» asarida aytilgan mulohazalar katta ahamiyatga egadir. Kaykovus hayotda to‘g‘ri so‘zlikni olqishlab, yolg‘on so‘zni qoralaydi. Kishilarni o‘rinli va oz so‘zlashga, o‘ylab, mulohaza bilan fikr yuritishga da‘vat etadi. Muloyim so‘z va muomalaning xosiyati, aksinchasi, behuda, yolg‘on, uyat so‘zlik, maqtanchoqlik, nutqiy manmanlikning zarari haqida hozirgi davr uchun ham muhim bo‘lgan nasihatlar beradi. Ammo Kaykovusning nutq, notiqlik, nutq odobi va nutqiy madaniyat haqidagi fikrlarida o‘ziga xoslik va yangilik shundan iboratki, u bu masalani har tomonlama ochishga, ayniqsa, nutqiy faoliyatni nutqiy sharoitga, nutqiy uslub talablariga moslagan holda izohlashga harakat qilgan.

²⁵ Kaykovus, “Qobusnama”. Toshkent. “Meros 1992 y

Kaykovus, avvalo, so‘zning, so‘z san’atining ahamiyati va mavqeini yuqori qo‘yadi. U “bilgilkim, hamma hunarlardan so‘z hunari yaxshi...”, deb yozadi. Kaykovus so‘z hunarining quroli bo‘lmish til va so‘zlarning qadrini ham yuqori baholaydi: “So‘zni juda ham qimmatli deb bilgil, chunki (so‘z) xor narsa emasdir”. Muallif tilni egallahash, undan yaxshi foydalana olish har bir kishiga taalluqli deb biladi: “Kishi suxandon va notiq bo‘lishi lozim” Kaykovus kishilarni notiqlikka undar ekan, bu san’atni egallahshning, undan to‘g‘ri foydalanishning yo‘llarini ko‘rsatishga ham harakat qiladi. Asar muallifi inson nutqi va unda ifodalanadigan mazmunni to‘rtga bo‘lib, ularning xususiyatlарини quyidagicha ko‘rsatib beradi:

“Ey farzand, xaloyiq uch turli bo‘ladi: xaloyiqning biri shuki, biladi, bilganini ham biladi, bunday kishi olimdir, unga tobe bo‘lish lozim, biri shuki, biladi, bilganini bilmaydi; u uyqudadur, uni bedor qilmoq kerak, biri shundayki, bilmaydi, bilganini ham bilmaydi. U johildir, undan qochish kerak. So‘z to‘rt nav’ bo‘ladi: birinchisi bilishga, aytishga hojati yo‘q so‘zlar; ikkinchisi bilishga va aytishga zarur bo‘lgan so‘zlar, uchinchisi bilishga zaruriyat yo‘q, ammo aytса bo‘ladigan so‘zlar; to‘rtinchisi bilsa bo‘ladigan, ammo aytishga hojati yo‘q so‘zlar... Bu to‘rt so‘zni bayon qildim. Bularning yaxshisi ham bilish, ham aytish zarur bo‘lgan so‘zdir”.²⁶

Kaykovus “Qobusnomा”da mana shu “ham bilish, ham aytish zarur bo‘lgan so‘z” (nutq) oldiga qо‘yiluvchi talablarni ko‘rsatib berishga harakat qilgan edi. Bu talablarni qisqacha quyidagicha izohlash mumkin:

1. So‘z (nutq) ma’noli bo‘lmog‘i kerak. Bu notiqlikning birinchi shartidir: “Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtindan so‘zning qanday ma’noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar. To‘ti ham so‘zlaydi, ammo so‘zning ma’nosini bilmaydi”

2. So‘z (nutq) sodda, xalqqa tushunarli bo‘lmog‘i kerak. Bu notiqlik mahorati alomatidir: “Shunday kishini notiq (suxango‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ma‘lum bo‘lsin. Bunday kishilar oqil (aqlli)lar qatoriga kiradi, bo‘lmasa inson shaklidagi hayvondir”.

3. So‘z (nutq) izhor qilganda tinglovchilarни hisobga olish, ularga mos ravishda gapirish lozim. Busiz nutqni tinglovchilar qabul qilmaydi, u tushunarsiz, keraksiz bo‘lib qoladi: “Amaldorlar bilan amaldorlardek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek so‘zlashgil, (bunday vaqtida ham) donishmandlik chegarasidan chiqma, sening so‘zing eshitgan kishiga og‘ir tuyulmasin, (agar shunday bo‘lmasa) sening so‘zingni hujjat va dalil bilan ham eshitmaydilar, (bunday vaqtida) ularning roziligidagi qarab so‘zlagil, (shu bilan sen o‘sha sharoitdan) salomat

²⁶ Kaykovus, “Qobusnomа”. Toshkent, “Meros” 1992 y.

qolasan/”²⁷ Yana: “Har kishiga gapirmoqchi bo‘lsang, qaragilkim, u sening so‘zingga xaridormi yoki yo‘qmi. Agar tinglovchi sening so‘zingga xaridor bo‘lsa, so‘zingni aytgil (agar shu so‘zingni xaridor xohlamasa), u so‘zni qo‘yib, eshitg‘uvchiga yoqadigan so‘zni gapir, toki sening so‘zingga xaridor bo‘lsin”.

4. So‘z (nutq)da mazmunni to‘g‘ri ifoda qilishga intilish kerak. Nutq sharoitga mos ravishda bir xil izhor qilinmog‘i lozim: “Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta‘rifla. So‘zni bir xil gapir”».

5. Nutqda til boyligidan o‘rinli, maqsadga muvofiq ravishda foydalanishga intilish kerak. Bunda nutq uchun ushbu holatda kerakli bo‘lgan so‘z va iboralarni tanlay olish muhimdir: “... har kishining ahvoli o‘z so‘zi betida yashiringan bo‘ladi. Ya‘ni bir so‘zni bir iborat bilan aytса bo‘ladi, eshitgan kishining esa ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir iborat bilan aytса, eshitgan kishining ko‘ngli bahra oladi” (38-bet).

6. So‘z (nutq) mazmundor bo‘lish bilan birga ta‘sirchan ham bo‘lmog‘i kerak. Buning uchun lug‘at tarkibidagi mavjud so‘z boyliklari, so‘zlarning ma‘no imkoniyatlardan foydalana bilish lozim: “Ilmni yaxshi o‘rgangil. Bilgan ilmingni yaxshi iboralar bilan bayon qilgilib. Bema‘ni da‘vo bilan hijolat bo‘limgil. O‘zingga ma‘lum bo‘lgan va yaxshi bilgan so‘zlarining ko‘proq aytgil. Bema‘ni so‘zlar bilan sharmanda bo‘limgil”.

Yana: “Agar so‘zning yuksak (va ta‘sirchan) bo‘lishini istasang, kinoya, istehzoli gapni (ko‘p) so‘zlama, mumkin qadar istioralarni ishlatgil. Madhda istiorani ishlatgil”.

7. So‘z (nutq)ing izchil, mantiqli bo‘lsin: “Agar munozara qilishni istasang, dushmanga qara, agar u bilan tortishmoqqa quvvating yetsa va so‘z cho‘zilsin desang, dalillar va misollar bilan munozara qilgilib. Bo‘lmasa so‘zni to‘xtatib, bir misolga qanoat qilgilib, bir isbot bilan tur, rad qilma, ehtiyyot bo‘lgilki, avvalgi so‘zingni keyingi so‘zing buzib yubormasini” (85-bet).

8. So‘z (nutq)da ma‘lum me’yor, o‘lchov bo‘lmog‘i, gap talab darajasida gapirilmog‘i kerak: “Oxirgi maqsadni aniq bayon qilishga, nafis so‘zlashga harakat qil. Juda ham uzun va juda ham qisqa so‘zlamagil va bema‘ni so‘z demagil”.

9. So‘z (nutq) nafis, ko‘rkam, go‘zal bo‘lmog‘i kerak. U ta‘sirchan bo‘lib, kishilarda havas, rag‘bat uyg‘otishi lozim: “Oxirgi maqsadni aniq bayon qilishga, nafis so‘zlashga harakat qil”. Yana: “Bu to‘rt so‘zni bayon qildim. Bu to‘rt xil so‘zning ikki tomoni bordir: biri go‘zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin”. Yana: “...go‘zal til bilan so‘zlagil, kiyimingni pok tutgil” (85-bet).

²⁷ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti .Ifodali o‘qish va nutq madaniyati.Shahrisabz.2020

10. So‘z (nutq) jo‘sinqin, ta’sirchan bo‘lishi, kishilarni hayajonga solishi, ularni biror bir maqsadga safarbar qilishi kerak: “Ta’sirli so‘z aytgil, na’ra ursinlar va majlisni qizdirgil. Xalq yig‘lasa, sen ham goho yig‘lagil”.

11. Notiq badnutq, badxulq bo‘lishdan qochishi, nutqida xunuk, uyat, dag‘al so‘zlarni qo‘llamasligi, mazax va hazildan o‘z o‘rnida foydalanishi lozim: “Ey farzand, ko‘p kishilar debdurlarki, mazax — yomonlikning muqaddimasidir. Mazax, ya’ni xonaki so‘z bilan kishiga daxl qilishdan hazar qil. Hazilni mastlik vaqtingda qilma, chunki yomonlik hazildan kelib chiqadi.

Yaramas, iflos so‘z aytishdan sharm qil, (shunday so‘zlarni) xususan, shaxmat va nard o‘ynayotgan vaqtingda aytmagilkim, ikki kishining o‘rtasida nizo paydo bo‘ladi”.

12. So‘z (nutq) mavzuga, uslubga va nutqiy janrga bog‘liq bo‘ladi. Har bir uslubga xos so‘zlash va yozishga o‘rganish lozim: “...g‘azal va marsiyani bir xil uslubda, hajv va madhni ham bir xil uslubda yozmagil. Agar hajv yozishni bilmasang, madhni teskarisini yozgilki, bu hajv bo‘ladi, marsiya va g‘azalni ham shunday qil” (99-bet).

13. Og‘zaki va yozma nutq madaniyati, savodxonlik bu — nutqiy malakadir. Unga mehnat, mashq tufayli erishiladi. Kaykovus nutqini yaxshilash, takomillashtirish ishidan qochmaslikka chaqiradi. Kaykovusning bu masalaga oid fikrlari uning kotibning tili haqida bildirgan quyidagi mulohazalarida aniq ifodalangan. Chunonchi, “Ey farzand, agar dabir va kotib bo‘lsang, nutqingni yaxshi egallagil, xatni chiroysi yozgil va ko‘p yozishni odat qil, toki mohir bo‘lgaysan” (106-bet).²⁸

Kaykovusning yozishicha, notiqlik faqatgina nutq, nutqiy mahorat emas, balki notiqning xarakteri, xulqi, ruhiyati, irodasi bilan ham bevosita bog‘liq hodisadir. Shu ma’noda, Kaykovus notiqning minbarda o‘zini tutib tura olish, harakatlarining nutqiy jarayon, nutq mavzusiga mos bo‘lishimi notiqlikning uzlusiz tomonlaridan biri deb baholaydi va bu masalada notiqlarga bir qator muhim maslahatlar beradi: “Minbarda turish odobini saqlagil, takabburlikdan, yolg‘on so‘zlashdan va poradan uzoq bo‘l”.

Yana: “Minbar ustida sust, xo‘mrayib, sovuq so‘z bo‘lib o‘tirmagil. Hamisha harakat qilib turgil. So‘z aytayotgan vaqtingda majlis ahliga qaragil, agar nutqni tinglasalar, so‘zlagil, agar afsona eshitishni tilasalar afsona aytgil. Chunki xalq senga xaridor bo‘lib, hamma seni qabul etgandan so‘ng, hech narsadan qo‘rqmagil”.

Abdurazzoq Samarcandiying so‘z qudrati haqidagi qarashlarida so‘zning ulug‘vorligi, jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy xoslanish tamoyillari haqida muhim

²⁸Kaykovus, “Qobusnoma”. Toshkent. “Meros 1992. B.39-106

fikr-mulohazalarni bayon etilgan. Masalan, ko‘p yillar davomida Shohruh saroyida mulozimlik, keyinchalik imomlik va qozilik mansablarida ishlagan, zabardast tarixchi olim Abdurazzoq Samarqandiy “Matla’i sa’dayi va majmai bahrayn” asarida so‘z orqali amalga oshiriladigan og‘zaki va yozma axborot, bunda so‘zning ijtimoiy xoslanishiga juda yuqori baho bergen edi. Uning fikricha, dunyoda odil so‘zdan ustun turadigan hech narsa yo‘q. “Jonparvar so‘z xuddi inson ruhidek abadiy boqiylik topadi. So‘z nuri ichu toshni shu’laga chulg‘ovchi bir shamdir va u shu’la shundaydirki, yorug‘ligi abadiy porloq va hech mahal so‘nmovchidir”²⁹.

Inson so‘z orqali boshqalar bilan muloqotda bo‘ladi, undan jamiyat ehtiyoji va o‘z xohish-istagiga ko‘ra foydalanadi. So‘z o‘chmas mash‘al sifatida yorug‘lik taratadi va boshqalar tomonidan qabul qilinar ekan uning umri ham uzayadi. Dono odamning aytgan so‘zi uning nomini tarixga muhrlaydi. Og‘zaki muloqot orqali odamlar o‘zaro tez va izchil mantiqiy aloqaga kirishadi. Aytilgan to‘g‘ri so‘z kishilarda hamjihatlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Ijrochilik san’atining inson ruhiga ta’siriga qadim zamонлардан boshlab katta e’tibor bilan qaragan. Shuning uchun o‘rtा asrlarda adabiy talaffuz normalarini o‘rgatuvchi “ilmi tajvid”, jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi “ilmi kalom”, ilmiy va adabiy bahsni o‘rgatuvchi “ilmi munozara” kabi fanlar o‘qitilgan. Natijada maxsus bilim olgan har bir savodli kishi ayni paytda ifodali o‘qish asoslarini egallagan so‘z ustasi ham bolib yetishgan. Shu bois o‘tmishda badiiy so‘z ijrochiligining dostonxonlik, qissaxonlik, g‘azalxonlik kabi turlari keng tarqalgan. O‘qimishli kishilar tomonidan o‘tkazilgan she’rxonlik anjumanlarida so‘z san’atining yuksak namunalari og‘zaki ijro — ifodali o‘qish vositasida chuqur tahlil qilingan.³⁰

Shuningdek, tarixchi, shoир, hadisshunoslarning asarlarida ham voizlik san’atiga aloqador ba’zi fikrlar bayon etilgan. Jumladan, tarixnavis Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida, Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Mantiq ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, “Chor devon” asarlarida, Zaynuddin Vosifiyning (XV asr) «Badee ul-vaqoe», Xondamirning «Makorim ul-axloq» risolasida atoqli voizlarning mahorati, iste’dodi, va’zonlik uslublari haqidа mulohazalar yuritilgan. Alisher Navoiy so‘zi fasih, tili bilan dili boshqa va’zonlar bilan o‘z nutqlari orqali odamlarga madad bergen, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan voizlarni ajratgan. “Mahbub ul-qulub” asarida haqiqiy voizning fazilatlarini quyidagicha ta’rif etadi: “Voiz Haq so‘zni targ‘ib qilishi, payg‘ambarlar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak,

²⁹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. Shahrisabz.2020.B.14

³⁰ Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. O‘quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020

eng avval uning o‘zi Haq va payg‘ambarlar yo‘liga kirishi, so‘ng esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim”.³¹

Navoiy nazdida, “Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan odam to‘lib chiqsin; to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko‘rvuchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zлari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi”.³² “O‘z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz o‘zi qolib, shogirdini kuylatuvchi qo‘sishqidir”. Bular qatorida Muhammad Rafiq Voizning “Avbob ul-jinon”, Voiz G‘azviniyning “Ziloli maqol”, Voiz Shirvoniyning “Ahsan ul-ahodis”, Muhammad Voizning “Hidoyat ud-taqvim”, Quraysh Saidiyning “Anis ul-voizin”, Voiz Samarcandiyning “Ravozat ul-voizin”, qozi O‘shiyning “Miftaq ul-najjix”, Voiz Koshifiyning “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho” kabi asarlarini keltirish mumkin. Albatta, hukmdorlar ham va’z aytish sirlarini o‘zlashtirgan.

Tarixchilarining shohidlik berishlaricha, sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Mirzo Ulug‘bek kabi davlat arboblari voizlik san’atini puxta egallagan va faoliyatlarida undan mohirona foydalangan. O‘rta asrlarda madrasalarda boshqa ilmlar qatori har bir so‘z, tushuncha, ohangning ta’sirchanligiga erishish, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g‘oya, mafkura va xulosani o‘z tinglovchilariga yetkazish san’ati — suxandonlikdan saboq berilgan.

Bu davr voizlik san’atida jangovarlik, farmonbardorlik ohangi yetakchi bo‘lgan. Shu tufayli va ‘zlar ijtimoiy salmoq, siyosiy mazmun kasb etgan, ta’sirchan mafkuraviy quroqla aylangan. Sharq voizlik san’atining o‘ziga xosligi shundaki, unda nutqning mazmuniga emas, balki tasvir, qiyoslash, majoz va o‘xshatishlarga alohida e’tibor berilgan. Shuning uchun ham mashhur mutafakkirlarimiz voiz baland martabaga ega bo‘lmog‘i uchun boshqa ilmlar qatori, Qur’oni Karimni, hadislarni yaxshi bilishi, she’riyat ilmidan boxabar bo‘lishi, badiiy usullardan mohirona foydalanishi zarurligini qayta-qayta ta’kidlagan. G‘ozi O‘shiyning «Miftoh ul-Najjoh», ya’ni «So‘z kaliti» risolasi voizlik san’atining sir asrorini mohirona ochib bergen. Bu esa uning o‘tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo‘yicha yetarli bilim sohibi ekanligidan dalolat beradi. XIII asrda Xorazmshohlar sulolasi davrida yashab ijod qilgan zukko va iqtidorli voiz Bahovuddin Valad hamda uning o‘g‘li, ulug‘ adib, olim va faylasuf Jaloliddin Rumiy voizlik san’atining o‘tkir nazariyotchisi edi. Bu davrda, shuningdek, Muayyad Mehnagi, Mavlono Riyoziy, Voiz Koshifiy, Abulfayz Zunnun, Anas Junayd, Sirriy, Nisaviy, Sheraziy kabi bir

³¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.32-bet

³² O‘sha kitob.

qator suxandonlar, voizlik madaniyatining iqtidorli va iste'dodli namoyandalari ham yashaganlar. Ulardan har birining o'z xizmati, mahorati, uslubi mavjud bo'lib, asarlari arab tilida yozilgan.

4.Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy

Komil ma'rifat egasi Xo'ja Muayyad Mehnagiy o'z zamonasining alloma notiqlaridan biri bo'lib, dunyoqarashi jihatidan oddiy mehnat ahliga juda yaqin bo'lgan. Mavlono Navoiyning shohidlik berishlaricha, u bir qabristonning bechorahol shayxi bo'lgan ekan. Bo'sh vaqtlarini ilm-u donishga sarf qilgan Mehnagiy «zohir ulumin takmil qilib erdi», ya'ni yuzaga chiqqan o'ziga ma'lum bo'lgan ilmlarni o'zlashtiribgina qolmay, ularni takmil qilgan, ya'ni to'ldirgan, boyitgan ham edi. E'tirof etishlaricha, Mehnagiyning voizligi uning donishmandligidan kam bo'lмаган. Navoiy hazratlari Mehnagiy haqida: «Xoja Muayyad Mehna — Hazrat Shayx Abusaid Abulxayrnning nabiralaridindur. Yillar mozor boshida shayx erdi va zohir ulumin takmil qilib erdi va va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' erdi. Va Xoja samo'ni dag'i muassir qilur erdi. Salotin Xojani ta'zim qilur erdi»³³, — deb uning nutqlari jo'shqin, jozibali, tinglovchilar oldida maftunkor bo'lganini ta'kidlagan. Xo'ja Mehnagiyning mashhurligi yana shunda namoyon bo'lganki, u o'z mushtariylarining yuragiga qo'l sola bilgan, ularni passiv tinglovchilik darajasidan faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga, talaffuziga, tiliga faol munosabatda bo'luvchi sinchkov, zukko tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. Buning uchun voizgagina emas, har qanday notiqqa ham zo'r iste'dod, behad shiddatkorlik darkor. Modomiki, Mehnagiy o'z nutqlarining ta'sirchan bo'lishiga erishgan ekan, demak, u o'z davrining otashnafas voizi bo'lgan. U va'z aytganda, anjumandgilarga hech bir zamondoshi u kabi kuchli ta'sir qila olmagan. Mehnagiy singari jo'shqin, nodir vozilar kam bo'lgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, uning sharafli nomi tarix sahifasidan, voizlik san'ati zarvaraqlaridan nufuzli o'rinni o'lgan, u notiqlarning butun bir avlodni uchun ibrat hisoblangan.³⁴

Xo'ja Mehnagiy muvaffaqiyatlari va mahoratining kaliti bilim doirasining keng, mazmunan chuqur ekanligida edi. Navoiy iborasi bilan aysak, u «zohir ulumin» bo'lgan, ya'ni o'sha davrda ajdodlarimiz to'plagan bilimlarning deyarli hammasini puxta o'zlashtirgan, buning ustiga ularni boyitgan ham.

³³ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII to'm.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoli. 1966,42-bet.

³⁴ Ifodali o'qish va nutq madaniyati. O'quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020

“Majolis un-nafois” tazkirasida Xoja Muayyad Mehnagi nomi o‘z zamonasining yetuk notiqlaridan biri sifatida tilga olinadi. Dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan bu kishining va’zlari hamisha jo’shqin o‘tgan. Mehnagi va’zlarining asosini imon-e’tiqod, din-u diyonat, axloq-odob haqidagi umuminsoniy masalalar tashkil etgan. U o‘zining pandu nasihat so‘zlari bilan zamondoshlarini ezbilikka da’vat etishdan charchamagan. Voiz o‘z nutqini hamisha Qur’on hikmatlari va hadislari, hikoyat va rivoyatlar bilan bezab, ularni tinglovchilarning didi va saviyasiga muvofiqlashtirib dilkash ohangda bayon etgan. Shuning uchun ham, uning va’zlari xalq tomonidan qizg‘in kutib olingan, bahsmunozaralarga sabab bo‘lgan.

Mavlono Riyoziy. Mavlono Navoiy nazariga tushgan, yuksak ta’rifu tavsiflariga tuyassar bo‘lgan voizlardan yana biri Mavlono Riyoziy bo‘lgan.

“Majolis un-nafois” tazkirasing uchinchi majlisida Riyoziy haqida shunday ma’lumot keltirilgan: “Mavlono Riyoziy — Zova muhavvilotidindur. Atvori mutualavvin kishidur. U bir viloyatning qozisi erdi. Ul amrg‘a munofiy ishlar andin sodir bo‘lib, ma’zul bo‘ldi va qayd va musodalarlar tortdi va base zabmatlar ko‘rdi, hamul mansab muddaosig‘a ammo tuyassar bo‘lmadi. Va’z aytib minbarda o‘z ash‘orin o‘qub, yig‘lab vajdu hol qilur”³⁵.

Hazrat Navoiyning ushbu fikr-mulohazalaridan ma’lum bo‘ladiki, Mavlono Riyoziy bir necha muddat Zova viloyatning qozisi bo‘lgan. Ammo o‘z davri hukmronlarining siyosatiga qarshi borgani uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilib, ancha zahmat chekkan. Mavlono Riyoziy davrining tanqli so‘z ustasi sifatida o‘z va’zlarida yuksak insonparvarlik qarashlarini ilgari surgan. Jamiyatda ro‘y beradigan axloqsizlik, zo‘ravonlik kabi g‘ayriinsoniy hodisalarga befarq qaray olmagan. Binobarin, hukmronlarni insofga chaqirish e’tiqodsiz va nopol kimsalarni haq yo‘lga hidoyat etish Mavlono Riyoziy va’zlarining asosiy mazmunini tashkil etgan. Riyoziy voiz, ayni paytda iste’dodli shoir ham bo‘lgan. Shu boisdan ham xalqqa va’z aytayotganda ba’zan o‘z she’rlarini hissiyot bilan o‘qib, eshituvchilarni ham to‘lqinlantirgan, ularda xayrixohlik va hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otgan. Hayoti va faoliyatini ezbilikni targ‘ib etishga bag‘ishlagan mavlono Riyoziy fidoiy murabbiy sifatida xalq qalbidan chuqur joy olganligi sababli ham Alisher Navoiydek zotning nazariga tushgan.

³⁵ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII to‘m.-Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 101-bet.

5. Husayn Voiz Koshifiy va voizlik san'ati

Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy XV asrda yashab ijod etgan atoqli olim va adib, axloq va ma'rifat targ'ibotchisidir. Uning nomi o 'z zamonidayoq mashhur bo'lib el og'ziga tushgan edi. Husayn Voiz Koshifiy taxminan 1440-yillarda Sabzavor viloyatining Bayhaq nohiyasida tavallud topgan. Dastlabki ta'limni o 'z vatanida olgan bo'lg'usi olim keyinchalik Nishopur, Mashhad shaharlarida o'qishni davom ettirgan. XV asrning ulug' allomasi Hazrat Jomiyning nazariga tushgan Koshifiy uning tavsiyasi bilan o'sha davrning madaniy markazlaridan bo'lgan Hirot shahriga keladi. Husayn Voiz Koshifyning ilmiy qiziqishi va salohiyati bag'oyat keng bo'lib, u ilmi nujum, tafsir, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, fiqh bo'yicha xilma-xil asarlar yozib qoldirgan. Uning "Axloqi Muhsiniy", "Anvori Suhayliy", "Risolai Xotamiya", "Tafsiri Husayniy", "Javohir ut-tafsir", "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati", "Ravzat ush-shuhado" ("Shahidlar bog'i"), "Sahifai shohi" kabi asarlari xalq o'rtasida keng tarqalgan. Husayn Voiz Abdurahmon Jomiyning ixlosmand muridi, shogirdi sifatida ham, islom dinining targ'ibotchisi sifatida ham el o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. So'zamol va zakiy, har tomonlama bilimdon bu zot ayni paytda Alisher Navoiyning do'sti va muxlisi ham edi. Shu boisdan o'zining ikkita tafsiri, ya'ni "Tafsiri Husayniy" va "Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul-amir" nomli asarlarini Navoiyga bag'ishlaydi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasingin to'rtinchi majlisida Husayn Voiz Koshifiy ijodiga yuqori baho beradi. "Mavlono Husayn Voiz - Koshifiy taxallus qilur. Sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadur va mavlono zufunun va rangin va purkor voqe' bo'lubtur. Oz fan bo'lg'aykim, daxli bo'limg'ay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor"³⁶

Alisher Navoiyning zamondoshi mashhur tarixchi Xondamir esa "Habib us-siyar" kitobida Voiz Koshifiy faoliyati haqida shunday ma'lumot beradi: "Voiz nujum ilmi va inshoda o'z zamonasining yagonasi edi va ko'p ilmlar bo'yicha namunalar yaratib, asosli gaplar aytib, haqli da'volar qildi. Chiroyli ovoz va dilkash ohangda va'z va nasihatlar bilan shug'ullanardi. Darhaqiqat, va'z va pandu nasihat so'zlarini aytib, xalqni to'g'ri va haq yo'lga boshlashda Husayn Voiz Koshifiy o'z zamonasining yagonasi bo'lgan." Shuning uchun unga "voiz" degan unvon berilgan. O'rta asrlarda voizlik katta san'at hisoblangan. Ulkan maydonlar, masjid va madrasa sahnalarida odamlar yig'ilib, donishmand allomalar, ulamo va davlat arboblarining va'zlarini tinglagan. Husayn Voiz Koshifiy har juma kumi

³⁶ Alisher Navoiy. O'n besh tomlik. O'n ikkinchi to'm. // Majolis un-nafois. - Toshkent: G.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966,42-bet

Hirotning masjidi jome’sida va’z aytgan. Minglab odamlar uning nasihatlarini tinglab, o’zlariga olam-olam ruhiy ozuqa olgan. Koshify va’zlarining shuhratini ta’minlagan sabab, avvalo, uning Qur’oni Karim suralarini yoddan bilishi, hadislarni, g’oyat ko‘p hikoya va rivoyatlarni misol keltirib, bularni tinglovchilarning saviyasiga muvofiqlashtirib, yoqimli va ta’sirchan usulda bayon etib, zamona voqealariga bog‘lab sharhlashida bo‘lgan.

Umrini yurt osoyishtaligi va xalq manfaatlariga bag‘ishlagan bu zot odamlarni halol yashashga, to‘g’ri so‘z bo‘lishga, din-u imon yolidan chiqmaslikka chaqirar va o‘zi ham bunga qattiq amal qilardi. Koshify katta olim va adib bo‘lishiga qaramasdan, juda oddiy va kamtarona hayot kechirgan; ayni paytda juda nozik tabiatli kishi bo‘lgan. Shu munosabat bilan Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida qiziq bir voqeani hikoya qiladi: Husayn Voiz Koshify va’z aytadigan minbar oldiga shaharning sho‘xlaridan biri Hofiz Sheroziyning quyidagi baytini yozib ketadi:

Voizon chun jilva dar mehrobu minbar mekunad,

Gar ba xilvat meravand on kori digar mekunand.

(Voizlar minbar ustida, mehrob oldida jilva qilib so‘zlaydilar, xilvatga borgandan keyin esa, boshqa ishlar bilan shug‘ullanadilar)

Husayn Voiz navbatdagi va’zga kelayotib, yuqoridagi baytga ko‘zi tushadi. Sharitta orqasiga burilib, uyiga qaytib ketadi. Qattiq xafa bo‘lganidan bir yilgacha va’z aytishga chiqmay qo‘yadi. Shahar akobirlarining iltimoslaridan so‘ng yana va’z aytta boshlaydi. Gap shundaki, Hofiz Sheroziy ushbu baytda munofiq, ikkiyuzlamachi, aytgan so‘ziga o‘zi amal qilmaydigan kishilarni fosh etgan edi. Voiz Koshify esa bunday kishilar toifasidan bo‘lmasa-da, qo‘pol hazildan qattiq ranjigan. Husayn Voiz notiq sifatida shu qadar hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lganki, buning asosiy sabablaridan biri, avvalo, ovozining yoqimliligi, jozibador ohangi, ichki ruhiy holatni o‘rinli harakatlar bilan ifoda qila olishida edi. Shu boisdan xalq yig‘iladigan hamma joyga doimo uni taklif qilishgan. Natijada bo‘sh vaqtin bo‘lmanan voiz aniq jadval bilan ishlashga majbur bo‘lgan. Husayn Voiz qayerda nutq so‘zlasa, shu yerda odamlar soni ko‘payib ketar, natijada minglab xalq to‘plangan katta maydonlarning oxirida turganlarga uning ovozi yetib bormas ekan. Shunga qaramay, odamlar bu zotning nurli siymosini uzoqdan bo‘lsa ham bir ko‘rishga, so‘zlariga monand chiroyli xatti-harakatarini kuzatishga qiziqib maydonni tark etmas ekan.

Husayn Voiz Koshify zamonasining eng barkamol notig‘i sifatida ulug‘vor ma’nolar to‘la nutqi bilan xalq qalbiga kirib borgan. Jozibador ovozi, ulkan maydonlarda yoqimli tarona kabi yangrab tinglovchilarini o‘ziga maftun etgan. Ayni paytda yuksak insonparvar va murabbiy sifatida haqiqat vaadolat to‘g‘risidagi

pand-nasihat so‘zлari bilan mazlumlar diliga taskin bergen. Koshifiy faqat ijrochi notiq bo‘lib qolmasdan, yuqorida ta’kidlanganidek, iste’dodli adib sifatida ham qator asarlar ijodkoridir. Adib asarlarining fazilati shundaki, u mavjud jamiyatni, odamlarini tahlil etadi, hikmat va falsafa asosida fikr-mulohaza yuritadi. Natijada odam bolasiga xos juda ko‘p umumiy xususiyatlar: ojizlik va ulug‘lik sifatlarini ko‘rsatib beradi. Koshifiyning el orasida mashhur bo‘lgan asarlaridan biri 1495 yilda yaratilgan “Axloqi Muhsiniy”dir. Ushbu asar Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li, temuriy shahzoda, Marv hukmdori Muhsin Mirzoga bag‘ishlangan. Asarning asosini ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya va axloq haqidagi chuqur falsafiy fikr-mushohadalar tashkil etadi. Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining kirish qismida: “Maqbul af’olidin necha kalima bayon varaqiga yozdim, toki o‘zga podshoh avlodiga ibratnama, dasturulamal bo‘lgay”, deydi.³⁷

Adib o‘z davrining insonparvar murabbiyi sifatida davlat, mamlakat boshliqlarining vazifasini ko‘rsatib berishni, ularga nasihat qilishni burchi deb biladi. U davlatni xalq manfaatlarini ko‘zlovchi, xalq orzu-umidlarini amalga oshiruvchi vosita, davlat arboblarini xalq xizmatchilariga aylantirish g‘oyasini ilgari suradi. Jamiyatdagi tengsizlik va haqsizlikni hukmonron tabaqalarda yuksak axloqiylik va insoniylik fazilatlarini qaror toptirish orqali bartaraf etmoqchi bo‘ladi. Xullas, “Axloqi Muhsiniy”da insonga sharaf keltiradigan poklik, imon, e’tiqod, ezzgulik singari sifatlarning ahamiyatini ta’kidlash barobarida podshoh va saroy xizmatchilarining xislatlari, burch-vazifalarini belgilab beradi. Adib faqat podshohni emas, balki oddiy insonni ham dili, niyati pok, xayr-saxovatli, kamtar, dono, dunyo sir-sinoatlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasi sifatida ko‘rishni orzu qiladi. Koshifiy ijtimoiy-axloqiy idealni yuzaga chiqarishning asosiy vositasi deb ilm-ma’rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi.

Adibning “Anvori Suhayliy” nomli asari ham axloqiy-didaktik xarakterda bo‘lib, mashhur “Kalila va Dimna” ta’sirida yaratilgan. “Anvori Suhayliy”da Sharq adabiyotida keng tarqalgan hikoyat va ri-voyatlar keng o‘rin egallaydi va shu orqali adib qissadan liissa chiqarib, o‘zining o ‘git va nasihatlarini, axloqiy qarashlarini bayon etadi. “Risolai Xotamiya” asarida esa Xotam Toyi timsolida oliyhimmatlik va saxiylik fazilatlari targ‘ib qilinadi. Ehson va saxovat kishini komillik sari eltuvchi eng go‘zal sifatlardan ekanligi uqtiriladi. Yuqorida nomlari qayd etilgan asarlardan tashqari, Husayn Voiz Koshifiy no tiqlik san’ati nazariyasiga oid “Sahifai Shohi”, “Dah majlis”, “Maxzan ul-insho” kabi qo‘llannmalar ham yozgan. Shu bilan bir qatorda, “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Xotamiya”, “Anvori Suhayliy” asarlarida ham so‘z, notiqlik san’atiga doir qimmatli fikr-mulohazalar uchraydi. Ushbu asarlar XV asrdayoq Xuroson viloyatlari madrasalarida darslik sifatida keng qo‘llanilgan.

Adibning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asari ham uning boshqa asarlari singari asrlar davomida axloq va odob dasturi sifatida insonlar qalbini ezgulik nurlari bilan yoritib kelgan. Asarda javonmardlik ilmi qonun-qoidalari va tasavvuf falsafasi haqida qimmatli fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

“Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”ning oltinchi fasli suhbat odobi masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif katta-yu kichikka birday zarur bo‘lgan ibratlari fikrlarni bayon etadi: “Bilgilki, odamizodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jim turgan ma’qul”³⁸

Adib suhbat odobi haqida chuqur fikr-mulohaza yuritar ekan, shayxlar va boshqa martabaga erishgan kishilarning amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalarni birmabir ko‘rsatib beradi:

“Birinchidan, har kimning ahvoliga qarab munosib so‘z aytsin.

Ikkinchidan, dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.

Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.

To‘rtinchidan, ovozini baland ko‘tarmasini, eshituvchilarga maid keltirmaydigan qilib gapirsin.

Beshinchidan, odamlarga naf‘i tegadigan ma‘noli gaplarni gapirsin.

Oltinchidan, agar so‘zning qimmati qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisolri urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qayerga ekmang unib chiqmaydi”³⁹

Husayn Voiz Koshifiy martabaga yetmaganlarning suhbat odobi haqida ham alohida to‘xtalib, bunda u quyidagi sakkizta qoidaga amal qilish lozimligini ta’kidlaydi:

“Birinchidan, so‘ramagunlaricha gapirmsasin.

Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasini.

Uchinchidan, gapirayotganda o‘ngu so‘lga qaramasini.

To‘rtinchidan, g‘arazli va kinoya gaplarni gapirmsasin.

Beshinchidan, qattiq gapirmsasin va betgachoparlik qilmasini.

Oltinchidan, pushaymon bo‘maslik uchun o‘ylab gapirsin.

Yettinchidan, odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin.

³⁸ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Kornilov tajimasi). - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 57-58-betlar.

³⁹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tajimasi). - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 58-bet.

Sakkizinchidan, ko‘p gapirmasin. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, soz gapirishni shior etsin”⁴⁰.

Bundan besh asr muqaddam aytilgan ushbu o‘gitlar inson ma’naviy tarbiyasi kun tartibida turgan bizning zamonamizda ham dolzarb masala bo‘lib turibdi. Xullas, Husayn Voiz Koshifiyning har bir asari olam-olam ma’noga ega bir xazinadir. O‘z umrini odamlar qalbini ilmu ma’rifat nurlari bilan munavvar qilishga bag‘ishlagan adib va mashhur voiz 1505 yilda Hirotda vafot etgan.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ifodali o‘qish san’atining taraqqiy etishida “Avesto” qanday o’rin tutgan?
2. Qur’oni Karimni qiroat bilan o‘qish san’ati va uning inson ruhiyatiga ta’siri haqida gapiring?
3. Og‘zaki so‘z ijrochiligiga asoslangan voizlik san’ati haqida qaysi manbalarda ma’lumot berilgan?
4. Alisher Navoiy va’z aytuvchi haqida nima deydi, siz bu fikrni qanday izohlaysiz?
5. Abu Nasr Forobiy mantiqiy asosga ega bo‘lgan to‘g‘ri va yorqin nutq tuzishda, asosan, nimalarga e’tibor qaratadi?
6. O‘tmishda ifodali o‘qish yoxud notiqlik san’atiga doir qanday asarlar yaratilgan?
7. Husayn Voiz Koshify qayerlarda tahsil olgan, Hirotda kelishiga kim sabab bo‘lgan?
8. Koshify, asosan, qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan, uning xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan asarlarining nomlarini aytинг?
9. Navoiy va Koshify o‘rtasidagi o‘zaro do‘slik va ilmiy hamkorlik munosabatlari haqida qanday fikrdasiz?
10. Husayn Voiz Koshify va’zlarining shuhrat qozonishiga, asosan, qanday omillar sabab bo‘lgan?
11. “Axloqi Muhsiniy” asarining g‘oyaviy mazmuni nimalardan iborat?
12. Husayn Voiz Koshify notiqlik san’atiga doir qanday asarlar yozgan?
13. Koshifiyning qaysi asarları fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjima kimlar tomonidan amalga oshirilgan?

⁴⁰ O‘sha kitob.58-bet.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi Navoiy davlat pedagogika institute O'zbek filologiyasi fakulteti. O'zbek adabiyoti kafedrasи. "Ifodali o'qish" maruzalar matni. Navoiy 2008.
2. Beruniy A. Tanlangan asarlar. III tom. — T.: Fan, 1982. 64-bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 32-bet.
4. Abu Nasr Forobi. Risolalar. —Toshkent: 1975, 54-bet
5. Ifodali o'qish va nutq madaniyati. O'quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020
6. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII tom.—Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 42-bet.
7. Alisher Navoiy. O'n besh tomlik. O'n ikkinchi tom. // Majolis un-nafois. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966, 42-bet
8. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Kornilov tajimasi). — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 57-58-betlar.
9. Kaykovus, "Qobusnoma". Toshkent, "Meros" 1992 y. B.98
10. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ifodali o'qish va nutq madaniyati. Shahrisabz.2020
11. Z.Masharipova. Ifodali o'qish praktikumi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA VOIZLIK SAN'ATINING ULUG'LANISHI. ALISHER NAVOIY IJODI

"Umidim uldurki va xayolimga andoq kelurki, so 'zum martabasi avjdn quyi inmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a'lo darajadan o'zga yerni yoqtirmagay."

(AlisherNavoiy)

Reja:

1. Alisher Navoiy asarlarida voizlik san'atining ulug'lanishi
2. Shoir yashagan davr va adabiy muhit

3. Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish an’analari. Xamsanavislar. Shoirning ulardan olgan adabiy mahorati
4. Alisher Navoiyning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va adabiy merosi
5. Alisher Navoiy lirkasi
6. Shoirning nasriy asarları

Tayanch so‘z va iboralar: Navoiy, xamsachilik, adabiy meros, jahon madaniyati xazinasi. O‘zbek xalqi ma’naviy madaniyati. Lirk asarlar va epik asarlar, memuar va tarixiy asarlar.

1. Alisher Navoiy asarlarida voizlik san’atining ulug‘lanishi

O‘rta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avvalo o’sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilardi. Bu davrda notiqlik san’ati ustalarining nadimlar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlar, muammogo‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Tilning yaratuvchisi esa xalq. Til xalqqa xizmat qilishini to‘g‘ri anglovchi sog‘lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to‘g‘ri tushunib kelgan. Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan nutqlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. O‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo‘lgan buyuk shoir Alisher Navoiy turkiy tilda go‘zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida butun ijodi bilan o‘zbek tili boyliklarini namoyon etdi. O‘zbek tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini isbotladi.

Til va nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi, chunki ona tili muhim tarbiya vositasi sifatida kishilarni buyuk maqsadlar sari yo‘naltiradi, ruhlantiradi, ezgu orzu-umidlar bilan yashashga undaydi. So‘zning kuch-qudrati, tilning o‘tkir qurol ekanligini Alisher Navoiy asarları misolida aniq his etish mumkin. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning merosi, o‘zbek tili va adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, badiiy mahorati, tildan foydalanishdagi o‘ziga xosligi haqida adabiyotshunos, tilshunos olimlar ko‘p va xo‘b yozishgan. Navoiyning boy merosi va navoiyshunoslik sohasidagi ilmiy, o‘quv manbalarni chuqur o‘rganish va ulardan keng foydalanish kundalik vazifalarimizdan bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ulug‘ shoirimiz so‘zlarining qadri yana baland, tobora yuksak bo‘lib bormoqda. “Xazoyin-ul maoniy”, “Xamsa”, “Muhokamat-ul lug‘atayn”, “Mahbub-ul qulub” kabi shoh asarlar ona tilimizdan mohirona foydalanishning o‘ziga xos mahorat maktabi vazifasini o‘taydi.

Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida so‘zning qudratiga yuksak baho berib, so‘zning qadri naqadar balandligini alohida ta’kidlaydi: “...so‘z bir dur

bo‘lib, uning daryosi ko‘ngildir, ko‘ngil shunday bir o‘rin bo‘lib, unda mayda va yirik ma’nolar to‘plangandir. Bu shunga o‘xshaydiki, gavhar daryodan g‘avvos vositasida chiqariladi. So‘z duri ham ko‘ngildan so‘zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o‘zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi. Nechunki, gavhar qiymat yuzasidan juda ko‘p darajalarga bo‘linadi, hatto bir diramdan yuz tumangacha desa bo‘ladi”.⁴¹ Ona tilimizning boyligi, qudratini yuksak baholagan shoir «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarida uning fazilatlarini nihoyatda chiroyli tasvirlab beradi. Tilimizdagi so‘zlarni yulduzlarga o‘xshatish bilan ularning nihoyatda ko‘pligi, xilma-xilligi va bir-biriga o‘xshamasligini aks ettiradi.

Tildagi so‘zlarni chamanzordagi gullarga o‘xshatish bilan so‘zlarning o‘ziga xos ma’no, mazmunga egaligi nazarda tutiladi. Gul insonni o‘ziga mahliyo qiladi, e’tiborini tortadi, uni quvontiradi, tildagi so‘zlar ham ana shunday fazilatga ega. Kishi so‘zlashdan oldin so‘zlarni tanlaydi, ularni saralab, zarurini, ma’qulini ishlatadi. Har bir so‘zni ishlatganda ham boshqalarga ozor yetkazmasdan, ma’nosini hisobga olib qo‘llaydi. Tildagi so‘zlar insonning eng nozik tuyg‘ularini ifodalash bilan birga kishining hissiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun so‘zning qudratidan boshqalarga ozor berish uchun emas, ularni ruhlantirish uchun mohirona foydalanish zarur. Alisher Navoiy merosining boqiyligi shundaki, bugungi kunda o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Jamiyatda tilning ijtimoiy mavqeining oshishi uning taraqqiyotiga xizmat qilib, kishilarni eng ezgu maqsadlar sari ruhlantirishdagi roli yuksak bo‘lishiga munosib hissa qo‘shishi uchun o‘ziga xos yo‘llanma — o‘git sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyidagi tanbihlar buning isbotidir: Shoir o‘zining “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Najmul-javohir” asarlarida o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalarini ko‘rsatish bilan uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi. U o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, boshing ofatidir”. Ya’ni til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir. Alisher Navoiy to‘g‘ri, qisqa, lo‘nda, yoqimli, mantiqli, tushunarli, jo‘yali, aniq va ta’sirli nutq haqida o‘zining “Arbain”, shuningdek, “Xamsa” asarlarida ajoyib fikrlarni aytgan.

Bugun va’zxonlik va voizlik san’atini o‘rganishdan maqsad nima? Va’zxonlik san’atiga ehtiyojning boisi shuki, u milliy mustaqillik mafkurasi omma ongiga singdirish vositalaridan biri. Zamnaviy va’z nafaqat diniy mazmunda, balki istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya mazmun-mohiyatini yoshlarimizga targ‘ibot va tashviqot qilishda, odob-axloq, ma’naviy barkamollikka undashga xizmat qilfadi.

⁴¹ Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. O‘quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020

2.Shoir yashagan davr va adabiy muhit

Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati yetti qavat osmon kabi yuksakdir. Bu yuksak qavatlarga yo‘l topib borish va ulardagи ma’nolar xazinasini ochish oson emas. Yosh avlod qalbiga istiqlol g‘oyasini singdirishda Navoiy asarlarida uchragan har bir so‘zning ma’nosini sharhash ham ahamiyatlidir. Inson dunyoqarashini shakllantirishda milliy g‘oya bosh yo‘nalish bo‘lib, bu g‘oyani yosh avlod qalbi va ongiga singdirishda Navoiy ijodining imkoniyati kattadir. Mashhur nemis shoiri Gyotening: “Sen bir so‘zni izohlab berish bilan bir millatning mushkulini oson qilding” degan so‘zлari nihoyatda o‘rinli ekanini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Adabiyot darslarida milliy g‘oya unsurlari o‘quvchilar tomonidan aql yordamida o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki ularning tabiatiga singdirilishi, xarakter xususiyatlariiga aylanib ketishi zarur. Boshqacha aytganda, milliy g‘oya millat ahlining ko‘ngil mulkiga aylanib qolishi kerak. Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi – xalqparvarligi,adolatparvarligi, do‘slik, tinchlik, mehr-sadoqat, sof sevgi,vafo,ma’rifatilik kabi go‘zal tuyg‘ularni yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosga olib chiqdi va o‘zi ham Nizomiy, Firdavsiy, Homer, Shekspir, Dante, Gyotelar qatoridan o‘rin oldi. Shoир o‘zbek adabiyotida g‘azalchilikni yuksak bosqichga ko‘tardi, betakror go‘zal “Xamsa”si bilan xamsachiligidan asos soldi, nasriy asarlari bilan o‘zbek nasrchingini katta yo‘lga olib chiqdi. Adabiyot, ayniqsa, shoир va yozuvchilar, aruz ilmi, til va din, tarix haqidagi ilmiy asarlarini orqali teran olim ekanini namoyish qildi. Shoh Husayn Boyqaroning eng yaqin do‘sti va saroyning eng obro‘li kishisi – ulug‘ amiri sifatida xalq taqdiri, adabiyot, san’at, ma’rifat, obodonchilik va umuman mamlakatning taqdiri, taraqqiyoti to‘g‘risida jon kuydirishning ajoyib namunasini ko‘rsatdi.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti va o‘zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo‘sghan ijodkordir. Biror adabiy til hech qachon biror adibning nomi bilan atalmagan. Ammo XV asrdan boshlab o‘zbek tili Navoiy tili nomi bilan tanila boshlagan. Sharq mamlakatlarining ko‘plarida Navoiy an‘analarining davomchilari paydo bo‘ldilar. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘g‘li Shoxruh Mirzo davrida Hirot shahrida tug‘ildi. Zamondoshlari uni “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin” – dimdiyonat nizomi, “mir” – amir demakdir. Otasi G‘iyosiddin Muhammad (G‘iyosiddin kichkina) temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan. Bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan, buvilarini temuriy shahzodalarining enagasi bo‘lgan. Uch- to‘rt yoshlarida Qosim Anvor she’rlarini yod aytgan. To‘rt yoshiida o‘qishga borgach, u

yerda Husayn Boyqaro bilan ta'lif oladi. 1447-yilda Shohruh Mirzo vafotidan keyin temuriylarning toj-taxt talashi keskinlashgach, Alisherning oilasi Iroqqa ko'chib, Taft shahrida yashay boshlaydi. Bu yerda u mashhur shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan tanishadi. 1451-yilda uning oilasi yana Hirotg'a qaytadi. 1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo taxtga o'tirgach, G'iyosiddin Sabzavor hokimi etib tayinlanadi. Bu paytda Alisher Sa'diy Sherzoziyning "Guliston", "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantiq uttayr" asarlarini o'qir va yod olardi. Shuningdek, Xo'ja Yusuf Burhondan musiqa ilmini o'rGANADI, tarix, adabiyot, husnixat va boshqalar bilan jiddiy shug'ullanadi. Shoir ona tiliga juda erta muhabbat qo'ygan edi. U 10-12 yoshlaridan boshlab shaklan go'zal, mazmunan mukammal g'azallar yarata boshlagan.

*Orazin yopqach ko 'zimdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo 'lur yulduz nihon bo 'lg'och quyosh.*

matla'si bilan boshlanuvchi g'azali Mavlono Lutfiyning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan edi. Alisher Navoiy o'smirlilik chog'larida ota-onasidan erta judo bo'ladi. Sulton Abusaid Mirzo uning tog'alarini qatl' ettiradi. Yosh shoir ham ta'qibga uchraydi. Navoiyning Hirotda qolishi Abusaid Mirzo saltanatiga xavf solishi tabiyi edi. Shuning uchun uni Samarqandga surgun qilishadi, o'qish bahonasida jo'natib yuboriladi. Samarqandga jo'nab ketish oldidan ustozni va do'sti Said Hasan Ardasherga uchrashib, xayrlashmoqchi bo'ladi. Ammo uni topolmay, unga she'riy xat qoldiradi. Ushbu xatda Said Ardasherga o'z mehr-muhabbatini izhor qiladi. Hirotdan jo'nab ketayotganligining sabablarini aytadi, o'z iqtidoriga yarasha qadrlanmayotgani, agar imkoniyat bo'lganida kuniga yuz bayt she'r aytish o'tirib halvo yeish bilan barobar ekanini afsus bilan ta'kidlaydi. Shuningdek, Firdavsiy «Shohnoma»ni 30 yilda, Nizomiy "Xamsa"ni yigirma yildan ziyod vaqt ichida yozgan bo'lsa, o'zi bunday asarlarini 30 oy ichida yozib tamomlashi mumkinligini uqtiradi. Shoirning bu so'zlarini zamondoshlari mubolag'a deb o'ylashib, uning ustidan kulgan hollar ham bo'lgan. Husayn Boyqaro o'zining «Risola»sida shu haqda to'xtalib, Alisher Navoiy aytgach so'zining ustidan chiqqanini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham «Xamsa» uzog'i bilan 2-3 yil ichida yozib tamomlangan edi.⁴²

⁴² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "O'zbek adabiyoti" ma'ruzalar matni. Nukus-2011.

3. Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish an’analari. Xamsanavislar. Shoiring ulardan oлган adabiy mahorati

Xamsachilik yaqin va o‘rta Sharq xalqlari klassik adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo‘lgan adabiy an’anadir. Xamsachilik an’anasi XV asrga kelib ancha keng tus oldi. Faqat uch shoirgina ulug‘ xamsanavis bo‘lib, Nizomiy qatoridan o‘rin olishga muyassar bo‘ldi, uning asari bilan bellasha oladigan “Xamsa” yaratdilar. Bular ulug‘ hind shoiri Xisrav Dehlaviy (1253-1325 yillar), ulug‘ fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492 yillar) va ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy – «Xamsa»ni yozishga kirishganda 42 yoshda bo‘lib, ayni ijodiy kuchga to‘lgan, hayot tajribalariga ega bo‘lgan mashhur shoir, el e’tiborni qozongan buyuk olim va davlat arbobi edi. Zamondosh shoirimiz A.Oripov Navoiy shuhrati haqida “O‘zbekiston” she’riida quydagi misralarni bitgan edi:

Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyoni,
Hammasinga guvoh – yer osti.
Lekin, do‘stlar, she’r ahli oro,
Jahongiri kam bo‘lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titriratadi zanjirband bir she’r,
Temur tig‘i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

Ustoz shoirlarning hurmatini tavoze bilan o‘rinlatgan Alisher Navoiy ijodida, uning ko‘p asarlarida, “Xamsa”sida salaflar maqtoviga keng o‘rin bergen. Tafakkur borasida u Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy bilan ijodiy raqobatga kirishuvini yaxshi biladi:

*Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur,
Ki gar kelsa Rustam, javobin berur
Raqam qildi farxunda “Shohnoma”ye,
Ki sindi javobida har nomaye.*

Navoiy tafakkur jangohiga jasorat bilan kirar ekan, bunda eng qiyin maydon – xamsachilik maydonida ot suradi. Sharq she’riyatida xamsachilik an’anasiga Ganjaviy asos soldi. Uning vujudga kelishi adabiyotlar tarixida yangi davrni boshlab berdi. Xamsachilik davring dolzarb muammolarini kichik lirik janrda emas, balki katta epik dostonlarda tasvirlash imkonini berdi. Bu esa mukammal obrazlar, umumlashma qahramonlar xarakteri va ma’naviy dunyosini tasvirlash uchun katta yo‘l ochdi. Natijada inson haqidagi badiiy mushohadalar g‘azal, ruboiy kabi janrlar qobig‘idan chiqib keng qanot yoydi.

Nizomiydan so'ng xamsachilikda birinchi ajoyib javobni aytgan shoir Dehlaviy bo'ldi. Dehlaviy "Xamsa"sidan so'ng bu adabiy hodisa butun Sharq adabiyotida ko'p asrlik an'anaga aylanib qoldi. Mavlono Ali Ohiy, Fosih Rumiy, Xoja Lohuriy, Shayxun Suhayliy, Abdulla Xotify, Kotibi Turshiziy, Mavlono Orifiy, Muhammad Ahli Sheroziy, Badriddin Hiloliy singari ko'plab shoirlar Nizomiy va Dehlaviy yo'lida "Xamsa" yaratish uchun urindilar. Biroq ular bu yo'lida muvaffaqiyat qozona olmadilar.

Alisher Navoiy "Xamsa" yaratishdek qiyin ishga qo'l urar ekan, turkiy dunyoning ehtiyojini ko'zda tutadi. Sharqshunos olim G.E.Bertels aytganidek, Navoiy xamsachilikning "Nizomiy uyg'unlashtirgan qonuniyatini sinchkovlik bilan g'oyat teran o'rgandi." Yuqoridagi xamsanavislarning muvaffaqiyatsizligiga sabab ham xamsachilikning o'ziga xos qonuniyatlarini, Nizomiy va Dehlaviy asarlarini yaxshi o'zlashtirmasliklarida bo'lsa kerak.

"Xamsa"ni yaratishda Navoiy o'z salaflari Nizomiy va Dehlaviylarning shakl bobidagi an'anasiqa sodiq qoldi, ammo mazmunda batamom o'ziga xos yo'l tutdi:

*Bir deganni ikki demak xush emas,
So 'z chu takror topdi dilkash emas.*

"Xamsa"ga kiritilgan barcha dostonlarda izchillik bilan ana shu ijodiy tamoyilga rioya qilingan. Deyarli har bir dostonning yo avvalida, yo oxirida xamsanavislarga munosabat bildiriladi, ularning yutuqlari, ba'zan nuqsonlari ham tilga olinadi.

Navoiy "Hayrat ul -abrор"da Jomiy bilan "Xamsa" xususida qurgan suhbatini tasvirlab, Dehlaviy haqida g'oyat iliq fikrlarni bayon etadi:

*Bazmda bir kun yuzida nur edi,
Har soridin Nodira mazkur edi.
Tushti chu raxrav bila payravga so 'z,
Yetti Nizomiy bila Xusravga so 'z...*

Navoiyda ham "Gavhar sochuvchi", "Nur taratuvchi" bu ikki shoirga katta havas uyg'onadi, u ham "Xamsa" yozish ishtiyoqi bilan yonadi:

*Menki talab yo 'lg'a qo 'ydum qadam,
Bordur unidimki, chu tutsam qalam.
Yo 'llasa bu yo 'lda Nizomiy qo 'lim,
Qo 'llasa Xusrav bila Jomiy qo 'lim.*

Navoiyning fikricha Nizomiydan so'ng she'riyat maydonidagi yana bir fil bu – Xusrav Dehlaviy:

*Bu kun ul pil, bu hindu erur bil,
Kichikroq bo 'lsa ham lekin erur pil.*

U Dehlaviy ijodidan g'oyaviy va badiiy jihatdan oziqlanar ekan, undan "quvvat" kutar ekan, ayni chog'da ijodiy o'ziga xoslikka og'ishmay amal qiladi.

Shu boisdan Navoiy “Xamsa”sida Dehlaviy ijodiga xolisona baho berib boriladi:

*Dema Xusravki, hindui jodu,
Aylabon elni nazmig'a hindu.
Dema hindi, qaro balo de oni,
Ne balo, ofati xudo de oni.
Har qachon xoma ilkiga olyibon
Nazmidin olam ichra o't solibon...*

Navoiy va Dehlaviy “Xamsa”larini qiyoslash shuni ko’rsatadiki, shakl masalasida Navoiy Dehlaviydan o’rganadi. Masalan, Shirinning arman malikasi ekanligi (Nizomiyda Berda malikasi, ya’ni Ozarbayjonlik), “Sab’ai Sayyor”da asosiy qahramonlardan birini nomi Dilorom sifatida tanlannishi singari o’rinlarda bunga ishonch hosil qilishi mumkin.⁴³

Nizomiy ham, Dehlaviy ham Xusrav obrazini boshdan-oyoq ijobiq qahramon sifatida tasvirlaydi. Alisher Navoiy uni aksinchalik ifodalab, “Farhod va Shirin” dostonida, o’z salaflarining talqinida yetishmayotgan haqiqiy dard – ishq dardini Farhod obrazida mujassam etadi.

Navoiy ustozlari ruhini aslo kamsitmagan holda o’zini ularning oldida shogird deb his qiladi:

*Menki shogird bebzoatman,
Ul ikovvga mute toatman*

Navoiy “Xamsa”sining so’nggi dostoni “Saddi Iskandariy”da tasvir etilgan uchrashuvi, ayniqsa, maroqlidir. Navoiy xayolan bog’dan kezadi. Shunda uni shoir Dehlaviy bir guruh ijodkorlar huzuriga boshlab boradi. Bular Sa’diy, Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvariy edilar. Navoiyni Jomiy va Xusrav Dehlaviy boshlashib Nizomiy oldiga olib boradilar:

*Tutib Jomiyu Xusrav ikki qo ‘lum,
Nizomiy sari boshladilar yo ‘lim...*

Navoiy shoirlarning bu xayoliy musobaqasi vositasida o’z “Xamsa”siga ajoyib faxriya yo’li bilan baho beradi, xamsachilik ustodlari Navoiy dostonlarining go’zal va san’atkorona yozilganligini taqdirlashi o’rinli ekanligini xayolan faraz etadi. Shu tariqa shoirning 54 ming misradan iborat “Xamsa” asari dunyoga kelgan. Navoiy “Xamsa”si bir-biridan mazmundor, biri ikkinchisining takrori bo’lmagan, biroq bir-biri bilan ipga terilgan injulardek bog’langan “Hayratul-abror” (Yaxshilar hayrati), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (Yetti sayyora) va “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) dostonlarini o’z ichiga oladi.

⁴³ O.A.Turakulova. Adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o’rganish. Uslubiy qo’llanma, T.: 2019

4. Alisher Navoiyning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va adabiy merosi

Navoiy jahondagi eng sermahsul ijodkorlar sirasiga kiradi. 100 000 baytdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati xazinasiga bebahohissa bo‘lib qo‘sildi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shoiring “Devoni foni” (1491-1498 yillar), “Muhokamat ul – lug‘atayn” (1498-1499 yillar), “Mezon ul – avzon” (1492 yil), “Munshaot” (1492 yil), “Majolis un –nafois” (1491-1493 yillar), “Lison ut-tayr” (1498-1499 yillar, 176 ta kichik bobdan iborat), “Tarixi anbiyo va hukamo” (1488 yil), “Siroj ul-muslimiy” (1488 yil), “Holoti Sayid Xasan Ardasheri” (1490 yil), “Holoti Pahlavon Muhammad” (1496yil), “Xamsat ul-mutaxayyirin” (1492-1494 yillar, Jomiyga bag‘ishlangan), “Mahbub ul- qulub” (1500 yil, oxirgi asari). “Nazm ul-javohir” (1485 yil), “Chihil hadis” (“Arba‘in”), “Nasoyim ul-muhabbat” (1496 yil), “Mufradot” (1491 yil, fors-tojik tilida yozilgan), “Hiloliya” (1469 yil), “Tuhfat ul-afkor”, “Ayin ul-hayot”, “Fusuli arbaa”, “Sittai zaruriya” kabi asarlari.⁴⁴

“Badoye’ ul-bidoya” (1472-1476 yil, birinchi devoni,) “Navodir un-nihoya” (1476-1483 yillar), “Vaqfiya” (1481-1482 yillar), “Xamsa” (1483-1485 yillar) besh dostondan iborat:

1. “Hayrat ul- abror” 7976 misra (3988bayt), 64 bob, 20 maqolot.
2. “Farhod va Shirin” (59 bob, 5782 bayt).
3. “Layli va Majnun” (36 bob, 3622 bayt).
4. “Sab’ai va Sayyor” (37 bob, 8005 bayt).
5. “Saddi Iskandariy” (88 bob, 7215 bayt).

5. Alisher Navoiy lirkasi

Alisher Navoiyning lirk merosi mavzu jihatidan keng ko‘lamli, g‘oyaviy yo‘nalishlari rang-barang, janrlari xilma-xil, poetik mahorati esa g‘oyat yuksakdir. Zahiriddin Muhammad Bobur ta’biri bilan aytganda, hech kim Navoiychalik «ko‘p» va «xo‘p» yoza olmagan. Navoiyning o‘zi ham «Xazoyin» ning debochasida kuniga ba’zan besh-oltita g‘azal yozganini aytadi. Lirika shoiring bir umrlik ijodiy mashg‘uloti bo‘lib qoldi. O‘z ijodini g‘azal bilan boshlagan Alisher Navoiy umrining so‘nggi nafaslarida ham shu janrda ijod qildi. Navoiyning shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlanuvchi birinchi devoniga 1465-66 yillarda muxlislar

⁴⁴ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "O‘zbek adabiyoti" ma’ruzalar matni. Nukus-2011.

tomonidan tartib berilgan. Uni mashhur hattot Sultonali Mushhadiy oqqa ko‘chirgan. 1470-76 yillar orasida shoirning o‘zi “*Badoe’-ul bidoya*” (Badiiylikning boshlanishi) devonini tuzadi. 1476-1483 yillarda Navoiy ikkinchi devoni “*Navodir un-nihoya*” (Nodirliklarning oxiri) devonini bitadi. Yuqoridagi turkiy devonlar shoirning ulkan adabiy obidasi — “*Xazoyin ul-maoniy*”ning tartib berilishiga zamin hozirladi. Natijada 1491-98 yillar oralig‘ida Husayn Boyqaroning iltimos va talabiga ko‘ra mazkur kulliyot – to‘rt devonni o‘z ichiga oluvchi yirik majmua yuzaga keldi. Ma’lumotlarga qaraganda, Navoiygacha 4 va undan ortiq devon tartib berish faqtgina Xusrav Dehlaviya mansub bo‘lgan ekan. (Jomiy ham Navoiy iltimosiga ko‘ra she’rlarini uchta devon shakliga keltirgan). “*Xazoyin ul-maoniy*”dagi lirik janrlar miqdori 16 taga yetkazilgan. Shu tariqa Navoiy o‘zbek mumtoz lirikasini janrlar ko‘لامи jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyoti bilan bellasha oladigan darajaga ko‘targan. Bu janrlar: g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji’band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit’a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard.

Navoiy yilning to‘rt fasliga qiyos qilib, o‘z umrini to‘rt bosqichga ajratadi. Bolalik, yigitlik, o‘rta yoshlik va keksalik. Bolalik 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, yigitlik 20 yoshdan, 35 yoshgacha, o‘rta yoshlik 35 yoshdan 45 yoshgacha, keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha. Shunga binoan devonlar ham quyidagicha nomlanadi:

“*Xazoyin ul-maoniy*” (“Chor devon”, 1492- 1498 yillarda tartib berilgan 4 devondan iborat).

1. “G‘aroyib us – sig‘ar” (“Yoshlik g‘aroyibotlari”) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, bahor.

2. “*Navodir ush-shabob*” (“Yigitlik nodirliklari”) 20 yoshdan 35 yoshgacha, yoz.

3. “*Badoye’ ul-vasat*” (O‘rta yosh go‘zalliklari) 35 yoshdan 45 yoshgacha, kuz.

4. “*Favoyid ul-kibar*” (“Keksalik foydalari”) 45 - 60 yoshlar, qish.

Qit’alarga sarlavha qo‘yish ham Navoiyning ixtiolaridan bo‘ldi. Bungacha biror shoir o‘z qit’asiga sarlavha qo‘ymagan edi. Shoirning fors-tojik tilidagi “Devoni Foni” asari ham “*Xazoyin ul-maoniy*” singari janrlarga boy, mavzular ko‘lamni xilma-xildir. Unda 1131 she’r yoki 6197 bayt o‘rin olgan. Alisher Navoiyning lirik merosi ko‘p asrlardan buyon nafaqat o‘zbek tilida ijod qiluvchi qalam ahliga, balki ko‘plab Sharq mamlakatlari ijodkorlari uchun ham mahorat maktabi bo‘lib kelmoqda.

6. Shoirning nasriy asarlari

Alisher Navoiyning nasriy asarlari Xuroson va Mavarounnahrda yaratilgan fors va qadimgi o‘zbek tilidagi turli janr va har xil mavzudagi nasriy asarlar zamirida yuzaga keldi. Lekin Navoiy buyuk daho sifatida shunday asarlar yozdiki, ularda, bir tomonidan, fors-tojik adabiyotidagi nasr ilg‘or an’analarining yangicha talqini va ravnaqi o‘z aksini topdi. Ikkinchidan, o‘zbek tilida nasrning nazmga nisbatan bir muncha sust rivojini nazarda tutgani, shunungdek, nasrning imkoniyatlari nazmga nisbatan anchayin kengligini chuqur tushungani holda Navoiy o‘zbek adabiyotini o‘n beshma yaqin nasriy asarlar bilan boyitdi. Alisher Navoiy o‘zining barcha nasriy asarlarini “Vaqqfiya”ni istisno qilganda (bu asar 1481-1482 yillarda yozilgan) umrining so‘nggi o‘n yilda yaratgan. Ularning umumiy manzarasi quyidagichadir:

1. Biografik-memuar xarakterdagи “Holoti Sayyid Hasan”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat ul-mutahayyirin”.
2. Ilmiy-filologik xarakterdagи “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, “Risolai mufradot”.
3. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid “Tarixi muluki Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Vaqfiya”.
4. Insho san‘ati – epistolyar proza namunasi “Munshaot”.
5. Ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagи “Mahbub ul-qulub”.

“Haloti Sayyid Hasan Ardashev”, “Haloti Pahlavon Muhammad”, “Hamsat ul-mutahayyirin” — Navoiyning biografik memuar xarakterdagи asarlaridir.

Bu uch asar Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatida muhim rol o‘ynagan davrning madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Navoiyga yaqin siymolar, uning hamfikr do‘stlari, ustoz va murabbiylariga bag‘ishlab, ularning vafotidan keyin yozilgan.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
2. Alisher Navoiyning yoshlik yillariga oid qanday ma’lumotlar yodingizda goldi?
3. Shoir kimlarni o‘ziga ustoz deb bildi?
4. Shoirning nasriy asarlari haqida ma’lumot bering.
5. Navoiyning davlat arbobi sifatida olib borgan ishlari haqida ma’lumot bering.

6. Alisher Navoiyning ilk devoni qanday nomlangan?
7. 1480-1487 yillar oralig‘ida tuzilgan ikkinchi devoni qanday nomlangan?
8. Shoir fors-tojik tilidagi asarlariga qanday taxallus qo‘llagan?
9. Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari haqida nimalarni bilasiz?
10. «Xamsa»ning yaratilish tarixi haqida qanday ma’lumotga egasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Hamidov Z. Navoiy badiiy san’atlari. — T. Universitet. 2001
2. Fitrat. Navoyining forsiy shoirligi va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T. 2000
3. Hojiahmedov A. Xamsa. To‘plam. – T. Yangi asr avlod. 2010
4. O‘zbek adabiyoti» ma’ruzalar matni. Nukus-2011.
5. O.A.Turakulova. Adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish. Uslubiy qo‘llanma, T.: 2019
6. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «O‘zbek adabiyoti» ma’ruzalar matni. Nukus-2011
7. Ifodalgi o‘qish va nutq madaniyati. O‘quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020

**TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI: M.BEHBUDIY,
MUNAVVARQORI ABDURASHIDOV, CHO’LPON, ABDULLA QODIRIY,
USMON NOSIR IJODI MISOLIDA. ABDURAUF FITRAT, HAMZA IJODI.**

Reja:

1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi
2. M.Behbudiyning jadidchilik faoliyati va adabiy merosi
3. Munavvarqori Abdurashidov jadidchilik faoliyati
4. A.Qodiriyning adabiy merosi.
5. Jadidchilik g‘oyalarining adabiyotga chuqur kirib kelishi. A. Cho’lponing ijodi.
6. A. Fitrat ijodi
7. H.H.Niyoziy adabiy merosi.
8. U.Nosir ijodiy faoliyati.

Tayanch so‘z va iboralar: jadidchilik harakati, maorif va islohot, jadidlar, matbuot va teatr, jadid adabiyotida vujudga kelgan yangi janrlar,

daramatik tur, epik tur, Behbudiy, jadidchilik, matbuot, “Padarkush”, «Samarqand» gazetasi», «Oyina» jurnalni, Qodiriy, A.Fitrat,

«Asrimiz boshlarida jadidlarning o‘z hisobidan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, ro‘znomalar tashkil etganliklarini, darsliklar, qo‘llanmalar nashr qilganliklarini, ularni Turkiston bolalariga bepul tarqatganliklarini eslaylik.»

Islom Karimov.

1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. «Jadid» so‘zi arabcha yangi usul degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emas edi, ayni chog‘da turk-islom huquqiy munosabatlarning millatga o‘rgatilishi, milliy-ma’rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgandi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rtta va Yaqin Sharq mamlakatlarida rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi “Ittihodiy va taraqqiy”, “Yosh turklar” harakatining ta’siri katta bo‘ldi.

XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hamda demokratik harakat jarayoni asosan ikki yo‘nalishda rivojlangan. Birinchisi chor Rossiyasiga qarshi kurashni turli g‘oya va yo‘nalishlarda olib borish maqsadida Rossianing o‘zida vujudga kelgan sotsial-demokratik kadetlar, eserlar va boshqa siyosiy partiyalarning vakillari edi. Hali bu guruuhlar vakillari hatto oktabr to‘ntarilishiga qadar ham o‘lkada siyosiy partiya o‘laroq uyushib shakllanmagan edi. Chunki ular oz sonli va asosan kelgindi rusiy zabon millatlarning vakillaridan iborat bo‘lgan. Mahalliy xalq bu siyosiy guruhlarning birortasiga ham ommaviy sur’atda ergashmagan, ularni qo‘llab-quvvatlamagan, bu guruhlarga a‘zo bo‘lib kirmagan. Chunki mahalliy xalq tili boshqa, dini, urf-odati boshqa bo‘lgan rusiy zabon millatlarga yotsirab, ularni g‘ayridin — kofirlar, bosqinchi — mustamlakachilar deb bilgan. Bu siyosiy guruhlarning dastur maqsadlari, taktik kurash usullari mahalliy xalq g‘oyasi va saviyasidan yiroq bo‘lib, mohiyatni chuqr tushunib yetmagan va qabul qilmagan.

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarda Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914-yillar) rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U

1884 yil mart oyida Qrimdagı Boqchasarov shahrida jadid maktabini ochadi va “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi bo‘lgan. Yangicha usul – «usuli jadid» – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qilib, 40 kunda savodi chiqarilgan. Ismoilbek 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa'y – harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga «Muzaffariya» degan nom berilgan. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdi. Birinchi bo‘lib (Husaynov mablag‘i hisobiga) 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qo‘qonda Salohiddin domla tomonidan, o‘sha yili To‘qmoqda (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni «no‘g‘oy muktab» deb atagan), 1899-yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagagi maktab ochildi. 1903 yili M. Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1907 yili To‘raqo‘rg‘on (Namangan viloyati)da Isxoqxon to‘ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabini ochgan. 1908 yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911-yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 nafar bola o‘qigan. Toshkentning o‘zida 24 ta bunday maktablarda 1740 nafar bola tahsil olgan. 1917-yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida mingdan ziyyod o‘quvchi bo‘lgan.

Jadid maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim- tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirilib, yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berishga o‘tildi. Sinfлarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llannmalar paydo bo‘ldi. Ularda xat-savod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur‘oni Karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi.

Jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari avval o‘zlarini taraqqiyatparvarlar, keyin jadidlar deb atagan. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyatparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. O‘sha davrda Turkistonagi milliy – ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichdan o‘tgan. Birinchisi – ma’rifatchilik bosqichi va ikkinchisi

– siyosiy bosqich. Ammo jadidlarinig davlatchilik masalasiga nisbatan qarashlari ilk kunlardanoq shakllangan edi. Jadidchilik g‘oya va maqsadlari 1917-1920-yillarda “Turkiston muxtoriyati” Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida qisqa muddatda qisman amalga oshirildi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga kelishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Muqammadsharif So‘fizoda, Ashurali Zohiri (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) muhim rol o‘ynadi. Ushbu siymolarning sa’y-harakati bilan jadidchilik taraqqiy etdi. Jadidchilik harakati islom dunyosida sira o‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan maktablarni tashkil etishdan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtirardi. Buning uchun qadim an‘anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi.

Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, masjidlarda imom bo‘lish, madrasa va hatto, xorijdag‘i dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lgan. Yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochildi. Maktablar asosan 1-4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bular namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahliziri (boshlang‘ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodievnning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 – 6 sinf) tahsil olgan.

Jadid maktablari pullik va pulsiz edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat bir so‘mdan bir yarim so‘mgacha pul to‘lardi. Bu o‘rinda har ota-ona o‘zining boy va kambag‘al darajalarini shariat asosida belgilab pul bergen. 20-35 foizgacha kambag‘al va nochorlarning bolalari tekin o‘qilib, o‘quv qurollari bilan ta‘minlangan. O‘ziga to‘q oilalar esa o‘z xohishi bilan uch so‘mdan va undan ham ko‘p pul bergen. Bulardan tashqari, jadidlar shaxsiy va ularning o‘zлari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag‘ bilan ta‘minlab turgan.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zлari yaratdi. Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", "Tajvid" (Qur'oni qiroat bilan o'qish usuliga oid qo'llanma), "Havoyiji diniya" (Shariat qonunlari to'plami), "Yor yuzi", "Usuli hisob", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islom", Abdulla Avloniyining "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud ahloq", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qisqacha umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rossiyaning qisqacha geografiyasи" va boshqalar shular jumlasidan.

Jadidlarning xalqni uyg'otish uchun foydalangan vositalaridan yana biri teatr edi. Boisi bu davrda aholining hammasi ham savodli emas edi. Har bir xonadonga gazeta va jurnal kirib bormas, ularni faqat savodli va puldor odamlar o'qirdi. Yuzlab, minglab oddiy odamlarga ayanchlari hayotini qisqa muddatda ko'rsatishning yagona yo'li teatr edi. Zero, Munavvarqori ta'biri bilan aytganda, "teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsa, aybu nuqsonini ko'rib ibrat olur. Teatr ulug'lar maktabidir". Dastlab Samarqandda Behbudiy, keyin Toshkentda Munavvarqori, Avloniy, Qo'qonda Hamza Hakimzoda tomonidan dramatruppalar tashkil etildi. O'zbek dramaturgiyasi va sahnasining birinchi namunasi Behbudiyning "Padarkush" pyesasi bo'ldi. Qisqa muddatda o'nlab dramalar tug'ildi. Abdulla Shahidiy "Mahramlar", Nusratulla Qudratillaxo'janing "To'y", A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdulla Badriyning "Axshoq", "Juvonmarg", Hoji Muinning "Ko'knori", "Eski maktab", Avloniyining "Advokatlik osonmi?", "Pinak", Hamzaning "Zaharli hayot" dramalari dunyo yuzini ko'rdi.

Jadidlarning tomonidan tamomila yangi publisistika janri vujudga keldi va XX asr adabiyotida mustahkam o'rin egalladi. Birgina Behbudiyning o'zi 200 dan ziyod publisistik maqola yozdi. Avloniy, Munavvar qori, Mirmuhsin, Hamza kabilar o'zbek publisistikasining beshigini tebratgan ijodkor bo'ldi. Jadid adabiyotida she'riyat ruhan yangilandi. Asrlar mobaynida qon-qoniga singigan sokin pand-nasihatdan jangovar murojaatga, keskin targ'ibotga o'tdi va bu bilan xalqning ruhini yangilashga, o'zlarini anglatishga kirishdi. Shaklda asta-sekin aruz vazni qobig'ini yorib chiqishga urinishlar sezildi. Bu borada Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Hamza, Cho'lponlar ibrat ko'rsatdi. She'riyatga millatni asoratdan qutqarish, ozodlik g'oyasi kirib keldi.

2. M.Behbudiyning jadidchilik faoliyati va adabiy merosi

Ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyl jadidchilik harakatining hamda XX asr o'zbek adabiyotining boshlovchilaridan biri hisoblanadi. U 1875-yili Samarqand shahrida ruhoniyl oilasida dunyoga keldi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar muallifi ediki, bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sirini o'tkazmay iloji yo'q edi. U dastlabki ma'lumotni eski maktab, madrasalarda oldi. 1902-yilda Makkaga borib hoji va mufti bo'lib qaytadi. 1903-1904-yillarda Qozon, Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan tanishdi. Jadidchilik harakatining asoschisi I.Gasprinskij bilan suhbatlar qurdi va maktab-maorif, madaniyatma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti aks etib turgan bir qator maqolalari bilan ro'znama, oynomalarda chiqishlar qildi. 1905-yil arafasida Behbudiyl zamonasining ko'zga ko'ringan ziyolisi bo'lib taniladi. "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamonda Turkistondagi jadidlar orasidan unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak", — deb yozadi Fayzulla Xo'jayev u haqda. Behbudiyl Gasprinskij yo'lga qo'ygan "usuli jaded" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Uning "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobatul-atfol" ("Bolalar kitobi"), "Tarixi muxtasari Islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Amaliyoti islom", "Muxtasari jug'rofiyai rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabi darsliklari uning jonbozligi natijasidir.

Mahmudxo'ja Behbudiyl adabiyot, tarix, geografiya fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. O'zining siyosiy qarashlarini, millati (uning) tili, dini, e'tiqodining kamsitilganligini ko'rib "Ey millat, mana ahvolingga bir razm sol, qanday yashamoqdasan!" degan xitob hayqirlarni "Faryodi Turkiston" (1907 yil, "Vaqt"), "Ikki emas to'rt til lozim" ("Oyina", 1913 yil), "Til masalasi" ("Oyina", 1915 yil), "Tanqid saralamoqdur!", "Teatr nadur?" kabi maqolalarida ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnallarini chiqarishga bosh bo'lib, bu sohada ham o'z jonbozligini ko'rsatadi. "Ikki emas to'rt til lozim" degan maqolasida shunday yozadi: "Biz turkistonlilarg'a turkiy, forsiy, arabiyl va rusiy bilmoq lozimdu. Turkiy, ya'ni o'zbakiyni bilmoqni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbakiy so'ylashur, forsiy bo'lsa, madrasavu-udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabi ta'lim berilsa, mudarrislarning tarkir-u tarjimalari forscheidur. Ayni paytda yana bir til — ruschani ham bilish kerak. Chunki bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg'a xizmat ruscha ilmsiz bo'lmayduri!"

Badiiy ijodda ham Behbudiy o'tkir muammolarni ko'tardi. 1911-yilda yozilib, 1913-yilda bositgan "Padarkush" dramasi juda katta shuhrat keltirdi. Bu – birinchi o'zbek pyesasi drama janriga asos soldi. Har holda Behbudiy karvonboshi bo'lib tarixga kirdi. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yildi. 27-fevralda esa Toshkentdagi mashhur "Kolizey"da "Turon" truppasi o'z faoliyatini shu spektakl bilan boshladi. Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. "1913-yillarda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborganimni ham payqamay qoldim", — deb qayd etadi A.Qodiriy o'z tarjimai holida. Bu dramasida Behbudiy o'zining: "Ma'rifatsiz millat inqirozga mahkumdir", — degan qarashini badiiy ifodalashga uringan edi. 1919-yilning bahorida ayg'oqchilar Behbudiyni Shahrisabzda qo'lga oladi. So'ng u yashirinchha Qarshiga keltirildi. Qarshi begi To'qaybekning buyruqi bilan pinhona qatl etildi. 20-yillarning matbuot xabarlari Behbudiy o'limini bizga mana shunday yetkazadi. Ma'rifatparvar adib, jamoat arbobi Behbudiy hayotiga shunday qilib nuqta qo'yildi. Istiqlolni muqaddas tutgan, o'lkaning milliy, diniy taraqqiyoti uchun kurashgan va xalq orasida katta mavqega ega bo'lgan Behbudiy keyinchalik asosli dalillar bilan oqlandi, nomi tiklandi. Uning o'limiga bag'ishlab ko'plab marsiyalar yozildi. Ulardan biri shunday so'zlar bilan boshlanadi: «Sen Turonning quyoshi eding...»⁴⁵

3. Munavvarqori Abdurashidov jadidchilik faoliyati

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan bo'lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931-yillar) Ismoil Gaspirinskiyning o'qish va o'qitish, madrasa va maktab islohotiga oid fikrlarining Turkistondagi otashin targ'ibotchilaridan biri edi. Bunda Bog'chasaroyda nashr etilgan "Tarjimon", Tataristonda chop etilgan "Vaqt", "Yulduz", Istanbulda bositgan "Siroti mustaqim" ("To'g'ri yo'l") kabi matbuot nuxxalarining Turkistonga turli yo'llar bilan tarqalishi qo'l keldi.

Munavvar Qori 1901-1904-yillarda qrimlik do'sti Rasim Kishod yordamida Toshkentda "usuli sovtiya" mактабини ochadi. 1910-yilda bunday maktablar 10 tagacha yetadi. Chor ayg'oqchisi 1912-yilda bunday yozgan edi: "Toshkent shahrida yashab turgan Munavvar Qorining hozirgi paytda 80 o'quvchisi bor. Ularni tatar uslubida o'qitadi. Bu maktabning o'quvchilari sart tilida sahna asarlari qo'yadilar". "Nauka i prosveshenie" jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, Munavvar Qori

⁴⁵ "O'zbek adabiyoti" ma'ruzalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.

Abdurashidxonovning “Namuna” mактабида бир неча ўз бола о‘qиган. Бу мактабда таъворгарлиги anchагина jiddiy bo‘lgan iste’dодли юшлар o‘qитувчиллик qилишган. Улarning qo‘lida ta’lim олган юшлар орасидан keyinroq Hamza, Qayum Ramazon, Oybек, Mannon Uyg‘ur каби iste’dодли адаб ва san’аткорлар yetishib чиқди. Ulug‘ pedagog оlib borayotgan ishlar zолим chor hukumati vakillarini ancha bezovta qilib qo‘ydi. Bu haqda jадидчи Mo‘minjon Muhammadjonovning “Tur mush urinishlari” асарida shunday yozilgan: “Olmaota (Verniy)da rus muallimlarining katta yig‘ini bo‘ldi, shul yig‘inda “tatarlar qozoqlar bilan birga сарт bolalari o‘qitilmasun! O‘qumishli tatarlarga Turkiston o‘lkasida turish uchun yo‘l qo‘yilmaslik kerak! Chunki ular сарт, qozoqlarga bilim tarqatib, ko‘zlarini va fikrlarini ochadirlar. So‘ngra bizga yemak uchun Turkistonda non qolmaydir. Yangi tartib bilan o‘qituvchi muallimlar, programmlari, o‘qitadurgon kitoblari kimning асарлари ekanligini “inspector”larga yozib ko‘rsatmaguncha бола yig‘ib o‘qita olmaydurlar”, deb qaror berdi. Chor amaldorlari maktablarning dasturlari bilan muntaзам tanishib borgan va imtihonlarda ishtirok etган.” Sirojiddin Ahmadning “Munavvar Qori” мақоласида qайд qilinganidek, Munavvar Qori pedagogik va badiiy асарлар ham yozgan. U Turkiston o‘lkasida birinchilar qatorida “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Er yuzi” (“Jug‘rofiya”), “Havoyiji dinya” kitoblarini (1907-yilda) nashr etтиган. 1914-yilda Salim Ismoil Ulviyaning Qur‘он qiroati bo‘yicha saboq beruvchi “Tajvid”ini o‘zbekchaga tarjima qilib, Orenburgda nashr etтиган. “Sadoi Turkiston” jaridasida bosilgan Kamiy, Xislat, Со‘fizoda, Hamza кabi shoirlarning she’rlarini to‘plab, “Sabzazor” nomi билан chop etтиргани ma‘lум. Ulug‘ mutafakkir bu ishlar bilan ham cheklanmadi. O‘ziga o‘xshash ochiq fikrli юшлар — Ubaydulla Xo‘jaev, Abdulla Avloniy, Toshpo‘lat Norbo‘tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909-yilda toshkentlik bir boyning raisligida “Jamiyat xayriya” tashkil etди. Biroq bu jamiyat iqtisodiy jihatdan bir неча ag‘niyolarning iona va yordamiga suyangani uchun erkin ish оlib bora olmaydi. Lekin rais o‘rinbosari bo‘lgan Munavvar Qorining tinib-tinchimasligi natijasida jamiyat taraqqiyat parvar юшлар qo‘liga o‘tadi. Jamiyatning yangi a‘zolari pul topmakka ham yangi yo‘llar izladi, boshlab “Gramafon obshestvo sila” suylashib, har bir plastinkadan o‘n tiyin olmoq sharti-la bir hafta hofizlarni va o‘z tarbiyasidagi maktab shogirdlarining tovushini sotdi, bundan faqat shu yil ichindagina loaqlаikki ming so‘m kirsa kerakdir.

Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asoschilaridandir. U 1906-yil sentabrda “Xurshid” (“Quyosh”) jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qildi. “Najot” (1917-yil), “Kengash” (1917-yil), “Hurriyat” (1917-yil), “Osiyo”, “Haqiqat”, “Turon” каби matbuot nashrlarida muharrir bo‘lgan. Munavvar Qori matbuotga elni, millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi, buyuk kuch, madaniyat va ma‘rifatga chorlovchi buyuk vosita, haqiqat jarchisi deb

qaradi. U “Sadoiy Turkiston” (1915-1918-yillar) jaridasida maktablarni takomillashtirish, imtihonlar o’tkazish haqida yozar ekan: “...Butun dunyodagi madaniy millatlarning qayg’u va hasratlariga ishtirot etmagan va bu shodlik masarratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat bor esa, ul ham Turkiston turklaridirmiz”, deydi. Munavvar Qori 1913-yildan o‘z faoliyatini boshlagan “Turon” truppasining tashkilotchilaridan bo‘ldi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatri binosida o‘zbek milliy teatrining birinchi ochilish marosimi bo‘ldi. Spektaklni birinchi pardasini ochish Munavvar Qori Abdurashidxonovga topshirildi. Mazkur tanatanada u bunday degan edi: “Turkiston tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onligi barchangizga ma’lumdir. Shul sababli ba’zi kishilarimiz teatrga, ehtimolki o‘yinbozlik yoki masxarabozlik ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl ma’nosи “Ibratxona” yoki “Ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsa o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur». ⁴⁶

Munavvar Qori Turkiston o‘lkasining qoloqligi sabablarini izlar ekan, “mana, ket-baket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdan xabarsizliq demakdin boshqa chora yo‘qdir. Bu nodonliq va dunyodan xabarsizliq balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va o‘rgannmak kerakdir”, deydi. U teatr san‘atiga ana shu “buzuq odatlarning buzuqligini bilmak” va tuzatmak muassasasi, “tabibi hoziq” deb qaradi. Munavvar Qori Abdurashidxonoy insonning ma’rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligini, vijdoni uyg‘onmasa na o‘zining, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu — imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan o‘z asarlarida ko‘rsatib berdi. Bu ulug‘vor yo‘lda u mardonavor va qahramonlarcha kurashdi.

4. A.Qodiriyning adabiy merosi

Abdulla Qodiriydek o‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalishni boshlab bergan, o‘zbek romançilik mакtabiga asos solgan siyomoning jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan XX asr boshidagi etakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy harakatdan chetda turishi mumkin emas edi.

Qodiriy o‘zbek romançiligining otasi bo‘lib tarixga kirdi. Abdulla Qodiriy Turkistonda jadidchilik harakat sifatida endigina nish urayotgan, “usuli jaded” maktablari o‘lkada yakkam-dukkam ochila boshlagan bir paytda tug‘ildi. O‘sanda yurtimizda mashhur “Tarjimon”ning kela boshlaganiga 10 yildan oshgan edi. “Usuli

⁴⁶ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари). К.2: - Т.: “Шарқ”, 2003, - Б. 288 – 290

jaded”ning xalq orasiga kirganiga rosa 10 yil to’lgandi. Bir yil oldin — 1893-yili uning nazariyotchisi va amaliyotchisi Ismoil Gasprinskiy Majid G‘anizoda degan shirvonlik shogirdi bilan o’sha davr Turkistonining ahamiyatiga ko’ra ikkinch shahri hisoblangan Samarqandda bo‘lib, 40 kun “usuli jaded” saboqlarini o‘qigan edi. Abdulla maktab yoshiga yetgan yillarda yangi usul maktablari uchun bir nechta darslik bosilib chiqqan edi. U “bir boyga xizmatchilikka” berilgan 1906 yilda milliy matbuotimiz dastlabki qadamlarini qo‘yayotgan, mashhur Mahmudxo‘ja Behbudiy Munavvarqorining “Xurshid” gazetasida ishtiroyiunchilar firqasining dastur va a’molini insof va adolatgagina emas, axloq va odobga ham nomuvofiq topgan, bir yildan so‘ng o‘zining “Turkiston muxtoriyati dasturi”ni tuzib, “Ittifoqi muslimin” rahbariyati orqali Davlat Dumasi muhokamasiga kiritish ishlari bilan shug‘ullanardi.

Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligiga asos solib, milliy nasr uchun yangi davrni boshlab bergan, adabiyotimizni zamonaviy jahon badiyati yuksakligiga yaqinlashtirgan ijodkordir. Bu noyob iste’dod sohibi XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida faxrli o‘rin egallaydi. Akademik Oybek adib uning mahoratini “Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda g‘oyatda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g‘oyatda yaxshi bilganligi yaqqol sezildi; uning romanlari ana shunday go‘zal til bilan yozilgan. **U** tug‘ma epik yozuvchi, keng ko‘lamdag‘i yuksak ma’nodagi realistik san’atkori edi»⁴⁷, deb yuksak baholagan.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yilning 10 aprelida Toshkentda dehqon oilasida tug‘ildi. Avval eski maktabda, so‘ngra “Russko-tuzemnaya shkola”da o‘qidi. Bir savdogar boy qo‘lida mirza bo‘lib ishladi. Dehqonchilik bilan astoydil shug‘ullandi. Adibdagi bu xususiyatni Oybek “u aqliy mehnat kishilariga har mahal ham nasib bo‘lavermaydigan darajada jismoniy mehnatga o‘ch kishi edi”, — deya ta’riflagandi.

Abdulla Qodiriy 1909-yildan badiiy ijod bilan shug‘ullana boshladi. Dastlab kichik-kichik she’rlar, maqolalar, hajviy asarlar bilan matbuotga qatnashdi. So‘ngra “Ahvolimiz”, “Millatimga” singari she’rlar, “Baxtsiz kuyov” (1914-yil) pyesasi, “Juvonboz” (1915-yil), “Uloqda” (1915-yil), “Jinlar bazmi” (1916-yil) va boshqa hikoyalarni yozdi. Bu asarlarda barcha jadidchilar singari Qodiriy ham kitobxonlarmi ezzulikka, ilm-ma’rifatga undadi, ushbu g‘oyalariga go‘zal badiiy libos kiyirdi. “Ahvolimiz” she’rida shoir xalq va yurt taqdirini ko‘zlab quyidagicha yozadi:

K o ‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,

Joyi kelgan chog‘ida vijdanni pulga sotamiz.

O ‘g iimizga na odob, na fan, na yaxshi so ‘ylamak,

⁴⁷ Oybek. Tug‘ma adib. — «Fan va turmush» jumali, 1967-yil, 7-son, 23-bet.

*Na xudoning buyrug‘i bo ‘Igan ilm o ‘rgatamiz...
O ‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyg‘uvchi,
Biz ani dahriy sanab, to ‘pponcha bila otamiz.
Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g‘ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg‘otamiz.*

Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasida boylarga taqlid etib, katta to‘y o‘tkazgan va natijada qarzga botib, baxtsizlikka uchragan kambag‘al yigitning fojiasi hikoya qilinadi. Kambag‘al yigit Solih o‘z xo‘jayinidan og‘ir shartlar bilan qarz olib, katta to‘y qiladi, uylanadi. Biroq Solih qarzni o‘z vaqtida to‘lay olmaydi. Oqibatda uning hovli-joyi qarz evaziga boyga o‘tadigan bo‘ladi. Yosh kelin-kuyov bu kulfatga chiday olmay, o‘zlarini o‘zlari halok qilishadi. “Baxtsiz kuyov” dramasida yosh ijodkor Abdulla Qodiriyl kambag‘al xizmatkor, sudxo‘r boy, domla-imom obrazlarini maromiga yetkazib yaratgan. Biroq asarda hayotdagi ijtimoiy tengsizlik sabablarini, shuningdek, obrazlar xarakterini ochishda bir oz mahorat yetishmay qolgan. Yuzakichilikka yo‘l qo‘yilgan. Buni asarda adib uchun asosiysi o‘z g‘oyalarini o‘tkazish ekani bilan tushuntirish mumkindir. Abdulla Qodiriyl o‘z ustida jiddiy ishlash, so‘z san‘ati sirlarini egallash orqali bu kabi nuqsonlardan qutuldi va ko‘p o‘tmay iste‘dodli adib sifatida tanildi.

Abdulla Qodiriyl dastlabki davrlardayoq adabiy-ijodiy ishga zo‘r mas‘uliyat bilan qaraydi. Shunga ko‘ra, badiiy asar yozishda hayot haqiqatini yaqindan turib, puxta o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Ana shu maqsadda ko‘p joylarni yayov kezib chiqadi, turli toifa odamlar hayotini sinchiklab o‘rganadi, tadqiq etadi. Abdulla Qodiriyl ijodiy prinsipini: “Men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman, har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqeа sababchi bo‘ladi”, — deb ifodalagan edi. Abdulla Qodiriyl hayot haqiqatini o‘rganishga qanchalik katta ahamiyat bergen bo‘Isa, uni badiiy haqiqatga aylantirishga ham shunchalik e’tibor bilan qaragan. U badiiy g‘o‘rlikka, mahoratsizlikka qarshi adabiyotda shakl va mazmunning birligi uchun izchil kurashgan. O‘z asarlariga erinmasdan sayqal va jilo bergen. So‘z va iboralarni tejab-tergab, zo‘r mahorat bilan ishlatgan.

Abdulla Qodiriyl 1917-yildan so‘ng dastlab jurnalistika sohasida faoliyat ko‘rsatdi. 1923-yildan boshlab “Mushtum” jurnalida mas‘ul lavozimida ishladi. Felyeton, maqola va hajviy hikoyalari bilan “Mushtum”ga faol qatnashib, birinchi o‘zbek satirik jurnalining asoschilaridan biri sifatida tanildi.

Abdulla Qodiriyl ijodi yangi talablar asosida mavzu va janr jihatidan ham, g‘oyaviy-badiiy jihatdan ham yil sayin o‘sib bordi. 1924-yilda Moskvadagi V.Bryusov nomidagi Oliy Adabiyot institutida olgan tahsili Abdulla Qodiriyl ijodida muhim ahamiyat kasb etdi. U Moskvadan qaytgach, yana matbuot sohasida ishladi,

ijodiy ish bilan band bo'ldi. Natijada yangi o'zbek jurnalistikasining asoschilari qatoridan munosib o'rinni oldi.

Abdulla Qodiriy jahon adabiyotini sevib mutolaa qilgan. Lev Tolstoy, A. Chexov singari badiiy so'z ustalaridan yorqin xarakter yaratishni, psixologik tahlil mahoratini o'rgangan. Abdulla Qodiriy: "Mumtozlardan ta'lim olish — o'sib yuksalishimizning garovidir", — deb yozgan edi. Abdulla Qodiriyning ijodiy kamolotida uning, ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotimizdan oлган saboqlari katta rol o'yнagan. Abdulla Qodiriy badiiy nasrning deyarli hamma janrida ijod qilgan va o'zbek adabiyotidagi ocherk, hikoya, qissa va roman janrlarining bir qancha yetuk namunalarini yaratgan.

Fikrimizni A.Qodiriyning hikoyalari ham tasdiqlaydi. Adib hikoyalarda zamonaviy mavzular, yangilikni qo'llab-quvvatlash, hayotdagi eskilik illatlarini fosh etish asosiyo o'rinni egallaydi. Yozuvchi o'zining "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "Shirvon xola nima deydi", "Tinch ish" kabi hajviy hikoyalarda yangi hayotning mohiyatiga tushunmagan, tajanglashgan chapanilar, bekorchi dangasalar ustidan achchiq kuladi.

Abdulla Qodiriyning badiiy ijod olamidagi eng buyuk xizmati shundaki, u o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib roman janriga asos soldi. Ma'lumki, XX asrgacha o'zbek adabiyotida zamonaviy romanchilik janr sifatida shakllanmagan edi. XX asrning 20-yillariga kelib milliy adabiyotimizda ham shu yo'nalishdagi urinishlar paydo bo'la boshladi. O'zbek adabiyotshunosligi tomonidan o'sha urinishlarning eng samarali, eng olamshumuli sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" (1926-yil) romanini e'tirof etiladi. Adib o'zining ushbu asari bilan milliy adabiyotimiz tarixida o'zbek romanchiligi asoschisi, degan nomga haqli ravishda sazovor bo'ldi. Ushbu asar nafaqat o'zbek, balki O'rta Osiyo xalqlari romanchiligi ibtidosidir. "O'tkan kunlar"dan so'ng Qodiriy 1929-yilda "Mehrobdan chayon" romanini yaratish bilan o'z an'analarini davom ettirdi. Taniqli sharqshunos olim YE. E. Bertels Abdulla Qodiriyning bu xizmatini yuksak qadrlab: "Dunyoda beshta: ya'ni fransuz, ingliz, rus, nemis va hind romanchiligi maktablari bor edi. Endi oltinchisi, ya'ni o'zbek romanchiligi maktabi paydo bo'ldi, bu maktabni Abdulla Qodiriy yaratib berdi»⁴⁸, — degan edi. "Otkan kunlar" nainki o'zbek romanchiligining dastlabki namunasi, balki shu janrning yetuk durdonasi sifatida ham qimmatlidir. Ko'pgina yozuvchi va adabiyotshunos olimlarning tan olishicha, Abdulla Qodiriy romanlari, xususan, "O'tkan kunlar" o'zbek nasrning hozirgacha zabit etgan eng yuksak cho'qqisisidir. Shunisi xarakterlik, 20-yillarda yuzaga kelgan

⁴⁸Habibulla Qodiriy. Otam haqida. — T.: O'zadabiyinashr, 1983, 55-bet.

“O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari bugungi kitobxonning ham o’ziga maftun etmoqda.

5. Abdulhamid Cho‘lpon

Adabiy ijodi 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlangan. 1914-yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo’jayev bilan tanishish Cho‘lponning milliy uyg’onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Cho‘lpon “Sadoi Turkiston” gazetasida dastlabki “Turkistonli qardoshlarimizga” she’ri, “Qurbanji jaholat”, “Do’xtir Muhammadyor” hikoyalari va “Adabiyot nadir?” maqolasini e’lon qilib (1914-yil), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan joy oldi. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlikda yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatidan ko‘rgan Cho‘lpon boshqa jadidlar qatori o‘z asarlari bilan xalqning saviyasini ko‘tarishga kirishgan. 1917-yil Fevral inqilobining ro‘y berishi taraqqiyatparvar ziyorilar dunyoqarashini o‘zgartirib yubordi. Ular, shu jumladan, Cho‘lpon mustaqillik uchun kurash endi targ‘ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o‘tganini anglatdi.

Cho‘lponning adabiy-ijodiy faoliyati 1913-yilda boshlangan, uning dastlabki she’r, hikoya, ocherk va maqolalari “Sadoyi Farg‘ona”, “Sadoyi Turkiston”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Oyina”, “Sho‘ro” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan. Cho‘lpon 1917-yillardayoq ma’rifatparvar va demokratik kayfiyatdagagi yosh ijodkor sifatida tanila boshlagan. Uning “Qurbanji jaholat”, “Doktor Muhammadiyor” singari dastlabki asarlarida qoloqlik va jaholatga qarshi ma’rifatparvarlik vaadolatparvarlik g‘oyalari targ‘ib qilingan. Cho‘lpon endigina yigirma yoshga qadam qo‘yganda Oktabr to‘ntarishi sodir bo‘ldi. Shoir shundan so‘ng “Qizil bayroq”, “Ishtirokiyun”, “Turkiston”, “Buxoro axboroti” kabi gazetalar tahririyatlarida mehnat qildi. Cho‘lpon ongida o‘zgarishlar yuz berdi. Bu evrilishlar shoir ijodida ham o‘z ifodasini topib bordi. Shoirning “Uyg’onish” (1922-yil), “Buloqlar” (1924-yil), “Tong sirlari” (1926-yil), “Soz” (1935-yil) to‘plamlari o‘zarlo taqqoslansa, Cho‘lpon she’riyatidagi g‘oyaviy-badiiy fazilatlar, shuningdek, ijodiy kamolot yo‘lidagi izlanishlar, turfalik va ziddiyat ochiq ko‘rinadi. Cho‘lpon — tom ma’nodagi milliy shoir. U yurt hayotidagi yutuqlar, ibratli yumushlardan qanchalik quvonsa, erksizlik va tutqunlikdan, tengsizlik vaadolatsizlikdan shunchalik iztirob chekadi. Shoir she’rlarida dard va alamning ufurib turishi ham, avvalo, millat, Vatanga muhabbat tuyg‘ularining kuchliligi bilan izohlanadi. Shoir Vatan istiqbolini ko‘zlab dard chekadi, qiynaladi va o‘zining ana shu yurak tug‘yonlarini rang-barang shakllarda ifodalaydi. Zamonda kechayotgan evrilishlarga

Cho‘lponning munosabatini uning she’rlari aniq ko‘rsatadi. Masalan, “Amalimning o‘limi” she’rida: “Qarshimda yig‘lagan bu jonlar kimlar? Qullar o‘lkasining insonlarimi?” — deb qayg‘ursa, “Men va boshqalar” asarida erk istab faryod chekadi:

*Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo ‘shig ‘ini tinglagan menman.
Erkin boshqalardir, qamalgan menman,
Hayvon qatorida sanalgan menman.*

“Yong‘in” she’rida esa shoir yurt mustamlakachilar oyog‘i ostida toptalayotgani, xalq bosqinchilar tomonidan tahqirlanayotganiga dil-dildan achinib, nola qiladi:

*Shunday katta bir o ‘Ikada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo ‘qmi?
Bir ko ‘z yo ‘qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko ‘ngil umidsizmi, siniqmi?*

Shunisi muhimki, shoir yurtdagi erksizlik, vayronalik va xarobotni tasvirlash bilan kifoyalanib qolmaydi. U shu holatdan qutulish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi. Erksizlik va jaholatdan qutulishning Cho‘lpon tanlagan yo‘li qat’iy va kurashchanlik ruhi bilan sug‘orilgan. Chunonchi, “Buzilgan o‘lkaga” she’rida o‘z yurtga sig‘indilik, mustamlaka azobiidan ezilgan, vayron bo‘lgan o‘lkamizga qarata xitob qilib, xalqni ogohlantiradi, hushyorlikka chaqiradi:

*Ey, tog ‘lari ko ‘klarga salom bergen zo ‘r o ‘Ika!
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko ‘lanka?..
Ey, har turli quilliklarni sig ‘dirmagan hur o ‘Ika,
Nega sening bo ‘g ‘zing bo ‘g ‘ib turar ko ‘lanka?!..*

Cho‘lpon she’riyati mazmunan boy va shaklan go‘zal. Cho‘lpon she’riyatining asosiy xususiyatini erksevarlik, millatparvarlik, haqqoniylig va xalqchillik, g‘oyaviy aniqlik va badiiy go‘zallik singari fazilatlar tashkil etadi. Shoir asarning shakl va mazmunga doir barcha unsurlarini qunt bilan ishlab, ularga jilo va sayqal beradi. Bunda shoir til imkoniyatlardan ustalik bilan foydalanadi. Ana shuning uchun ham Cho‘lpon she’rlari tilining aniq-ravonligi, obrazli va jozibadorligi bilan maftun etadi. Shoir nazmining tili obrazli va shirali bo‘lish bilan birga, g‘oyat sodda, ixcham va tom ma’noda xalqchildir. Cho‘lpon o‘z she’rlarida xalq tili boyliklaridan foydalanar ekan, so‘z va iboralarni tejab-tergab, o‘z o‘rnida ustalik bilan ishlatadi. Shu orqali xalq hikmatlariday sado beruvchi sermazmun, jarangdor va suluv baytlar, quyma misralar yaratadi. Ushbu fikrni quyidagi misralar tasdiqlaydi:

Muhabbat osmonida go ‘zal Cho ‘lpon edim, do ‘stlar,

Quyosning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

(“Qalandar ishq”)

Cho‘lpon she’riyati vazn va qofiya jihatdan ham tugal, kam-ko‘stsiz. Shoir o‘z ijodi bilan o‘zbek she’riyatining asosiy vazni bo‘lgan barmoqning imkoniyatlari cheksiz ekanini yana bir bor isbotladi. Cho‘lpon aksariyat she’rlarida asar tilining go‘zal va jozibadorligini ta‘minlash bilan vaznning musiqiyligi va o‘lchov (ritm)ning aniq va jarangdorligiga erishadi:

Sochilgan sochlaringday sochilsa siring

Anor yuzlaringni kimga tutasan?

O‘zing-ku: “Ularda vafo yo‘q”— deding,

Nimaga ularni tag‘in kutasan.

Cho‘lponning she’riy tili nihoyatda boy, mukammal shakllangan. Cho‘lpon tilining bu xususiyatlari uning nasriy asarlariga ham tegishlidir. Darhaqiqat, Cho‘lpon “Qor qo‘ynida lola”, “Kleopatra”, “Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz”, “Nonushta” (hikoyalar), “Yov” (qissa), “Kecha va kunduz” (roman) singari asarlar yozib, nasr sohasida ham qimmatli meros qoldirgan. Cho‘lponning ikki kitobdan iborat bo‘lgan “Kecha va kunduz” (1935-yil) tarixiy romani adabiyotimizning oltin xazinasidan mustahkam joy egallagan. Romanda birinchi jahon urushi davridagi Turkiston hayoti aks ettiriladi. Ayni zamон adib nazdida xalqimiz hayotidagi qorongi kechadirki, roman nomi ham shunga ishora: birinchi kitob “Kecha”, ikkinchi kitob “Kunduz” deb ataladi. Asarda mamlakatda o‘sha davrda hukm surgan ijtimoiy adulatsizlik, chorizmning ich-ichidan chirib, nurab borayotganligi, oq poshsho hokimiyatining butunlay inqirozga yuz tutganligi, chor va mahalliy amaldorlarning kirdikorlari, razil xatti-harakatlari ro‘y-rost ohib tashlangan. Shu bilan birga, mamlakat buyuk ijtimoiy o‘zgarishlar arafasiga kelib qolgani ishonarli tarzda, obrazli ravishda ko‘rsatib berilgan.

“Kecha va kunduz”da xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og‘ir, kulfatu mashaqqatlarga to‘la hayoti jomli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta‘sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobjiy qahramonlardan biri bo‘lgan go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz qiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi.

Cho‘lpon dramaturgiya janrida ham o‘z iste’dodini namoyon etgan. U “Cho‘rining isyoni”, “Halil farang”, “Cho‘lpon sevgisi”, “Zamona xotini” (“Mushtumzo‘r”), “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Yorqinoy” singari katta-kichik sahna asarlarini yaratgan. Bu pyesalar orasida eng mukammali, shubhasiz, “Yorqinoy” dramasidir. Bu yirik sahna asari folklor materiallari asosida yaratilgan. Buni muallifning o‘zi ham tasdiqlaydi. Cho‘lpon pyesani: “Totli va boy tili bilan ertak

(cho‘pchak) aytib berib, shu dramaning yozilishiga sabab bo‘lgan kampir onaga hurmat bilan bag‘ishlayman”, — deb qayd qilgan edi.⁴⁹

Cho‘lpon she’riy, nasriy va dramatik asarlar yaratish bilan birga adabiyet tanqidiy va publitsistik maqolalar ham yozgan. Uning “Adabiyot nadur?”, “Sho‘ro hukumati va sanoye’ nafisa”, “Ulug‘ hindu”, “Sharq uyg‘onmoqda”, “Buyuk maktab egasi”, “Tagor va tagorshunoslik”, “Uvaysiy”, “Mirzo U lug‘bek”, “500-yil” kabi maqolalari o‘z vaqtida ko‘pchilikning diqqatini jalb qilgan edi. Cho‘lpon serqirra va noyob iste’dod sohibi. U o‘zbek adabiyotining Cho‘lpon yulduzi. Cho‘lpon ulug‘ shoир, mohir nosir, iste’dodli dramaturg sifatida so‘z san’ati xazinasiga bebaho hissa qo‘shgan. Cho‘lpon she’riyatda o‘ziga xos ijodiy maktab yaratgan ustoz. 20-30-yillarda Oybek, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Usmon Nosir singari ijodkor yoshlar bu maktabdan bahramand bo‘lib, Cho‘lpon ijodidan badiiy mahorat sirlarini o‘rgandilar.

Cho‘lpon 1991-yilda Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

6. Abdurauf Fitrat ijodi

Abdurauf Fitrat (1886-1938-yillar) Buxoroda jadidchilik harakatining va XX asr o‘zbek adabiyotining namayondalaridan biri hisoblanadi. Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug‘ildi. O‘sha davr eski maktablaridan birida, so‘ng mashhur “Mir Arab” madrasasida o‘qidi. 1904-1906-yillarda u haj safarida, Arabiston, Turkiye, Moskva, Peterburg shaharlarida bo‘ldi. Turkiyedagi o‘zgarishlar, Moskvadagi hayot uni Yevropaga yaqinlashtirdi. Hajdan kelgach, Buxorodagi jadidchilik harakatiga boshchilik qildi. 1909-yil 18 iyunda Buxoro yoshlari “Tarbiyai atfol” nomida yashirin jamiyat tomonidan Istanbulga yuborilgan edi. Ayniy ta’kidlashicha, “... u talabalarning eng iste’dodlisi va eng fozili edi”. Fitrat Istanbulda 1909-1913-yillar davomida tahsil oldi. U Istanbul dorilfununida o‘qib yurgan kezlarida hamshaharlari bilan birgalikda “Buxoro ta’limi (umumiy) maorif jamiyat”ni tuzdi. Bu jamiyat buxoroliklarning o‘zaro moddiy-ma’naviy uyushmasi vazifasini bajargan. 1909-1913-yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqdi. Chunonchi, 1909-yilda “Munozara” (“Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadidi xususida qilgan munozarasi”) asari bosildi. Dramatik publitsistikaga moyil bu asar zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi

⁴⁹ Mirzayev S. XXasr O‘zbek adabiyoti.. Toshkent.: «Yangi asr avlodи» 2005. 163-172 bet

asosiga qurilgan edi. Ushbu asar 1911-yilda Hoji Muin tarjimasida “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida, 1913-yilda Behbudiy so‘zboshi bilan alohida kitob holida nashr qilindi. 1912-yilda Fitratning yana bir diqqatga molik asari – “Bayonoti sayyohi hindi” (“Hind sayyoohining qissasi”) chop etildi. Fitratning fors tilida yozilgan dastlabki she’riy to‘plami – “Sayha” ham Istanbulda 1911-yilda nashr etildi. Shoirning bu to‘plamga kirgan she’rlari 1914-yilda “Sadoi Turkiston” gazetasida ham bosildi. “Vatanparvarlik she’rlari to‘plami bo‘lgan “Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hokimiyyat ham ta‘qib qila boshladi. Chunki bu she’rlarda Buxoro mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi”, deb yozgan edi F.Xo‘jayev. Fitrat Turkiston muxtoriyatini so‘zsiz mehr bilan qarshi oldi. Muxtoriyat e‘lon qilingan 27 noyabr tunini u “milliy laylatulqadrimiz” deb atadi. U o‘z quvonchini shunday ifoda etadi: “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi. Oq‘zimiz qonlandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemurului. Nomusimiz g‘asb qilindi. Insonligimiz oyoqlar ostiga olindi. To‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyruqga buysunduk. Butun borlig‘imizni qo‘ldan boy berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermaduk, yoshunturduk, imonlarimizga o‘rab saqladuk. Bu – Turkiston muxtoriyati!”

Fitratning pedagogik faoliyatida uning 1917-yilda Bokuda nashrdan chiqqan “O‘quv” nomli darsligi alohida o‘rin tutadi. 1918-yilda Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoj gurungi” ish boshladi, bu hukumat ro‘yxatidan o‘tgan rasmiy tashkilot bo‘lib, o‘zbek adabiyoti va tilining rivojlanishi, nazariy-amaliy masalalarini o‘rganish maqsadida tashkil etilgandi. Fitrat 1920-1924-yillarda Moskvada Sharq tillari institutida dars beradi, bu yerda professorlik unvonini oladi. 1916-1934-yillarda dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Fitratning 13 ta drama yozgani bizga ma’lum. Shundan 7 tasi to‘la holda saqlangan. 1920-yilda yaratilgan “Chin sevish”, “Hind ixtitolchilar” dramalari romantik ruh bilan sug‘orilgan. Ularda muallif voqealarni Hindistonga ko‘chirish orqali millatparvarlik g‘oyalarini tasdiqlashga intilgan edi. Faqat bu dramalarning mazkur fazilati keyinchalik butunlay teskari talqin etilib, Fitratni “millatchi”, “xalq dushmani” sifatida ayplash uchun dastak qilingan edi. 1924-yilda yaratilgan “Abulfayzxon” tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho‘qqisi deyish mumkin, chunki unda shafqatsiz tarix sabog‘i yuksak badiiy haqiqat darajasiga ko‘tarilgan va insoniyat cheksiz qon to‘kishlar oqibatida dahshatli fojalarga olib kelishidan ogoh etilgan edi. O‘zining yuksak fazilatlariga ko‘ra, bu drama Fitrat ijodiy yo‘lining yetuklik bosqichi boshlanganligidan guvohlik bergen. 1926-yilda yozilgan “Arslon” va 1930-yilda yaratilgan “Ro‘zalar” dramalari esa zamonaviy ruh bilan sug‘orilgan edi. “Arslon”da “Boy ila xizmatchi” dramasining ruhi yaqqol sezilib turadi. Fitrat o‘zbek adabiyoti tarixida ko‘pqirrali ijodkor sifatida o‘chmas iz qoldirdi. U tanqid va

adabiyotshunoslik, tarix va san'atshunoslik, tilshunoslik va matnshunoslik sohalarida juda ko'p asarlar yaratib, o'zbek madaniyati xazinasini bebahodurdonalar bilan boyitdi. Ular orasida "Adabiyot qoidalari", "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "Umar Hayyom", "O'zbek adabiyoti namunalari" kabi kitoblar Alisher Navoiy, Mashrab, Ahmad Yassaviy, Bedil singari shoirlar ijodiga oid maqlolari, "Qutadg'u bilig" qo'lyozmasini topishdek xizmatlari diqqatga sazovordir. Jadidchilik rahnamolaridan biri Fitrat bir necha safdoshlari qatorida 1938-yil 4 oktyabrda qatl etiladi. 1991-yili madaniyatimiz darg'aları Cho'lpon, Abdulla Qodiriyalar qatorida Abdurauf Fitrat ham Navoiy nomli O'zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

7. H.H.Niyoziy adabiy merosi

Jadidlarga xos fazilat shundaki, ular badiiy ijodning turli ohanglarida betakror asarlar yaratish bilan birga murabbiy, mohir pedagog sifatida maktablar ochdi, muallimlik qildi, maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yaratdi. Mana shunday faoliyat sohiblaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziyidir. U shoир, nosir, drama va pyesalar muallifi, bastakor, shu bilan birga, jadid pedagogikasining yetakchi namoyandalaridan biri, umrining oxirigacha muallimlikni tark etmagan murabbiyidir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy nihoyatda murakkab, biroq mazmundor hayot yo'lini bosib o'tdi. U 1889-yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida dunyoga keldi. Hamza dastlab boshlang'ich maktab, so'ng madrasada tahsil ko'rdi. Ma'lum muddat rus-tuzem maktabida ham o'qigan. Hamza madrasa ta'limi bilan kifoyalanmay, mustaqil mutolaaga berildi. U buyuk Navoiy, Bobur, Bedil, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlar asarlarini, Yevropa va Sharq adabiyoti namunalarini o'qish o'rganish tufayli XX asrning boshlariga kelib o'z davrining ilg'or ma'rifatparvar va xalqparvar ziyorisi sifatida tanildi. Hamza ijodining ilk pallasi 1905-yillarga to'g'ri keladi. U dastlabki she'rlarini "Nihon" ("Yashirin") taxallusi bilan imzolagan. Hamzaning bu davrda yaratilgan she'rlari aksariyat nasriy an'analar qolipida, Muqimiy va Furqat singari millatsevar, ma'rifatparvar shoirlarga ergashib yozilgan. Bu havas Hamza g'azallari vazni, qofiyasi, radifi, hatto mavzusida ham o'z ifodasini topadi:

*Sabo, arzim ni yetkur, muhi tobon bir kelib ketsun,
Tamomi husn elini shohi-sulton bir kelib ketsun.*

Ushbu misoldan Hamzaning an'anaviy she'riyatga ehtiromi nechog'li ulug'ligi anglashiladi. Ijodining dastlabki davrida Hamza nasriy an'analar qolipidan

chiqmay turib badiiy kashfiyotlar qilishga uringan. Bu yo‘lda tinmay o‘rgangan, izlangan. Biroq Hamza atrofdagi voqelikka faol munosabat bildiradigan, tinib tinchimas tabiatga ega ediki, bu holat uning ijodiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Yosh shoир o‘z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladi. Hamza 1910-yilda Toshkentga keladi. Qashqar mahallasida “usuli jadid” maktabi ochib, o‘qituvchilik qiladi. Turkiston jadidchilik rahnamosi Munavvarqori va uning yaqin kishilar bilan tanishadi, hamkorlik qiladi. Pedagogik faoliyatida Munavvarqorining ko‘plab darslik va qo‘llanmalaridan — “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi” kabi darsliklaridan foydalanadi. Aytish mumkinki, Hamzaning ilk pedagogik faoliyati Toshkentda, jadid pedagoglari davrasida boshlandi. Hamza 1911-yilda Qo‘qonda, keyin Marg‘ilonda ham “usuli jadid” maktablari ochib, yerli millat farzandlarimi o‘qitadi. Lekin ish jarayonida ko‘p bor qiyinchiliklarga uchraydi.

Hamzaning 1910-yillarda yaratgan “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” nomli majmuasi alohida e ‘tiborga loyiq. Unda o ‘sha davr ruhi, millat turmushi, orzu-umidlari, yechimini topish lozim bo‘lgan muammolar o ‘z aksini topgan. Shoир xalq baxtsizligiga faqatgina ma’rifat millatni birlashtirishiga ishongan hamda barchani shunga chaqirgan. Umuman, Hamza ijodining ushbu bosqichida chaqiriq she’rlar ustunlik qiladi:

*Oshab, uxlab hayvondek yotmaylik emdi,
To boshgacha illatga botmaylik emdi,
Bir-birimizni ushlab odimlashaylik,
Gazet o’qib, jurnallar, yozishaylik,
Maktab ochib, avlodga yoboshlashaylik*

Hamza maktablar uchun darsliklar yozishga kirishadi. Shoirning “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” va “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” kabi darsliklari fikrimizni isbotlaydi. O‘sha vaqttagi maktab darsliklari biroz murakkab bo‘lgan. Buni hisobga olgan Hamza darsliklari bolalarbop yozilgan. Biroq Hamzaning pedagogik faoliyati, maktablari Qo‘qon uyezdi boshliqlari tomonidan keskin qarshiliklarga uchraydi, darsliklari ham senzuradan o‘tmaydi. Aslida esa Hamza Sharq an’analari ruhida darsliklarni yozgan edi.

Hamza 1915-yilda taraqqiyparvar yoshlar bilan birga “G‘ayrat” kutubxonasini tashkil qiladi. Bu kutubxonaning asosiy maqsadi yangi ochilayotgan jadid maktablarini darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash hamda darslik nashr etish edi. Shu yili Hamza boshchiligidagi “Jamiyat xayriya”si tuzildi. Ushbu jamiyat “usuli jadid” maktablari uchun ko‘plab darsliklarni sotib olib bolalarga tarqatgan. Bundan tashqari, “G‘ayrat” kutubxonasida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Abdulla Avloniyining

“Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Yer yuzi”, Rustambek ibn Yusufbekning “Ta’limi avval” kabi darsliklari ham bo’lgan, ulardan bolalar bepul foydalangan.⁵⁰

Hamza o’z ijodini an’anaviy lirik she’rlar yozishdan boshlagan. U “Nihoniy” (yashirin, maxfiy ma’nolarini bildiradi) taxallusida ijod qildi va 1905-1914-yillarda yozgan she’rlarini to’plab, “Devoni Nihoniy”ni tuzadi. Devonga shoirning 177 she’ri kiritilgan bo’lib, ulardan 150 tasi g’azal, qolganlari masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas va maktubdan tashkil topgan. Bularidan 165 ta she’r o’zbek tilida, 10 ta she’r fors-tojik tilida, 2 ta she’r o’zbek va rus tilida shiru-shakar janrida yozilgan. Shoir ijodida muhim o’rinni ajoyib she’riy guldstalari — “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” egallaydi. Bu umumiy nom ostidagi 7 she’riy to’plamga 1915-1917-yillarda yaratilgan she’rlari kiritilgan. Bu she’riy to’plamlar: “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul”. Ularda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg’otish, ilm-ma’rifatga da’vat etish g’oyasi yetakchi edi:

Bu Nihon qon yig ’layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o ’tub, qish keldi holo, bizga bo ’Igan yo ’q bahor,
Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,
Chora shul maktab ochaylik, shoyad o’lsun sabzazor

Ko‘pgina o’zbek ijodkorlar qatori Hamza dunyoqarashining takomilida jadidchilik harakatining rahnamosi Ismoilbek Gasprali va uning “Tarjimon” gazetasining roli katta bo’lgan. 1914-yil 11 sentabrda Gasprali vafoti munosabati bilan hamma o’zbek jadid ijod ahli singari Hamza ham o’z hamdardligini bildirib, “Yavmul-vafot” (Sadoyi Farg’ona, 1914-yil, 24 sentabr) maqolasini va “Marsiya” (Sadoyi Farg’ona, 1914-yil, 28 sentabr) she’rini e’lon qildi. She’rda shoir yozadi:

Oh, millat, yetdi bu dam qayg’ulik, g ’amlik zamon,
Tegdi og ’zingga halokat toshi, emdi to ’la qon,
Dod qil davri falakdan, botdi xurshidi jahon,
Motam ayla, og’lasun ahvolinga har insu jon...

Hamza XX asr o’zbek jadidchilik harakatida, ayniqsa, jadid pedagogikasi va adabiyoti taraqqiyoti tarixida shoh asarlar qoldirdi. Shoir ijodi mustaqillik, istiqlol tufayligina haqiqiy bahosini olmoqda. U novator shoir, hozirjavob nosir,

⁵⁰ Karimov O.Milli yug’onish davri o’zbek adabiyoti.Savol-javoblar.O’quv-uslubiy qo’llanma.“Namangan” nashriyoti – 2017. B-141-143

iste'dodli dramaturg, kuchli teatr arbobi, mohir pedagog sifatida zamondoshlari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lponlar qatoridan munosib o'rin olishga haqlidir.

8. U. Nosir ijodiy faoliyati

Usmon Nosir (1912-1944-yillar) XX asr o'zbek she'riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan shoir. Usmon Nosir 1912-yilning 13 noyabrida Namanganda tug'ildi.

Otasidan yetim qolgan Usmon Nosir Qo'qondagi bolalar uyida tarbiyalanadi. Iste'dodli o'spirin u yerda rus va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishadi. Internatni bitirgach, 1931 yildan Samarqanddagi O'zbekiston milliy universitetining filologiya fakultetida o'qidi. Bolaligidan she'rlar yoza boshlagan Usmon Nosir badiiy ijod bilan bor yo'g'i o'n besh yilgina, ya'ni qamoqqa olinguncha astoydil shug'ullandi. Shu fursatda o'zining qanchalik nodir iste'dodga ega ekanimi yaqqol ko'rsatdi.

Yosh shoirning "Quyosh bilan suhbat" (1932-yil), "Safarbar satrlar" (1932-yil), "Traktorobod" (1934-yil), "Yurak" (1935-yil), "Mehrim" (1935-yil) kabi she'riy to'plamlari hamda "Norbo'ta" (1932-yil) va "Naxshon" (1935-yil) kabi dostonlari va "Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman" kabi dramalari bosildi. Usmon Nosir 1937-yilning 14 iyulida "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olindi va Toshkent, Magadan, Kemerovo turmalarida yotdi. Qamoqda inson bolasi chidashi mumkin bo'lmaydigan qyinoqlarga duchor bo'lgan shoir 1944-yilda Kemerovoda halok bo'ldi. Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularini jilovlamas, dilida kechayotgan tug'yonlarni susaytirmas, inson ruhiy dunyosini po'rtanalar ichida ko'rsatardi. Shoirning:

Tingla, erkam, o'rtog'imsan,

Ko'nglimni ochay.

Qonim she'r bo'lib oqsin-da,

Men qayta ichay.

singari misralari bunga misoldir. O'zbek she'riyatida tuyg'ularni bor bo'yicha, dolg'ali ko'rsatish an'anasi yo'q edi. Milliy she'riyatimiz odob, andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur'at qilgan birinchi shoir bo'ldi. Shoirning o'z tuyg'ularini:

Sevgi! Sening shirin tilingdan

Kim o'pmagan, kim tishlamagan?

Darding yoyday tilib ko'ksidan,

Kim qalbidan qonlar to'kmagan?

tarzida tasvirlashi miqyosi, ko‘lami va ta’sirchanligiga ko‘ra mislsiz poetik hodisa edi. Shoiring: “Ilhomimning vaqt yo‘q selday keladi, Jalloddek rahm etmay dilni tiladi, Ayondir bir kuni aylaydi xarob” shaklidagi iqrori, ayni vaqtda, ulkan badiiy kashfiyot hamdir. Usmon Nosir she’riyatiga xos eng rangin xususiyatlar uning “Yurak”, “Nil va Rim”, “Monolog”, “Nasimaga deganim”, “Yana she’rimga”, “Begona”, “Yoshlik” singari o‘nlab bitiklarida yorqin namoyon bo‘lgan.

Usmon Nosir she’riyati, avvalo, hayotiyligi, jozibadorligi va isyonkorligi, ayni chog‘da, sodda va ravonligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o‘rin olgan. Shundan bo‘lsa kerak, shoir she’rlari hamon davralarda tez-tez yod aytildi.

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding,

Ko‘zimga oyni berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko‘krak,

Sevinchim toshdi qirg‘oqdan,

Tilim charchar, ajab gohi

Seni tarjima qilmoqdan.

Badiiy tarjima sohasida ham shoir o‘ziga xos tarjimonlik madaniyatini va poetik didini namoyish qilgan edi. N.A.Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi?” degan mashhur asarini, V.I.Kirshonning “Ulug‘ kun” dramasini, A.S.Pushkinding “Bog‘chasarov fontani”, M.Yu.Lermontovning “Iblis” nomli dostonlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ko‘pgina namunalarni o‘zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasida o‘qidi. Bu poetik tarjimalar o‘zbek adabiyotining tarjima asarlar sahifasida shoh namunalar bo‘lib qoldi.

Usmon Nosir lirik shoir edi. Bu yangroq lirika o‘zbek she’riyatidagi lirik oqimga hamohang bo‘ldi, bu oqimga yangi sharshara bo‘lib qo‘sildi va bu unga yanada joziba baxsh etdi. Shoir ijodidagi bu xususiyatlar she’riyatda lirikaning yangi turini, badiiy soddalikning eng yaxshi namunasini namoyish qildi. Usmon she’rlarida jimmimadorlik, g‘alizlik, zo‘rmazo‘rakilik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda, lekin lirik harorat bilan, jozibadorlik bilan, original tashbehlari bilan bayon qilinar edi.

Shoir ijodiy faoliyatida biz ikki pog‘ona borligini ko‘ramiz.

Uning 1927-yildan 1932-yilgacha bo‘lgan ijodida voqealarga publisistik munosabat, publisistik pafos va ritorika ko‘proq ko‘zga tashlandi. Shuning uchun uning she’rlari shior va chaqiriq bo‘lib yangradi. Bu xususiyat Usmon ijodining zamon talabiga hozirjavobligini ko‘rsatadi.

She’rim! Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kir sang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonom kabi yashaysan manda.

(“*Yana she’rimga*”)

Shoirning mana shu dastlabki davr ijodida tematik aktuallik va rang-baranglik ustun bo‘lsa-da, bu yillar badiiy mahorat va ijodiy mustaqillik yo‘lida izlanish davri edi. Usmon Nosir o‘z ijodini, o‘z she’rini:
Sen yuragimning chashma suvisan,
Sen ko‘zlarimning gavhar nurlari.
Sening bahongni kim so‘rasa, de:
“Bahom - umrning bahosiga teng”
(“*She’rim*”)

deb baholagan yildan boshlab uning ijodining yangi davri, yangi oqimi, yangi to‘lqini, yangi toshqini boshlandi. Bu toshqin shoir ijodining kamolot bosqichi edi. Bu bosqichda u yetakchi shoirlar kabi falsafiy fikrlashni, teran mushohadani, voqeani poetik tasavvur qilishni o‘rganib, bu xususiyatni o‘z she’rlariga badiiy sodda ifodalarda singdirdi. Uning lirikasida siyosat va ij’timoiy turmush hayotiylik, originallik, chuqr hissiyot, poetik tuyg‘u, intim kechinmalar bilan sug‘orildi, yurak sadosi bo‘lib yangradi va mehr o‘ti bo‘lib yondi. Shuning uchun ham shoir shu yillardagi she’riy majmualariga “Yurak” va “Mehrim” deb nom qo‘ydi.

Usmon Nosir 1944-yil 23 martda 32 yoshida Uzoq Sharqda vafot etdi. Lekin shoir o‘zi aytganidek, uni Vatan, xalqimiz, adabiyot unutmadi!

Bargdek uzilib ketsam
Unutmas meni bog‘im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur.
She’rlarim yangrab qolur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im.
(“*Bog‘im*”)

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi kim edi?
2. Jadid so‘zining ma’nosи nima?
3. Jadid adabiyotida qanday yangi janrlar vujudga keldi?
4. Behbudiylar bir ma’rifatli inson uchun necha tilni bilish zarur deb hisoblagan?
5. Behbudiyning «Padarkush» dramasi qanday badiiy qiymatga ega?
6. Fitrat qayerlarda ta’lim olgan va dars bergan?
7. Qaysi asar Fitrat ijodining eng jiddiy yutug‘i hisoblanadi?
8. U. Nosirning qanday asarlari bor?
9. Hamza maktablar uchun qanday darsliklar yozgan?
10. Cho‘lponning 1913-yilda dastlabki she’r, hikoya, ocherk va maqolalari qaysi gazeta va jurnallarda chop etilgan?

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиков X., Шамсутдинов Р.Равшанов П. ва бошқ. Тахрир ҳайъати: Азизхўжаев А. – Т.: “Шарқ”, 2000, - Б 258.
2. “O‘zbek adabiyoti” ma’rufalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.
3. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX asr boшлари). К.2: - Т.: “Шарқ”, 2003, - Б. 288 – 290
4. Sultonov Izzat. Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida. — “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1956-yil, 28 oktabr.
5. Oybek. Tug‘ma adib. — “Fan va turmush” jurnalni, 1967-yil, 7-son, 23-bet.
6. Habibulla Qodiriy. Otam haqida. — Т.: O‘zadabiynashr, 1983, 55-bet.

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI: NASR

Reja:

- 1.Istiqlol davri o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari
- 2.Istiqlol davri o'zbek nasri
3. Hozirgi o'zbek hikoyachiligidagi yangilanish va yangi tamoyillar
4. Sh.Xolmirzaev. T.Malik, T.Murod, Ulug'bek Hamdam, Muhammad Ali ijodi
- 5.Milliy istiqlol davri o'zbek nasriga yangi ohang
6. Bugungi o'zbek romanlarida davr, tarix, zamon masalasi va yangi tamoyillar

Tayanch so'z va iboralar: Istiqlol, nasr, tarixiy shaxslar, yo'nalish, obraz, ruhiy olam, ijodkorlar, badiiy tafakkur — ijodkorning hayot, jamiyat, kundalik turmush, inson xususidagi fikrlari, mulohazalar, badiiy asar voqealari, qahramonning harakati.

1.Istiqlol davri o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari

XIX asrning 90-yillarda istiqlol adabiyoti deb ataladigan estetik hodisa yuzaga keldi. Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratildi. Buning natijasida inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi. Yangilanib borayotgan istiqlol davri adabiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Istiqlol davri adabiyotining ilk bosqichida o'zbek ijodkorlari yangicha uslub va mahorat sirlarini o'zlashtirish maqsadida g'arb adabiyoti an'analariga ko'proq murojaat qildilar. Natijada A.Kamyu, F.Kafka, G.Garsiya Markez, Kavabata kabi san'atkorlarining absurd bema'ni, mantiqsiz asarlariga taqlid kuchaydi. Ular ko'plab tarjima qilindi. G'arb adabiyotining ta'siri ma'lum ma'no da ham ijobiy, ham salbiy natijalar berdi.

2. Shu ta'sir oqibatida o'zbek adabiyotiga modernizm oqimi kirib keldi. Modern so'zi yangi degan asl ma'nosidan tashqari katta falsafiy-psixologik oqim bo'lib, shaxs va shaxs «men»i uning mohiyati va mag'zini tashkil etadi. U insonning ong oqimini tasvirlashga ko'proq e'tibor beradi.

3. 90-yillarga kelib, yana buyuk Sharq adabiyoti an'analarini, mumtoz adabiyotimiz, qadimgi yodgorliklar, mif va afsonalar, asotirlar va rivoyatlarga qiziqish kuchaydi. Islomiy qadriyatlar keng o'rinni ola boshladi.

4. Ijod erkinligiga katta imkon tug‘ildi. Adabiyotning barcha tur va janrlarida hayotni ro‘y-rost, butun murakkabligi bilan tasvirlashga, ijtimoiy-ma’naviy adolatsizlikka xo‘rlik va qullik sharoitida yashagan, ma’nан majruh bo‘lgan inson tasviriga e’tibor kuchaydi.

5. Qahramonlar tasvirida ilgari mavjud bo‘lgan ijobiy va salbiy tushunchalarini anglatuvchi qoliplarbarham topdi.

6. Badiiy adabiyotga ruhoniy kayfiyat – islom ma’naviyati kirib keldi. Diniy qadriyatlar, imon va e’tiqodni ulug‘lovchi ko‘plab badiiy asarlar yaratildi. 8. Adabiyotda to‘la ma’noda ijodiy erkinlik ro‘yobga chiqdi. Yozuvchi uchun taqilangan mavzu va muammo qolmadidi.

7. Bu davr adabiyotida yangi-tragikomediya janri dunyoga keldi.

8. Badiiy adabiyotni yanada rivojlantirish uchun respublikamizda ko‘plab, masalan, M.Qoshg‘ariy, A.Yassaviy, A.Navoiy, A.Qodiriy, Cho‘lpon nomidagi mukofotlar ta’sis etildi va ular xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

9. Mustaqillik sharofati bilan «Vatan», «Hurriyat», «Yozuvchi», «Milliy tiklanish» kabi gazetalar, «Sirli olam», «Tafakkur», «Jahon adabiyoti» singari jurnallar nashr qilina boshlandi.

10. Har yili mustaqillik bayrami arafasida talay ijodkorlarga unvon va mukofotlar berilmoqda.⁵¹

2.Istiqlol davri o‘zbek nasri

Nasr (arab. — ko‘mak, zafar), proza — adabiy tur; vazn va kofiya singari she’riyatga xos unsurlarga ega bo‘lmagan yozma nutq mahsuli. Yevropada bo‘lganidek, Sharq adabiyotida ham NASR yozma nutq shakli sifatida she’riyatga nisbatan kechroq paydo bo‘lgan.

Nasr bugungi adabiy jarayonning salmoqli turidir. Hozirgi adabiy jarayonda Sh.Xolmirzayev, O’tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tohir Malik, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘s, Asad Dilmurod, X.Sultonov, N.Norqobilov, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqul, A.Yo‘ldoshev, U.Abdulvahob, L.Bo‘rixon, Zulfiya Qurolboy qizi, U. Hamdam, S. Vafo, A. Nurmurodov, Abbas Said singari turli avlodga mansub ijodkorlar o‘ziga xos yo‘sinda qalam tebratib, milliy proza taraqqiyotini ta’minlayotir.

Milliy tafakkurda yalpi yangilanish boshlangandan beri ko‘pchilik tomonidan anglab yetilgan va tan olingen haqiqatlardan biri shu bo‘ldiki, odamning eng kichigi, eng ko‘rimsizi, eng zabuni, eng noshudi ham odamdir. Binobarin, badiiy adabiyot kichik odamning katta va chigal ichki dunyosidagi behudud poyonsizlikni, turfalikni

⁵¹ Uslubiy qo’llanma. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. T.;2018

tadqiq etishi lozim. Bir qator asarlarda sirdan qaraganda, ko‘zga tashlanib turadigan jihat yo‘q, hamma qatori, ammo botinida ulkan izardi, ruhiy po‘rtanalar mavjud bo‘lgan “kichik” odamlarning ichki dunyosi bor bo‘yicha aks ettirilgan. Nosirlarimizda ma’naviy dunyosi quruqshagan, risoladagi odamlarday fikrlash va o‘zgalarni tuyish saodatidan mahrum bo‘lgan ma’naviyatsiz kimsalarni tasvirlash mahorati shakllanayotganligi ham quvonarli holdir. Sh. Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasi, A. Yo‘ldoshevning “Otchopar” qissasi va “So‘qir” hikoyasida ayni shu xildagi qahramonlar tasvir etilgan. Bu asarlarda ma’naviyatdan mahrum, shaxsligi sindirilgan, shu bois o‘zligi yuqolgan shaxslarning g‘aroyib qismati aks ettirilgan. Ular hamisha ham ojiz, notavon, noshud emaslar. Ba’zan juda ishchan, olg‘ir, uddaburon bo‘lishlari ham mumkin. Lekin bunday kimsalarning umumiyligi xislati ichki olamning omonatligi, quruqshaganligi, ma’naviyatining kichikligidir. Badiiy asarda odamga ijobjiy-salbiy yoki tipik-notipik singari qoliplar orqali emas, balki mavjudligining o‘zi bilan adadsiz sir-u sinoatlarga to‘la tirik inson tarzida yondashish qaror topib borayotir. Bu fazilatlar barcha ijodkorlar uchun ham xos deb bo‘lmaydi, albatta. Lekin odamga yondashishda jo‘nlikdan, qolipdan voz kechilganligining o‘ziyoq nasrimiz taraqqiyotida sog‘lom tamoyillar qaror topayotganligini ko‘rsatadi.⁵²

Adabiyotshunos H.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi kun adabiyoti kech agi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya’ni odamning qalb izardi, quvonchlarning betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko‘rinishlari inkishof i hamda voqeahodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo‘nalti rilganligi, qahramonlarning o‘ta milliy va individuallashganligi, bozor iqtisodining m ohiyatini olib berishi ila o‘ziga xoslikka ega. Voqeahodisadan ko‘ra, insomning qalbi tahlili birinchi o‘ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi!”.⁵³

Haqiqatdan ham hayotdagi har bir o‘zgarish inson tafakkuriga chambarchas bog‘liqdir.

Inson tafakkurida o‘zgarishlar bo‘lmash ekan, jamiyatda ham hech qanday o‘zg arish bo‘lmaydi, chunki inson tafakkuridagi o‘zgarish davr va jamiyatdagi o‘zgarish bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun bugungi adabiy jarayonda voqeahodisalar emas, insonning o‘zi, uning o‘y fikrlari, alamlari, izardi, ruhiy olami yetakchilik qilayotganligi vujudga kelayotgan badiiy asarlar tasviri misolida isbotlash mumkin. Istiqlol adabiy jarayonida inson taqdiri badiiy-falsafiy tarzda tadqiq etish an’anasi yuksalib borayotganligi bu davr adabiyotining eng xarakterli xususiyatidir.

⁵² <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kurs-ishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti>

⁵³ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T., “Yangi nashr”, 2010. 4-bet.

Hozirgi adabiy jarayondagi turfa xil mushohadalar asosida yuzaga chiqayotgan adabiy tanqidiy qarashlar zamirida badiiy adabiyotga ma'lum bir mezonlar asosida emas, badiiyat nuqtai nazaridan baho berish ananasi kuchaydi.

T.Malikning “Qaldirg‘och”, “So‘nggi o‘q”, “Chorrahada qolgan odamlar”, “Falak”, M.Mahmudovning “Bog‘don qashqiri”, B.Murodalining “Ko‘k to‘nlilar” qissalarida bu mavzuning yangicha qirralari ochildi. Zamonaviy mavzudagi romanlar orasida, ayniqsa, T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, O.Muxtorning “Egilgan bosh”, “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ayollar mamlakati va sultanati” kabi romanlari mashhur bo‘ldi. L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, Salomat Vafoning “Tilsim sultanati”, “Ovoraning ko‘rgan kechirganlari”, Abdurashid Nurmurodning “Qon hidi”, Normurod Norqobilning “Dashtu dalala’rda», T.Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” romanlari insonga yondashuvning yangichaligi, tasvirning quyuqligi, odam ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo‘ldi. So‘nggi yillar hikoyachilik rivojini SH.Xolmirzaev xizmatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

3. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligidagi yangilanish va yangi tamoyillar

Ma'lumki, badiiy ijodda muayan yo'naliш o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi.Uning asosi, tarixi bo'ladi. Uning asosi zamon va davrdagi o'zgarishdir. Istiqlol davri hikoyachiligidagi yangilanish va tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog'liq. Istiqlol davri hikoyachiligidagi qanday yangilik va tamoyillar vujudga keldi?

Bular quyidagilar:

- janrda g‘oyaviy-tematik ko‘lam kengaydi;
- ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, oilaviy masalaga e’tibor kuchaydi;
- gumanistik mazmun va ruh avj oldi;
- milliy va o‘ziga xoslik keng quloch yoydi;

Insonning hayotdagи o‘rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyati falsafiy yo‘nalishda ohib berildi.⁵⁴

Ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, oilaviy masala. Adabiyotda ijtimoiy masala deganda ko‘plar faqat siyosatga oid muammolar ko‘tarilgan asarlarni nazarda tutishadi. Aslida, jamiyat, davlat, oila, umummanfaatiga qaratilgan, ularning siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy, falsafiy qarashlariga xizmat qiladigan, ularning shu ehtiyojlarini qondiradigan asarlar zaminida ijtimoiy masalalar yotgan bo‘ladi.

⁵⁴ N. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. "Yangi nashr" T.: 2010.B- 146-148

Bundan ko‘rinadiki, ijtimoiy masala zaminida ko‘p masala mujassam. Shukur Xolmirzaevning so‘nggi yillarda yozilgan “Quyosh falakda kezib yuribdi” hikoyasi shu tipdagи asardir. Hikoya nomi G‘afur G‘ulomning “Vaqt” she’ridan olingen. Shoир she’rida inson ezgu ishi bilan o‘z umrini boqiy qiladi degan g‘oyani ilgari suradi. She’rda quyosh — ezgulik ramzi, o‘z nurini, ya’ni mehrini hammaga birday sochadi, uning nuridan, iliq mehridan olamdagи barcha narsalar bahra olib yashnaydi. Demak, olamda ezgulik omon bo‘lsa, inson umri ham boqiyidir. Hikoyada xuddi shu falsafiy haqiqat lirik qahramon — ijodkor faoliyati orqali o‘quvchi ongiga singdiriladi. Lekin hikoya faqat shu g‘oya bilan cheklanib qolmagan. Unda bugungi, ya’ni bozor iqtisodi tug‘dirgan muammolar ham qamrab olingen. Hikoyaning asosiy g‘oyasi lirik qahramon va Zumrad ismli qiz bilan bog‘liq voqeа hamda munosabatda ilgari suriladi. Hikoya qahramoni shahar hayotidan, umuman, mustaqillikdan keyingi izga tushmagan hayotdan, oylikka qaram ziyoililarning iqtisodiy tangligidan rutubatli bir kayfiyatga tushib, bolaschaqasini olib qishlog‘iga keladi. Lekin qishlog‘ida ham shu ahvolni ko‘rib, ko‘ngli battar cho‘kadi. Lekin hayotda mehri ummon kishilar topiladi. Sovxoz direktori Miskin—shunday shaxs. U hikoya qahramonining do‘sti. Xo‘jalik mehmonxonasidan joy qilib beradi. Osh-tuzidan ham xabar olib turadi. Do‘stining miskin kayfiyatini ko‘rgan Miskin rayoni aylanib keling deb, mashinasini bilan shofyori beradi. U rayon pochtasidan uyiga qo‘ngiroq qilib, mashina oldiga kelsa, bir juvon “Meni ham ola keting, Qo‘ltegirmonda tushaman”, deydi. U o‘n sakkiz yoshli, biroq turmush qurgan, adabiyotga mehr qo‘ygan Zumrad edi. So‘zsiz, u hikoya qahramoni Qudrat she’rlarini o‘qigan. She’rlarda muallifning ichki dunyosi mana men deb ko‘rinib turganidan, unga nisbatan samimiy insoniy muhabbatni baland edi. Chunki shoир she’rlarida ezgulik, poklik timsoli bo‘lib gavdalanadi. Zumrad qalbida esa uning o‘zi, aslida, qanday inson ekanini bilishga qiziqish hukmron edi. Shoирni pochtada ko‘rgach, niyatini amaliga oshirish imkonini tug‘ilganidan xursand bo‘ladi. Mashinaga o‘tirgach, ikki shaxsda ikki xil fikr kichadi.

Yozuvchining o‘sha davrda yozilgan “Ozodlik” hikoyasida xudi shu holat olingen. Hech bir gunohi bo‘lmagan Mansur o‘z davrasidagilardan biri qilgan jinoyat tufayli o‘n yilga kesilib ketadi. Bu ham totalitar tuzumning qiyofasini belgilab beradigan holatlardan biridir. Uning ozodlikka chiqishi, respublikaning mustakillikka erishgan kunlariga to‘g‘ri keladi. Mansur mustaqillikning samarasini o‘zining hayotida ko‘radi. U otasidan qolgan kulbani epaqaga keltirib sotdi. Puliga uch-to‘rt sovliq olib qirga ko‘chib chiqdi. Do‘sti Omonning ko‘magida ikki uy, bir dahliz tikladi. O‘ziga o‘xshagan yetim, g‘aribgina qizga uylanib, qadini tikladi. Hatto tuzukkina ishga ham ega bo‘ldi, ya’ni “to‘qson chaqirimlik masofadagi kabellarni nazorat qilib yuruvchilik” amaliga erishdi. O‘g‘il ko‘rdi. Qishloq

qariyalarini va do'st-birodarlarini chaqirib, osh hamda ziyofat berib, elga qo'shildi. Buning barchasi mustaqillikning sharofatidandir.

Tog'ay Murodning "Kuzning bir kunida" hikoyasi juda mahzun asardir. Unda halollik, vijdon bilan vijdonsizlik, yolg'onchilik to'qnash keladi. Mazkur tuyg'ular insonga tegishli bo'lgani uchun har ikki toifadagi shaxslarning xatti-harakati niyoyatda jonli va hayotiydir. Shundan bularning ichki kechinmalari va iztiroblari ta'sirli hamda yuqimlidir. Birinchi ezgu tuyg'u dotsent Obidovich timsolida berilgan.

Bu odamning har bir xatti-harakati samimiylig va insoniylik bilan yo'grilgan. U nimadandir bezovta, o'shandan iztirob chekyapti. U yonib bo'lgan o't cho'g'iga ko'milgan kartoshkalarni uchi qorayib ketgan kosov bilan kovlab, tinmay sigareta chekadi. Uning mahzunli holati va o'zining tutishi, nimadandir qiynalayotganligi kitobxonga ham ko'chadi.

Milliylik ifodasi va milliy xarakter. Badiiy adabiyotda milliylik deganda ko'p adabiyotshunoslar buni urf-odatda, milliy libosda, faoliyatda, sa'y-harakatda, nutqda ko'rishadi va shu holatlarda o'z mujassamini topadi, deb bilishadi. To'g'ri, bu holatlар milliylikni belgilaydigan omillar hisoblanadi. Lekin mazkur vosita va omillar o'zida milliylikni to'liq ifodalaydi, deb bo'lmaydi. Chunki bular milliylikning zohiriyo ko'rinishlaridir. Ma'lumki, zohiriylig bu shakldir. Shakl esa hech qachon masala mohiyatini belgilamaydi. U belgilashga xizmat qiladigan vositadir. Milliylik, birinchi navbatda, ruhiyatda o'z mujassamini topadi. Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bogliq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o'zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma'naviy oziqdir. Ko'p manbalarda ta'kidlangan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi; oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining ustunligi; ota-ona, mahalla-ko'y; umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tiborning kuchliligi; ona tiliga muhabbat millatga xos bo'lgan xususiyatlardir

Shunday asarlardan biri Xurshid Do'stmuhammadning "Mahzuna" hikoyasidir. Hikoyada oilani muqaddas sanash, gard yuqtirmaslik ayollik burchi ekanini anglash, uni ich-ichidan his qilish, shuningdek, Yevropadan kirib kelgan ba'zi bir "madaniy" holatlarni milliy ruhga yot deb bilish badiiy aks ettirilgan. Mahzuna avval ham, turmushga chiqqach ham "zamonaviy ayollar", ya'ni erkaklar bilan tengma-teng qadah urishtiradigan, ular bilan tap tortmay muomala qiladigan, ovozining boricha kuladiganlar davrasida bo'lman. Bunday holatni u ruhan sira hazm qilolmaydi. Eri Maqsadjon bunday davralarga ko'p sudragan bo'lsa-da, bormagan.

Avvallari adabiyotda ayollar xatti-harakati, zohiriyo ko'rinishi tamom boshqa maqsadda tasvirlanar edi. Ularning husn-tarovati tasvirida ko'proq o'zga erkakning diqqatini jalb qilishga yo'naltirilardi. Bo'ri Sobitovichga o'xshaganlarning xatti-

harakatidan ular o‘zlarini Mahzuna kabi haqoratlangan emas, shunday odamni o‘ziga jalb qilganidan mammunligi inkishof qilinardi.

Bugungi adabiyot yangi nomlar evaziga ham boyiyapti. Ular asosiy e’tiborini dunyo voqealarini qayd qilishga emas, insонning botiniy olamini tahlil qilish orqali dunyo, zamon voqeа-hodisalarga munosabat bildirib, umumbashariy falsafiy haqiqatni ilgari surishlari, uni inson qismati inkishofida ongga singdirishlari kishimi xursand qiladi. Nargiz G‘ulomovaning “Yomg‘ir qo‘shig‘i” hikoyasida shu holni ko‘rish mumkin.⁵⁵

Har bir davr o‘zining yangi qarashlari va tamoyillarini yuzaga keltirishi tabiiy hol. Modern ruhidagi asarlarning yuzaga kelishi va birmuncha jonlanishi shuning mahsulidir. To‘g‘ri, modernizm umuman olganda, adabiyotda yangi yo‘nalish emas. U g‘arb adabiyotida allaqachon mavjud edi. Lekin o‘zbek adabiyotida yangi tamoyildir. Bizning adabiyotga uning kech kirib kelishining ob’ektiv va sub’ektiv sabablari bor. Ob’ektiv sababi shundaki, modern ruhidagi asarlar zamirida kuchli g‘ayritabiyy psixologik holat yotishi bilan birga ramziy voqeа-hodisa tasvirida, ramziy manzaralarda g‘ayritabiyy olam ifodasida o‘zi yashab turgan jamiyat illatlarini kuchli tanqid ostiga olishi va fosh qilish xarakteri mavjudligi, shuningdek, uning yuzaga kelish va urchishiga sababchi shaxslarning qiyofasini shafqatsiz olib tashlash xususiyatiga ega. Totalitar jamiyat bunga yo‘l qo‘ymas edi. Sub’ektiv sabab esa modernizmning xususiyatini, uning yo‘nalishi va mohiyatini o‘zlashirgan ijodkorning yetishib chiqmaganligi. Buning sababi tuzum siyosati va mafkurasiga borib taqladidi. Bizning adabiyotda modernizm mustaqillik arafasida shakllana boshladi. Mustaqillikdan so‘ng ancha rivojlandi.

N. Eshonqul — milliy istiqlol davri o‘zbek nasriga yangi ohang olib kirdi. Uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan tasviridan tashqari, ohangning o‘zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu taxlit ko‘p qatlamlari, zalvorli, hikoya maromining o‘zi bilan badiiy kayfiyat hosil qila biladigan nasr namunasi milliy adabiyotimizda yo‘q edi.

N. Eshonqul nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir. Ifodadagi zalvor, serqatlam estetik bosim, ruhiy holat manzaralari tasvirining ayni shu tarzda uzluksiz zanjirsimon qilib berilishining o‘ziyoq hikoyaga alohida ohang baxsh etgan. Bu ohang momoning yolg‘izligi va baxtsizligi miqyoslarini nechog‘lik ulkan, fojiasi qanchalar teran ekanini tuyish va tushinish imkonini bergen. N.Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi qahramonlari qismatida davr ifodalanishi, “Tobut” hikoyasidagi ramzlarda

⁵⁵N.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti.Darslik.”Yangi nashr” T.: 2010.B- 161

yozuvchi g‘oyasi, “To‘zon”, “O‘lik mavsum”, “Og‘riq lazzati”, “Qora beva”, “Qaytish” hikoyalari bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbek qissachiligi qirralari. Sharq allomalarining fikriga ko‘ra, inson a’moli bilan go‘zal. Yaxshi a’molning natijasi esa ezgulikdir. Kishi ezgulik tufayli baxt-saodatga erishadi. Kishi jismonan kamchilikdan emas, noinsoniy xattiharakatidan hijolat tortmog‘i kerak. Qur‘oni Karimning “Hujurot” surasining 13-oyatida: “Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishinglar, (do‘st-birodar bo‘linglar) shuning uchun sizlarni (turlituman) xalqlar va qabila-elatlар qilib qo‘ydi. Albatta, sizlarning Alloh nazdidagi eng hurmatlirog‘ingiz — taqvodorlaringizdir”, — deyiladi. Demak, barcha inson teng. Erkin A‘zamning “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida xuddi mana shu haqiqat Pakana timsoli orqali inkishof qilinadi. Asar g‘oyasi faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, yordamchi obrazlar faoliyatida jamiyatdagi qator ijtimoiy va insoniy illatlar olib tashlanadi. Illatlarni bartaraf qilmaslikning natijasi esa fojia ekaniga kishini qat’iy ishontiradi.

Erkin A‘zam qissalarida ijtimoiy va insoniy illatlar ifodasi keng olib beriladi. Odamlar faoliyatini anglamay ularga havas qilishi, “Shoirning to‘yi” qissasida ro‘yo bilan haqiqat to‘qnashushi, “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasida kechagi tuzumimiz qiyofasi ifodasi, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasining g‘oyasi, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasida bozor iqtisodi va odamlar qiyofasi, obrazlarning xatti-harakati ajdodlarimiz axloqi va milliy qadriyatlarga ziddigi. Qishloqdagi nochor manzaralar odamlarning fe’liga yarashaligi, tabiat manzarasining inson tabiatiga ta’siri. “Shohona sovga” qissasidagi fojia jamiyat fojiasi ekani ro‘y rost ko‘rsatib beriladi.

Abduqayum Yo‘ldoshning qissalarini asosida odamlar qismati — ularning quvonch-dardlari, alam va fojalari, hayotga qarashi, qahramonlari ham oldingi asarlar qahramonlaridan farq qilishi, ularni hayotdagidek yaxshi va yomonga ajratish qiyinligi, odamning sirli olam ekani ko‘rsatiladi.⁵⁶

4. Sh.Xolmirzaev. T.Malik, T.Murod, Ulug‘bek Hamdam, Muhammad Ali, ijodi

Sh.Xolmirzaev. Adibning “O‘zbek xarakteri”, “Ko‘k ko‘l”, “Xorun ar-Rashid”, “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Ozodlik” kabi puxta yozilgan hikoyalari bor. Adib hikoyalarda o‘zining azaliy uslubi bo‘lmish insonning ruhiy dunyosi, ichki kechinmalarini teran tahlil etish, haqiqat va adolat uchun odam o‘zligini anglash yo‘lida olib borgan faol kurashini aytib berish emas, ko‘rsatish yo‘lidan boradi.

⁵⁶ N.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti.Darslik.”Yangi nashr” T.: 2010.B- 180

Xulosani o‘quvchiga havola qiladi. Masalan, “Xorun ar-Rashid” hikoyasida adib adolat tarozisi mezonining o‘nglanishi hali beri qiyinligi haqida karomat qilsa, “Qadimda bo‘lgan ekan”da adabiyotning doimiy muammosi — keksalar va yoshlар munosabatini yangicha talqin etadi. Hikoya qahramoni ertadan kechgacha ishlab ham biri ikki bo‘lman odam. Ukasi Kenjani o‘qitaman, odam bo‘lsin, deb o‘zini mehnatga bog‘lab qo‘yan. Xotini kasal, davolatolmaydi, qari onasi va bolalarini to‘ydirolmaydi. Uyida halovat yo‘q. Oilaviy janjallardan bezib, xatarli ishga qo‘l uradi: onasi Momoni uzoq qishloqdagи tut tagida qoldirib keladi. Qilmishlariga pushaymon bo‘lib, xotini ikkovi qaytib borsalar, ona yo‘q. Xulosa esa qalbga havola. “Ko‘k dengiz” hikoyasida sobiq sho‘ro imperiyasining xalq boshiga solgan kulfati, zulmi oqibatini ko‘ramiz. Uzoq viloyatlardan birining o‘ttiz to‘qqiz millat vakili yashaydigan “Drujba” sovxoziда oltoylik millat kishisi yo‘qligi tufayli qirqinchи qilib Oltoydan bir odam olib kelishga qaror qilinadi. Sharafli baynalminalchilikka to‘g‘ri kelmagan bu holning darrov chorasi topiladi — o‘sha sovxozi rassomi Yo‘lchi ismli yigitga Oltoydan bir kishini topib kelish vazifasi yuklatiladi. Yigitning Barnaulga borib, duch kelgan kishiga “O‘zbekistonga borasanmi?” deb odam qidirishi kishida kulgi uyg‘otadi. Nihoyat yigit badbo‘y bir yer to‘lada yashaydigan ust-boshi isqirt nochor bir qariya Ivan Ivanovichni topadi va uni yurtiga olib ketishga ko‘ndiradi. “Drujba” sovxoziда mehmonni — bo‘lg‘usi mezmonni zo‘r tantana bilan kutib oladilar, uni uy-joy, ish bilan ta‘minlaydilar. Lekin oltoylik vakil bu yerda ham avvalgi odatini tashlamaydi. Nihoyat, u rassom yigitdan o‘zini Ko‘k ko‘lga olib borishini so‘raydi. Tiniq ko‘m-ko‘k suv jilolanib turgan ko‘lni ko‘rmoqchi bo‘lgan qariya kimyo zavodi oqavasi bilan to‘lib zaharlangan qop-qora ko‘lni ko‘radi va dahshatga tushadi. Ko‘k ko‘ldan umidimi uzgan Ivan Ivanovich Ko‘k dengizni qidirib Orol tomonga ketadi. Holbuki, Orloning qay ahvoldaligidan xabari yo‘q. Hikoya qahramoni Ivan Ivanovich, asli ismi Umrzoqning hayoti, taqdiri fojiadan iborat. U avval Oltoy muallimlar tayyorlov institutida xalq og‘zaki ijodidan dars bergen. Oltmishinchi yillarda ruslashtirish siyosati avj olgan vaqtida yerli xalq maktablaridagi darslar rus tiliga ko‘chirilishiga qarshi chiqadi. Natijada millatchilikda ayblanib o‘n yilga qamaladi. Qamoqdan qaytgach, o‘z uyiga ro‘yxatdan o‘ta olmaydi, o‘z oilasi —xotini va qizi bilan yashashdan mahrum bo‘lib, isqirt yerto‘lada yashab, bor alamini ichkilikdan oladi. Bu vaqtida u odamgarchilikdan chiqib qolgan bo‘ladi: “maqsad —kun o‘tkazish va ko‘ngil yaralariga “aroq”dan malham qo‘yish, aniqrog‘I, bu dunyoni unitish...” bo‘ladi.

Umrzoq sho‘ro tuzumi zulmlari sababli fojiaga uchragan bo‘lsa-da, talangan ona yurti, millat sifatida tugab borayotgan xalqi uchun jon-tani bilan qayg‘uradi, tabiatga yetkazilayotgan zararlardan kuyinadi, inson hayotini tabiat bilan uyg‘unlikda tushunadi. Umrzoq intilgan ko‘k rang ozodlik, mustaqillik ramzidir.

Suv esa tiriklik, hayot manbai, baliq esa unda erkin yashayotgan xalq, dengiz — Vatandir. Hikoyaga epigraf qilib: “—Neding ne tatu? — Suu tatu” ya’ni “— Olamda eng totli narsa nima? — Suv” degan oltoy topishmog‘i kelitiriladi-ki, bu turkiy xalqlarda suv ilohiy qudratga ega ekaniga ishoradir. Sh.Xolmirzaev bilan suhbatlardan birida “Ko‘k dengiz” hikoyasi to‘g‘risida kechgan savol-javobda asarning yaratilish sabablarini bilib olamiz: “— Chingiz Aytmatovning “Bosqinchi —qahramon bo‘lomaydi” degan gapi esimga tushib ketdi. Ammo taassuflar bo‘lsinkim, bosqinchi, g‘ayirlardan “xudo”lar yasalib, butun boshli bir el unga bandi bo‘lib qolgan davrlar ham bo‘ldi”

“Ko‘k dengiz” hikoyasi qahramoni fojialari tasvirlagan boshqa asarlar qahramonlari toifasidan emas. Ulardan farqli holda Ivan Ivanovich xalq fojiasi sababini tushunib etadi va bor vujudi bilan fojiani iroda kuchi orqali yengishga intiladi. Agar millatning tili, dini, qadriyatları yo‘q qilinsa, oxir-oqibat bu millat millat sifatida barham topishi aniq.

T.Malik. Taniqli o‘zbek yozuvchisi. O‘zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri, ma’rifat arbobi. Birinchi yirik aşari — “Hikmat afandining o‘limi” (1972-yil), “Zaharli g‘ubor” (1974-yil), “Falak” (1975-yil), “Somon yo‘li elchilari” (1978-yil), “Chorrahada qolgan odamlar” (1982-yil), “Bir ko‘cha, bir kecha” (1983-yil), “Alvido, bolalik” (1989-yil), “So‘nggi o‘q” (1990-yil), “Ov” (1995-yil) kabi ilmiy-fantastik, sarguzasht qissalari mashhur. “So‘nggi o‘q” qissasi asosida 7 qismli telefilm (1994-yil) yaratilgan. “Qaldirg‘och” (1987-yil) asari Abdulla Avloniy taqdiri misolida 20-yillar o‘zbek ziyołilarining shakllanishi haqida bahs yuritadi. “Mehmon tuyg‘ular” (2003-yil) nomli xotira, yodnomma, adabiy maqolalar to‘plamida adabiy jarayondagi muammolar aks etgan. Tohir Malikning yozuvchi Mirzakalon Ismoilij ijodiy faoliyatini yorituvchi “Yozuvchining baxti va baxtsizligi” (1988-yil), Asqad Muxtor ijodini tahlil etuvchi “Sobir” (2003-yil), O‘lmas Umarbekov ijodiga bag‘ishlangan “Qiymat qarz” (2002-yil) hamda Abdulla Qodiriy romanlari tahlil etilgan “Ibrat maktabi” (1993-yil) badialari ham bor. Tohir Malik hujjatlì kino sohasida ham faoliyat ko‘rsatgan. Uning “Amir Temur davri adabiyoti” (1998-yil), “Varaxsha” (1999-yil), “Unvoni inson” (1999-yil), “Sohilsiz dengiz” (2000-yil), “Zulmat saltanati”, (2001-yil), “Moshtabib” (2002-yil) siyenariylari asosida hujjatlì filmlar suratga olingan.

Adibning “Shaytanat” asarida jinoyat olamidagi voqealar fonida asosiy e’tibor qahramonlarning ruhiy dunyosini tahlil etishga qaratilgan. Kishilarni jinoyatning razil olamidan ehtiyyot bo‘lishga chaqiruvchi ushbu asar mazmuni Tohir Malikning „Jinoyatning uzun yo‘li“ (2004-yil) ilmiy-tahliliy risolasida davom ettirilgan.

Yozuvchining 20 dan ortiq qissasi chop etilgan. 1971-yilda nashr etilgan “Hikmat afandining o‘limi” dan keyin “Falak” (1976-yil), “Samon yo‘li

elchilar” (1976-yil) ilmiy-tahayyul qissalari bosildi. “Chorrahada qolgan odamlar” qissasida tahayyul va detektiv xususiyatlari seziladi. “Alvido bolalik” (1989-yil), “Qaldirg’och” (1987-yil) qissalarida muhim mavzu ishlanadi.

Mutaqillik yillarida Tohir Malikning “So’nggi o‘q” (1990-yil), 4 qismdan iborat „Shaytanat“ (1994-2001-yillar), “Odam ovi” (2001-yil), “Charxralak”, “Murdalar gapirmaydilar” (1999-yil) qissalari chop etildi.

T.Murod. Dastlab kichik hikoyalari, ocherklari e’lon qilingan. 1976-yilda boshilgan “Yulduzlar mangu yonadi” nomli ilk qissasi bilan yozuvchi sifatida yaxshi tanildi. 1979-yilda “Ot kishnagan oqshomlar”, 1980-yilda “Oydinda yurgan odamlar”, 1985-yilda yozuvchining “Momo yer qo’shig’i” qissalari chop etildi. Yozuvchi qissalarida halol, oqko’ngil, to‘g’riso‘z, mard o‘zbeklarning betakror obrazlari yaratilgan. O‘zbek adapiyotining yutug’i sifatida e’tirof etilgan bu qissalar tilining shoirona jozibadorligi, xarakterlarning yorqinligi, milliy ruhi bilan ajralib turadi.

Adib 1986-1991-yillarda “Otamdan qolgan dalalar” romanini yaratdi. 1994-yili mazkur asari uchun adibga Abdulla Qodiri ynomidagi Davlat mukofoti berildi. “Otamdan qolgan dalalar” – ijtimoiy roman. U nafaqat adib ijodida, balki o‘tgan asrning 90-yillar adapiyotida katta voqeа bo‘ldi. Unda mustabid tuzumming qattol siyosati, o‘zbek dehqonining og‘ir, mashhaqqatli mehnati va nursiz hayoti real bo‘yoqlarda ochib tashlangan. Tog‘ay Murod mohir tarjimon sifatida J. Londonning “Boyning qizi” dramasi va bir nechta hikoyalarni (1974-1975-yillar), Ye. Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini tarjima qildi (1989-yil).

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari asosida ikki qismdan iborat badiiy film yaratildi. “Otamdan qolgan dalalar” romanida O‘zbekistonning mustamlakaga aylanishi va tunu kun mehnat qilib, yashayotgan o‘zbek dehqonlarining mustabid tuzum yillaridagi og‘ir hayoti, iztiroblari hayotiy lavhalarda haqqoniy chizib berilgan. Asardagi Dehqonqul o‘zbek mehnatkashlarining umumlashgan obrazi darajasiga ko‘tarilgan. U boshiga yog‘ilgan minglab musibatlarga chidab yashashga majbur bo‘lsa-da, o‘z insoniy sha’ni, qadr-qimmatini baland tutadi, mustamlakachilarining yugurdaklarini ayovsiz fosh etadi. Asar asosida badiiy film yaratilgan (2001).

Adib “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida ham o‘z ijodiy mezonlariga sodiq qolib, yolg‘on e’tiqodlar, soxta shiorlarga aldanib, hayotini yelga sovurgan sobiq firqa rahbarlarining majoziy obrazlarini hajviy bo‘yoqlarda tasvirlagan.

Ulug‘bek Hamdam. Adibning “Yolg‘izlik” qissasi, “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish ko‘lamni va yo‘slnlari jihatidan adapiyotimizda yangilik bo‘ldi. Ayniqsa, yozuvchining “Yolg‘izlik” qissasida bayon ham, ko‘rsatish ham, tasvirlash ham bir narsaga — tadqiqla o‘z o‘rnini bo‘shatib bergen.

Yozuvchi uchun qahramonlarining xatti-harakatlarini ko'rsatish emas, balki ularning sezimlaridagi, o'ylaridagi tovlanishlarni aks ettirish muhim. Arastu zamонларидан буюн адабиётинг мөһияти ҳайотдаги тартибсиз тарзда ро'y берадиган воqeа-hodisalarni, ya'ni borliqdagi хаосни муayyan тартибга solib badiiyatning kosmosiga aylantirishdan iborat deb tushunib kelging.

«Yolg'izlik» qissasida esa aynan tartibsizlikning o'zi, bo'lganda ham, voqelikdagi emas, qahramon xayolotidagi, kechinmalaridagi tartibsizlik tasvir obyektiga olingan. Qissa muallif qahramon o'y-xayollarini uning xarakterini ochish vositasiga aylantirmaydi.

Muhammad Ali. Atoqli o'zbek shoiri, adib, tarjimon va olim Muhammad Ali 1942-yilning 1 martida Andijon viloyatining Bo'z (hozirgi Bo'ston) tumanidagi Beshkal qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan.

Muhammad Ali XX asrning 50-yillari oxirida adabiyotga kirib keldi. Uning ilk she'ri o'n besh yoshida 1957-yil 17 fevralda hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasida bosilgan. Adibning 40 dan ortiq kitobi chop etilgan. Bular orasida "Fazodagi hislar" (1967-yil), "Shafaq" (1968-yil), "Otalar yurti" (1970-yil), "Oq nur" (1977-yil), "Ilhom parisi" (1980-yil), "Sevsam, sevilsam" (1983-yil), "Vechni'y mir" (roman v stixax, 1984-yil), "Saz" (rus tilida, 1984-yil), "Sen bir gulsan" (1989-yil), "Ona duosi" (1994-yil), "Saylanma" (1997-yil) "Men o'zim, o'zim" (2011-yil) she'riy kitoblari alohida ajralib turadi. Adib ijodida "Mashrab" (1966-yil), "Gumbazdag'i nur" (1967-yil), "Beshgul" (1969-yil), "Oshiqlar ertagi" (1975-yil) dostonlari, "Boqiy dunyo" (1979-yil) she'riy romani salmoqli o'rin egallaydi. "Sarbadorlar" (1989-yil) roman-dilogiyasi, "Ulug' saltanat" epopeyasi – "Jahongir Mirzo" (2003-yil), "Umarshayx Mirzo" (2006-yil), "Mironshoh Mirzo" (2010-yil), "Shohruh Mirzo" (2013-yil), "Abadiy sog'inchlari" (2005-yil) roman-xronikasi o'quvchilarining sevimli asarlariga aylangan. "Ulug'bek Mirzoning so'nggi kuni" (2001-yil), "Masposhsho va Oyparcha" (2002-yil), "Hindiyona afsona" (2006-yil), "Navoiy va Boyqaro" (2015-yil) pyesalari ham adib qalamiga mansubdir.

Muhammad Ali bolalar uchun ham ijod qiladi. Uning "Ninachi haqida ertak" (1976-yil), "Uch oltin g'isht" (2015-yil) kitoblari nashr etilgan. Muhammad Alining "O'z-o'zingni anglab yet" (1988-yil), "Haqiqatdan chekinma, tarix!" (1990-yil), "Qafasdag'i bulbullar" (1996-yil), "Amir Temur chamani" (2003-yil), "Amir Temur va Yildirim Boyazid" (2007-yil), "Tarix saboqlaridan xulosalar chiqarib yashaylik" (2014-yil) nomli esselarida tariximizning dolzarb masalalari haqida bahs yuritadi. "Oshiq bo'lmay, Haq diyordin ko'rsa bo'lmas" (1992-yil), "Men ko'rgan Amerika" (2000-yil), "Amir Temur chamani" (2006-yil), "Zamondoshim portretiga chizgilar" (2012-yil) "Oq laylak" (2015-yil) kabi publisistik ruhdagi kitoblari o'quvchilar tomonidan qizg'in kutib olindi.

O‘zbek adabiyotida sohibqiron Amir Temur siymosining yaratilishi, uning xalqimiz suyadigan obrazlar qatoriga ko‘tarilishida Muhammad Alining xizmatlari beqiyosdir. Ijod yo‘lining boshidayoq bu mavzuga tabu qo‘yilganiga qaramay, adib jasorat ko‘rgizib, Amir Temur haqida she’rlar yozdi, keyinchalik maktab darsligiga kiritilgan “Gumbazdagi nur” dostonini yarattdi, maqola va esselarini e’lon qildi. “Sarbadorlar”(1989-yil) roman-dilogiyasida hali mustamlaka davrida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib prozada Amir Temur siymosini tasvirlab berdi, so‘ng dadillik bilan “Ulug‘ saltanat” tarixiy epopeyasini yaratishga kirishdi va bu borada yigirma yil mehnat qildi. Epopeyada o‘zbek xalqining XIV asrdagi turmush-hayoti tasvirlanarkan, tarixiy hodisalar oqimida Amir Temur obrazining tadrijiy o‘sib borishi, uning xarakteridagiadolatparvarlik, halollik, mardlik va vatanparvarlik fazilatlari ko‘rsatib berilgan. Adib “Tanlangan asarlar”ining hozirgacha 3 jildi bosilib chiqdi(2011-2016-yillar). Badiiy tarjimada ham adib faollardan hisoblanadi. Hind eposi “Ramayana” (1978-yil), qoraqalpoq eposlari “Shahriyor” (1977-yil), “Masposhsho” (1985-yil), shuningdek, Hoqoniyl, Gyote, Byorns, Shiller, Bayron, Pushkin, Lermontov, Maxtumquli, Berdaq, Abay, Tagor, R. Hamzatov asarlaridan namunalar ham Muhammad Ali tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. U “Shahriyor” eposi tarjimasi uchun Berdaq nomidagi mukofotga loyiq ko‘rilgan(1984-yil).

Adibning asarları jahonning yigirma beshdan ortiq tillariga tarjima qilingan. Adibning “Abadiy sog‘inchilar” roman-xronikasi ingliz tiliga tarjima qilinib, Toshkentda chop etildi (2006-yil), “Jahongir Mirzo” va “Umarshayx Mirzo” romanları rus tilida (2015-2016-yillar), “Jahongir Mirzo” turk tilida nashr etilgan (Stambul, 2008-yil).

Muhammad Alining pedagogik faoliyati ham diqqatga sazovor. U o‘n uch yil davomida (1992-2005-yillar) AQSHning Vashington universiteti talabalariga o‘zbek tili va adabiyotidan dars berdi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali 1999 yil “Mehnat shuhrati”, “El-yurt hurmati”(2014) ordenlari bilan mukofotlangan. 2007 yilda “Ulug‘ saltanat” tarixiy roman-dilogiyasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.⁵⁷

“Ulug‘ saltanat” asari. Asar 1370-1405 yillardagi tarixiy evrilishlar asosida yozilgan bo‘lib, voqealar hujjatlardan og‘ishmasdan, ishonchli dalillar asosida bayon etilgan. Asar zamirida nafaqat iste’dodli yozuvchining, balki bilimdon muarrixning mashaqqatli mehnati yotibdi. Murakkab tarixiy muammolar, qonli to‘qnashuvlar, qirg‘inbarot jang maydonlari, insон vujudini qovuruvchi saraton olovulari-yu, odamni suyak-suyagigacha qaqshatuvchi qish qahrini o‘ziga bo‘ysindirgan insoniy metin bardoshni tasvirlashda yozuvchining olimligi, shoirligi, faylasufligi qo‘l kelgan. Asarni alohida-alohida holda emas, yaxlit o‘qish

⁵⁷ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/muhammad-ali-1942/>

o‘quvchiga voqealar silsilasini, sababi va oqibatlar zanjirini to‘la his qilishga, tasavvur etishga yordam beradi. “Ulug‘ saltanat” Sohibqiron qalbining goh mag‘rur, goh armonga to‘liq qirralarini yoritadi. Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo haqidagi kitoblarning har birida ulug‘ Sohibqironning nurli qiyofasi, faqat o‘zigagina xos boshqaruv salohiyati, ilm-fan sohiblari suhbatiga oshiqishi, yuksak aql egalarini taniy bilishi, har bir navkarini o‘z farzandidek yuragiga yaqin olishi kabi insoniy fazilatlari yorqin bo‘yoqlarda aks etgan. Epopeyaning to‘rt kitobi to‘rt shahzodaga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, bu to‘rt chinorming o‘q ildizi bitta, ya’ni Sohibqirondir. Asarda Umarshayx Mirzo ham mard va jasurligi bilan nom qozongan shahzoda sifatida talqin etiladi. U ko‘p janglarda zafar quhib, Sohibqiron ishonchini oqlagan munosib bahodir edi. Uning shiddatiga To‘xtamishxondek o‘zini tanho botir hisoblovchi Chingizxon avlodи ham tan bergen edi. Asardagi eng murakkab obraz bu Mironshoh Mirzo obrazidir. Mast-alast holda Sohibqironga qarshi beandisha maktub yozgan ham shu. Uning baxtiga, maktub manzilgacha yetib bormaydi.

Mironshoh Mirzo o‘z haramiga xiyonat qilgan yagona temuriy shahzoda. U hatto Jahongir Mirzo vafotidan so‘ng o‘sha davr odatiga ko‘ra, qolaversa, begona qo‘llarda xor bo‘lmasin deb Saroymulkxonim va Amir Temur xohishiga binoan Mironshoh Mirzo nikohiga kirgan Xonzoda xonimmi haqorat qiladi. Bu holatdan xabar topgan Sohibqiron uni hokimligidan mahrum etib, yasoqqa hukm qiladi.

“Ulug‘ saltanat”da Xonzoda xonim Saroymulkxonimdan keyin turadigan tabarruk ayol sifatida tasvirlanadi. U ko‘z o‘ngimizda vafo va sadoqat, ibo-hayo, sabru bardosh timsolida bo‘lib gavdalanadi. Sohibqiron uni kelin emas, qizim deb, hatto matonati uchun o‘g‘lim deb ardoqlaydi. Xonzoda xonim shu qadar jafokash, g‘amdiya, nozik qalb egasiki, unga qo‘l ko‘tarib bo‘lmaydi. Uning munglig‘ qismati oldida hatto Amir Temurdek zot ham o‘zini aybdordek sezadi.⁵⁸

5. Milliy istiqlol davri o‘zbek nasrida yangi ohang

O‘zbekistonda XX asrning 90-yillarida istiqlol adabiyoti deb atalmish estetik hodisa yuzaga keldi. Iстиqlol davri o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi va merosxo‘ri sifatida paydo bo‘ldi. Bu davr adabiyotiga xos belgilar XX asrning 60-yillarida kuch berib, 80-yillarning oxirlarida muayyanlashgan bo‘lsa-da, milliy adabiyotning alohida bosqichi sifatida shakllanishi to‘qsoninchi yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keldi.

⁵⁸ Ulug‘ ‘saltanat’ning yorqin yog‘dusi. Yoshlik jurnali. 2017 yil 9-soni

Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti tubdan o‘zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o‘larоq tug‘ildi. Shuning uchun ham istiqlol adabiyoti yangilangan dunyoqarash, tozargan e’tiqod, butun imon mahsuli o‘larоq dunyo yuzini ko‘rdi. Bu adabiyot yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lgan millat ijodiy dahosining samarasи sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo‘sinlarini, muayyan shaxs ruhiyatni manzaralarini sog‘lom badiiy ifodalash natijasida paydo bo‘ldi.⁵⁹

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti tafakkur yo‘nalishlari o‘zgacha bo‘lgan ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o‘larоq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. **Birinchidan**, bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo‘lgan adabiyotdir. Bu davrda olamning mavjudlik yo‘sini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol adabiyotning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. **Ikkinchidan**, mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti endilikda davlat adabiyoti bo‘lmay qoldi. Mustaqil o‘zbek davlati badiiy adabiyotni sho‘ro zamonida bo‘lgani kabi o‘z monopoliyasiga aylantirishga urinmay qo‘ydi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Badiiy ijod qilish yoki qilmaslikka siyosiy baho berilmaydigan, rag‘batlantirilmaydigan yoki jazolanmaydigan bo‘ldi. Adabiyot ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi. Bugun badiiy ijod bilan o‘zini tanishga uringan barcha odamlar shug‘ullanmoqdalar. Ayonki, ular shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o‘ziga xos, xilma-xil kishilardir. Istiqloldan keyingi davrda haqiqiy adabiyot o‘z ko‘ngliga qarshi bormaydigan kishilar tomonidan yaratilayotir. Uchinchidan, istiqlol davri adabiyotida odamga ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi, mehnatkash sifatida yondashish barham topdi. Milliy adabiyot millat vakillarining mehnatinigina emas, balki ularning shaxsiyatiga daxldor jihatlar: ruhiyati, hissiyoti, ko‘nglini tasvirlashga e’tibor qaratdi. Bu adabiyot uchun insonning o‘zi asosiy qadriyatga aylana boshladi. **To‘rtinchidan**, mustaqillik davri adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko‘rsatish, ishlab chiqarish munosabatlarini, siyosiy tizimlarni takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining ma’naviyatini mukammallashtirishga yo‘naltirildi. Bu davr adabiyotida tipik obrazlarni emas, badiiy tiplarni tasvirlashga ko‘proq e’tibor qaratildi. Shu yo‘sin, bu davr adabiyoti ommani ko‘rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo‘naltirildi. **Beshinchidan**, mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab

⁵⁹ <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlil-ish-kurs-ishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti>

ko‘rish, ochilmagan yo‘llardan yurish, xato qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol birovga o‘xshamaydigan, o‘zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o‘ziga xos iste‘dodlarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o‘quvchilar paydo bo‘ladi.⁶⁰

7. Bugungi o‘zbek romanlarida davr, tarix, zamon masalasi va yangi tamoyillar

Tarixiy janr, tarixiy mavzudagi asarlar adabiyot va san’tdagi asosiy janr yoki mavzulardan biri; tarixiy o‘tmish mavzusida yozilgan asarlar turkumi. Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroficha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini aşarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arkiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davming tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma‘rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratlari tomonlardan saboq olishga undash; bugungi vogelikdagi ayrim noxush voqealari va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Hayot va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurida o‘zgarish bo‘lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o‘zgarish bo‘lishi dushvor. Muhammad Alining “Ulug saltanat” Pirimqlul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar, Salomat Vafoning “Tilsim sultanati”, “Ovoraning ko‘rgan kechirganlari”, Abdurashid Normurodning “Qon hidi”, Normurod Norqobilning “Dashtu-dalalarda”, T.Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” romanlari insonga yondashuvning yangichaligi, tasvirning quyuqligi, odam ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra milliy adabiyotimiz uchun yangi hodisalar bo‘ldi.

⁶⁰ Bu to‘g‘rida Internetning <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlil-ish-kursishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti> saytidan ma’lumot olish mumkin.

Istiqlol davri voqealarini to‘gri anglash va to‘gri yoritish, tarixiy shaxslarni esa davr siyosati, mafkurasi nuqtai nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy inkishof qilish imkonи beradi. Ma’lumki, ezzulik, xalq manfaatlari yo‘lida qilingan ishning yuziga har qapcha qora chiziq tortilmasin, yo‘q qilish yo‘lida har qancha urinishlar bo‘lmasisin, u yo‘qolmaydi. Haqiqat ummoni yuziga po‘kak kabi qalqib chiqaveradi. Bu fikrning to‘griligiga keyingi paytda yuzaga kelgan tarixiy romanlar yaqqol misol bo‘ladi.

Qaysiki, badiiy asarda insoniy kechinmalar jarayoni, iztiroblari mohiyati, o‘zining falsafiy talqinini topsa, o‘sha asar har qanday jamiyat o‘zgarishlarida ham umrini tugatmay yashab qoladi. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” nomli romani ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabit etadi va ma’naviy olamini boyitish orqali o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilashga imkon tug‘diradi. Bu narsa esa, o‘z navbatida, jamiyatning insoniyashuviga demokratianing yanada kuchayishiga asos bo‘ladi. Chunki xalqi komil bo‘lgan jamiyatdaginaadolat va inson manfaatlari yo‘naltirilgan qonun hukm suradi. Demak, roman kamolotga xizmat qiladi. Ma’lumki, badiiy asarda, albatta, voqealarni hayoliy yaratish, qo‘shish, olish hodisasi bo‘ladi. Muhammad Alining “Ulug saltanat” romani ham bundan mustasno emas. Ular yozuvchi g‘oyasini ifodalashdan tashqari, tarix ruhini berish bilan voqealarni aniq manzarasini naqshlagan, zamon va makonini belgilagan, shuningdek, qahramonlari qiyofasini yorqinligini, jonliligini yuzaga keltirgan. Chunki romanda voqealar tasvirida tarixiylikdan chekinilmagan. Bu xususiyat barcha, ya’ni yetakchi obrazlar qatorida epizodik personajlar tasvirida o‘z ifodasini topgan. Bu voqealar tarixdan bir on ham uzilmaydi, doimo davr ruhi “qurshovida” beriladi. Ma’lumki, insoniylikning muhim belgilaridan biri do‘stlikka sadoqat, o‘rnii kelganda, ulardan ko‘magini ayamaslikdir. Bunday fazilatga ega bo‘lgan shaxsga ishonadi, unga sadoqat ko‘rsatadilar. Bunday inson, albatta, o‘z maqsadiga erishadi, chunki u o‘ziga tarafdoरlar va ko‘makchilar orttiradi. Amir Temur bu falsafiy haqiqatga amal qiladi. O‘zi bu borada shunday deydi: “Yana tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z yovi deb biladi”⁶¹

Sirdan qaraganda, hozirgi davr adabiyoti eksperimental adabiyotdek taassurot qoldiradi. Haqiqatan ham, keying yillar ichida shunday asarlar (“Ko‘zgu oldidagi odam” “Tepalikdagi xaroba”, “Kapalaklar o‘yini” va boshqalar) vujudga keldiki, ular zamirida yotgan adiblar niyatini maxsus tayyorgarliksiz anglash qiyin. Chunki ular an‘anaviy uslubda emas, G‘arbning modernistik adabiyot deb atalmish yo‘nalishida yozilgan. Ma’lumki, bu tarzdagi adabiyotda ob‘ektiv olam, voqelik, inson, uning xatti-harakati, u yashagan yoki yashayotgan jamiyat muhit, mafkurasi

⁶¹ 3 Темур тузиклари. - Т., 1996, йип, 113 -bet

yozuvchining tasvir ob'ekti bo'lmay, balki insonning ularga munosabati, to'g'riroq'i, uning tafakkur yo'nalishi asosiy ob'ekt sanaladi. Kitobxon bevosita qahramon bilan emas, uning tafakkuri bilan munosabatga kirishadi, qahramon esa yozuvchi tomonidan yaratilgan inson emas, tabiiy harakati, shuuri ila go'yo o'zini-o'zi yaratgan (albatta, shartli ravishda) yozuvchini o'z ong oqimi yo'nalishiga soladigan intellektual shaxsdir. Lekin adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, insonni bir holatdan ikkinchi holatga soladigan, ezzgulikka undaydigan, komil insonga aylantiradigan narsa shakl, katta falsafiy tafakkur emas, shu tafakkurning asos-zamirida yotgan mohiyatidir. Agar biz hozirgi romanlarga shu mohiyat nuqtai nazari bilan yondashsak, ular shaklan yangi bo'lgani bilan, mazmunan asl o'zbek adabiyoti an'analarini eslatadi.

Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba" romani ham kompozitsiyasi, qahramonning xatti-harakati, syujetiga asos bo'lgan voqealar o'zi ko'nikma hosil qilgan asarlarga o'xshamaydi. Negaki u bilgan, o'qigan romanlarda bir qator qahramonlar bo'lardi, ular o'zaro konfliktga kirishadi, dialogda bir-biriga davr va uning siyosati xususida dono gaplar aytishib, ustunlikka erishishga intilardi. Mazkur roman esa unday emas. Asosan, qahramon faoliyat ko'rsatadi, u bir o'rinda, ya'ni roman boshida rahbari Mardonqul aka bilan dialogda bo'ladi. Xo'sh, gap nimada? Gap, yuqorida aytganimizdek, asarning yangi usulda, modern adabiyoti yo'lida yozilganida. Ma'lumki, modernistik adabiyotda yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jamiyatda ro'y bergen, sodir bo'layotgan voqealari, insonlarning xatti-harakatlari, ular yashagan makon, muhit real holda badiiy to'qimalarga aylantirilmaydi, balki ular inson tasavvurida in'ikos etiladi. Kitobxon to'g'ridan-to'g'ri qahramon bilan muloqotda bo'lmaydi, uning tafakkuri bilan to'qnashadi. Romanda tafakkur yo'nalishi ruhiy olam inkishofiga qaratilgan. Ya'ni ruhiy poklik, ruhiy mardonavorlikning tashqi olamga o'tkazgan ta'sir kuchining mohiyatini ochishga. Bu kuchning olamni poklashdagi roli, ruhiy poklarning sa'y harakati, qismati, fojiasi xususidagi haqiqat ruhi botir shaxslar botiniy olami tasvirida ochib beriladi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Istiqlol davri o'zbek romanchiligining asosiy belgilarini aytинг?
2. Zamonaviy o'zbek qissachiligidagi yetakchi yo'nalishlarni sharhlang?
3. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillarini ko'rsating?
4. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini aytинг?

5. Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasining badiiy xususiyatlarini ayting?
6. Muhammad Alining “Ulug saltanat” asarida qanday g‘oya ilgari surilgan?
7. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanining falsafiy haqiqati nimada?
8. Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” romani qanday struktura va g‘oyaga ega?
- 9.Yangi yo‘nalishdagi romanlar qanday xususiyatga ega?
10. Modern yo‘nalishdagi romanlar syujetining g‘ayritabiyligi nimada?

ADABIYOTLAR:

- 1.Uslubiy qo‘llanma. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. T.;2018
2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T., “Yangi nashr”, 2010. 4-bet.
3. N. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. “Yangi nashr” T.: 2010.B-146-148
- 4.Sotiboldiyev Sh.A. Mustaqillik yillarda yaratilgan o‘zbek romanlarida ijtimoiy-madaniy hayotning aks ettirilishi. Namangan.: 2014
5. Sh. Xolmirzaev. Quyosh falakda kezib yuribdi. Hikoya. “Yoshlik”. 1997 iil, 1-son
8. “Ulug ‘ saltanat”ning yorqin yog‘dusi. Yoshlik jurnali. 2017 yil 9-sont
10. Темур тузиклари. -Т,1996, йил, 113 -бет

- 11.<http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlil-ishi-kursishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti>
- 12.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Tog%CA%BBay_Murod.](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tog%CA%BBay_Murod)
- 13.<http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlil-ishi-kursishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti>

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI: NAZM

Reja:

1. Istiqlol mohiyati aks etgan she’riyat
2. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida olam hodisalari va odam ruhiyati
3. Milliy g‘oya va milliy mafkura ifodosi
4. Muhabbat azalii va abadiy mavzu
5. Modern yo‘nalishdagi she’riyat

Tayanch so‘z va iboralar: Mohiyat, tuyg‘u — tashqi ta’sirni sezish, his etish, qabul qilib olish, qobiliyati; sezgi; ruhiy yoki jismoniy kechinmalar, his-tuyg‘ular majmui, hissiyot,milliy g‘oya, modern she’rlar, muhabbat, badiiy talqin, milliylik — adabiyotning milliy xususiyatini va o‘zi mansub bo‘lgan millatning ruhini ifodalash, Milliy g‘oya — inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui.

Istiqlol mohiyati aks etgan she’riyat. Istiqlol tufayli ma’naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so‘z san’atiga nisbatan munosabat tubdan o‘zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g‘oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo qildi. Hozirgi o‘zbek she’riyatining ma’naviy miqyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o‘sdi. Shu ma’noda hozirgi o‘zbek adabiyotida lirika alohida o‘ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida, she’riyat jamiyatimizning har bir a’zosida mustaqillikka shukronalik, porloq keljakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kun she’riyatining tabiatи va uning zamiridagi falsafiy g‘oyani ochib berish, uning yetakchi g‘oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash o‘zbek she’riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi. Ma’lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi she’riyatda to‘rt tamoyil yetakchilik qiladi. Birinchi navbatda, O‘zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lishi bilan milliy uygonish g‘oyalari balqib turgan she’rlarga alohida e’tibor berish lozim. Bu holni barcha shoirlarning ijodida kuzatish mumkin. Lekin masalaning mohiyatini anglatishda ustoz shoirlar yetakchidir. Bo‘lib o‘tgan, erishilgan voqeа-hodisani qofiyali tilda qayd qilish bu hali she’riyat emas, uning mohiyatini chukur falsafiy mushohadalilik bilan inkishof qilish she’riyatdir⁶²

Istiqlol davri she’riyati milliy adabiyotimizning yetakchi turidir. A. Oripov, Rauf Parfi, H. Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro‘zimuhammad, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Halima Ahmad, Rustam Musurmon singari shoirlarning she’rlarida olamni poetik idrok etish yangi

⁶² Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B 5-6

bosqichga ko‘tarilgani namoyon bo‘ladi. Ulug‘ iste’dodning voqeа-hodisani idrok etishi, mohiyatni bera bilishi ham yuksak bo‘ladi. Abdulla Oripov — shunday ijodkor. U istiqloldan keyin turli mavzularda qator she’rlar yozdi. Ularning aksariyatining zamirida mustaqillik bergen imkon, uning qadriga yetishga da’vat juda ustalik bilan singdirilgan. Ma’lumki, A. Oripov — faylasuf shoir. Uning har misrasi faylasufona mushohada asosiga quriladi. U haqiqatga asoslangan epik ko‘lamda fikrlaydi. Shundan har bir she’riy misrasi dono otaning nasihatidek kishiga to‘gri yo‘l ko‘rsatadi, hayotdagi o‘rnini belgilaydi.

Emikdoshim, ay, qardoshim, qulqut menga,

Ushbu ko‘hna, kahkashonda mag‘rur tutgan bosh.

Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,

Senikidir endi bu yer, seniki quyosh. (“O‘zbek qomusi”)

Bu davr she’riyatida o‘tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Istiqlol she’riyati shakliy izlanishlarga boyligi, Chiqish nazmidan ham, Botish adabiyotidan ham samarali o‘rganishga intilish kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Endilikda she’rxonlik ko‘ngilochar mashg‘ulot bo‘lmay qoldi. She’r bilan tillashadigan o‘quvchining tafakkuri ham, qulog‘i ham, ko‘zi ham, hatto tuyg‘ulari ham bir qadar zo‘riqishi, she’r o‘qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo‘lib qoldi. Rauf Parfining:

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,

Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men.

Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim,

Bu dunyo gullarga to‘ldi. Qotdim men

singari badiiy qanoatlarini qabul qilish uchun muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlik zarur bo‘ladi.

Istiqlol davri adabiyoti kechagi adabiyotdan ijodkor masala mohiyatini, maqsadini, ilgari surmoqchi bo‘lgan fikrini zohiran emas, botinan yoritishi bilan ajralib turadi. Ular so‘zamonlik qilmaydi, tamoq yirtar darajada qichqirmay, sokinlik bilan nihoyatda samimiy holda ifodalashadi.

Xurshid Davron “Sen umrimning tongisan” degan she’rida mustaqil Vatanni shunday kuylaydi:

Men ko‘ksingga boshim ko‘ydim:

Sen chekkan gam, hasratda kuydim,

Suydim sening Oqdaryongni ham,

Hamda Qoradaryongi suydim,

Ey, qalbimning onasi, Vatan!

Shoir Vatanni yaxshi- yomon kunlari bilan barobar sevadi. Chunki u — ona. Har qanday farzand onaga biday aziz. Shoir uchun Vatan shunday azizdir.⁶³

O‘ziga xos shoirlardan bin **Faxriyorning** bir she’ri mavjud imlo qoidalariga mutlaqo rioya etilmay bitilgan:

qobirg‘alar qabarar suyaklarim qadoqdir
qaboqlarim o‘q tugab bo‘shab qolgan sadoqdir
kuyib kuyib kul bo‘lgan nafratlarim adoqdir
chuchmomalar ko‘k kiygan
namozshomgul gul gulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

Gap bu yerda imlo qoidalarining inkor etilganidagina emas. Shoir ifodalayotgan dardning ko‘lami naqadar yirikligini, uning biz bilgan insoniy o‘lchamlarga to‘g‘ri kelmasligini she’r mazmunidan anglatish bilan kifoyalanmay, uning shakli vositasida o‘quvchiga ko‘rsatib ham qo‘yadi. “*hey tulugim, hey tulum*” so‘zlari hazrati Navoiy tomonidan ham ishlataligan. Lekin uning she’ridagi ruh bo‘lakcha edi. Faxriyor esa qo‘li yoki oyog‘i emas, qobirg‘alari qabarib, suyaklar qadoq bo‘lgan hayotiga yig‘layverib ko‘z yoshlari qurib ketgan, qismatidan kuyaverib nafratlari ham adoq bo‘lgan baxtsiz shaxsning kayfiyatini ifodalashda bu so‘zlardan foydalandi va ko‘rganeningizday yaxshi badiiy natijaga erishdi.

Milliy poeziyamiz tarixida birgina qatordan iborat butun boshli she’r hech qachon bo‘lmagan. Faxriyor shunday she’r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu she’r yordamida atama yasalmagan yoki axborot berilmagan, balki o‘ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyat ifodalay oladigan, o‘qiganga o‘zgacha ruhiyat baxshida qiladigan tugal asar yaratilgandir:

Go‘rlar qisir-tug‘ishdan qolgan.

Poeziyaning o‘z asl manbasiga qaytganligi, ko‘ngil rozlarini, ruhiy tovlanishlarni nozik ishoralar, nazokatli obrazli ifodalar orqali tasvirlashga o‘tilganligi istiqlol davri o‘zbek she’riyatiga xos asosiy xususiyatlardan bo‘ldi, deyish mumkin. Bu davr milliy she’riyatida ommaviylikdan, hammaboplidkan qochishga urinish kuchaydi. She’riyat omma uchun emas, balki, avvalo, muallifining o‘zi uchun, qolaversa, ijodkorga tuyg‘udosh shaxslar uchun yaratiladigan bo‘ldi. Shu bois she’rxonlar adadi birmuncha kamaygan esa-da, ularning poetik so‘zni, obrazli ifodani anglash darajasi ortdi. Chunki baland she’riyat yuksak didli she’rxonni talab qiladi va uni shakllantiradi. Mustaqillik davrida o‘zbek poeziyasi o‘quvchi darajasiga tushishdan she’rxonni o‘z darajasiga

⁶³ Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B 14

ko‘tarish pallasiga kirdi. Shu tariqa azaldan she’rparast bo‘lgan millatning badiiy zavqi ingichkalashib, so‘z jozibasini anglash qudrati sezilarli darajada oshib bormoqda.

O‘zbek she’rxonlarida birorta tinish belgisi ishlatilmagan tizmadan ham, murakkab mavhum assotsiativ obrazlilikka to‘la she’riyatdan ham, tasavvufiy ilhom samarasi o‘laroq, dunyoga kelgan munojotlardan ham, poetik mim deyish mumkin bo‘lgan ramziy ifodalardan ham, meditativ nazm namunalaridan ham ta’sirlanish, ularni baholay olish ko‘nikmasi shakllanib bormoqda.

2. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida olam hodisalari va odam ruhiyati

Ko‘p asrlik o‘zbek she’riyati hozirda ham davr ruhini, zamondoshlarga xos tuyg‘ularni aks ettirishda yetakchilik qilmoqda. Hamon milliy adabiyotimizning yetakchi turi hisoblanadi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro‘z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyoy, Bahrom Ro‘zimuhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Tursun Ali, O‘ktamoy, Xosiyat Rustamova singari shoirlarning she’rlarida olam hodisalari va odamning ko‘ngil holatlarini shoirona ko‘z bilan ko‘rish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr she’riyatida o‘quvchiga hayot haqida aql o‘rgatish, qanday yashash yuzasidan unga yo‘l ko‘rsatishdan ko‘ra inson ruhiyatining murakkab manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Odam sezimlarining nozik qatlamlarini tadqiq qilish, inson tuyg‘usining xilma-xil qirralarini tasvirlashga ko‘proq e’tibor qaratildi. Bu davrda she’riyatda turli shakliy izlanishlar g‘oyat ko‘paydi. O‘zbek istiqlol she’riyatini o‘qish, undan ta’sirlanish uchun o‘quvchining qulog‘i bilan ko‘zidan tashqari, tafakkuri bilan tuyg‘ulari ham ishga tushishi, she’rlardan zavq olish, lazzatlanish uchun jiddiy mehnat qilishi lozim bo‘lib qoldi. Negaki, mustaqillik she’riyatida hayot hodisalarini aks ettirishdan ko‘ra odamning hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, uning ruhiyatidagi murakkab holatlarni tasvirlashga urinish kuchaydi. Ruhiyatni tuyish esa juda qiyin kechadigan jarayon. R. Parfining “Adashgan ruh”, “Qora devor”, “Munojot”, “Sensiz”, Sh. Rahmonning “Turkiylar”, “Iqror”, A. Suyunning “Istig‘for”, “Oq va qora”, A. Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at”, A. Saidning “Tush”, “Yo‘l”, “Bo‘g‘zimdan sirqirar tovush — qon...”, “Oyloq kecha...” kabi she’riy asarlari mustaqillik davri o‘zbek nazmining yetuk namunalaridan hisoblanadi.

Rauf Parfining:

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,
Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men.
Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim,

Bu dunyo gullarga to'ldi. Qotdim men.

singari misralarini o'qib tushunish uchun kishi muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Shoir she'rning ilk satrida yuksaklik da'vosi bilan "osmon"da yurgan, ammo hayot sinovlariga dosh berolmay "yerlarga botgan" kimsalarni kuzatganini qayd etadi. Lekin o'zining imkonni ham, "yerga botgan"nikidan ortiq emasligini ikkinchi satrda aks ettiradi. Bu satrdagi bir o'zakdan yasalgan "chopilgan" va "chopdim" so'zлari go'zal badiiy manzara hosil qilgan. Odam — ojiz, shoirning hech yerga yetmas qo'lining "kesilgan"i shuning belgisi. Lekin dunyo kutilmagan sirlarga to'la.

Taniqli shoira Zebo Mirzo bir she'rda yozadi:

Umrimni o'tkinchi saboga berdim,
Eng so'nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni Xudoga berdim...
Sabo olib bordi, gadoga berdi
Gado yig'ib bordi,
Xudoga berdi.
Xudo meni senga — xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?

Qisqagina bu she'rda o'y va ko'ngil odamining o'z umri davomida bosib o'tadigan uzun yo'lidagi asosiy bekatlar aks etgan deyish mumkin. She'riy satrlarda butun bir umrni o'tkinchi saboga, so'nggi chaqasini gadoga, ruhini Xudoga berib o'ziga hech narsa olib qolmagan kishi holati va kayfiyati tamomila o'ziga xos yo'sinda aks etgan. Oqibat ham amalga yarasha, lekin shoira — umid kishisi. Shu bois qandaydir mo'jiza yuz berishini kutadi. Lekin mo'jiza doim ham bo'lavermas ekan, shekilli, uni Xudo xatoga berdi. She'rning butun o'ziga xosligi, jozibasi ayni so'nggi satrda aks etadi. O'zi-ku uning chekiga xato tushgandi, lekin xatoning ham buni kimgadir berib yuborishi mumkinligi lirik qahramonni hayratga soladi: "Sen meni kimlarga berding, Azizim?" Ruhiga begona bo'lgan xatoni-da "azizim" deyishday, xatodan-da ayrilishni istamaslikday chigal va tushunarsiz tuyg'ular faqat bugungi kun kishisiga xosdir. Istiqlolgacha bo'lgan adabiyotda masala bunday qo'yilmas edi. Istiqlol she'riyatining o'ziga xos vakillaridan biri Faxriyorning "Osmon yaratganning..." so'zлari bilan boshlanadigan she'rda shoirning hayot tartiboti, Yaratganning intizom va adolati haqidagi falsafiy o'ylari o'ziga xos yo'sinda ifoda etilgan. She'rning birinchi va ikkinchi bandlarida Allohnning quadrati, uning odamzotga qilgan cheksiz marhamatlar tizimi tasvir etiladi. Shoir o'quvchini she'rda kelib chiqishi mumkin bo'lgan kutilmagan ma'noga Yaratganning irodasi natijalarini xolis tasvirlash yo'li bilan kishi bilmas tarzda tayyorlab boradi. Odamga berilgan ne'matlar orasida she'rning uchinchini bandidagi: "Ko'ngilga dog' berdi,

diydalarga — yosh” misrasi mazmunini chaqish, “yosh” va “dog” tamsillari nima ekanini o‘ylash o‘quvchini tashqi hayrat olamidan ichki dardkashlik ochuniga olib kiradi. Qudrat egasi tomonidan odamga dardli ko‘ngil va yoshli ko‘z berilganligining o‘zi saodat ekani hazrat Navoiy bitiklaridan ma’lum. Shoir o‘qirmanni ana shu to‘xtam sari ruhan tayyorlab boradi. She’rning “Kuymoqqa dil berdi, suymoqqa — ayol. Cho‘kmoqqa tiz berdi, egmoq uchun — bosh” satrlari zamiridagi teran ma’nolarni yuzaga chiqarishga urinish she’rxonga kutilmagan hayotiy va badiiy haqiqatlarni kashf qilish imkonini beradi. “Jon berdi ayolga etguday nisor, Uni deb yonmoqqa — sham kabi hayot” misralarida er kishiga tegishli qanday yuksak tuyg‘ular kuyylanayotganini anglash o‘quvchi sezimlarini ingichkalashtirishdan tashqari, uning shaxsiyati yuksalishiga ham turtki beradi. Shoir Yaratgan tomonidan in’om qilingan narsalarda faqat ko‘ngil va sevgiga doir ne’matlarnigina ko‘radi. U o‘z borlig‘ini yolg‘iz ishq og‘ushida, muhabbat quchog‘idagina tasavvur etadi. She’rning so‘ngiga yetib kelinganda shoir o‘quvchi uchun kuchli hayotiy va badiiy zarbani asrab qo‘ygani ma’lum bo‘ladi. Bu zarba “Yaralmay qolgani birgina visol” tarzidagi sirtdan qaraganda, bamaylixtir, jo‘ngina aytilganday tuyuladigan to‘xtamda jamlangan. Demak, oshiq chin visol qiyomatda ekaniga imon keltirmog‘i, shunga ko‘nikmog‘i lozim. Ammo bu holat uning sevgisi darajasini bir misqloga bo‘lsin pasaytiormaydi. Ishqdan natija kutish ta’maga o‘xshab qoladi va shoir qutulish ham, voz kechib ketish ham mumkin bo‘lmagan sevgi domidagi zamondoshimizning o‘ta nozik tuyg‘ularini, ingichka sezimlarini ta’sirli ifoda etadi. Mustaqillik she’riyatida qisqalikka intilish yaqqol ko‘zga tashlanib bormoqda. Endi oldingiday hajmi katta she’riy tizmalar deyarli yozilayotgani yo‘q. Milliy poyeziyamiz tarixida bir satrdan iborat she’r hech qachon bo‘lmagan. Hozir bunday she’rlar ko‘plab yozilmoqda. Shoir Faxriyor esa ikkigina so‘zdan iborat she’r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu ikki so‘z yordamida o‘ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyatni ifodalay oladigan, odamga o‘zgacha tuyg‘u baxshida qiladigan tugal she’r yaratilgan:

oy bolta

She’r bosh harf bilan yozilmaganligi, unda hech qanday tinish belgisi ishlatilmagani bejiz emas. Agar e’tibor qilgan bo‘lsangiz, minglab yillar oldin she’r yozgan bobolarimiz ham tinish belgilardan foydalanmagan. O‘tmishdagagi shoirlar zarur o‘rinni belgilash, alohida e’tibor qilinadigan joyni topish ixtiyorini she’rxonning o‘ziga qoldirishgan. **Faxriyorning** she’ridagi ikki so‘z fikrlaydigan o‘quvchining e’tiborini tabiiy ravishda tortadi, uni bu so‘zlar ustida o‘ylab ko‘rishga undaydi. Birov oyni boltaga, boshqa birov boltani oyga mengzaydi. Sehrli bu so‘zlar sabab birov nimadandir siqilgan odam ko‘nglini oyning boltasi qiymalaganini his etsa, boshqasi oysimon boltaning ruhiyat sokinligiga qo‘riqchi bo‘lganini tuyadi. B. Ro‘zimuhhammadning bir she’rida shunday misralar bor:

Ko‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q
So‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q
Ammo xo‘roz qichqirig‘i ortiga
Shafaqrang qishlog‘im bekinib olgan.

Bu satrlarda odatdagи she‘rlardagi kabi musiqiylik yo‘q. Ammo unda ijodkorning chigal kayfiyati aks etgan. Ko‘zdan ichkarida yo‘l yo‘qligi chin, lekin har qanday yo‘lni ko‘z topadi, so‘zda yo‘l yo‘qligi ham bor gap, ammo har qanday yo‘lga so‘z eltadi. Bilamizki, xo‘rozning qichqirig‘i — tongning belgisi. Xo‘roz qichqirig‘idan so‘ng ko‘z o‘ngida shafaqrang qishloq namoyon bo‘ladi. Qishloqning shafaqrangligi ham bejiz emas. Endigina ko‘tarilayotgan quyosh nuriga ko‘milganligi uchun ham u shunday tusga ega bo‘lgan. Xo‘roz ham ayni shu vaqtida qichqiradi. Ko‘z va so‘zdan ichkarida yo‘l bo‘lmasa-da, o‘z qishlog‘iga cheksiz muhabbat sabab unga shoir ko‘ngli orqali yo‘l topadi. Shoir she‘riyatning odatiy tartibini inkor qiladigan uslubga murojaat etgan. Uni oddiy mantiq bilan izohlab bo‘lmaydi. Ushbu she‘r faqat shu ijodkorgagina taalluqli bo‘lgan badiiy mantiq qonuniga muvoofiқ yaratilgan. Odatda chinakam badiiy hodisa o‘ziga xos olam hisoblanadi va u o‘zining qoidalariqagina mos keladi. Shu bois asl badiiy hodisa bir bor yaraladi, unda takror yo‘q. Qonuniyat esa takrorni taqozo qiladi. Yuqoridagi parchada shoirning alohida ruhi, o‘ziga xos nuqtabi nazari sezilib turadi. Ayni vaqtida she‘r o‘quvchi diqqatini jalb etadi, e‘tiborini tortadi, o‘yga toldiradi. Uning tafakkuriga-da nimadir yangilik yetkazadi, ko‘ngliga-da qandaydir yengillik bag‘ishlaydi. Poyeziyaning o‘z asl manbasiga qaytganligi, ko‘ngil rozlarini, ruhiy tovlanishlarni nozik ishoralar, nazokatli obrazli ifodalar orqali tasvirlashga o‘tilganligi istiqlol davri o‘zbek she‘riyatiga xos asosiy xususiyatlardan bo‘ldi deyish mumkin. Bu davr she‘riyati hammaboplidan qochishga urinadi. Shoirning o‘zi uchun, qolaversa, unga tuyg‘udosh bo‘la oladigan shaxslar uchun yaratiladigan bo‘ldi. Bu hol o‘quvchini she‘r yuksakligiga ko‘tarilishiga undaydi. Shu bois she‘rxonlarning poetik so‘zni, obrazli ifodani anglash darajasi ortdi. Chunki baland she‘riyat yuksak didli she‘rxonni talab qiladi va uni shakllantiradi. Mustaqillik davrida o‘zbek poeziyasi jo‘n o‘quvchi darajasiga tushish o‘rniga, she‘rxonni she‘r darajasiga ko‘tarish pallasiga kirdi. Shu tariqa azaldan she‘rparast bo‘lgan millatning badiiy zavqi ingichkalashib, so‘z jozibasini anglash qudrati sezilarli darajada oshib bormoqda.

Yangi bosqich o‘zbek she‘riyatining ko‘لامи yanada kengaydi. G‘arb adabiyotining sonet va modern yo‘nalishlaridan tortib, olis yapon she‘riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlargacha paydo bo‘ldi. To‘g‘ri, bu shakllarning ayrimlari she‘riyatimizda ilgarigi bosqichda ham mavjud edi. Biroq shakl va yo‘nalishlarda endi yangi davr muammolari, istiqlol davri kishisining ichki dunyosi

va tasvir vositalari, yangi g'oyalar o'z ifodasini topa boshladi. Bu davrdagi ijod namunalarida avvalgi bosqichdagi asarlarga xos bo'lmagan Vatan, Istiqlol, erk mavzu va muammolarning yangicha tasvirlariga, yangicha uslubiy talqinlariga va bu yo'naliishdagi yangi-yangi badiiy obrazlar, timsollarga duch kelamiz.

Bu davrda A.Oripovning "Hikmat sadolari", "Savob", "Dunyo majmualari", "Ranjkom", "Sohibqiron" dramatik dostoni, E.Vohidovning "Yaxshidir achchiq haqiqat" she'riy to'plami, "Donishqishloq latifalari", turkumi, Zulfiyaning "Xotira siniqlari" dostoni, Asqad Muxtorning "Yillarim", "Uyqu qochganda", O.Matjonning "Ardaxiva afsonasi", "Nega men", "Qush yo'li", Ikrom Otamurodning "Uzoqlashayotgan Oq'riq", "Sopol siniqlari", Oydin Hojiyevning "Najot", Qutlibekaning "Tavba", "Qadimgi kuy", majmualari, Rauf Parfinning "Tavba" Sirojiddin Sayyidning "Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni", "Ko'ksimdag'i zangorilarim", "Vatanni o'rghanish", Matnazar Abdulhakimning "Oydinlik", Faxriyorning "Ayolg'u", Mahmud Toirning "Haqni tanib" to'plamlari, Tohir Qahhor, Farida Afro'z Usmon Azim, Minhojiddin Mirzo, Iqbol Mirzo va boshqa ko'plab ijodkorlarning ijodlari hozirgi adabiy jarayonimizda anchagina salmoqli va zalvorli falsafiy-psixologik tahlil hisobiga kengayib, teranlashib borayotgani ma'lum bo'ladi.

Yaxshi she'r yozilmaydi, balki ro'y beradi, degandi donishmandlardan biri. Shunisi quvonchlik, bugungi kunda shoirlarimiz mana shu haqiqatni anglab etmoqdalar. Shulardan biri shoir **Asqar Mahkam** bo'lib, o'zining «Haq» deb atalgan kitobida (1998-yil) she'riyatimiz uchun ana shu yangi islomiy tafakkurni bera oldi. Uning ijod namunalaru shu paytgacha biz o'rgangan, ko'nikkан she'riyat emas. Bu she'riyatni maxsus ma'rifiy tayyorgarliksiz o'qib, o'rganib bo'lmaydi. Bu haqda shoirning o'zi bunday deydi:

So'zladik goh uryon, gohi munaqqash,
Yo'q edi xaytovur tinglaydiganlar.
Dunyoga keladi xomush, majnunvash,
Bizning so'zimizni anglaydiganlar.
Na qizlar daftariga bitdilar uni,
Na xofiz kuyladi devona bo'lib.
Ammo men bilaman uning umrini –
Dunyoga kelar u — biz ketgach o'lib.

Shoirlar istibdod va asorat xasratini hangomalar, latifalar, mif va afsonalar kabi majoziy usullar asosida maromiga yetkazib kuylagan bo'lsalar, keyingi ijod karvoni orasida yuragini yalang'ochlab chiqqan shoirlardan biri **Usmon Azim** bo'ldi. U.Azim tengdoshlari orasida rostgo'yligi, shafqatsiz va haqqoniy tuyg'ular tasviriga boyligi bilan ajralib turadi. Uning nazarida she'r haqiqat timsolidir, shoirning burchi faqat rost so'zlashdan iborat. Shoirlari yolg'on gapni aytgan kuni

butun el o'limga yuz tutadi. Rost gapni aytish uchun esa shoirda yurak bo'lishi kerak:

Haq gap uchun har bir ishga ko'nadi el,
To'g'ri so'zdan ko'payadi, to'ladi el,
Dordan qo'rqib yolg'on aytib turganim yo'q,
Shoirlari yolg'on aytса, o'ladi el.

deb hayqiradi shoir va jamiyatda yurtni zabit etmoq uchun otlanib kelayotgan yolg'on lashkarining vajohatidan haqiqatni ko'rmay o'lamanmi, deb o'ksinadi:

Otlamnoqda yolg'on lashkari
Yolg'on yurtni etmoq uchun zabit,
Kelolmaysan endi men sari –
Seni ko'rmay o'lum: HAQIQAT.

Mustaqillik davrining eng zabardast shoirlaridan yana biri **Muhammad**

Yusufdir. 1954-yili Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tug'ildi. 1974 yilda respublika rus tili va adabiyoti institutini bitirdi. "Toshkent oqshomi", "O'zbekiston ovozi" gazetalari muharririyatida, G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida ishladi. Ilk kitobi "Tanish teraklar" 1985-yilda bosilib chiqqan. Shundan so'ng shoirning birin-ketin "Bulbulga bir gapim bor", "Uyqudag'i qiz", "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor", "Bevafo ko'p ekan", "Erka kiyik", "Iltijo" (1988-yil), "Halima enam allalari" (1989-yil), "Yolg'onchi yor" (1994-yil), "Osmonimga olib ketaman" (1998-yil) kabi to'plamlari e'lon qilindi. 1998 yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. Ulug'vor muhabbat, o'talmagan burch, qadrlanmagan sevgi armoni, yurtga o'g'illik sadoqati — shoir she'rlari asosini belgilaydi.

ONAMGA XAT

Men sizni o'yayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.
Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat.

M.Yusuf she'rlarida fikrni mukammal ifodalash maqsadida she'riyatning texnik vositalarini "buzib" ham tashlayveradi. Bo'g'inlar orttirilib yoki kamaytiriladi, qofiyaga e'tibor berilmaydi. M.Yusuf deganda ko'z o'ngimizda "she'riyatning qadim so'qmoqlarida shirin azob bilan" jonini yoqib, bir qo'lida gul-u boshqasida chaqmoq ko'tarib borayotgan, bag'ri pora-pora nayga aylangan, shunga qaramay bu yo'ldan qaytib ketolmaydigan, to'g'risi, qaytib ketishni

istamaydigan shoir gavdalaniadi. Chunki bu yo‘lda uning tovonini chaqir toshlar tishlab olgan bo‘lsa-da, qo‘llaridan kiyikchalar ushlab olgan! Gap mana shu kiyikchalarda.

Yuragim-ey boshlab kelding meni qayga?
Bag‘rim o‘xshar pora-pora bo‘lgan nayga.
Ko‘nglim sezar bu so‘qmoqdan o‘tolmayman,
Qaytib ketay desam qaytib ketolmayman.
Chaqr toshlar tovonimdan tishlab olgan,
Qo‘llarimdan kiyikchalar ushlab olgan!

Istiqlol davri adabiyotining yana bir kuyunchak va dilbar shoirlaridan biri **Shavkat Rahmondir**. U haqiqiy shoir edi. Haqiqiy shoir esa she’riyatdan boshqa hech kimga va hech nimaga xizmat qilmaydi, bo‘ysunmaydi ham. Shoirning quyidagi she’rida yashamoqning ma’nosи hayotga faol munosabatda bo‘lmoq ekani yaxshi aytilgan. Boshqa she’rlar kabi bunda ham asosiy g‘oya yalong‘och tarzda bayon qilinmaydi, balki qalb qa’ridan sizib chiqqan tuyg‘u-iztirob sifatida ifodalanadi: Yashamog‘im zarur har daqiqani, G‘azab bilan, sevgi bilan to‘ldirib. Dunyodagi barcha qora narsani Yorug‘ lahzalarda o‘ldirib. Tokim bosh ko‘tarib qaray quyosha Tokim ko‘zlarimda yonsin haqiqat, Tokim tosh misoli tegmasin boshga, Men yashay olmagan har bir daqqa. Sh.Rahmon she’rlarida kun va tun, nur va zulmat. Ziyo va qorong‘ulik timsollari ko‘p uchraydi. Bular mavhum, hayoliy obrazlar emas, balki real hayotiy mazmunga ega bo‘lgan timsollardir. Kun, nur, ziyo shoir uchun go‘zallik, oqillik belgisi, inson faoliyatining mohiyatini nur taratib yashash tashkil qilishi kerak. Tun, zulmat, qorong‘ulik esa jamiki insoniy illatlar ramzidir. Ularga qarshi murosasiz kurash ham inson hayotining mazmunini tashkil qilmog‘i kerak.

Jismimiz o‘ragan tikanli simlar,
Tikanli fikrlar ichra ruhimiz,
Nigohimiz kalta, nursiz zindonlar
Yuraklarda chirir g‘am-andauhimiz.
Zamin parcha-parcha —
Ko‘ksinga g‘archillab qadalar tig‘lar.
Shoir mutelik bilan, istibdod bilan murosa qilolmaydi, egilgan boshlar uning nafratini qo‘zg‘aydi:
Yurtimni kezaman, endi hech narsa—
Egilgan narsalar tegar g‘ashimga.
Endi ishslash kerak bu kengliklarda,
Tokim so‘ylamasin yolg‘onni hech kim,

Egilgan boshlarni qilichlar kessin.

Shoirni iztirobga solgan ham erk, bulbul qilib sayratgan ham erk, toshlarda gul undirishga qodir kuch ham erk, tilining uchida asrab-avaylagani ham erk. Sh.Rahmon odamzodning hurlikka bo‘lgan ehtiyojining naqadar buyukligini butun vujudi bilan his qilgan, buning uchun kurashgan shoir edi. U bir she’rida “Urug‘lar aynigan tap-taqir cho‘lda o‘zbegim davlatin qursak maylimi?” deya orzu qilgandi. Shoирning orzusi amalga oshdi, uning mustaqlil davlati qurildi, ammo bu orzu gulining ochilganini shoирning o‘zi ko‘rolmay ketdi. U jisman vafot etgan bo‘lsa-da, ruhan tirik, biz bilan birga mustaqilligimizni mustahkamlash uchun kurashda jonbozlik ko‘rsatmoqda. O‘zi aytganidek, “etti qavat yerning qa’rida yotsa-da, larzaga solib havoni, elining yuragin topib kelyapdi jismini kuydirib uchgan ovozi!”.⁶⁴

XX asrning 90-yillari boshidan etiboran o‘zbek xalqi o‘z tarixining tamomila yangi bosqichiga kirdi. Va millat hayotining estetik ifodasi o‘laroq istiqlol adabiyoti, istiqlol she’riyati deb atalmish hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomi edi. Bu adabiyot milliy adabiyot taraqqiyotidagi shunchaki bir bosqich bo‘lmay, qator belgilarga ega bo‘lgan o‘ziga xos badiiy-estetik vogelikdir. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati olam hodisalari va odam ruhiyatni qirralariga xilma-xil qarash, olamning mavjudlik yo‘sini va undagi tartibotlarni turlicha izohlash imkoniyati mahsuli bo‘lgan she’riyatdir. Mustaqil o‘zbek davlati badiiy adabiyotni sho‘ro zamonida bo‘lgani kabi o‘z monopoliyasiga aylantirishga urinmay qo‘yishi bilan ijod erkinligiga sharoit yaratildi. Bu adabiyot siyosatga bo‘ysindirilmagani uchun ham ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi. Bugungi o‘zbek she’riyati millat ahlining ko‘ngli, sezimlari va ruhiyatini tasvirlashga e’tibor qaratishi natijasida inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati chinakamiga xilma-xil tamoyillar asosida qurilgan she’riyat bo‘ldi. Ya’ni quyidagi 4 ta moyil uning asosiy ustunlarini tashkil etadi:

- she’riyatda milliy g‘oya, mafkura va Vatanga muhabbatning badiiy ifodasi;
- islom asotirlari va g‘oyalarining badiiy talqini;
- lirkada muhabbatning o‘lmas, adabiy va azaliy mavzu ekani;
- Modernizm va modern yo‘nalishidagi she’riyat.

Istiqlol davri she’riyatining qisqalikka intilishi (yapon, xitoy, koreys she’riyatidagi tanka 7, xokku 8, syaoshi 9 she’r shakllaridan foydalanish) shunchaki urchining ketidan quvish bo‘lmay, chuqur ichki mantiqqa ega. Bu she’riyat

⁶⁴ "O‘zbek adabiyoti" ma‘ruzalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.

o‘quvchiga ishonch, uni badiiy so‘zning iste’molchisigina emas, balki, sheriy holatni tuyish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko‘tarishning natijasidir.

Xullas, poeziyaning o‘z asl manbasiga qaytganligi, nazokatli ifodalar orqali tasvirlashga o‘tilganligi istiqlol davri o‘zbek she’riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri bo‘ldi. Milliy g‘oya va milliy mafkura ifodasi. Vatan ravnaqi, xalq farovonligida, yurt tinchligi, fikr, ong ezgu maqsad sari yo‘nalishida, komil insonning shakllanishida milliy g‘oya va milliy mafkuraning roli katta. Uni odamlar qalbi va ongiga singdirishda bir qancha omillar qatorida adabiyot alohida rol o‘ynaydi. Ma’lumki, milliy g‘oya va milliy mafkura keng tushuncha va tarkibiga ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, diniy masalalarni qamrab oladi. Milliy g‘oya inson va jamiyat hayotiga juda katta ma’no va mazmun kasb etadigan falsafiy fikr hamda dunyoqarash olib kiradi. Bu fikrlar insoniylik bilan yo‘grilgani uchun uni ezgu maqsadlar sari yetaklashi tabiiy holdir. Mafkura esa ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish g‘oyasini ishlab chiqadi.

Milliylik bilan yo‘g‘rilgan she’rlarning ahamiyati shundaki, u yurtga, vatanga, xalqqa, odamlarga nisbatan kishi qalbida katta mehr uygotadi, xalqning qadimgi qadriyatlari — urf-odat, udumlari jo‘mard va tantiligi, mehnatkashligi naqadar fusunkorligi inkishof bo‘ladi, eng muhimmi, go‘zal insoniy tuygularni tarbiyalaydi. Bu borada Oydin Hojieva va Halima Xudoyberdieva she’riyati ajrab turadi.

Zaranglarda to‘rg‘ayga

Aylangan chanqovuzim.

Ko‘ksida kiyik uxlar

Qishloqdagi hovuzim, - deb yozadi Oydin Hojieva o‘zining “Tavallud taronasi” turkumiga kirgan she’rida.⁶⁵

Kutlibeka Rahimboeva she’rlari o‘ziga xos, o‘zgani takrorlamasligi bilan ajralib turadi.

Tog‘ning sabri tugasa, vulqon bo‘lib otiladi. Ijodkor esa yurak zardoqlarini misralarga to‘kadi. Qutlibeka shunday qilgan. Mustaqillikdan avval yozgan “Raddiya” nomli she’rida shunday deydi:

Tarvaqaylab yotar dilimda

Ular ekkan xo‘rlik yantoq...

Nima uchun boshqa o‘simlik emas, yantoq?

Chunki yantoqning ildizi nihoyatda uzun, chidamli va baquvvat bo‘ladi. Demak, erksizlikning o‘tkazgan tazyiqi, alamlari, qalb iztiroblari ildizi g‘oyat chuqr. Shoir shunga ishora qilyapti. “Biz” degan she’rida alam va iztiroblarga aniqlik kiritadi:

Har bir so‘zimning ildizi

Huv “muhtaram” zotning bo‘gizida.

Labimizga olamiz tizib,

⁶⁵ Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B 19

Unib chiqqan lahza og‘zidan.
Erkning jon suvidan hovuchlab olib,
Har bitta o‘zbekka sepgim keladi.
O‘zbekligim uchun o‘zgalar qolib,
Hatto o‘zimni ham o‘pgim keladi. (“Ozod O‘zbekiston”)

Naqadar samimiylilik, o‘z millatidan g‘ururlanish va hech kim aytmagan fikrni aytishlik. Buni o‘qigan odamning qalbi yayrab ketadi. Chunki hech kim Qutlibekaday o‘z millatini bu qadar yuksaklikka ko‘tarmagan.

To‘g‘ri fikrni aytish, hayotiy hodisalarga haqqoniy nigo bilan qarab, bor borligi bilan yoritish, mohiyatni teran idrok etish uchun ijodkor zakovatli va jasoratli, burgut ko‘z, burgut nigoh bo‘lmog‘i lozim. Shavkat Rahmon shunday shoir edi. Shavkat Rahmon she’rlarida narsa va hodisalarga katta ma’no yuklaydi, hodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Natijada ular jonsizlikdan jonlilikka aylanadi, insoniylashadi. Tut daraxtini hamma biladi, uning boshiga tushadigan savdodan (yiliga kallaklanishi) ham barcha xabardor. Lekin o‘zbek xalqi hayotiga juda yaqin shu vogelikdan kishiga o‘z o‘tmishi xususida chuqur mushohada yuritishga va istiqlol mohiyatini anglashga beradigan ijtimoiy xulosani ko‘pchilik o‘ylab ko‘rmagan. “Tutzor xotiralari” she’ri shunday boshlanadi:

Tutzor -
Kallaklangan birodarlarim,
Osmonga bosh tirab turibsiz hamon,
Mayishgan timsoxday badanlarinǵiz,
Dahshatli qudrat-la ezganday osmon.

Tasvirning haqqoniyligi, tiniqligi shoiriig badiiy tasavvuridagi mantiqni kuchaytirgan. Bu yerda barcha ot, fe’l va sifatlar ramziylashgan. Tutzor — o‘z fikriga ega bo‘lganlar, erkinlikka intilganlar ma’nosida keladi, kitobxon buni ilg‘aydi.

4. Muhabbat azaliiy va abadiy mavzu

Bu mavzuda istiqloldan keyin ham ko‘p va xo‘p yozildi. Ma’lumki, mazkur mavzuning ufqi keng. Shoir o‘z ishqiy tuyg‘usini yaratganga, vatanga, yurtga, xalqiga, ota-onasiga, do‘stiga nisbatan izhor qilishi mumkin. Shunday qilingan va qilinyapti ham. Lekin bularning ichida mahbubga, sevganiga bo‘lgan muhabbatga bag‘ishlangan she’rlarning, bizningcha, umri uzoq va ta’sirlidir. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida haqiqiy oshiq haqida shunday yozadi: “Haqiqiy oshiq deb sen bilki, u dard bilan yashaydi; uning tili ham, dili ham, ko‘zi ham pok bo‘ladi. Ishq uni o‘z “men”idan pok qilib, hatto fano o‘tiga xashak qilgan bo‘ladi. Yuzini sariq qilib, dardini yashiradi;

ko‘zini ariq qilib yosh oqizadi”.⁶⁶ Bundan ko‘rinadiki, haqiqiy oshiqning ahvoli dil izhordan emas, holatidan bilinadi. Bugungi kun she’riyati shunday.

Hosiyat Bobomurodova. Shoiraning “Qandaysiz?”, “Yaxshi bor”, “Qalbimda oqadi bir daryo olov”, “Jonim, hali mening oshiqlarim ko‘p”, “Senga qanday boray, vayrona ko‘ngil” she’rlari ham mana shunday tuyg‘ular ummoniga ko‘milgan, ruhiyat ifodalangan she’riyatdir. “Jonimning egasi” she’rida o‘z sevgilisiga shunday iltijo qiladi:

Bahor olib ketsa bahorlarimni,
G‘amlar bosib olsa ne xorlarimni,
Kuzlar to‘kib ketsa ohorlarimni,
Jonim egasi, so‘nsam maylimi?

Bu iltijo umumlashma xarakterga ega bo‘lib, barcha oshiqlar o‘z mahbubini bunday ahvolga solmaslik, ularni qadrashga da’vat qilinyapti.

Istiqlol davridagi faol shoirlardan biri Mahmud Toirdir. U xalq ohangi, termalari yo‘lida yozadi. Eng muhimi xalqchil ohang bilan cheklanib qolmasdan, she’rlariga xalq ruhini singdiradi, xalqning sodda, lekin nihoyatda dono falsafasidan foydalanadi. Oqibatda she’rda xalq ruhiyati bilan donoligi uyg‘unlashadi. Bu narsa, o‘z navbatida, she’rni o‘qishli qiladi, joziba bag‘ishlaydi, shuningdek, ongga ma’naviy ozuqa beradi, ya’ni shuurga shuur qo’shami. Ma’lumki, bunday xususiyatga ega bo‘lgan she’riyat kishining ham qalbiga, ham ongiga ta’sir qiladi.

Bu xususiyat Mahmud Toirning barcha mavzudagi she’rlariga tegishli, jumladan, muhabbat mavzusidagi she’rlariga ham. Mahmud Toir ham muhabbatga shunday yondashadi va misralarda uning kishi dilini yayratadigan xususiyatlarini, fazilatlarini tasvirlaydi. “Yaramas endi” she’rida bir og‘iz ham sevgi, muhabbat so‘zi ishlatalmaydi. Lekin tag matndan chinakam muhabbat mavjudligi anglashiladi. Negaki shoir muhabbatning dil izhorini emas, uning hosilasini, mohiyatini beradi. U yozadi:

Quyosh bizga qo‘silsa kerak,
Oy arqondek eshilsa kerak,
Nega yum-yum yig‘laysan, yurak,
Ko‘z yosh bizga yarashmas ekan.

5. Modern yo‘nalishdagi she’riyat

Har qanday yangilikning asosi tafakkur, hayotni idrok etish iqtidori va davrdir. Bu narsa o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki bilim va saviya zaminida hosil bo‘ladi.

⁶⁶ “Hayrat ul- abror”, — T.: 1974, 73-bet.

Kishining bilimi oshgan sari u hayotga o‘zgacha ko‘z bilan qaray boshlaydi, uni o‘zgacha idrok etadi. Nimaki eskining inkori o‘rniga kelsa, u yangilikdir. Modernizm mohiyatini tushunib, qalban idrok etib, ijod qilgan Rauf Parfi, bu borada qalam tsbratayotgan Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammadlardir. Ma’lumki, moddiy borliqning aniq tasviri ta’sirchanlikni oshirish bilan birga lirik qahramonning eng nozik tuyg‘ulari va ichki kechimlarini ham yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Rauf Parfi she’rlarida shu hol ko‘rinadi. “Yo‘lovchi” turkumiga kirgan she’rlaridan birida shunday yozadi:

Ko‘zimning g‘orida parchalangan ko‘k,
Bulutlar, to‘lqinlar, shiddat sochilgan.
Sening chiroyingda gard yo‘q, gubor yo‘q,
Aldangan gullarning bag‘ri ochilgan.

Ko‘rinyaptiki, sonetdagi so‘zlar jozibasi kishini maftun etadi. Lekin ular zamirida yashiringan fikrni, ya’ni niyatini kishi tezda ilg‘ay olmaydi. Uni anglash uchun holatni ko‘z oldiga keltirish lozim. Ma’lumki, ko‘zning chuqurida (g‘orida) ko‘z soqqasi— gavhar joylashgan. Unda tiniq osmon, ya’ni butun borliq jilolanadi. Tiniq narsada gard, gubor bo‘lmaydi. Dunyo, olam ham kishi ko‘ziga shunday ko‘rinadi.

6. Modern tamoyilidagi dostonlar

Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni garchi istiqloldan avval yozilgan bo‘lsa ham, birinchi modern yo‘nalishidagi doston bo‘lgani uchun tahsilga tortildi. Dostonga Navoiyning “Dudi ohimning quyundek pech ila tobin ko‘rung, Tiyra hijron oqshomining bahri girdobin ko‘rung” misrasi epigraf qilib olingan. Mana shu misra dostonning butun motivini tashkil qiladi. Ya’ni shoirning nimadan kuyinishi, iztirob chekishi, uning sabab-oqibatlari noan’anaviy usulda talqin qilingan. Doston ixcham o‘n besh qismidan iborat.⁶⁷ Har bir qism o‘z kompozitsiyasiga va mustaqil motiviga ega.

Birinchi qismda bobo bilan nevara muloqoti beriladi. Boboning yelkasida sanduvoch o‘tiradi. Bilamizki, sanduvoch (bulbul) — muhabbat, ezgulik ramzi. Ikkinci qismda ham boboga murojaat qilinadi. Bobo — bu o‘rinda donolik, to‘g‘rilik ramzi. U Ollohnning qudratini anglashga, o‘shanga qarab qadam tashlashga undaydi. Shunday qilinganda inson yomon harakatlardan o‘zini tiyadi. Bu bilan hayotning bir maromda davom etishini va o‘zining umrini ta’minlaydi. Shoir shulardan kishini ogoh qilar ekan, masala mohiyatini bugunga buradi. U yozadi:

Shunda farog‘at mamlakatlari, millatlari, odamlari
Hech qachon bir-birlarini kamsitmaslikka ont ichishadi.
Tilni, qalbni, naslni buzmaslikka, ezmashlikka

⁶⁷ O‘sha kitob.B-111

Qasamyod qilishadi. Tiyilishadi!⁶⁸

Dostonning “Izohsiz lugat” deb nomlanishining siri o’sha ikki azim Kuchlar qismatini eslasak, nomlanish mantiq va mazmun kasb eta boshlaydi: izohsiz lug‘at, ya’ni izohga hojat yo‘q! Dunyo-dunyo bo‘libdiki, dostonda tilga olingen Kuchlar va ularniig omonsiz jangi bor. Dunyo deb atalgan kitob shu ikki so‘zdan iborat: Oq va Qora! Biroq ularga izoh berilgan, izohni har kishining o‘zi yozadi, kimning qismatiga oqni ta‘riflash, kimnikiga qoraning sharhini bitish tushadi. Shunga qaramay, shoir baribir o‘z tanlovini izhor qilib ketmoqda:

Barmog‘im qabooqqa qo‘ydim, o‘rtandi,

Emrandim, nigohim tindi, aylandi.

Bildim, a’zoyi badanim hayot shirasidan,

Hamshiram — turna,

Qondoshim — jayron,

Jigarim — arg‘uvon.

Xonu turobdaman, inim — qumursqa, og‘am — ot,

Bildim — odamiyzodman,

Odamiyzodman...

Modernizm yo‘nalishidagi asarlar tushkunlikka, o‘zi yashayotgan dunyodan bezishga, inkor qilishga emas, kishini ezzulikka, go‘zallikka chorlaydi, imon va e’tiqod haqida o‘ylashga da‘vat etadi. Ularsiz odam va olam yo‘qlikka mahkum bo‘lishiga ishontirishga undaydi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Istiqlol davri she’riyatiga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining eng muhim mavzularni sanab bering?
3. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatidagi qaysi shoirlarning she’rlarini sevib o‘qiyisz?
4. Modern yo‘nalishdagi she’riyatning o‘ziga xos jihatlari nimada?
5. Qanday modern tamoyilidagi dostonlarni bilasiz?
6. Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni tematikasi, badiyati nimada?
7. Bugungi lirika qanday xususiyatga ega?
8. Milliylik bilan sug‘orilgan lirika qanday ahamiyatga ega?

⁶⁸ Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B 112

9.Hosiyat Bobomurodova, Mahmud Toir she'riyatining o'ziga xos jihatlari nimada?

10. Milliylik bilan yo'g'rilgan she'rlearning ahamiyati nimada?

ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov H.Istiqlol davri o'zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B 5-6
2. "O'zbek adabiyoti" ma'ruzalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.
3. "Hayrat ul-abror", — T.: 1974, 73-bet.
4. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik.T. 1999.
- 5.Karimov N. va boshqalar. "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi". -T.: "O'qituvchi", 1999.
- 6.O. Hojiyeva. Tavallud taronasi.- T.: 2007 yil, 27-bet
- 7 .A.Oripov. Tanlangan asarlar, 4-tom. 74 bet
8. Q.Rahimboyeva. "Ozod O'zbekiston" // Yozuvchi gazetasi, 1999-yil, 10 mart.
- 9.Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. -T.: Sharq, 2006.

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI: DRAMATURGIYA.

Reja:

1. Istiqlol yillarida dramaturgiya rivoji
2. Istiqlol davri dramalarida tarixiy voqelik va badiiy to'qima
3. Ijodkor tarixiy shaxslar timsolida insoniylikning badiiy ifodasi
4. Komediyada hayotiy va insoniy jihatlarning badiiy ifodasi
5. Tarixiy dramalarda ayollar obrazi va ulaning ruhiyati ifodasi

Tayanch tushuncha va iboralar: drama, dramaturgiya, vaziyat, kishining kayfiyatini, ruhiy holatini ifodalovchi qiyofa, ko'rinish, avzo; tashqi sharoit, ahvol, holat, badiiy to'qima — hayotiy faktlarni o'z maqsadiga muvofiq saralash va uni ijodiy hayol tufayli yaxlit holga keltirish, syujetlilik, sahna asari, tragediya.

1. Istiqlol yillarida dramaturgiya rivoji

Drama (yun. drama — harakat) badiiy adabiyotning asosiy turidan biri (epos, lirika bilan bir qatorda). Drama teatrga ham taalluqli. Syujetlilik, harakatlarning

ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo‘linishi, bayonning yo‘qligi, personajlar munosabatlarining o‘zaro so‘zlashuvga asoslanishi dramaning o‘ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy (konkret tarixiy va umuminsoniy) muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko‘rishga (imo-ishora, harakat), shuningdek, eshitishga mo‘ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlariha ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o‘z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san’ati yuzaga kelgan va u kino san’ati uchun ham asos bo‘lgan. Dramaning asosiy janrlari — tragediya, komediya, drama.

Dramaturgiya (yun. dramaturgia) muayyan san’atkor, davr va xalqqa mansub dramatik asarlar majmui. Masalan, Hamza, Fitrat dramaturgiyasi, antik davr dramaturgiyasi, Uyg‘onish davri dramaturgiyasi, ingliz dramaturgiyasi, o‘zbek dramaturgiyasi.

Dramaturgiya bir tomondan san’atning bir turi, boshqa tomondan esa adabiyot va teatrning o‘ziga xos turidir. Shuningdek, drama ba‘zida umumiylikni, pyesalar to‘plamini (sahnani ochish uchun mo‘ljallangan asarlar) tushunadi. Dramaturgiya teatrning paydo bo‘lishi va paydo bo‘lishi davrida sodir bo‘ladi, chunki bu birinchi dramaturglar ijodining mahsulidir. Kino va spektaklning obrazli talqini konsepsiysi. Teatr dramaturgiyasi badiiy drama asosida yuzaga kelgan, lekin hozirgi teatrda u rejissyor ssenariyst yordamida amalga oshiriladi.⁶⁹

Istiqlol dramaturgiyasida shakliy izlanishlar, ijodiy tajribalar bir zum ham to‘xtagan emas. Dramaturglar sanog‘iga yetib bo‘lmas hayotiy holatlar shu holatlarda harakat qiladigan qahramonlar tabiatida ham jiddiy evrilishlar yasashi mumkinligini nozik his etgan holda drama-versiya, drama-vaziyat singari yangi ifoda shakllarini o‘ylab topganlarki, bu hol asarlarning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlagan.

Mustaqillik davri dramaturgiyasida milliy urf-odatlarga sadoqat mavzusi inson qadr-qimmatini ulug‘lash masalalari bilan uzviy bog‘liqlikda aks ettirildi. Mustaqillik sharofati bilan qadriyatimizni qadrlash, ulug‘larimizni ulug‘lash istagi dramaturglarimizda ham paydo bo‘ldi. Bu borada dastlab olim va dramaturg **I.Sulton** tashabbus ko‘rsatdi. U birinchi bo‘lib istiqlol yo‘lida nohaq qurbon qilingan xalq farzandi haqida “Abdulla Qodiriyning o‘tgan kunlari” nomli dramasini yaratdi. Cho‘lpon tavalludining 100 yilligi munosabati bilan T.Nizomning “Cho‘lpon” dramasi ham Andijon teatrida sahnalashtirilishi istiqlolimizning yana

⁶⁹ [https://uz.wikipedia.org › wiki](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC&oldid=1000000)

bir bayroqdori xotirasiga qo'yilgan haykal bo'ldi. Unda ko'proq e'tibor Cho'lponning qamoqdag'i hayoti, savol-javob manzarasi, shoirning qat'iyligi, xalq va millat ozodlig'i yo'lida jonini fido etishga tayyor turgan vatanparvar inson ekani ko'rsatildi. Bu dramalar shu kunlарimizning qadriga yetishga, istiqlol oson ro'y bermaganiga tomoshabinni ishontiradi va mustaqillikning qadrini oshiradi. Mamlakatimizda o'zligimizni anglash borasida amalga oshirilayotgan xayrli tadbirlar ma'lum ma'noda badiiy adabiyotning rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi nishonlanishi munosabati bilan bu zot haqida bir nechta yaxshi asarlar dunyoga keldi va bobokalonimizni yaxshitanib oldik. O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar bugungi dramaturgiya taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", Ilhom Hasanning "Bir kam dunyo", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi. U. Azimning "Bir qadam yo'l" dramasida inson ko'ngli mayillariga e'tiborsizlik, vaqtida odamni qadrlamaslik singari illatlar bir umr mehnat qilib, halol yashagan keksa kishining murakkab taqdiri misolida aks ettirilgan. Samarqandni ko'rish, uni ziyyarat etishni umr bo'yi orzu qilib yashagan, ammo vaqtida qo'lining kaltaligi, keyinchalik turmush tashvishlari bilan ovoraligi, undan so'ng farzandlarining e'tiborsizligi sabab bir qadam naridagi shaharni ko'rmay o'tib ketgan qariya va uning o'g'illari ruhiyatni asarda katta mahorat bilan ko'rsatilgan.

O. Yoqubovning "Bir koshona sirlari" darmasi. Mazkur drama 90-yillarda yaratilgan bo'lib, nomiga qarab, u detektiv-sarguzasht asar emasmiyan, degan o'yga borasiz. Darhaqiqat, unda qisman detektiv asarlarga xos ayrim xususiyatlar bor. Dramadagi voqeа-mojarolar, asosan, yangi chiqqan tadbirkor millioner xonadonida, uning hashamatli, ko'rkm koshonasida, ayni shu koshona — ulkan moddiy boylik bilan bog'liq holda kechadi. Bu xonadonni maxsus soqchilar qo'riqlaydi, oshpaz-u xizmatchilar xonadon egalari xizmatiga kecha-yu kunduz shay turadi. Bu xonadonning sobiq bekasi kechagi oddiy do'kondor, ko'rkm va shaddod ayol Dilora, uning qo'lida ishlaydigan oddiy tachkachi Sarvar qanday qilib qisqa fursatda bunday hadsiz boylik-martabani qo'lga kiritdi, degan savol, shuningdek, ularning oilaviy tarixi sizni qiziqtiradi, asar davomida bu savollarga javob ham topasiz. Biroq asarni, undagi personajlarni harakatga keltirgan badiiy asos, bosh muammo bu emas. Undagi asosiy narsa moddiy boylik bilan ma'naviyat, o'tkinchi mayllar bilan tabiiy tuyg'ular, boqiy qadriyatlar orasidagi nomuvofiqliklardan kelib chiqqan ziddiyatlardir. Aniqrog'i, ushbu drama qalb koshonasi sirlari, shaxs jumbog'i, inson

qalbining hech qanaqa andazalarga sig‘maydigan turfa jilolari, g‘aroyib sinoatlari to‘g‘risidagi asardir.

Drama markazida turgan Sarvar va Dilora turmush jumboqlari, bu ikki murakkab shaxsning yurak sirlari ifodasi odat tusini olgan talqinlardan yiroq. Sarvarning o‘z xotinini taloq qilib, qo‘shti ayol Gulnozaga mayl ko‘rsatishi qandaydir ma‘naviy aynish, boyvachchalik, mol-dunyo tufayli “quturish” oqibati emas. Bu yigit uddaburon xotini orqasida omadi kelib, tadbirkor millionerga aylangan, lekin boylikka hirs qo‘ymagan, o‘sha samimiy insonligicha qolgan. U tadbirkorlik bobida ham halol yo‘ldan boradi, pora bilan ish bitiradigan ipirindisipirindi “tadbirkorlarni”, qalang‘i-qasang‘i afiristlarni jinidan battar yomon ko‘radi. Uning ko‘ngli noplaklikni, andishasizlik va behayolikni aslo ko‘tarolmaydi; “xotinining marhamati bilan boyvachcha bo‘ldi” qabilidagi ta’nalarga, erkatoy, ko‘hlik xotinning behayo sho‘xliklari-yu tantiqliklariga aslo chidolmaydi, bunday turmushga qat’iy chek qo‘yadi. Biroq taloq — ajralish hali uning uchun najot, mushkulot chorasi bo‘lmaydi. Orada biri-biridan shirin farzandlar bor. Boz ustiga xotin undan ko‘ngil uzib ketolmaydi, ko‘ngli tilaganiga esa yetolmaydi. Shu tariqa yigit hadsiz boylik egasi bo‘lsa-da, qo‘li har joyga yetsa-da, baribir o‘zini ojiznotavon, baxtsiz his etadi; farovon, dabbabali hayot unga aslo tatimaydi.

Dramada yana bir jumboqqa duch kelasiz. Asar voqealari muhtasham koshona, badavlat xonadonga yondosh qo‘shti — mo‘jaz, kamtarona, oddiy ziyoli oilasidagi vaziyat bilan barobar kechadi. Bir qarashda bu kamtarona hayot kechirayotgan pokiza oila qo‘shti badavlat oilaga qarama-qarshi qo‘yilayotganday, bu oilaning turmush tarzi namuna — ideal qilib ko‘rsatilayotganday tuyuladi. Biroq dramaturg bunaqa jo‘n, ibridoij talqindan qochadi. Ziyoli oila a‘zolarining qo‘shti xonadonga munosabati ikki xil: er Sarvarlar turmushidan xazar qiladi, xotin esa bu xonodon a‘zolariga chin insoniy munosabatda bo‘ladi. Sekin-asta bu ideal-namuna bo‘lib ko‘ringan oilaning ham o‘ziga xos ichki ziddiyat-muammolari ayon bo‘la boshlaydi. Buyuk jarroh Darveshali turmush o‘rtog‘i shifokor Gulnozani har qancha yonib sevmasin, uning ko‘yida telbalarcha parvona bo‘lmasin, uni o‘zgalardan qizg‘anmasin, baribir bu dilbar ayolning ko‘nglini ololmaydi, unga to‘kis baxt hadya etolmaydi. Xullas, Sarvar ham, Dilora ham, Darveshali ham, Gulnoza ham-dramadagi barcha yetakchi personajlar go‘zal shaxslar — davrning asl, bokira, baxtli bo‘lishga, ehtiromga loyiq odamlaridirlar. Chigal insoniy munosabatlar haqida bahs yurituvchi bu drama qandaydir nurli, bokira bir tuyg‘u bilan yo‘g‘rilgan.⁷⁰

Sarvar bilan Dilora oilasidagi farovonlikni, peshqadam ziyorolar — Darveshali bilan Dilnoza orasidagi o‘zaro hurmat-ehtirom, el-yurt ishiga, kasbi-

⁷⁰ https://hozir.org/odil-yoqubov.html#Adib_dramaturgiyasi

koriga sadoqatni kimlar orzu qilmaydi, deysiz!? Nega shunday bo‘la turib, u ikki oilada bu xil ko‘ngilsizliklar ro‘y berdi? Nega bu oila a’zolari baxtsiz? Turmush chigalliklariga najot topmay o‘rtanadilar?! Buni hayot deydilar, ko‘ngil ko‘chalari deydilar. Bu drama inson hayoti, qalbi naqadar murakkab, sir-sinoatga boy, uni anglash, qadrlash aslida o‘ziga xos ilm, yuksak san’at ekanini yana bir karra eslatishi, sizni jiddiy o‘y-mushohadalarga undashi bilan qimmatlidir.

2.Istiqlol davri dramalarida tarixiy voqelik va badiiy to‘qima

Har qanday tarixiy asarda badiiy to‘qima bo‘lishi muqarrardir. Chunki yozuvchi oldiga qo‘yan maqsadni, g‘oyasini, kontseptsiyasini to‘qimasiz ilgari surishi dushvorr. Sababi xuddi shu narsalarni amalga oshirishga badiiy to‘qima juda qo‘l keladi.

A.Oripovning «Sohibqiron» dramasining yozilishi adabiyotimizda katta voqeа bo‘ldi. Bu drama o‘zbek ijodkorlari oldida hali buyuk tarixiy shaxslar faoliyatini yangicha idrok etib, tomoshabinlarga ko‘rsatish, tarixiy jihatdan haqqoniy timsollarni yaratish vazifasi turganligini yana bir bor ko‘rsatdi. Dramada juda ko‘p tarixiy shaxslar bor. Lekin ularning yetakchisi, albatta, Amir Temurdir. Ma’lumki, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarning barchasi ham uning ma’naviyatini, ahloqini, tabiatini, ruhiyatini, insoniyligini ifodalamaydi. Buni yaxshi anglagan shoir badiiy to‘qimadan unumli foydalangan. Drama Temurning soch oldirish epizodi bilan boshlanadi. Sahnadagi voqealar, dialog va monologlar shunday asosga qurilganki, ularning birida Temurning insoniylik fazilati ochilsa, ikkinchisida sarkardalik mahorati, uchinchisida hukmdorlik fazilati, to‘rtinchisida katta siyosatdon, vaziyatni oldindan ko‘ra biluvchi bilimdon alloma sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Shuningdek, tarixiylik o‘z ifodasini topadi. Birinchi sahnada Amir Husaynning kirdikorlari, sarbadorlar qismati va Temurning ularga bo‘lgan munosabatidagi tarixiy haqiqat ohib berilib, shu voqeа bilan noxush fikrlarga oydinlik kiritiladi. Dramada bu tarixiy voqelik Temur tilidan badiiy haqiqatga aylantirilar ekan, o‘z navbatida, Sohibqironning jo‘mardligini ham ifodelaydi.

Shaxsning buyukligi faqat jangu jadallarda qo‘lga kiritgan galabalar va mardonavorlik bilan belgilanmaydi, balki ezgu a’mollar uning ulugligini belgilaydi. Amir Temur ikkala fikrga tegishli shaxsdir. Uning janglari emas, balki yaxshilik, ya’ni xalqni va kelajakni o‘ylab qilingan harakatidir. Mana bu borada akademik Bo‘rivoy Ahmedov o‘zining “Amir Temur” roman-xronikasida nima deydi: “... butun dunyoga, hech bo‘lmasa, uning yarmiga hukmon bo‘lish emas, balki jumla jahonni har toifadagi adolatsiz podshoh va mufsidlardan (fasodchi, buzg‘unchi) himoya qilish, bozorgon va ziyyoratchilarni yo‘lto‘sar bosqinchilarning zulmidan

qutqarish, feodal tarqoqligiga barham berib, markazlashgan davlat barpo etish orqali o‘zaro nizolarni yo‘q qilishni niyat qilgan”. She’riy dramada shu narsaga katta e’tibor berilgan va badiiy haqiqat, ya’ni qahramonning faoliyati ochilgan.

Odil Yoqubovning “Avlodlarga vasiyat” tarixiy dramasi ham Sohibqiron umrining so‘nggi kunlari bilan bog‘liq voqealar qalamga olingen. Lekin shunga qaramay, kishi Amir Temurning shaxsiyati, uning tabiatи va qanday qalbga ega bo‘lgan insoniyligi haqida keng ma’lumotga ega bo‘ladi. Chunki Sohibqiron avvalgi asarlarda tasvirlangandek faqat mohir sarkarda, qattiqqo‘l taxt egasi bo‘lib emas, go‘zallikka moyil, adolatli, barcha narsaning tosh-tarozisini to‘g‘ri qo‘ya biladigan, hayotni, vaziyatni teran anglaydigan va to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, o‘z xalqi hamda davlatining kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek, tinchlikni barqaror tutadigan, farzandlari, beklari o‘rtasida buzuvchi emas, quruvchi inson sifatida gavdalanadi.

Drama ikki parda, to‘rt ko‘rinishdan iborat. Har ko‘rinishda Sohibqironning turli insoniy qirralari ochila boradi. Asar voqeasi kishi diqqatini tortadigan, ya’ni qalbi iztirobga to‘la, xasta Temurning holati taşviridan boshlanadi. Dramaning ikkinchi ko‘rinishi Saragul chopar kiyimida Suluvko‘zdan mujda olib kelishi, qo‘riqchi Bosqonbekni Temurga otilgan kamon o‘qiga o‘zini qalqon qilishi, Boyazid bilan Sohibqironning o‘zaro suhbati asosida qurilgan. Bu qisqa epizodlar katta maqsadlarga yo‘naltirilgani uchun fikriy ko‘lamdorlikka ega. Bu esa kishini voqeordan mantiqiy xulosa chiqarishga undaydi. Drama mana shunday hayotiy voqealardan saboq berishi va Sohibqironning boshqa asarlarda ochilmagan insoniy fazilatlari inkishof qilinganligi bilan adabiyot va inson ma’naviy olamida muhim o‘rin tutadi.⁷¹

E. Samandarning “Arabmuhammad Bahodirxon” tragediyasida insoniyat paydo bo‘lgandan beri hal bo‘lmay kelayotgan va bundan keyin ham to‘la hal etilishi mumkin bo‘lмаган yaxshilik va yovuzlik, nafs va qanoat, hokimiyat va farzandlik burchi singari qarama-qarshi qadriyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuv o‘tmishda yashab o‘tgan bobolarimiz taqdirlari misolida ta’sirli tasvirlab berilgan. Qo‘lida imkoniyati bo‘lishiga qaramay, o‘zining yovuz farzandlariga qarshi qo‘shin tortishni istamagan Arabmuhammadxon shaxsiyatidagi yuksak sifatlar va o‘z otalarining ko‘zlariga mil tortish darajasida yirtqichlashgan Habash va Elbars timsollaridagi tubanliklar asarda butun ko‘lami bilan juda ta’sirli yo‘sinda ko‘rsatib berilgan.

3. Ijodkor tarixiy shaxslari timsolida insoniylikning badiiy ifodasi

Tarixiy janr, tarixiy mavzudagi asarlar – adabiyot va san’atdagi asosiy janr yoki mavzulardan biri, tarixiy o‘tmish mavzusida yozilgan asarlar turkumidir.

⁷¹ Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B . 302-303

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroficha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arkiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilarini tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash, zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratlari tomonlardan saboq olishga undash, bugungi vogelikdagি ayrim nohush voqe va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Tarixiy o‘tmish mavzui asosan nasrining roman, qissa va hikoya, dramaturgiyaning tragediya va drama, shuningdek, she’riyatning doston, ballada, lirik she’r kabi janrlarida yoritiladi. Jahon adabiyotida tarixiy o‘tmish mavzui U. Shekspir tragediyalari, V.Skott, J.Golsuorsi, L.N. Tolstoy va boshqa yozuvchilarining romanlarida katta mahorat bilan yoritilgan. O‘zbek adabiyotida zamona viy tarixiy asar birinchi marta Abdulla Qodiriy tomonidan yaratildi. Yozuvchining “O‘tkan kunlar” romani bilan o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janri maydonga keldi. Oybek “Qutlug‘ qon” romanida Qodiriy boshlab bergen tarixiy roman an‘analarini rivojlantirdi va “Navoiy” romani bilan tarixiy biografik roman janriga tamal toshimi qo‘ydi. Keyinchalik O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi”, P.Qodirov “Yulduzli tunlar”, Muhammad Ali “Sarbadorlar” romanlari bilan tarixiy roman janrini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dramaturgiyada tarixiy mavzuda asar yozish tajribasini Fitrat “Abulfayzxon” tragediyasi bilan boshlab berdi. Keyinchalik shu janrda Uyg‘un va Izzan Sultonning “Alisher Navoiy”, Hamid Olimjonning “Muqanna”, Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek”, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” singari tragediyalari vujudga keldi va bu asarlar tarixiy shaxs obrazini yaratishda dramaturgiyaning badiiy imkoniyatlari katta ekanini namoyish etdi. She’riyatda esa turli davrlarda Rafiq Mo‘minning “Qapchig‘ay”, Oybekning “Navoiy” va “Hamza”, Sulton Jo‘raning “Bruno”, Usmon Azimning “Xalil Sulton”, Azim Suyunning “Sarbadorlar” singari dostonlari yaratilib, tarixiy mavzudagi dostonlarning badiiy tamoyillarini belgilab berdi

Dramalar, asosan, tarixiy shaxslarning yubileyлari munosabati bilan yaratilayotgani sahna asarlarining nomlarini sanashdayoq ma'lum bo'ladi. To'ra Mirzoning "Amir Temur", Abdulla Oripovning "Sohibqiron", Odil Yoqubovning "Fotihi muzaffar yoki bir parivash asiri" dramalari jahongir Amir Temurga bag'ishlangan bo'lsa, Hayitmat Rasulning "Piri koinot", Yo'ldosh Sulaymonning "Al-Farg'oniy muhabbat'i", Ibrohim Rahimning "Farg'ona farzandi" asarlari buyuk matematik va astronom ajdodimizga atalganligi ko'rinish turibdi. Shuningdek, Mashrab, Cho'lpon, Usmon Nosir singari mashhur yurtdoshlarimiz yubileyлari munosabati bilan ham bir qator sahna asarlari dunyoga keldi. Badiiyat nuqtai nazaridan bu asarlarni yoppasiga salbiy baholab bo'lmaydi. Lekin ularning estetik kashfiyat bo'limgaganligi ham haqiqatdir. Bu xil asarlarda, aksariyat hollarda, drama mualliflarining ezgu niyati badiiy vogelikka aylanmay qolgan. Chunki asar ichki ruhiy ehtiyojdan ko'ra ko'proq ijtimoiy zaruriyat tufayli dunyoga kelgan.

Tarixiy shaxslarning hayotiy va ijodiy faoliyatini yoritish ikki jihatdan qiyinchilik tugdiradi va ikki jihatdan ijtimoiy hamda ma'naviy hayot uchun foydalidir. Qiyinchilik tug'dirishi shundaki, kishi faqat shaxsning hayoti va ijodini o'rganish bilan maqsadga erisha olmaydi. Davr tarixini va zamonning ijtimoiy hayotini chuqur o'rganishi lozim. Shundagina shaxsning to'laqonli qiyofasini yaratishga muyassar bo'ladi va originallikka erishadi. Foyda keltirish esa shaxs yashagan davr va muhit xususida chuqurroq ma'lumotga ega qilishi hamda shaxs kamoloti ta'sirida insонning ma'naviy boyishi bilan birga u haqida haqqoniy tasavvurga ega bo'lishdir. Chunki kishi chin voqeа va qiyofadan chuqurroq ta'sirlanadi va ibrat oladi. Shoир va dramaturg Komil Avazning "Ogahiy" nomli musiqali tarixiy dramasi xuddi shu yo'lда yozilgan. Komil Avaz dramasida hayotiy voqelikka tarixiy nuqtai nazaridan to'g'ri yondashilgan va to'g'ri yoritilgan. Chunki Ollohqulixon va Muhammad Rahimxon II — Feruz obraziga to'g'ri munosabatda bo'lingan. Bu ikki hukmdor Xorazm madaniy hayotida katta rol o'ynagani endilikda ma'lum. Dramada Ogahiy hayotining e'tibordan chetda qolib kelayotgan muhim qirralari ham alohida urg'u bilan tasvirlangan. Bu drama muallif niyatiga juda ham hamohangdir"⁷²

Ma'lumki, hayotda barcha buzgunchiliklar, hukmdorga qarshi chiqish, ma'rifatli shaxsga adovat uygotish, uni yerga urish fikri tor, johil, mansabparast, xudbin kimsalarning uyushib fitna qilishlaridan kelib chiqadi. Bu holat har bir davrda bo'lган va hozir ham bor. Drama xuddi shu hayotiy haqiqatning badiiy ifodasidan boshlanadi. Bu bilan o'sha davrni, ya'ni Ogahiy yashagan ijtimoiy muhit haqida yorqin tasavvur uyg'otish bilan birga keyingi kechadigan voqealarning mohiyatini anglatadi va shaxslar xatti-harakatining botiniy yo'nalishini

⁷² Комил Аваз. Хива дилбанди. - Т.: Ёзувчи. 1997. 7-бет

belgilaydi.Ogahiy bu ko‘rinishda hayot hodisasining bilimdoni va butun vujudi bilan xalq manfaatining ham amaliy, ham ma‘nan himoyachisi sifatida gavdalani.

Hayitmat Rasulning “Piri koinot” dramasi ham Farg‘oniy faoliyatiga bag‘ishlangan. Mazkur drama falsafiy xarakterga egaligi, voqealar va obrazlar ko‘lami kengligi, ular bir-biri bilan mantiqiy boglanib dramaturg g‘oyasini yaxlitlashtirgani hamda olimning jahonda mashhurligi “Bayt ul-hikma”da katta mavqeい o‘z ifodasini topganligi bilan ustunlikka ega. Drama Farg‘oniyning faoliyati xususida deyarli to‘la tasavvurga ega qiladi. Chunki dramaturg ustalik bilan ularni detallarda ko‘rsata olgan. Dramada oldindan aytilgan oy tutilish hodisasi ro‘y beradimi yo yo‘qligini bilishga yig‘ilganlarning holatini ko‘rsatishdan boshlanadi. Olim va shogirdlari hayajonda. Sababi bundan keyin “Bayt ul-hikma”da tadqiqod ishlarini davom ettirishlari, umuman, olimlar o‘rtasidagi mavqeい aytganining ro‘y berishiga bogliq. Bunga ishonmaganlarning esa soni ko‘p, jumladan, olimlarning. Ularning ko‘rinishilari mag‘rur va istehzoli. Vaqt yaqinlashgan sari aytilgan hodisa ro‘y bermayotganidan bu holatga xursandchilik kayfiyati ham qo‘shiladi. Bundan Farg‘oniy ezildi, ma‘yus tortib qoladi. Uning hayajoni, kayfiyati tomoshabinga ham ko‘chib, olimga nisbatan xayrixohlik tuygusi uyg‘onadi. Bu tuyg‘u, o‘z navbatida, vatandoshlik, zamondoshlik tuyg‘usi hamdir. Aytilgan vaqtдан bir daqiqa o‘tganda olimni ko‘ra olmaydiganlar maydonni tark eta boshlaydilar. Bu mag‘lubiyatdan Farg‘oniy bir ahvolga tushib, boshi egik holda o‘tirib qoladiki, bu hol tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi. Shu payt sevimli shogirdi Dilmurod: “Ustoz, qarang tutilyapti”, deydi. Olim birdan tetiklanib, ruhlanib tutilish holatlarini asbobi yordamida qarab, uni shogirdiga jarayon qay tarzda ro‘y berayotganini qayd qilishni aytib turadi. Bundan tomoshabinlar ham yengil tortadi. Bu narsa dramaning joziba kuchidandir, o‘z navbatida, dramaturgning mahoratini ham namoyon etadi.⁷³

Istiqlol davrida she‘riyat va nasr borasida mustaqillikkacha bo‘lgan yaqin o‘tmishdagi estetik yuksakliklarga erishibgina qolmay, undan balandroq cho‘qqilarni egallah imkoniyati yuzaga kelganligi ayon haqiqat bo‘lsa, dramaturgiya bobida ulkan ishlar qilinayotgani bor haqiqat.

Xullas, mustaqillik davri adabiyoti sog‘lom tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Hozir yaratilayotgan turli janrlardagi asarlarda zamondoshlar ruhiyatini tasvirlashning eng ta’sirchan usullarini kashf etishga jiddiy e’tibor berilyapti. O‘zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlarida sodir bo‘lgan evrilishlar **dramaturgiya** taraqqiyotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Dramaturgiya garchi sahna talablariga bog‘liqlik nuqtayi nazaridan konservativ tur bo‘lsa-da, shakliy izlanishlar qilish, ijodiy tajribalar o‘tkazish muhim sanaladi. U. Azim, E. Samandar va A. A’zam qalamiga mansub dramalar sahna asarlari yaratishdagi dadil tajribalar

⁷³ Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B . 322

mahsulidir. Dramaturglar tomonidan son-sanoqsiz hayotiy vaziyatlarda harakat qilayotgan qahramonlar tabiatidagi evrilişlər ham adoqsız darajada turfa bo'lishi mümkünligi nozik his etilgan va drama-versiya, drama-vaziyat singari ifoda shakllari o'ylab topilgan. Bu hol mazkur sahna asarlarining muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlagan.

Har qanday badiiy asarda insonlarning ma'naviy kamoloti yoki tubanalashuvining obrazli tasviri muhim sanaladi. Jumladan, mustaqillik davri o'zbek dramalarida zamon ham, kishilar yoki tarixiy shaxslarning odilliği, haqgo'yligi, xolisligi, olimligi, sadoqati, mardligi hamisha shu insoniy fazilatlarning zidi bo'lgan axloqiy-ma'naviy tushunchalar bilan yonma-yon muhokama qilinadi. Tabiiyki, bunday murakkab va ziddiyatli hayot girdobiga tushgan qahramonlar orasidan har doim yuksak insoniy kamolot darajasiga ko'tarilgan chin ma'nodagi yuragi butun shaxslar g'olib bo'lishadi. Sir emaski, hamma zamonlarda dramatik asarlar bevosita sahna hayoti bilan bog'liq bo'lib kelgan. Muallif qahramonlarining sahnada o'zlarini tutishlarini va o'sha asarni tomoshabin qanday qabul qilishini ko'z oldiga keltirishi hamda syujet voqealarining barcha komponentlarini puxta o'ylashi kerak. Boshqa adabiy tur va janrlar bilan dramatik asarlar taqqoslanganda uning poetik xususiyati va tarkibiy tuzulishini yaxshi anglab olish mumkin. Dramatik asar voqelikning o'ziga xos badiiy talqini bo'lgani uchun obrazlar tabiatni ham dialogik va monologik nutq, xatti-harakat, imo-ishora, sukut, yig'i yoki kulgi kabi sahnaga xos tasviriy-psixologik vositalar yordamida ochiladi. Tabiiyki, bu omillar sahna asarining umrboqiyligini ham belgilaydi. Umuman, bugungi o'zbek dramaturgлari ozod yurt yoshlарining ma'naviyati yuksak, axloqi pok, ruhiy olami mustahkam bo'lishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shamoqda.

4. Komediyada hayotiy va insoniy illatlarning badiiy ifodasi

Komediya (yun κωμῳδία, κῶμος – dionis) sharafiga bayram va ἀστού „ashula“, „qo'shiq“) san'at janri bo'lib, undagi asarlarda mutoyiba va satira unsurlari keng ishlataladi.⁷⁴

Komediya — hodisa, voqeа va xususiyatlar kulgili ko'rsatilgan drama turi. Komediyada ijtimoiy hayotdagi nuqsonlar, kishilarining ongi va harakteridagi yaramas xususiyatlar kulgi vositasi bilan tanqid etiladi, jamiyat hayotidagi eskirib qolgan hodisalarga zarba beriladi. Hayotning rivojlanish qonunu oldida umri tugagan narsalar, sarqitlar kulgili ahvolga tushib qoladi. Bularni qalamga olish orqali komediya yaratiladi. Komediyalarning saviyasi kishida haqli e'tiroz va jiddiy

⁷⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Komediya>

xavotir uyg'otadi. Negaki, o'zbek komediya chiligining dastlabki qadamlariyoq juda zalvorli va esda qolarli bo'lgan. Hamza, Abdulla Qahhor, Sharof Boshbekovlarning teran ma'noli kulgi asarlarini eslashning o'zi fikrimizning nechog'liq haq ekanini ko'rsatadi. Bugungi komediyalarning badiiyati nochor bo'lgani uchun na ijrochilarga, na tomoshachilarga va na o'quvchilarga biror estetik ozuqa bera oladi. Sahnnaviy ijodning komediya deb atalmish bir turiga ko'cha so'zлari, tiyiqsiz chuchmallik hamda pardasizlik katta sur'at bilan kirib kelmoqda.

Har bir odamda bo'lgani kabi har bir millatning va har bir davrning ham o'z mo'ljallari, egallanishi orzu etiladigan marralari bo'ladi. Mustaqillikka erishilganidan keyingi davr o'zbek adabiyoti uchun inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, odam ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etishga erishish ana shunday baland marradirki, milliy adabiyotimiz ana shu marrani egallahga intilmoqda.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Bugungi o'zbek dramaturgiyasining xususiyatlarini sharhlang?
2. Tarixiy dramalarda ayollar obrazni va ularning ruhiyati qanday berilgan?
3. Dramalarda tarixiy va to'qima voqeilarga qanday falsafiy tus berilgan?
4. Tarixiy shaxslarning hayotiy va ijodiy faoliyatini badiiy jihatdan yoritish qanday qiyinchiliklarga ega?
5. "Ogahiy" musiqali dramasida tarixiy shaxslarga qanday munosabatda bo'lingan?
6. Odil Yoqubovning "Avlodlarga vasiyat" tarixiy dramasida qaysi tarixiy shaxs bilan bogliq voqealar qalamga olingan?
7. A.Oripovning "Sohibqiron" dramasining badiiy yuksakligi nimada?
8. Tarixiy janr, tarixiy mavzudagi asarlar deganda nimani tushunasiz?
9. Hayitmat Rasulning "Piri koinot" dramasi qaysi tarixiy shaxs faoliyatiga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov H.Istiqlol davri o'zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B . 302-303
2. Комил Аваз. Хива дилбанди. - Т.: Ёзувчи. 1997. 7-бет
3. Karimov H.Istiqlol davri o'zbek adabiyoti.-T.: Yangi davr, 2010.B . 322
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Komediya>
5. <https://uz.wikipedia.org › wiki>
6. https://hozir.org/odil-yoqubov.html#Adib_dramaturgiyasi

GLOSSARIY

Adabiyot – (arabcha — adab) “odob” so‘zidan olingen. Odob-axloq jamiyat ma’naviyatining o‘zagi, inson kamoloti (insoniyligi)ning ko‘rsatgichi sanaladi. Axloq — ma’naviyatning amali, ma’naviyat esa o‘zlikni anglash demakdir.

Adabiy ta’lim asoslari — adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni adabiy ta’lim asosini tashkil etuvchi tushunchalardir.

Adabiy janr – (frans. genre — tur, jins) — adabiyot rivoji jarayonida yuzaga kelgan asarlarning tasvirlash yo‘llari, kompozision qurilishi, bayon usullari, badiiy vositalar, hayotiy hodisalarni qamrash ko‘lami va miqyosiga ko‘ra ko‘rinishlaridir.

Adabiyot — San’atning bir turi (badiiy Adabiyot deb ham ataladi); vogelikni so‘z yordamida obrazlar orqali aks ettiradi. Adabiyot avval og‘zaki bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng yozma shaklga o‘tgan. Adabiyot so‘z orqali insonning his-tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi.

Badiiylik — (arab. “bada” — “yangilik kiritish, ijod qilish”) hayotni jonli va ta’sirli qilib tasvirlash, ifoda etilishidir.

Badiiy asar tahlili — tahlil adabiy asarning badiiy mantig‘iga singishish maqsad qilib qo‘yilgan ilmiy izohdir. Badiiy tahlil adabiy asarning hayotiy va badiiy mantiqiy hamda estetik jozibasini anglashga yo‘naltirilgan ilmiy faoliyatdir.

Bilish — o‘quvchilar maktabda adabiyotni o‘rganish bilan birga u haqdagi bilimga ham ega bo‘libgina qolmay, adabiy-ma’naviy kamolotga ham erishib boradilar, ularda badiiy qobiliyat, estetik savodxonlik tarbiyalanadi.

Bilimlarni muammoli yo‘l bilan bayon qilish metodi — qo‘yilgan muammoning yechimini topish yo‘lida o‘quvchi mustaqil izlanadigan metod.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi — ona tili darslarida keng qo‘llanib kelingan metodlardan bo‘lib, o‘rganilayotgan o‘quv materiali o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Baxshi – (mo‘g‘ulcha va buryatcha b a x sh a, bag‘sha — ustod, ma’rifatchi; sanskritcha bhikshu — qalandar, darvesh) — xalq dostonchisi. Qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor.

Doston – (forscha-tojikcha. nazm yoki nasr bilan yozilgan hikoya, poema; epik asar; sarguzasht, kechmish voqealar) deb yuritiladi. U adabiyotimizdagi epos singari qadimiya va go‘zal janrdir.

Drama — (yunon. Drame — harakat) atamasi keng ma’noda — dramatik turni, tor ma’noda — drama janrinini bildiradi. Drama V.Belinskiy asoslaganidek, tragediya bilan komediya o‘rtasidagi janrdir, u mash’um falokatni ham, humoristik

va satirik kulgini ham talab qilmaydi. Balki hayot hodisalarini yuqori darajali tarzda, jiddiy holatda tasvirlaydi.

D i a l o g — ikki va undan ortiq shaxs orasidagi uzlusiz nutq shakllaridan biri. Dramada diapogdramatik holatni rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Intriga — epik yoki dramatik voqealarning murakkab ziddiyatlar asosida qurilishi.

Demokrit — (V asrning ikkinchi yarmi) mashhur yunon faylasufi.

Epos — (gr. epos — so‘z, nutq, hikoya) voqelikni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asar turi.

E’tiqod — insонning dinga bo‘lgan munosabatini belgilashda qo‘llaniladigan tushuncha.

Ertakchi — ertak aytuvchi, hikoyachi

Folklor — (ing. Folk — xalq, lore-donolik) “Xalq donoligi”, “Xalq donishmandligi” kabi ma’nolarni anglatib, xalq og‘zaki badiiy ijodi atamasi bilan yonma-yon qo‘llaniladi.

Falsafa — (yunoncha “filio” (sevmoq), “soфos” (donishmandlik) — “donishmandlikni sevish” fani insонning mohiyati haqidagi eng muhim bilimlarni, eng umumiyl muammolarini o‘rganadi.

Garmoniya — (musiqada, she’rda) tovushlarning bir-biriga mosligi, uyg‘unligi

Hikoya — (arab.ma’nosi: “1) biror narsaning og‘zaki bayoni, tafsiloti; 2) nasriy yo‘l bilan yozilgan kichikroq badiiy asar.

Hazrat — (arabcha — janob, hurmatli) — Olloh, payg‘ambar kabi muqaddas zotlarni, shuningdek, din arboblarini ulug‘lash uchun ularning ismi oldidan qo‘llaniladi.

Ifodali o‘qish — axloqiy-estetik tuyg‘ularni shakllantirish.

Ilmi tajvid — o‘rta asrlarda adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatuvchi fan bo‘lgan.

Ilmi kalom — jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi fan.

Ilmi munozara fani — ilmiy va adabiy bahsni o‘rgatgan.

In‘ikos — aks, tasvir, ko‘rinish. Borliqning inson ongidagi tasviri.

Isokrat — antik davrning mashhur notiqlari.

Ilmi balog‘a — til qoidalariga to‘la amal qilgan holda so‘zlash va yozish bilan bog‘liq fan.

Ilmi fasohat — yoqimli, chiroyli so‘zlash va yozishni o‘rgatadigan fan

Jargon yoki argo — (frans. Jargon-buzilgan til) — ma’lum guruh kishilarigagina tushunarli bo‘ladi.

Kitob – (arab. yozilgan, muqovalangan asar) 1.Ma'lum matnli varaqlardan iborat, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'limgan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar. 2.Ma'lum shaxs, voqeа-hodisaga oid tugal, odatda nashr etishga (kitob bo'lishga) mo'ljallangan asar.

Kitobxon – (fors. o'quvchi, o'qiydigan) Kitob o'quvchi.

Kitobxonlik – Kitobxonlik birgalikda kitob o'qish demak.

Komediya – (yunon.comos—“quvnoq kishilar”(olomon) va oide-qo'shiq)da hayot voqeа-hodisalari dramatik qahramonlarning kulgili fe'l-atvorlari, xattiharakatlarida voqe bo'ladi.

Latifa – (arab. “nozik, yoqimli, zarif”) xalqning o'tkir mushohadasi asosiga qurilganyoqimli va nozik kulguli eng kichik va nodir “hikoya” (“zarifa”, “ajiba”) sidir.

Logograflar — so'zlovchilarga tayyor nutq matnlarini yozib beruvchi kishilar.

Mutolaa – (arab.diqqat bilan o'qish, o'rganish). Diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish.

Mutolaa madaniyati — asarni anglash va uni tushunish.

Monolog — badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqi. Monolog dialogdan nutqqa boshqa shaxslarning aralashmasligi bilan farq qiladi.

Notiqlik san'ati – fikrni bayon etishda kishilarning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ta'sirchan so'zlash.

Nutq madaniyati – fikrni bayon etishda til vositalaridan o'rinali va maqsadli foydalanish usullari.

Nutqning to'g'riliği – leksik va grammatik vositalardan nutq jarayonida o'rinali foydalanish usullari.

Nutqning ta'sirchanligi – nutq jarayonida tilning ifoda va tasvir vositalaridan foydalanish.

Nutqning ifodaliligi – nutq jarayonida maqol, matal, frazeologik birliklar va hikmatli so'zlardan o'rinali foydalanish usullari.

Ohang – (fors. — tovush, nag'ma, kuy) — musiqiy ifoda vositasi sifatida eng kichik kuy bo'lagi, intonatsiya.

Obraz – (ruscha. “aks”) Borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi.

Pauza — nutq oqimidagi ayrim to'xtalishlar.

Psixologik pauza — so'zlovchingin kuchli his-hayajonini, ruhiy holatini ifodalovchi, vaqt birligi jihatidan nisbatan katta bo'lgan pauza.

Parallelizm — she’riy asarlarda parallelizm ikki yoki undan ortiq hodisani yonma-yon qo‘yish orqali poetik mazmunni ochishda xizmat qiladi.

Platon (Aflatun) (429-348-yillar) — mashhur yunon faylasufi.

Povest – (ruscha so‘z, ma’nosi hikoya, rivoyat qilish)ning asosiy belgisi, unda hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan kengligi; shunga muvofiq syujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi ko‘zga tashlanadi.

Poema – (yun. poiema – ijod)da hayot va odamlar qalbi epik (voqeа) va lirik (kechinma — tuyg‘ular) tarzida kashf etiladi. Poemada epika va lirika birlashib, yaxlit liro-epik oqimni vujudga keltirib hayotiy voqeа-hodisalarining va qahramon xarakteridagi kuchning ruhi (qalbi)ni ochadi, tahlil qiladi, hayajonli ifodalaydi.

Qissa – (arab. “voqeiy hodisa yoki afsonalar bayon qilingan epik asar; syujetning murakkabligi jihatidan romandan ko‘ra soddaroq badiiy asar”) – eng qadimgi janrlardan biri bo‘lib, unda asosan ishqiy mazmun yetakchilik qiladi.

Qur’oni Karim (arabcha о‘qimoq, qiroat qilmoq) — musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi.

Qissaxon — afsona, rivoyat va dostonlarni ifodali qilib aytish yoki badiiy o‘qish mahoratiga ega bo‘lgan professional ijrochi.

Ritorika – (gr.rhetor-“notiq”) murojaat(ritorik nido, ritorik xitob, ritorik g‘azab, ritorik undov va h.) – poetik figuralardan biri bo‘lib, unda personajlarning quvonch, hayrat, nafrat, iltimos, buyruq kabi yuzlab hissyotlarining ko‘tarinki, tantanali, kulgili, kesatiqli, g‘azabli (g‘oyanining talabiga mos tarzdagi) ifodasidir.

Ritorik murojaat — nido, xitob shaklidagi stilistik usullardan biri bo‘lib, shoirning poetik nutqda tantanavorlik, ko‘tarinkilik, g‘azabkorlik, kesatish ohanglarini ifodalashga xizmat qiladi.

Syujet – (frans. predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topadigan voqealar tizimini anglatadi.

Substantsiya — tub mohiyat.

Tragediya – (yun. tragos – echki (taka), ado — qo‘sishq)da asosan ilohiy kuchlar va mifologik qahramonlar o‘rtasidagi murosasiz kurashlar falsafasi, yuqori tabaqa vakillari (podshohlar, shahzodalar, qo‘mondonlar, dohiylar, yo‘lboshchilar, boshliqlar, yetakchilar)ning fojialari aks etgan.

Tafsir (arabcha – sharh, izoh). Qur’onning madrasalarda alohida fan sifaida o‘rganaladigan mufassal sharhi.

Targ‘ibotchi — targ‘ibot ishlarini olib boruvchi shaxs.

Tazkira (arab. — eslatmoq, zikr etmoq) — o‘rta asr forsiy va turkiy tillardagi adabiyotshunoslik janrlaridan biri.

Tasavvuf, sufylilik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot.

Va’z — diniy yoki ma’naviy mavzudagi jamoa nutqining shakli bo‘lib, odatda jamoat xizmatining bir qismi sifatida yetkaziladi.

Voiz — nutq so‘zlovchi, notiq.

Voizlar — axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda nutq so‘zlovchi ma’rifat targ‘ibotchilar.

Voizlik turlari: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik

O‘xshatish — ikki narsa yoki voqeal-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib,

ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘liqroq, aniqroq, bo‘rttiribroq.

G‘azal — (arab. “ayollarga sevgi va munosabat izhor qilish”) asosan ishq – muhabbatni kuylovchi, muhabbat kabi judayam qadimiy, doimo yangi bo‘lgan lirik she’rdir.

Sheva so‘z – (mahalliy so‘zlar) muayyan bir xudduda yashovchi kishilarga, ularning shevasiga xos bo‘lgan, adabiy tilga mansub bo‘lmagan so‘z va iboralardir.

ADABIYOTLAR:

1. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Quror//Xalq so‘zi, 2017 yil 13 sentabr.
2. Karimov H. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.—T.: Yangi davr, 2010.
3. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 38 б.
4. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц.ф.д...диссертация автореферати. – Т., 2005. – 56 б. – Б.33.
- 5.Йоҳанн Петер Эккерман. Гёте билан гурунглар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2012. – №12. – Б.68-93.
6. Герцен. Без чтения нет настоящего образования, нет и не может быть ни вкуса, ни слога, ни многосторонней ширы понимания; Гете и Шекспир равняются целому университету. Чтением человек переживает века... [Изоматериал]: [плакат] / худож. С. А. Бродо, Д. Г. Цирин. – Москва: Книга, 1991. – 1 л.
7. Асмус В.Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М., 1999. – С.62-72.
8. A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. - Toshkent: 1997. 9-bet.
9. Kaykovus. Qobusnoma. — Toshkent: O‘qituvchi, 1986. 45-bet.
10. Бутенко И.А. Читатели и чтение на исходе 20 века: социологические аспекты. – Москва: Наука, 1997. – 132 с.
- 11.Nizomiddin Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007, 164-bet.
12. S.Inomxo‘jayev, A.Zunnunov. Ifodali o‘qish asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 58-bet.
13. Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). — T.: Yangi asr avlod, 2007.
- 14.Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III to‘m. - Toshkent: Fan, 1982.
- 15.Abu Nasr Forobi. Risolalar. -Toshkent: 1975
- 16.Qobiljon Oripov, Mahmuda Obidova. Ifodali o‘qish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
17. Ziyoda Masharipova. Ifodali o‘qish praktikumi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti — 2011-y.
- 18.Turakulova O.A. Adabiy ta’lim jarayonida akademik litsey o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.f.f.d (PhD)...dissertatsiyasi. – Т., 2020. – 16 б. – Б.20.

19. Jumayeva S. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. O‘quv qo‘llanma — Qarshi.: 2021.
20. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. —T.: Yangi asr avlod, 2011.
21. Bekmirzayev N. Notiqqlik san’ati asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
22. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — T.: O‘qituvchi nashriyoti. 1980.
23. Tronskiy I.M. Istorya antichnoy literaturi. — M: Vissaya shkola, 1988.
24. To‘xliyev B. Ifodali o‘qish. — Toshkent.: Bayoz. 2008.
25. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. —Toshkent.: O‘qituvchi.1995.
26. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. — T.: O‘qituvchi, 1982.
27. Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘ofir Qosimov, Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma.— T.: 2017 B-215-222
28. Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008-y.
29. Adabiyotshunoslik lug‘ati.— T.: Akademnashr, 2010.
30. Nemis adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. — Farg‘ona: 2004.
- 31.Xolbekov M. Onore de Balzak va “Insoniyat komediysi ”// Jahon adabiyoti 2009. №1
32. Stendal. Qizil va qora. 1830-yil xronikasi. — T.: Adab va san’at nashriyoti, 1979.
- 33.O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek filologiyasi fakulteti. O‘zbek adabiyoti kafedrasi. “Ifodali o‘qish” maruzalar matni. Navoiy 2008.
- 34.Beruniy A. Tanlangan asarlar. III tom. — T.: Fan, 1982. 64-bet.
- 35.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. !— Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983, 32-bet.
- 36.Abu Nasr Forobi. Risolalar. —Toshkent: 1975, 54-bet
- 37.Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. O‘quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020
- 38.Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII tom.—Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966,42-bet.
- 39.Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Kornilov tajjimasi). — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 57-58-betlar.
- 40.Kaykovus, “Qobusnama”. — Toshkent, “Meros” 1992 y. B.98
41. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. Shahrисабз. 2020
42. Hamidov Z. Navoiy badiiy san’atlari. — T.: Universitet. 2001
43. Fitrat. Navoyining forsiy shoirligi va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T. 2000

44. Hojiahmedov A. Xamsa. To‘plam. – T.: Yangi asr avlod. 2010
45. O.A.Turakulova. Adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish. Uslubiy qo‘llanma, T.: 2019
46. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “O‘zbek adabiyoti” ma’ruzalar matni. Nukus. 2011
47. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati. O‘quv-uslubiy majmua. NTDPU.T.: 2020
48. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиков X., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир ҳайъати: Азизхўжаев А. – Т.: Шарқ, 2000, - Б 258.
49. “O‘zbek adabiyoti” ma’ruzalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.
- 50.Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари). К.2: — Т.: “Шарқ”,2003, - Б. 288 – 290
- 51.Oybek. Tug‘ma adib. — “Fan va turmush” jurnali, 1967-yil, 7-son, 23-bet.
- 52.Habibulla Qodiriy. Otam haqida. — Т.: O‘zadabiyashr, 1983, 55-bet.
- 53.Uslubiy qo‘llanma. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. T.: 2018
- 54.Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –Т., “Yangi nashr”, 2010. 4 б. – Б 146-148.
55. Sotiboldiyev Sh. A. Mustaqillik yillarda yaratilgan o‘zbek romanlarida ijtimoiy-madaniy hayotning aks ettirilishi. Namangan.: 2014
- 56.Sh. Xolmirzaev. Quyosh falakda kezib yuribdi. Hikoya. “Yoshlik”. 1997 yil, 1-son
- 57.Ulug“ saltanat” ning yorqin yog‘dusi. Yoshlik jurnali. 2017 yil 9-son
- 58.Темур тузиклари. — Т.,1996, йил, 113 -бет
- 59.Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.—Т.: Yangi davr, 2010.B 5-6
- 60.“O‘zbek adabiyoti” ma’ruzalar matni. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut. 2011.
- 61.“Hayrat ul- abror”, — Т.: 1974, 73-bet.
- 62.XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik.T. 1999.
- 63.Karimov N. va boshqalar. “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”. -Т.: „O‘qituvchi“, 1999.
- 64.O. Hojiyeva. Tavallud taronasi.- Т.: 2007 yil, 27-bet
- 65.A.Oripov. Tanlangan asarlar, 4-tom. 74 bet
- 66.Q.Rahimboyeva. Ozod O‘zbekiston // Yozuvchi gazetasi, 1999-yil, 10-mart.
- 67.Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Т.: Sharq, 2006.
- 68.Karimov H.Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti.-Т.: Yangi davr, 2010.B . 302-303
- 69.Комил Аваз. Хива дилбанди. - Т.: Ёзувчи. 1997. 7-бет

70. Genette G. Paratexts. Thresholds of Interpretation. (tr. J.E.Lewin)
Cambridge: CUP, 1997. – 453 p.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.
2. <https://m-eng.ru/uz/cesspool/krym-istoriya-poluostrava-kak-razvivalsya-krym-i-kakova-istoriya-ego.html>
3. https://hozir.org/k-d-ushinsky-aqliy-axloqiy-tarbiya-va-uning_vositalari-haqida.html?page=4
4. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlilish-kursishi/item/14054-istiqlol-adabiyoti>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tog%CA%BBay_Murod.
6. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/muhammad-ali-1942/>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Komediya>
8. <https://uz.wikipedia.org › wiki>
9. https://hozir.org/odil-yoqubov.html#Adib_dramaturgiyasi
10. Moyer E. Jessica. “Teens Today Don’t Read Books Anymore”: A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Part 1, Introduction and Methodology //
<http://www.yalsa.ala.org/jrlya/2010/11/>

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	4
“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish”. Fanining maqsadi va vazifalari. Ifodali o‘qish san’atining matnni tahlil qilishdagi o‘rni.....	5
Qadimgi yunon va rim mifologiyasi. Ularning ijtimoiy-badiiy tafakkur tarixida tutgan o‘rni.....	13
Ilk yozma adabiy yodgorliklar. Antik davr ijodkorlari: Herodotning “Tarix”, Homerning “Iliada”, “Odissey” dostonlari, Arastu va Aflatunning adabiy qarashlari, bu mualliflarning dunyo badiiy dunyo badiiy tafakkuriga qo‘sghan hissasi. Platon, Suqrot asarlarida notiqlik masalasi talqini.....	26
XX asr boshlaridagi Yevropa adabiyoti. Modernizm. F. Stendalning “Qizil va Qora” yevropada teatr san’atining rivojlanishi va dramaturgiya janrining adabiy jarayonga ta’siri. V.Shekspir ijodi.....	32
Mutolaa va voizlikning sharq madaniy tafakkurida tutgan o‘rni. O‘rta Osiyoda notiqlik san’ati. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn voiz Koshifiy va voizlik.....	54
Alisher Navoiy asarlarda voizlik san’atining ulug‘lanishi. Alisher Navoiy ijodi.....	73
Turkistonda jadidchilik harakati: M.behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir ijodi misolida. Abdurauf Fitrat, Hamza ijodi.....	83
Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti: nasr.....	107
Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti: nazm.....	125
Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti: dramaturgiya.....	142

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие.....	4
«Культура чтения и выразительное чтение». Цели и задачи науки. Роль выразительного чтения в анализе текста.....	5
Древнегреческая и римская мифология. Их место в истории общественно-художественной мысли.....	13
Первые письменные литературные памятники. Древние писатели: «История» Геродота, «Илиада» и «Одиссея» Гомера, литературные воззрения Аристотеля и Платона и их вклад в мировую художественную мысль.	
Платоновская интерпретация проблемы ораторского искусства в творчестве Сократа.....	26
Европейская литература начала XX века. Модернизм. Влияние «Красное и черное» Ф. Стендalu на развитие театрального искусства в Европе и влияние жанра драмы на литературный процесс. Творчество В.Шекспира.....	32
Роль чтения и проповеди в восточной культурной мысли. Публичные выступления в Центральной Азии. Ходжа Муайяд Мехнагий, Мавлана Риязи, проповедник Хусейн Кашифи и проповедь.....	54
Прославление Алишером Навои искусства проповеди. Творчество Алишера Навои.....	73
Джадидское движение в Туркестане: на примере творчества М. Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидова, Чулпона, Абдулла Кодири, Усмона Насира. Творчество Абдурауфа Фитратса, Хамзы.....	83
Узбекская литература периода независимости: проза	107
Узбекская литература периода независимости: поэзия.....	125
Узбекская литература периода независимости: драматургия.....	142

CONTENTS

Foreword.....	4
Reading Culture and Expressive Reading. Goals and tasks of science. The role of expressive reading in text analysis.....	5
Ancient Greek and Roman mythology. Their place in the history of social and artistic thinking.....	13
The first written literary monuments. Ancient writers: "History" of Herodotus, "Iliad" and "Odyssey" of Homer, literary views of Aristotle and Plato and their contribution to world artistic thinking. Plato's interpretation of the problem of oratory in the work of Socrates	26
European literature of the early twentieth century. Modernism. The influence of "Red and Black" by F. Stendhal on the development of theatrical art in Europe and the influence of the drama genre on the literary process. Creativity of W. Shakespeare.....	32
The role of reading and preaching in Eastern cultural thinking. Public Speaking in Central Asia. Khoja Muayad Mehnagi, Mavlan Riyazi, preacher Hussein Kashifi and preaching	54
Glorification of the art of preaching by Alisher Nava'i. Creativity of Alisher Nava'i.....	73
The Jadid movement in Turkistan: on the example of the works of M. Behbudi, Munavvarkori Abdurashidov, Chulpon, Abdulla Kodiri, Usmon Nasir. Creativity of Abdurauf Fitrat, Hamza.....	83
Uzbek literature of the independence period: prose.....	107
Uzbek literature of the period of independence: poetry.....	125
Uzbek literature of the period of independence: dramaturgy.....	142

FOR AUTHOR USE ONLY



yes I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 20455

info@omnascriptum.com
www.omnascriptum.com

OMNI**S**criptum



